

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

---

**B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov**

# **MEHNAT HUQUQI**

*Darslik*

**TOSHKENT - 2020**

UO'K 349.2(075)(575.2)

KBK 0000  
000

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan.

Yuridik fanlar doktori, professor **J.T.Holmuminov** umumiy tahriri ostida.

**Mualliflar jamoasi:**

1. **yu.f.n. dots. X.V.Burxanxodjaeva, G.K. Sarimsakova** -1,2-mavzular;
2. **M.P. Ibragimova** - 3-mavzu;
3. **U.B. Abduraxmanov** - 4-mavzu;
4. **G.K. Sarimsakova**- 5-6 mavzular;
5. **M.M.Karimjonov** - 7-mavzu;
6. **D.S.Atajanova** - 8-mavzu;
7. **M.A.Raximov** - 9-mavzu;
8. **B.D.Raximberganova** - 10-mavzu;
9. **yu.f.n. dots. X.V.Burxanxodjaeva** - 11-mavzu.

**Taqrizchilar:**

*yuridik fanlari nomzodi*, dotsent O.Narzullaev  
*yuridik fanlari nomzodi*, dotsent M.A.Aminjonova

**Mualliflar jamoasi**

000 Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYU nashriyoti, 2020.  
- 282 bet.

Darslikda mehnat huquqining umumiy va maxsus qismining institutlari  
amaldagi mehnat huquqiga oid normalar asosida ishlab chiqilgan va ular- ni  
amaliyotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan bo‘lib, yuridik kollej  
talabalari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K 349.2(075)(575.2)  
KBK 0000

ISBN 978-9943-00000

© Mualliflar jamoasi, 2020  
© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2020

**M U N D A R I J A**

## I MAVZU

1- .....	§
. Mehnat huquqining predmeti .....	9
2- .....	§
. Mehnat huquqining uslublari .....	14
3- .....	§.
Mehnat huquqining tizimi .....	17
4- .....	§
. Mehnat huquqining asosiy funksiyalari .....	20
5- .....	§
. Mehnat huquqining prinsiplari va manbalari .....	23

## II MAVZU

1- .....	§.
Mehnatga oid huquqiy munosabatlar .....	39
2- .....	§.
Mehnat huquqining subyektlari .....	43

## III MAVZU

1- .....	§
Umumiy tushunchalar va qoidalar.....	51
2- .....	§
Jamoa shartnomasining taraflari, tuzilish tartibi hamda uning mazmuni .....	55
3-     § Jamoa kelishuvlari va ularning ijtimoi sherikchilik munosabatlarining tartibga solinishidagi o‘rni .....	61

## IV MAVZU

1- .....	§.
Mehnat shartnomasi tushunchasi.....	69
2- .....	§.
Mehnat shartnomasining shakli va muddatlari. ....	73

3- §. Mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish .....	75
4- ..... §.	
Xodimni boshqa ishga o'tkazish tartibi .....	84
5- ..... §.	
Mehnat shartnomasini bekor qilish.....	87
6- ..... §	
. Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilish 88	
7- §. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslari va tartibi .....	91
8- ..... §	
. Mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilish .....	102

## V MAVZU

1- ..... §.	
Ish vaqtি tushunchasi va uning turlari .....	117
2- ..... §.	
Ish vaqtining qisqartirilgan muddati .....	119
3- ..... §.	
To'liqsiz ish vaqtি. ....	122
4- ..... §	
. Ish vaqtি rejimi .....	123
5- §. Ish vaqtini hisobga olib borishning tushunchasi va turlari. ....	124
6- ..... §.	
Tungi vaqt dagi ish. ....	125
6- ..... §.	
Ish vaqtidan tashqari ish. ....	126

## VI MAVZU

1- ..... §.	
Dam olish vaqtি tushunchasi va turlari .....	133

2- .....	§.
Ta'tillar tushunchasi va uning turlari .....	138
3- §. Mehnat ta'tillari muddatini hisoblab chiqarish tartibi .....	142
4- §. Ta'tillar uchun haq to'lash. Foydalanimagan ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lash .....	147
5- .....	§
Ijtimoiy ta'tillar turlari.....	148

## **VII MAVZU**

1- .....	§
. Mehnatga haq to'lash .....	158
2- .....	§.
Kafolatli to'lovlар va kompensatsiya to'lovlari.....	171

## **VIII MAVZU**

1- .....	§.
Mehnat intizomi tushunchasi va uning ahamiyati .....	188
2- .....	§.
Mehnatdagi yutuqlar uchun rag'batlantirish .....	193
3- .....	§
. Intizomiy jazolarni qo'llash tartibi .....	197

## **IX MAVZU**

1- §. Moddiy javobgarlik tushunchasi va uning mohiyati .....	207
2- §. Ish beruvchining moddiy javobgarligini yuzaga kelish shartlari .....	212
3- §. Xodimning moddiy javobgarligi va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	218

## **X BOB**

1- §. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uning
---

ahamiyati.....	228
2- §. Mehnat muhofazasi sohasidagi davlat siyosati va boshqarushi.....	230
3- §. Xodimning mehnat muhofazasiga doir huquqlari va uni ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar .....	235
4- §. Xodim va ish beruvchining mehnat muhofazasiga oid majburiyatlari .....	240

## **XI MAVZU**

1- §. Mehnat nizolari tushunchasi va uning tasnifi .....	249
2- §. Mehnat nizolarini ko'rish va hal qilish prinsiplari	253
4- §. Mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasida ko'rish .....	259
5- § Yakka mehnat nizolarini sudda ko'rish tartibi .....	262
5-       §. Mehnatga oid nizoli ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar .....	265
6- ..... §. Mehnatga oid nizoli ishlarda muddatlar .....	267
7-       §. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori va ularni ijro etish xususiyatlari .....	272

## **KIRISH**

*Yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas'uliyatni ham chuqur his etishimiz zarur. Bunga erishish esa, faqat va faqat o'zimizga bog 'liq.*

## **SH.M.Mirziyoev**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni tarbi- yalashga qaratilgan.

Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va tur- mushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tka- zishda jamiyat ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy- ma'naviy yangilanishining muhim subyekti bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash alohida ahami- yatga ega.

Shu o'rinda yuridik kolleji talabalarining huquqshunos- lik sohasida har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida shakllanishida huquq sohalarini mukammal o'zlashtirish- lari talab etiladi.

Shu ma'noda, bugungi kunda mohiyati jihatidan tub- dan o'zgarib borayotgan mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan to'la-to'kis o'rganishni taqozo etadi.

Zero, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida aholining bandligi, mehnat munosabatlarining to'g'ri tashkil etilishi, xodimlar mehnat huquqlarini ta'minlanishi mehnat unumдорligini oshishiga, ishlab chiqarishning rivojlanishiga, sof raqobat muhitin- ing vujudga kelishiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining yaxshilanishiga, pirovard natijada aholining tur- mush sharoitining yuksalishiga ta'sir ko 'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-mod- dasida «har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli

mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsa- tilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega» ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

Asosiy qonunimizning ushbu qoidasi respublikamiz- da mustaqillik yillarda qabul qilinib, takomillashtirilib kelayotgan qonunlarimizning va boshqa normativ hujjat- larimizning mazmun-mohiyatida o'z ifodasini topib kel- moqda, xususan postsoviet davlatlari ichida birinchilar- dan bo'lib qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi ham shular jumlasidandir.

Aynan bo'lajak yuridik soha mutaxasislarining mehnat sohasidagi qonunchilikni bilishi, ularni tahlil qila olishi va ularni amaliyotda qo'llay olishini taqozo etadi.

Ushbu darslik yuridik kollej talabalari uchun mo'ljal- langan bo'lib, «Mehnat huquqi» dasturi asosida tayyor- langan.

Darslikni tayyorlashda mualliflar jamoasi yangi avlod darsliklariga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, O'zbeki- ston Respublikasining mehnat sohasidagi qonunchilikka tayandilar.

Darslikda har bir mavzu yuzasidan nazariy masalalarni yoritish bilan bирgalikda talabalar shu mavzuni o'zlashtirishlarini mustahkamlash maqsadida asosiy tushunchalar, sxemalar va mavzu yuzasidan amaliy ko'nikmalarни shakllantirish va o'zining bilimini tekshirib ko'rish uchun savollar ham berilgan.

*Mualliflar jamoasi*

## I MAVZU.

### **MEHNAT HUQUQINING PREDMETI, USLUBLARI, TIZIMI VA ASOSIY FUNKSIYALARI. MEHNAT HUQUQINING PRINSIPLARI VA MANBALARI**

Mehnat huquqining predmeti. Mehnat huquqining uslublari.

Mehnat huquqining tizimi. Mehnat huquqining asosiy funksiyalari. Mehnat huquqining prinsiplari va manbalari.

#### **1- §. Mehnat huquqining predmeti**

Mehnat huquqi alohida huquq tarmog'i sifatida o'zin- ing predmetiga va uslubiga ega. Har qanday huquq tar- mog'i

muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquq tarmog‘ini predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi nor- malar bilan qamrab olinishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan har qanday mehnat ham, mehnat huquqiy mu- nosabat ham mehnat huquqining predmetini tashkil etadi, deb ayta olmaymiz. Masalan, bir shaxsning mehnati nati- jasida san'at asari yaratildi, fuqaro o‘zining tomorqasida mehnat qilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtir- di, ilmiy asar yaratildi. Yuqorida keltirilgan misollarim- izning hammasini zamirida mehnat yetibdi. Xo‘sh, ushbu mehnat bilan bog‘liq munosabatlar mehnat huquqining predmetini tashkil etadimi?

Keltirgan misollarimizda, insonning o‘zi uchun xi- zmat qiluvchi, ya‘ni san'at asarining yaratilishi, to- morqada yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsuloti, ilmiy asarning mustaqil yaratilishi ham tashkiliy, boshqaruv va huquqiy ta'sirdan holi bo‘lib, bularning birontasida ham davlatning ishtirokini ko‘rmayapmiz. Bularning hech biri mehnat huquqining predmetini tashkil eta olmaydi.

Ijtimoiy munosabatlar mehnat huquqining predmetini tashkil etishi uchun uning o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘li- shi talab etiladi. Inson davlat tomonidan o‘rnatilgan nor- malarga, tartib- qoidalarga bo‘ysungan holda o‘zining zim- masiga muayyan huquq va majburiyatlarni olib, mehnati evaziga haq olish huquqini qo‘lga kiritish asosida mu- nosabatlarga kirishganda mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy maydonga kirib keladi. Chunki davlat tomoni- dan kafolatlangan mehnat huquqiga ega bo‘lish, o‘zining xohishi irodasiga muvofiq kasb tanlashi, istagiga muvofiq mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi, bunda mehnat sharoit- larining va samarali mehnat muhofazasining yaratilgan bo‘lishi, qilgan mehnatlari evaziga davlat tomonidan bel- gilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan kafolat- langan ish haqini olishi bilan belgilanadi. Bu munosabat- da kamida ikki tomonning bir- biriga nisbatan huquq va majburiyatları vujudga keladi.

Mehnat munosabatlari mehnat huquqining predmeti sifatida quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, bu munosabatlar xodimning korxonada o‘rnatalgan ichki tartib- qoidalarga bo‘ysunishi asosida amalga oshiriladi;

ikkinchidan, xodim aniq bir korxonaning jamoasi tarkibiga kiritiladi;


uchinchidan, xodimning jamoa tarkibiga kirishi alo- hida yuridik faktga asoslanadi (mehnat shartnomasining tuzilishi, lavozimga saylash to‘g‘risidagi normativ hujjat va b. )

to‘rtinchidan, mehnat munosabatlarning mazmuni xo- dim tomonidan muayyan mutaxassislik, malaka va la- vozimga oid aniq bir ishni bajarishni nazarda tutadi.

Demak, mehnat huquqining predmeti sifatida mehnat munosabatlari yollanma mehnatga asoslanadi. Mehnat munosabatlari mustaqil mehnatga asoslangan holatlarda, mehnat huquqining predmetini tashkil qilmaydi.

Mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi muno- sabatlar tizimi ushbu mehnat munosabatlari vujudga kel-

guniga qadar, ular bilan bir vaqtida yoki ulardan kelib chiqqan holda vujudga kelishi mumkin.



***Mehnat munosabatlari vujudga kelgunga qadar vu-judga keladigan munosabatlar*** mehnat munosabatlarining vujuga kelishi uchun zamin yaratuvchi, ma'lum darajada boshqaruv bilan bog'liq munosabatlar sifatida qaralishi mumkin. Bu munosabatlar mehnat munosabatlarigacha vujudga keladi, rivojlanadi va mehnat munosabatlari vu-judga kelishi bilan bekor bo'ladi. Masalan, bandlik, ishga joylashtirish bilan bog'liq munosabatlar.

***Ishga joylashtirish bilan bog'liq munosabatlar*** ij-timoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qo-dir bo'lмаган shaxslarga, shu jumladan o'n to'rt yoshga to'lмаган bolalari va nogiron bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalarga hamda ko'p bolali ota-onalarga; o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek kasb-hunar ta'limi muassasalarining va oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilariga; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar- ga; nogironlarga va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslarga; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilin-gan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslarga; odam savdosidan jabrlarni ishga joylashtirishda vujuga keladi.

Bugungi kunda *ishga joylashtirishni: davlat* (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, uning hududiy organlari tomonidan); *xususiy* (xususiy bandlik agentliklari) va *shaxsiy* shakllarini ajratib tasniflash mumkin. Bu munosabatlar mehnatga oid ijtimoiy munosabatlardan ilgariroq

namoyon bo‘ladi. Biroq, aholini ish bilan ta'minlashga doir munosabatlar mehnat huquqi predmetining ajralmas qismini tashkil etadi.

«Aholini ish bilan ta'minlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining (yangi tahrirdagi) Qonuni ishga joy- lashtirish tizimini takomillashtirish, fuqarolarning ish bilan ta'minlanishi, kasb va mashg‘ulot turini tanlashi va ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy tayyorgarligi hamda ma’lu- motiga muvofiq, mehnat sohasidagi kafolatlangan huquqlari ning ro‘yobga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.


Mazkur qonunda, ish qidirayotgan va mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolar ta'minlanadigan ish turi- ni, ish joyini va mehnat rejimini erkin tanlash maqsadida kasb-korga doir bepul maslahatlar olish, kasbga tayyor- lashdan, qayta tayyorlashdan o‘tish, malaka oshirish ham- da tegishli axborot olish huquqiga ega, ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Qonunda aholini ishga joylashtirish, qayta o‘qitish va kasbga yo‘naltirishning umum davlat tizimini yaratish ko‘zda tutilgan. Mazkur qonunga binoan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining viloyat, shahar va tumanlarda mahalliy mehnat organlari tashkil etilgan. Mahalliy mehnat organlarining zimmasiga fuqarolarning kasb tayyorgarligi, ixtisosi va shaxsiy istaklariga muvofiq ish bilan ta'minlashga ko‘maklashish, korxona, muassasa va tashkilotlarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji to‘g‘risida aholini xabardor qilish, ishchi kuchi va mehnat zaxirasi- dan oqilona foydalanishni nazorat etish kabi funksiyalar yuklangan.

***Mehnat munosabatlari bilan birga vujudga keluvchi munosabatlar*** aynan mehnat shartnomasiga asoslangan munosabatlar, masalan kadrlarni tayyorlash va malakasi- ni oshirish, mehnat muhofazasi bilan bog‘liq va boshqa munosabatlar.

Mehnat munosabatlari bilan birga vujudga keluvchi munosabatlarni vujudga kelish, rivojlanish va bekor

bo‘lish vaqtiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mum- kin:



*Mehnat munosabatlariidan kelib chiqgan munosabatlarni* asosan mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin vujudga keladigan munosabatlar tashkil qiladi. Bu munosabatlarga:

- mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarning moddiy javobgarligi bilan bog‘liq munosabatlar;

- xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qil- inganda sud tomonidan mehnat nizolarini hal qilish bilan bog‘liq munosabatlar kiradi.

Bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayot- gan bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida mehnat huquqiy munosabatlar doirasining o‘zgarib borishi mehnat huquqi predmetini kengayishiga olib keladi. Xu- susan, yangi informatsion texnologiyalarning kirib kelishi bilan xodimlar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilinishi bilan bog‘liq munosabatlar, distansion mehnat munosa- batlari, mehnat sohasida ijtimoiy sherikchilik, xodimlarn- ing mehnat huquqlarini o‘zi tomonidan himoyalanishi, mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq va boshqa munosabat- lar vujudga kelmoqda.

Shunday qilib, *mehnat huquqining predmetini mehnat shartnomasi asosida vujudga keladigan mehnat munosabatlari va u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa mu- nosabatlar tashkil qiladi*.

## 2- §. Mehnat huquqining uslublari

Mehnat huquqining predmeti ushbu huquq tarmog‘i qanday ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishini ko‘rsat- sa, mehnat huquqining uslubi esa ushbu ijtimoiy munos- abatlarga qanday usul va vositalar yordamida ta'sir o‘tka- zilishi mumkinligini anglatadi.

Demak, *mehnat huquqining uslublari deb, mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish usul va vositalarining yig‘indisi tushuniladi*.

Huquqiy tartibga solish uslublari tuzilishining komponentlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:


a) huquqiy tartibga solish chegaralarining aniq belgi- lanishi;

b) munosabat subyekt (ishtirokchi)larining huquq va majburiyatlarini normativ aktlarda belgilab qo‘yilishi;

v) munosabat ishtirokchilarining huquqiy layoqati va muomala layoqatlarini belgilanishi;

g) mazkur belgilangan holatlarga rioya etilmaganda, qo'llanilishi mumkin bo'lgan javobgarlik choralarini belgilab qo'yilgan bo'lishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mehnatga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishning quyidagi usullarini ko'rsatib o'tish joiz:



Yuqorida mehnat munosabatlarini tartibga solishning usullari sifatida keltirilgan markazlashtirilgan hamda lo-kal normalarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi - *davlat tomonidan tartibga solish, shartnomaviy tartibga solish hamda lokal tartibga solishni* qamrab oladi.

Bunda:

*davlat tomonidan tartibga solish* vakolatlari organlar tomonidan qonunlarni va qonunosti normativ aktlarni qabil qilinishi bilan amalgalashuvda oshiriladi;

*shartnomaviy tartibga solish* turli darajada jamoa keleshuv (hududiy, tarmoq va bosh kelishuv)larini tuzishda namoyon bo'ladi;

*lokal tartibga solish* bu aniq bir korxona kesimida amalgam shirilib, shu korxonaning ish beruvchi va xodimlari uchun huquq va majburiyatlarni belgilaydi. Masalan, ichki - tartib qoidalar, mehnatga haq to‘lash to‘g‘risida, mukofotlash to‘g‘risidagi nizomlarni keltirish mumkin.

Bozor munosabatlari ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida asosan *mehnatning shartnomaviy xarakteri, uning shartlarini belgilanishini* taqozo etadi. Turli darajalardagi ijtimoiy-sheriklik kelishuvlari tegishli ijtimoiy sheriklar xodimlari, jamoalari va kasaba uyushmalari uchun muayyan kafolatlar darajasini aniqlaydi. Jamoa shartno-masi lokal normalarni o‘z ichiga olib, ular u yoki bu ish beruvchining xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi. Mehnat shartnomasi esa xodim bilan ushbu ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini vujudga keltiradi.

*Mehnat shartnomalari taraflarining teng huquqlili-gi, ularning ichki mehnat tartibi qoidalariga bo‘ysunishi.* Barcha mehnat shartnomalarining taraflari o‘zaro va qonun oldida teng huquqlidirlar. Shu bilan birga xodim mehnat shartnomasining shartlaridan biri sifatida o‘zining zimma-siga yuklatilgan vazifalarini ichki mehnat tartibi qoidalariga iga muvofiq bajarishi shart. Xodimning ichki mehnat tar-tibi qoidalariga bo‘ysunishi shartligi uslubi xodimning ish beruvchiga nisbatan subordinatsiya saqlashi, bo‘ysunuvini taqozo etadi. Bu esa xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi murakkab mehnat munosabatlarini tashkil etadi.

*Mehnatni huquqiy tartibga solish protsessida xod-imlarning o‘z vakillari orqali ishtiroki.*

Xodimlar kasaba uyushmalari va boshqa jamoa or-ganlari orqali quyidagi holatlarda:

mehnat qonunchiligiga muvofiq lokal normativ hujjatlarni qabul qilish va qo‘llashda;

ularni ijrosini nazorat qilishda;

mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish (masalan, mehnat nizolari komissiya-si)da ishtirok etadi.

*Mehnat huquqlarini himoya qilishning o‘ziga xosligi* mehnat munosabatlari chog‘ida buzilgan huquqlarni himoya qilish

sohasida kasaba uyushmalariga huquq va va- kolatlar berilganligi bilan, mehnat nizolari yuz berganida xodim huquqlari ish beruvchining huquqlariga nisbatan ustuvorroq deb qaralishida va xodimga imtiyozliroq sha- roit yaratilganida ko‘zga tashlanadi.

Yakka mehnat nizolarining odatdagidan farqli rav- ishda korxonaning bevosita o‘zida tashkil etilgan organ (Mehnat nizolari komissiyasi) tomonidan ham himoya qilinishi mumkinligi mehnat huquqi uslubini belgilab be- ruvchi jihatlardan sanaladi.

### 3-        §. Mehnat huquqining tizimi

Mehnat huquqi - *huquq tarmog‘i* sifatida mehnat munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar va huquq institutlarining yig‘indisidan iborat. Mehnat huquqi *fan* sifatida mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi.

Mehnat huquqi *qonunchilik tizimi* sifatida mehnat huquqining mazmuni va ichki tarkibiy tuzilishini mustah- kamlovchi, rasmiylashtiruvchi, moddiylashtiruvchi norma- tiv-huquqiy hujjatlar yig‘indisini tashkil etadi.

**Mehnat huquqining tizimi** deganda, mehnat va u bilan bog‘liq bo‘lgan normalarni va ilmiy jihatdan aso- slangan tarzda joylanish tartibi va klassifikatsiyasi tush- uniladi. Bu tizim ikki qismga: *umumi* va *maxsus* qism- larga bo‘linadi.

*Umumi* qismda mehnat huquqi predmeti, usul- lari, funksiyalari, asosiy manba va prinsiplari, mehnat huquqining subyektlari, mehnatga oid huquqiy munosa- batlar, ijtimoiy sherikchilik hamda uni amalga oshirilish shakllari, xodimlar va ish beruvchilarning vakilligi, ja- moa shartnomasi va kelishuvlari, ularni tuzish kabi insti- tutlarga taalluqli huquqiy normalar o‘rganiladi.

*Maxsus* qismi esa, mehnatga oid munosabatlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan, aniq turini ifodalovchi in- stitutlar hamda umumlashtiruvchi tushunchalarni o‘z ich- iga qamrab oladi.

Ular jumlasiga:

- 1) aholini ishgaga joylashtirish;
- 1) mehnat shartnomasi(kontrakt);
- 2) ish vaqt;
- 3) dam olish vaqt;
- 4) mehnatga haq to‘lash;
- 5) kafolatli to‘lovlar va kompensatsiya to‘lovlar;
- 6) mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javob- garligi;
- 7) mehnat intizomi;
- 8) mehnat muhofazasi;
- 10) ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan qo‘sishim- cha kafolat va imtiyozlar;
- 11) mehnat nizolari kabi institutlar kiradi.

## Mehnat huquqining tizimi

P	Umumiy qism	Maxsus qism
	mehnat huquqi predmeti, usullari, funksiyalari, asosiy manba va tamoyillari, mehnat huquqining subyektlari, mehnatga oid huquqiy munosabatlар, xod- imlar va ish beruvchilarning vakilligi, jamoa shartnomasi va kelishuvlari kabi insti- tutlarga taalluqli huquqiy normalar o‘rganiladi.	aholini ishga joylashtir- ish, mehnat shartnomasi, ish vaqt, dam olish vaqt, mehnatga haq to‘lash, kafolatli to‘lovlar va kompensatsiya to‘lovlar, mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi, mehnat intizomi, mehnat muhofazasi, mehnat nizolari kabi masalalar o‘rganiladi.

*Mehnat huquqi fanining va mehnat qonunchilik tar- mog‘i tizimlari asosan o‘zaro mos keladi.*


Mehnat huquqi fani tizimi doirasida huquqiy norma- lardan tashqari mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solish sohasidagi xalqaro huquqiy normalar, Xalqaro Mehnat Tashkilotining konvensiya va tavsiyanomalari, shuning- dek, davlatlararo shartnomalari ham o‘rganiladi.

Shu bilan birga davlat ijtimoiy sug‘urtasi masalalari mehnat qonunchiligi tarmog‘i tizimiga kiritilgan bo‘lsa- da, bu institut huquqshunoslikning alohida sohasi ijtimoiy ta‘minot huquqining predmeti ekanligini qayd etib o‘tish lozim. Mehnat huquqi ijtimoiy ta‘minot munosabatlari bi- lan o‘zaro aloqadorlikda va biri ikkinchisini taqozo qili- shi nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

### 4- §. Mehnat huquqining asosiy funksiyalari

Har qanay huquq tarmog‘ining tavslifini uning funksi- yalari orqali anglash mumkin. Aynan huquq tarmog‘ining funksiyasi uning asosiy mohiyatini, jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini ochib beradi.

Yuridik nuqtai nazardan, ya’ni barcha huquq soha- lariga xos bo‘lgan mehnat huquqi funksiyalarini ikki - *regulyativ* (tartibga soluvchi) va *negativ* (himoyalovchi) turga ajratish mumkin.



**Mehnat huquqning reguliyativ (tartibga solish) funk-siyasi** jamiyat a'zolarining mehnat qilish huquqlarining barchaga maqbul qoidalarini o'rnatish, mehnat munosa- batlarini yuridik jihatdan tashkil etish, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirish- dan iborat. Bu funksiyada mehnat huquqining tabiatni - hoyatda yaqqol aks etadi. Zero, fuqarolar va ish beru- vchilarga huquqiy vakolatlar beriladi, ular shu vakolatlar doirasida erkin faoliyat yuritadilar. Bu chegara qanchalik kengaysa, insonlar shunchalik erkin harakat qiladilar.

Ijtimoiy munosabatlар mavjud ekan, ularni himoya qilish zaruriyati har doim bo'ladi. Huquq hamisha ijti- moiy munosabatlarni muhofaza etish vositasi bo'lib kel- gan. Huquqiy ta'sirning bu yo'nalishi huquqning himoy- alovchi funksiyasini tashkil etadi.

**Mehnat huquqning himoyalovchi funksiyasi** - un- ing ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga yo'naltiriladi va shu bilan birga jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi.


Shu bilan birga mehnat huquqi mustaqil huquq tar- mog'i sifatida o'ziga xos funksiyalarga ega bo'lib, ularni ikki turga, ya'ni ishlab chiqarish (iqtisodiy) va himoy- alovchi funksiyalarga ega. Ishlab chiqarish funksiyasi asosan ish beruvchining manfaatlarini hisobga oluvchi va ta'minlovchi funksiya bo'lib ko'rinsa, himoyalovchi funksiya esa, yollanib ishlayotgan xodimning manfaatla- rini ta'minlaydi. Bu funksiyalar mehnat qonunchiligining vazifalarida namoyon bo'lib, ular O'zbekiston

Respublikasi Mehnat kodeksining 2-moddasida belgilab qo‘yilgan. Ular xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e’tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog‘lig‘i himoya qilin- ishini ta’minlaydi, mehnat unumdarligining o‘sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining mod- diy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko‘makla- shadi.

*Ijtimoiy sherikchilik rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, mehnat huquqining yuqorida keltirilgan ikkita funksiyasi bilan chegaralanib qolib bo‘lmaydi. Bugungi kunda mehnat huquqining funksiyalarini quyidagi turlar- ga ajratish maqsadga muvofiq:*

a) **himoya funksiyasi.** Ushbu funksiya mehnat huquqining asosiy funksiyasi bo‘lib, uning mohiyati mehnat munosabatlarda iqtisodiy jihatdan nisbatan zaifroq bo‘lgan tomon xodimning mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ifoda etadi. Mehnat huquqining ushbu funksiyasi mehnat munosabatlarning barcha davr va bosqichlarida, ya’ni mehnat qonunchiligi normalarini yaratishdan tortib, ularni qo‘llanilishi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, mehnat nizolarini hal qilish va buzilgan mehnat huquqlarini tiklashda ham ko‘riladi;

b) **ijtimoiy funksiya.** Mazkur funksiya mehnat qonun- chiligi normalarini butun jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan yaratilishi va qo‘llanilishini nazarda tutadi. Bu funksiya bandlik va ishga joylash, mehnatning erkinligi prinsipini va u bilan bog‘liq huquqlarni ta’minalash, ish vaqt davomiyligini cheklanishini ta’minalash, mehnatga haq to‘lash, kompensatsiyalarini to‘lash, xavfsiz mehnat sharoitlarini, mehnat muhofazasini va boshqalarni o‘z ichiga qamrab oladi.



v) *iqtisodiy (ishlab chiqarish) funksiyasi.* Bu funksiya mehnat munosabatlarining shunday jihatlariga ta'sir ko'rsatishi kerakki, uning natijasida bu normalar mehnat bozorini samarali ishlashi uchun ish beruvchining man- faatlari nuqtai nazaridan mehnatni va ishlab chiqarishni raqobatbardoshligini oshirishga, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda maksimal daromad keltirishga erishilishini ta'minlashi lozim. Bu funksiya mehnat resurslaridan unumli foydalanish, mehnatning unumdorligi va sifatli amalga oshirilganligi uchun rag'batlantirish, ishlab chiqarish vazifalarini bajarish yuzasidan xodimlarning majburiyatlarini belgilovchi mehnat intizomi va boshqa normalarda ko'rindi;

g) *tarbiyalovchi funksiya.* Bu funksiyaning mohiyati - taraflar mehnat shartnomasiga muvofiq o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini sof, vijdonan va mas'uliyatlilik bilan bajarishlari lozimligini anglatadi. Ushbu funksiya mu-kofotlash, yuqori mehnat ko'rsatkichlari uchun rag'batlantirish, intizomiy va moddiy javobgarlik to'g'risidagi normalar orqali ta'minlanadi;

d) *ijtimoiy sherikchilik va ishlab chiqarish demokratiyasi funksiyasi.* Ushbu funksiya jamoa shartnomalari va ijtimoiy sherikchilik kelishuvlarini tuzish bo'yicha jamoa muzokaralarini olib borish, xodimlarning korxona boshqaruvida ishtiroki

huquqini ta'minlash, kasaba uyushma- lari va boshqa vakillik organlari huquqlari va faoliyatining kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan normalarda o'z aksini topadi.

*Shunday qilib, mehnat huquqining funksiyalari* - mehnat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'naliishlari bo'lib, ularning mazmuni mehnat huquqining mohiyati va jamiyat hayotidagi ijti- moiy vazifasi bilan belgilanadi.

### 5- §. Mehnat huquqining prinsiplari va manbalari

«Prinsip» atamasi lotincha «principium» so'zidan ol- ingan bo'lib «asos, negiz, ibtido» deb tarjima qilinadi. Ko'pgina lug'atlarda biror nazariya, ta'limot, dunyo- qarash va shu kabilarning dastlabki, asosiy qonun-qoi- dasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida deb tushuncha beriladi.

*Huquq prinsiplari* huquqning shakllanib borishi jarayonida, rivojlanishi va harakatda bo'lган jarayondagi rahbariy g'oya, asos, bosh- lang'ich qoida, yetakchi mezon sifatida maydonga chiqadi. Huquq prinsiplari qonunda, huquqiy normalarda o'z tasdig'ini topadigan jamiyatning butun siyosiy-huquqiy hayotiga, mamlakat ijtimoiy tizimiga to'laligicha singib ketadi. Huquq prinsiplari normativ hujjatlarni tayyorlash- ning butun jarayoniga, ularni qabul qilish va e'lon qilish, huquqiy talablarga rioya etish kafolatlari o'rnatilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Huquq nazariyasi prinsiplarni quyidagicha ajratadi:

Prinsiplarni

turlari

Umumhuquqiy prinsiplar	Tarmoqlararo prinsiplar	tarmoq prinsiplar	Huquq tarmog'ining alovida instittlari prinsiplar
------------------------	-------------------------	-------------------	---

Umumiylu huquqiy prinsiplar butun huquq tizimiga xos bo'lib,

bunda tarmoqlararo prinsiplar umumhuquqiy prinsiplarga, o‘z navbatida tarmoq prinsiplari tarmoqlara-ro prinsiplarga va huquq tarmog‘ining alohida institutlari tarmoq prinsiplariga qarshi bo‘lishi mumkin emas. Ular bir-biriga mos bo‘lishi va birini ikkinchisi to‘ldirishi lozim. Umumhuquqiy prinsiplarning asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Barcha prinsiplar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga muvofiq bo‘lishi shart.

*Yugoridagilardan kelib chiqib, mehnat huquqining prinsiplari deganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasi va amaldagi qonunchilikda mustahkamlab qo‘yil-gan asosiy g‘oyalari tushuniladi.*

Ushbu g‘oyalari mehnat huquqi normalarining maz-mumohiyatini va ijtimoiy mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosat- ining asosiy yo‘nalishlarini ifoda etadi. Mehnat huquqining mazmumohiyatidan kelib chiqib, tarmoqlararo huquqiy prinsiplar, huquqning muayyan tarmoqlariga tegishli va mehnat huquqining alohida institutlariga oid prinsiplarga bo‘linadi. Tarmoqlararo prinsiplar huquqning barcha sohasida, shu jumladan, mehnat huquqi sohasida ham amal qiladi.

Mehnat huquqi tarmog‘ining prinsiplari ushbu huquq sohasining normalari mohiyatining umumiyligi xususiyatlari- ni ifodalaydi. Bu kabi prinsiplar alohida-alohida huquqiy institutlar va huquq normalarida mazmuni va qanday maqsadga yo‘naltirilganiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinadi va Respublika milliy qonunchiligi demokratiya va ijtimoiy adolat prinsiplariga tayanadi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi va mehnat huquqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomoni- dan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, shuningdek, 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risi- da xalqaro Paktda bayon etilgan huquq normalari va prinsiplari uyg‘unlashib ketgan.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, 1992-yil 2-martda mus- taqil O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tash- kilotiga a’zo bo‘lgan. Shu vaqt dan u Xalqaro Mehnat Tashkilotining to‘laqonli a’zosiga aylandi. Bugungi kun- gacha O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Mehnat Tash- kilotining 17 ta mehnatga oid Konvensiyasini ratifikat- siya qilgan. Ushbu konvensiyalarining asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi nor- malarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida mehnatga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga doir asosiy prinsiplar aniq belgilab qo‘yilgan. Ular jum- lasiga:

ffl mehnatning erkinligi;

majburiy mehnatning taqiqlanishi;

fuqarolarning mehnat qilish huquqlariga ega bo‘li- shi va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egaligi;

mehnatga oid munosabatlar sohasida hech qanday cheklashlar va kamshitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

mehnat sharoitlarini belgilashda ijtimoiy sherik- chilikning ta’milanganligi;


mehnat qilish huquqlarini himoyasining kafolatlan- ganligi;

mehnat sohasida davlat boshqaruvining ta’milanganligi;

mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va mehnat- ni muhofaza qilish qoidalariiga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish ko‘zda tutilganligi;

Xalqaro shartnomalar va Xalqaro Mehnat Tashkilotining konvensiyalari, qoidalari qo‘llanilishi va boshqa prinsiplarni kiritish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan mehnat huquqining prinsiplari- ni quyidagicha tasniflash mumkin:



Mehnat huquqining asosiy prinsiplari O‘zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasi va huquqning shu sohasiga oid muhim normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 37-moddasida «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyal-anish huquqiga egadir», deb ta’kidlanadi. Ushbu qoida yuqorida ta’kidlanganidek, xalqaro hujjatlar, jumladan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 23-modulni mazmuni bilan uyg‘unlashib ketgan. Unda ta’kidla-nishicha, birinchidan, har bir inson mehnat qilish, ishni o‘z erki bilan tanlab olish, mehnatning adolatli va quay sharoitlari bo‘lishi hamda ishsizlikdan muhofaza etilish huquqiga egadir, ikkinchidan, har bir inson biror bir kamsitishsiz teng mehnatga teng haq olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida mehnat huquqining prinsiplari alohida sanab o‘tilgan nor-ma mavjud bo‘lmaseda, ammo ular alohida tarzda berilgan, masalan, Mehnat kodeksining 6-moddasi mehnatga oid munosabatlarda kamsitishning taqiqlanishi, 7-moddasi majburiy mehnatning taqiqlanishiga bag‘ishlangan. Ayrim hollarda normaning nomida o‘z aksini topmagan bo‘lsa ham, tegishli tarzda normaning mazmunida o‘z ifodasi-ni topgan. Masalan, mehnat sharoitlarini

belgilashda ijti-moiy sherkchilik prinsipi (O'zR MK ning III bobining 21-28-moddalari va IV bobning 29-36-modalari).

Yuqoridagilardan xulosa qilib, mehnat huquqining quyidagi asosiy prinsiplarini ajratishimiz mumkin:

- mehnatning erkinligi va majburiy mehnatning taqilanganligi prinsipi;
- mehnat huquqlarining tengligi va mehnat sohasida kamsitishning taqiqlanishi;
- mehnat sohasida ijtimoiy sherklik;
- mehnat huquqlarini va majburiyatlarini amalga os-hirishning kafolatlanganligi prinsipi;
- xodimning mehnat huquqlarini himoyasining ta'minlanganligi prinsipi.

Davlat va huquq nazariyasida **huquqning manbasi** deganda, umumiylar ma'noda huquqni ifoda etilish shakli tushunilib, **uch xil ma'noda** tushunish mumkin: **moddiy ma'noda** - bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a'zolarining qiziqishlari va man-faatlari; **mafkuraviy ma'noda** - bu turli huquqiy mafkura va ta'limotlar, huquqiy ong; **maxsus yuridik ma'noda** - bu huquqning shakllari.

O'zbekiston Respublikasida huquqning asosiy shakli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»<sup>1</sup>gi Qonunining 3-moddasida normativ huquqiy hujjatga shunday ta'rif berilgan: Normativ-huquqiy hujjat umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Ushbu qonunning 5-moddasida **normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari** ko'rsatib o'tilgan:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarin-ing qarorlari;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 52-son, 583-modda; qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi., 03/19/512/2435- son)

- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- 7) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palata- larining qarorlari qonunlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon- lari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mita- lari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahal- liy davlat hokimiyati organlarining qarorlari - qonun osti hujjatlar sifatida belgilangan (mazkur Qonunning

6- moddasi).

Ma'lumki, normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonun- lar asosiy o‘rin egallaydi. Qonun - davlat oliy vakillik organi tomonidan qabul qilinadigan, eng yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatdir. Shuning uchun mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Konsti- tutsiyasining ustivorligi so‘zsiz tan olinadi. Konstitusiya (asosiy qonun) qonunlarning asosi bo‘lib, oliy yuridik kuchga ega va O‘zbekiston Respublikasining butun hudu- dida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida qonunlar va boshqa nor- mativ- huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas Davlat, uning or- ganlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqa- rolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37, 38, 39, 40- moddalarini mehnat huquqining asosiy manbalari hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 37-moddasida ta'kidlanganidek, «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash,adol- atli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan

himoyalanish huquqlariga egadir». Unda yana sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari, majburiy mehnat taqiqlanadi, deb ko'rsatilgan.

**Fuqaro savoli:**

*Bizning korxonamizda farrosh yo'qligi sababli korxona rahbari xodimlarni ishdan bo'shatish bilan tahdid qilib, ularni xizmat xonalarini tozalashga majburlamoqda. Bu esa bizning xizmat vazifalarimizga kirmaydi, mehnat shartnomasida ham nazarda tutilmagan va buning uchun haq ham to'lanmaydi.*

Direktorning harakatlari qonuniymi?

**Yurist javobi:**

*Yo'q, direktorning harakatlari qonunga zid va ushbu ho- lat majburiy mehnat sifatida baholanadi. Mehnat kodeksining 7-moddasiga asosan, majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan mehnat inti-zomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash taqiqlanadi.*

*O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 177-mod-dasiga asosan ish beruvchi xodimdan uning mehnat vazifasi doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xilof yoki xodim va boshqa shaxslarning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diruvchi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kansituv-chi harakatlar qilishni talab etishga haqli emas.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har kimning mehnat qilish huquqining erkinligini, hech kim majburiy mehnatga jalb qilinishi mumkin emasligini nazarda tutadi. Mazkur qoidaning kiritilishi fuqarolarni mehnat qilishga majbur etishni ta'qiqlovchi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro bitimga, shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1930 yildagi 29-sonli «Majburiy mehnatni taqiqlash to'g'risida»gi hamda 1957 yildagi 105-sonli «Majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risida»gi Konvensiyalariga mos keladi. Konstitutsianing 37-mod-dasida bayon etilgan majburiy mehnatni taqiqlash haqida- gi qoida bir qancha qonun hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Konstitutsianing 38-moddasida mustahkamlangan dam olish huquqidan mehnat shartnomasi (kontrakt) aso-sida mulkchilik va ho'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotda ishlayotgan xodim, shun-ingdek, yakka tartibdagi

tadbirkorga va ayrim shaxslarga yollanib (enaga, uy xizmatchilari, haydovchi sifatida va h.k.) ishlayotgan shaxslar foydalanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaror- lari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qa- bul qilinadi. Aksariyat hollarda bunday qonun hujjati Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarni amal- ga kiritish tartibini belgilaydi. Masalan, «Aholini ish bilan ta'minlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish haqida- gi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi 616-I son Qonuni (ushbu qonun bilan yangi tahrirdagi qonun qabul qilingan), «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi amalga kiritish tartibi to‘g‘risida»- gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 21 dekabrdagi qarori shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz mehnat qonunchiligi sohasida amalda- gi qonunlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi alohida o‘rin tutadi. U mehnat huquqining kodifikatsiyalashtirilgan asosiy manbasi sifatida mehnat huquqi sohasining predmeti doirasiga kiruvchi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 1995 yil 21 dekabrdagi qabul qilingan bo‘lib, 1996 yil 1 apreldan boshlab amalga kiritilgan. Uning 1-moddasida ta‘kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shun- ingdek, jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mulkchilikning barcha shaklidagi korxona, muassasa va tashkilotlarda, shuningdek 18 yoshga to‘lgan ayrim fuqarolar, yakka tartibdagи tadbirkorlarga yollanib mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlayotgan jismoniy shax- slarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga so- linadi.

Mazkur kodeks O‘zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi. Uning 12-moddasida, chet ellik yuridik va

jismoniy shaxslarga to‘liq yoki qisman te- gishli bo‘lgan va mamlakat hududida joylashgan korxo- nalarda O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risida- gi qonun hujjatlari qo‘llaniladi. Bundan tashqari, mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ish beruvchi bilan tuzil- gan mehnat shartnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respub- likasi hududida ishlayotgan chet el fuqarolari va fuqa- roligi bo‘lmaq shaxslarga ham tatbiq etiladi (Mehnat kodeksining 11-moddasi).

Mehnat huquqi manbalari orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga muvofiq, Prezident Konstitutsiya va qonunlarga tayangan holda, ularni ijro etish yuzasidan butun mam- lakat xududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar va qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi («Normati- tiv-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunning 10-modda- si).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijroiya hokimiyat boshlig‘i sifatida chiqargan farmonlari ijroiya hokimiyat tizimida eng yuqori kuchga ega bo‘lgan nor- mativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Farmon yuridik kuchi va ahamiyati jihatidan qonundan keyingi o‘rinda turadi.

Shuni yodda tutish lozimki, Prezidentning faqat normativ xarakterdagi, ya’ni huquqiy normalarni belgilovchi farmonlarigina mehnat huquqining manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Aksincha, Prezidentning o‘z tarkibida normativ qoidalari bo‘lmaq (masalan, xodimlarni ordi- den, medallar bilan taqdirlash, ularga turli unvonlar berish haqidagi) farmonlari individual xarakterda bo‘lgani uchun mehnat huquqining manbai hisoblanmaydi. Bunday yondashuv yuridik adabiyotda ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining va O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining farmonlariga, qarorlariga muvofiq qarorlar shaklidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari orasida ayrim xodimlarning mehnat sharoitlarini tartibga solishga doir qarorlari alohida o'rinni tutadi. Bunday qarorlar huquq manbai sifatida davlat organi hamda ayrim toifa xodimlarning maqomini belgilovchi nizomlar shaklida tasdiqlanadi.

Bunday normativ-huquqiy hujjatlar vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham chiqariladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'z va kolatlari doirasida buyruq va qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Bu organlarning huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi. Bunday hujjatlarning ta'sir ko'lami, harakat doirasasi, yuridik kuchi, boshqaruvi idorasining davlat organlari tizimida tutgan o'rni va uning vakolatlari bilan belgilanadi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari amaldagi qonunlar, Prezident farmonlari hamda hukumat qarorlariga zid bo'lishi mumkin emas.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjalari bir necha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda yoki ularning bittasi tomonidan boshqalari bilan kelishgan holda qabul kilinishi mumkin. Ammo, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holdalaridan tashqari vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining bo'linmalari va hududiy organlari normativ-huquqiy tusdagi hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning o'zaro nisbati

ko'rsatilgan bo'lib, turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vako-latiga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuri-dik kuchga ega bo'lган normativ-huquqiy hujjatlarga mu-vofiq bo'lishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lган taqdirda yuqori yuridik kuchga ega bo'lган normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lган normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lган taqdirda keyinroq qabil qilingan hujjat qoidalari amal qiladi.

Mehnat munosabatlari sohasida mahalliy davlat or-ganlari ko'п hollarda aholini ish bilan ta'minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 104-mod-dasiga muvofiq hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxona, muassasa, tashkilot, birlashma, shuningdek, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lган qarorlar qabul qiladi.

Umumiy majburiy tusdag'i normativ ko'rsatmalarni normativ tusda bo'lмаган hujjatlarga kiritish, shuning-dek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan umumiy majburiy tusdag'i normativ hujjatlarni ijro etish uchun jo'natish va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish hollariga yo'l qo'yil-masligi lozim.

Mazkur qonunda normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish, ularning kuchga kirishi va amal kilish tartibi aniq ko'rsatilgan.

Normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirishi muhim ahamiyatga ega bo'lgani bois, bu qoida mazkur qonunda qat'iy belgilab qo'yilgan. Unga binoan, normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bozor munosabatlari tobora rivojlanib borayotgan ho- zirgi sharoitda ijtimoiy sherikchilik, vakillik organlarin- ing rolini oshib borishi bilan korxonaning lokal norma- tiv-huquqiy hujjatlari ham mehnat huquqi manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etib boradi.

Ijtimoiy sherikchilik aktlariga jamoa shartnomalari hamda turli (hududiy, tarmoq, respublika) darajalarda qa- bul qilingan jamoa kelishuvlari hamda kasaba uyushma- lari yoki boshqa vakillik organlari bilan kelishgan holda ish beruvchi tomonidan qabul qilingan lokal aktlar kiradi.

Jamoa shartnomalari korxonada ish beruvchi bilan xo- dimlar o'rtasidagi mehnatga, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-hujjatdir.

Mazkur shartnomalar yordamida subyektlar o'rtasida mehnatga oid munosabatlар tartibga solib boriladi va ijti- moiy- iqtisodiy manfaatlar muvofiqlashtiriladi.

Lokal normativ hujjatlar toifasiga korxonalarda qabul qilinadigan ichki mehnat tartibi qoidalari (Mehnat ko- deksining 174-moddasi), intizom to‘g‘risidagi ustav va nizomlar (kodeksning 175-moddasi), xodimlarni muko- fotlash to‘g‘risidagi qoidalari, turli yo‘riqnomalar singari hujjatlar kiradi. Bu hujjatlarning amal qilish doirasi faqat bir korxona hududi bilan cheklangan bo‘lib, ular qonun osti hujjatlar qatoriga kirsada, ammo amaldagi qonunlar- ga zid bo‘imasligi lozim.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan amaldagi qonunlarga sharh beriladi.

Mehnat haqidagi qonun hujjatlari normalarini amaliy- otda to‘g‘ri qo‘llash va ularni takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mehnatga oid ishlar yuzasidan chiqargan qarorlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mehnat munosabatlariga taalluqli ishlar yuzasidan chiqar- gän qarorlarida mehnat qonunlari normalarining amaliy- otga to‘g‘ri tatbiq etilishi va bir xilda qo‘llanilishini tav- siflab berishi bilan birga, sud amaliyoti yo‘nalishini ham belgilab beradi.

## Glossary

**Mehnat huquqi** - huquq sohalaridan biri bo‘lib, yollanma mehnat asosida (mehnat shartnomasi tuzish orqali) ishlayotgan xodimlar mehnatinning ishlab chiqar- ishda qo‘llanilishi natijasida vujudga keladigan ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

**Mehnat huquqining predmeti** - mehnat shartnomasi asosida vujudga keladigan mehnat munosabatlari va u bi- lan bog‘liq bo‘lgan boshqa munosabatlardan iborat.

**Mehnat huquqi funksiyalari** - mehnat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta’sir etishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ularning mazmuni mehnat huquqin- ing mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bi- lan belgilanadi.

**Mehnat huquqining metod(uslub)lari** - mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosa- batlarni tartibga solish usul va vositalarining yig‘indisi.

**Huquq manbalari** - huquq normalarini mustahkam- lash va ifoda etish shakli.

**Mehnat huquqining prinsiplari** - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilikda mustahkamlab qo‘ylgan mehnat huquqining mohiyatini ifoda etuvchi asosiy g‘oyalar

**Majbuliy mehnat** - biron-bir jazoni qo‘llash bi- lan tahdid qilish orqali (shu jumladan mehnat intizomi- ni saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

**Lokal normativ hujjat** - xodimlar vakillik organi ro- zilagini inobatga olgan holda, ish beruvchi tomonidan korx- ona doirasida qabul qilinadigan mehnat huquqi manbai.

### **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Mehnat huquqi predmetini tashkil etuvchi munosa- batlar umumiyligi tavsifini bering.
2. Mehnat huquqining uslublari tushunchasini bering.
3. Mehnat huquqi prinsiplari tushunchasini bering.

4. Mehnat huquqi prinsiplarini sanab o'ting.
5. Mehnat huquqi manbalarining mohiyatini ochib bering.

### **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. Gazetada chop etilgan e'longa ko'ra, «Saxovat» minimarketiga ish so'rab murojaat qilgan 38 yoshli 2 yosh farzandi bo'lган fuqaro A.Valiyevaga rad javobi berildi. Unga minimarketning qo'yayotgan talablari quy- idagilardan iborat edi:

- a) yoshi 35 yoshgacha bo'lishi, farzandi 3 yoshdan katta bo'lishi;
- b) rus tilida erkin so'zlasha oladigan bo'lishi,
- v) dam olish kunlarisiz ishlashi
- g) ish kuni ertalab soat 7.00 dan 22 gacha .

A.Valiyeva yuqorida keltirilgan shartlardan ish vaqt va dam olish vaqtiga oid shartlarga noroziliginibildir-ganligi uchun unga rad javobi berildi.

A.Valiyeva unga berilgan rad javobini qonuniyligiga baho berilishini, u o'zining huquqlarini himoya qilish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi yuzasidan maslahat so'rab, yuristga murojaat qildi.

#### **Yuristning A.Valiyevaga bergen huquqiy masla- hatini amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tayyorlang.**

2. Fuqaro Sobirov T. farzandlariga enagalik qilish uchun D.Mahkamovani yollab, unga enagalik qilganligi uchun oyiga bir million so'm miqdorida ish haqi to'lab turishga kelishdi. Mahkamova D. har kuni Sobirovning farzandlariga qarab turish bilan birga uy ro'zg'or ish- larida ham ko'maklashib, nima ish buyurilsa hammasi- ni bajarib keldi.Oradan bir yil o'tgach, Mahkamova D. o'zining oila a'zolari bilan birga dam olishga ketayotgan- ligini bildirib, Sobirovdan unga ta'til berishini va ta'til puli to'lashini so'radi. Sobirov bunga rad javobini berib, uning ishdan bo'shatilganligini aytdi.

Mahkamova D. bundan norozi bo'lib, mehnat qonun-chiligiga muvofiq o'n bir oy ishlaganidan keyin ta'til olish huquqiga ega ekanligini, uni ishdan bo'shatishga haqlari yo'qligini aytdi.

**Taraflar o‘rtasidagi munosabat mehnat munosabati bo‘la oladimi? Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **II MAVZU.**

### **MEHNATGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR.**

#### **MEHNAT HUQUQINING SUBYEKTLARI**

*Mehnatga oid huquqiy munosabatlar.*

*Mehnat huquqining subyektlari.*

#### **1- §. Mehnatga oid huquqiy munosabatlar**

Jamiyat hayotida yuzaga keladigan har qanday ijtimoiy munosabat ham huquqiy munosabat bo‘la olmaydi. Ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari yordamida tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi.

Umumhuquqiy nazariyada huquqiy munosabat - o‘za-ro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq shaxslar (fuqarolar va yuridik shaxslar) o‘rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir. Huquqiy munosabat ta’rifining asosiy jihatni, avvalo, unda tomonlar o‘rtasidagi bir-biriga nisbatan aloqadorlikning aks etishidir.

Bunday munosabatlarda kamida ikki tomon - huquq egalari ishtirok etib, ular o‘zaro muloqotga kirishadilar va bir-birlari oldida tegishli subyektiv huquq va majburiyatlarni o‘taydilar. Huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari bir-biri bilan o‘zaro mutanosib tarzda bog‘liq, ya’ni bir tomonning huquqiga ikkinchi tomonning majburiyati muvofiq keladi; har doim huquq subyekti bo‘lgan shaxs qarshisida majburiyat o‘tovchi shaxs gavdalananadi.

Shunday ekan, ijtimoiy munosabatlar umumiyligi nazari-ya fani nuqtai nazaridan qaraganda doimo huquq normalari bilan bog‘liq holda uchraydi.

Darhaqiqat, qonun bilan o‘rnatalgan holatlar ijtimoiy munosabatlarga, jamiyat hayotiga ta’sir etmasa, bu munosabatlar huquqiy munosabatlarga aylanmaydi. Demak, ijtimoiy munosabatlarga huquq normalari ta’sir etsagi-na, ular huquqiy munosabatlarga aylanadi. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari doimiy ravishda mehnat huquqi

normalari asosida faoliyat yuritadi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, mehnat huquqiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratamiz, buning natijasida biz mehnat huquqiy munosa- batlarni boshqa huquqiy munosabatlardan, xususan shart- noma asosida vujudga keladigan (pudrat shartnomasi, haq baravariga xizmat ko‘rsatish shartnomasi, mualliflik shartnomasi) fuqaroviylar huquqiy munosabatlardan farqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz:

1. Xodim mehnat shartnomasiga muvofiq muayyan mutaxassislik, malaka yoki mansabga doir mehnat funk- siyassini bajaradi.

Fuqaroviylar huquqiy munosabatlarda shartnoma bo‘yi- cha kelishilgan natija muhim ahamiyatga ega, ya’ni bun- da vazifa, topshiriqni bajarishda sarflangan mehnat faqat o‘z zimmasiga olingan majburiyatni bajarish usuli sifati- da namoyon bo‘ladi.

Mehnat huquqiy munosabatlarda esa, mehnat jarayoni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xodim mehnat shartnoma- sida ko‘zda tutilgan va korxonaning mansab yo‘riqnomalariga aniqlashtirilgan har qanday vazifani mutaxassislik, malaka yoki mansab doirasida bajarishga majbur bo‘ladi.

2. Mehnat shartnomasida shartlashilgan mehnat funk- siyassini xodim tomonidan shaxsan bajarilishi.

Xodim mehnat shartnomasida kelishilgan mutaxas- sislik, malaka yoki mansabga doir mehnat funksiyasini shaxsan bajarishi talab etiladi. U bu ishni boshqa shaxs- ga topshirishi yoki boshqa shaxsni jalg qilib yollab ish- latishi mumkin emas.

3. Mehnat munosabatlarida hokimiyat-boshqaruv elementlarining mavjudligi.

Mehnat munosabatlarida mehnat shartnomasi tarafla- rining teng huquqliligi bilan bir vaqtida xodimning ish beruvchi bo‘ysunuvi ostida bo‘lishi uyg‘unlashib keta- di. Xodim zimmasiga ichki mehnat tartibi qoidalariiga bo‘ysunish majburiyati yuklanadi. Aynan mehnat mu- nosabatlaridagi bo‘ysunish elementining mavjudligi uni fuqaroviylar huquqiy munosabatlardagi taraflarning teng huquqliligidan farqlovchi xususiyati sifatida ajratib turadi.

4. Mehnatning haq evaziga bajarilishining o‘ziga xos

xarakteri.

Mehnat munosabatlari ham xuddi pudrat, haq bara-variga xizmat ko'rsatish shartnomasi, topshiriq va boshqa shu kabi fuqarolik shartnomaviy munosabatlar kabi haq evaziga amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Mehnat munosabatlarining haq evaziga amalga oshirilishining o'ziga xos jihat shunda namoyon bo'ladiki, bu xodimga ish haqi to'lash orqali amalga oshiriladi. Mehnat muno-sabatlarida ish haqi to'lashning fuqarolik huquqiy mu-nosabatlardagi mehnatni rag'batlantirishdan farqli jihat shundan iboratki, bunda xodimga davlat tomonidan bel-gilangan minimal ish haqidan kam bo'lмаган miqdorda (MK ning 155-moddasi), har yarim oyda kamida bir mar-ta (MK ning 161-moddasi), ish haqini berish joyi aniq belgilangan holda, ish haqidan ushlab qolishlarni chek-langani holda, ayrim hollarda (tibbiy ko'rikdan o'tgan hollarda, xodim malaka oshirgan vaqtida, jamoat yoki avlat oldidagi majburiyatlarini ado etgan hollarda) o'rta-cha ish haqi saqlanadi.

5. Ish beruvchi bilan munosabatga kirishgan xodimn-ing korxona mehnat jamoasiga qo'shilishi.


O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 19-moddasiga ko'ra: o'z mehnati bilan korxona faoliyat-ida mehnat shartnomasi asosida ishtirok etayotgan un-ing barcha xodimlari korxona mehnat jamoasini tashkil etadilar, deb belgilab qo'yilgan. Demak, korxona bilan mehnat shartnomasini tuzgan xodim, shu korxonaning jamoasiga qo'shiladi. Buning natijasida shu korxonada amalda bo'lган lokal normativ hujjatlar, jamoa shartno-masi, jamoa kelishuvi, ichki mehnat tartibi qoidalari, mu-kofotlash to'g'risidagi, rag'batlantirish to'g'risidagi nizom va boshqa hujjatlar ushbu xodimga ham taalluqli bo'ladi.

Ammo korxonada fuqarolik huquqiy shartnoma aso-sida bir marotabalik ishlarni bajarayotgan fuqaro jamoa a'zosi hisoblanmaydi. Shuning uchun ham ular yuqorida qay etilgan lokal hujjatlarga asosan o'z zimmalariga hech qanday majburiyatlarni olmaydilar.

6. Uzlusizlik xarakteri.

Mehnat munosabatlari fuqaroviy huquqiy munosabat-lardan

farqli ravishda davomiylik xarakteriga ega, ya'ni fuqarolik huquqiy munosabatlар bir marotabalik, ya'ni ma'lum bir natijaga erishilishi bilan bekor bo'lsa, mehnat munosabatlari esa mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan muayyan kasb, malaka yoki lavozimiga oid ishni uzluksiz bajarilishi bilan ajralib turadi.



Mehnatga oid huquqiy munosabatlari taraflarning erki- ni ifoda etuvchi mehnat shartnomasiga asoslanadi.

Mehnat munosabatlari o'z subyektiga ega va ayni shu subyektlarning huquq va majburiyatları mehnatga oid huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Subyektlarning huquq va majburiyatları mehnat qonunchiligi normalari, jamoa kelishivi va shartnomalari hamda xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida o'z ifodasini topadi.


Barcha mehnatga oid huquqiy munosabatlari bir-biri- dan subyekti, uning mazmuni, mazkur munosabatlarni yuzaga keltirish, o'zgartirish va bekor kilish asoslari bi- lan farqlanadi.

## 2- §. Mehnat huquqining subyektlari

Mehnat huquqining subyektlari bo‘lib, mehnat qonun- chiligi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy mu- nosabatlarning ishtirokchisi va doimiy mehnat huquq va majburiyatlariga ega bo‘lgan hamda ularni amalga oshi- radigan jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Mehnat qonunchiliga muvofiq, mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan xodimlar, ish beruvchilar, mehnat jamoasi hamda xodimlar va ish beruvchilarning vakil- lik organlari mehnatga oid munosabatlarning subyektlari bo‘lib hisoblanadi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning asosiy su- byektlari xodimlar va ish beruvchilardir. O‘zR MKning 14-moddasiga ko‘ra quyidagi jismoniy shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlar subyekti bo‘lishi mumkin.



Demak, jismoniy shaxslar, ular bilan mehnat shart- nomasi tuzilgandan so‘nggina mehnatga oid huquqiy munosabatlar subyekti bo‘lishi mumkin. Jismoniy shaxs mehnat shartnomasi tuzish va mehnatga oid munosabat subyekti maqomiga ega bo‘lishi uchun **mehnat huquqiy subyektiligiga** ega bo‘lishi uchun:

—mehnatga oid huquqiy layoqat va huquqiy muoma- la layoqatiga ega bo‘lishi (mehnatga oid huquqiy layoqat deganda, subyektiv mehnat huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘la olish qobiliyati tushuniladi);

—mehnatga oid huquqiy muomala layoqatiga ega bo‘lishi (qonunchilikka muvofiq huquq va majburiyatarni muayyan xattiharakatlar orqali amalga oshirish qobiliyati);

—delikt javobgarligi (unga yuklatilgan majburiylarning ijrosi uchun javobgarlik) talab etiladi.

Fuqarolik huquqida jismoniy shaxsning huquqiy layo- qati

tug‘ilishi bilan, to‘liq muomala layoqati esa shaxs 18 yoshga to‘lganida paydo bo‘ladi.

Mehnat qonunchiligidagi esa mehnatga oid huquqiy layoqat hamda mehnatga oid huquqiy muomala layoqati bir vaqtda, ya‘ni shaxs ishga qabul qilish yoshiga yetgan vaqtdan paydo bo‘ladi. Demak, ishga qabul qilish yoshi- ga yetgan hamda ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan jismoniy shaxs mehnatga oid munosabatning sub- yekti bo‘lishi mumkin.

Umumiy qoidaga ko‘ra, O‘zR MKning 77-mod- dasiga muvofiq xodim o‘n olti yoshga to‘lganidan keyin uni ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi. Maz- kur moddaning ikkinchi qismida bu qoidadan istis- no holat nazarda tutilgan bo‘lib, yoshlarni o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yoz- ma roziligi bilan:

—mehnatga tayyorlash uchun umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarining o‘quvchilar- ini ularning sog‘lig‘iga hamda ma‘naviy va axloqiy ka- mol topishiga ziyon yetkazmaydigan;

- ta’lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o‘qishdan bo‘sh vaqtida bajarishlari uchun ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Ota-onasidan birining roziligi oldindan berilishi lozim bo‘lib, ariza shaklida yoki ishga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruqning loyihasida ota yoki ona imzo qo‘ygan holda tasdiqlashi tariqasida bo‘lishi mumkin.

Bunday rozilikning olinishi yoshlarning umuman ish- lashiga emas, balki ularning muayyan mehnat sharoitlar- ida aniq kasb va malaka bo‘yicha ishlashlariga ham ro- zilik bergenliklarini ko‘rsatadi.

O‘zR MKda ko‘zda tutilgan xodim bilan mehnat shartnomasi tuzishda yo‘l qo‘yiladigan yoshga bo‘lgan talab XMTning 1973 yilgi 138-son «Eng kam yosh to‘grisida»gi Konvensiyasi qoidalariga muvofiq keladi<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalari va tavsiyalari 2 tomlik —

Ish beruvchi mehnat shartnomasining ikkinchi tarafi bo‘lib hisoblanadi. O‘zR MKning 15-moddasiga muvofiq:

1) korxonalar, shu jumladan ularning alohida tarkibiy bo‘linmalari, o‘z rahbarlari timsolida;

2) mulkdorning o‘zi ayni bir vaqtda rahbar bo‘lgan xususiy korxonalar;

3) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o‘n sakkiz yoshga to‘lgan ayrim shaxslar;

4) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlar yollaydigan yakka tartibdagи tadbirkorlar.

Mazkur moddaga muvofiq, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, har qanday korxona ish beruvchi bo‘lishi mum- kin. Demak, tijorat tashkilotlari (xo‘jalik shirkatlari, ish- lab chiqarish kooperativlari, unitar korxonalar va bosh- qalar), notijorat tashkilotlari (jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalar va boshqalar) hisoblanuvchi yuridik shaxslar ish beruvchi bo‘lishlari mumkin.

O‘zR MKning 27-moddasiga ko‘ra korxonada ish beruvchi nomidan vakillikni ma’muriyatning mansabdor shaxslari mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa nor- mativ hujjatlar, ularning ustavlari yoki nizomlari asosida berilgan vakolatlar doirasida amalga oshirishlari ko‘zda tutilganligi sababli filiallar ham ish beruvchi bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxs bo‘lgan ish beruvchining **mehnat huquqiy subyektliligi** yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganda paydo bo‘lib, tugatilishi bilan bekor bo‘ladi. Mehnat munosabatlari subyekti sifatida ish be- ruvchi bo‘lib uning rahbari emas, balki korxona ishtirok etadi.

Korxona rahbari ishga qabul qilish (O‘zR MKning 82-moddasi uchinchi qismi), korxona xodimlari bi- lan mehnat shartnomalarini bekor qilish (O‘zR MKning 107-moddasi birinchi qismi), xodimga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash (O‘zR MKning 182-moddasi birinchi qismi) huquqiga

ega bo‘lib, rahbarning ko‘rib chiqilayotgan vakolatlari korxona mulkdori tomonidan belgilanadi (O‘zR MKning 82-moddasi uchinchi qismi).

Korxona rahbari qonun hujjatlariga, korxona ustaviga yoki korxona mulkdorining qaroriga zid bo‘limgan hol- larda, mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish sohasida o‘ziga berilgan vakolatlarning bir qismini o‘z o‘rinbosariga topshirish, o‘rinbosar ishga qabul qilishi va mehnat shartnomalarini bekor qilishi mumkin bo‘lgan xodimlar doirasini belgilab qo‘yishga haqli. Ishga qa- bul qilish huquqiga ega bo‘lgan va xodim bilan mehnat shartnomasini imzolayotgan mansabdar shaxs faqat korxona vakili hisoblanadi, uning nomidan ish tutadi. Ish be- ruvchi sifatida esa, mehnat shartnomasining tarafi korxo- na bo‘ladi.

Faqat korxonalar (ularning alohida tarkibiy bo‘lin- malari) emas, balki jismoniy shaxslar ham ish beruvchi bo‘lishlari mumkin. O‘zR MKning 15-moddasi 3-bandiga ko‘ra:

- jismoniy shaxs o‘n sakkiz yoshga to‘lganidan keyingina ish beruvchi bo‘lishga haqli;
- jismoniy shaxs ish beruvchi bo‘lishiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

*Masalan, o‘n sakkiz yoshga to‘lgan shaxs yollanma xodimlar mehnatidan, xususan, enaga, kotiba, bog‘bon, qorovul, haydovchi va shu kabilar sifatida foydalanishi mumkin.*

#### *Fuqaro savoli:*

*Men yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ish beruvchi bo‘lishim va xodimlarni ishga yollashim mumkinmi? Nechta xodim yollab ishlatsam bo‘ladi?*

#### *Yurist javobi:*

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagisi 219-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»<sup>3</sup> bilan belgilan- gan tartibda xodimlar yollaydigan yakka tartibdagi tadbirkor- lar ham ish beruvchi bo‘lishlari mumkin. Ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki,*

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 ft., 31-son, 411-modda; 2016 y., 8-son, 77-modda; 2017 y., 7-son, 89-modda; qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi, , 08.08.2018y., 09/18/631/1638-son.

*mazkur Nizomning amal qilishi yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirdorlik subyektlariga tatbiq etilmaydi. Bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan xususiy tad- birkor, faoliyatning turlari sonidan qat'i nazar, uch nafardan ko'p bo 'lmasgan xodimlarni yollash huquqiga ega. Har qanday holda ham, faoliyat turlarining soni qancha bo 'lmasin, yakka tartibdagи tadbirdorning xizmatchilari soni uch kishidan ortiq bo 'lmasligi kerak.*

## **Glossary**

**Huquqiy munosabat** - o'zaro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bog'liq shaxslar (fuqarolar va yuridik shaxslar) o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuri- dik faktlar asosidagi aloqa.

**Mehnatga oid huquqiy munosabatlar** - xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi mehnat shartnomasi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjat- lar bilan belgilangan shartlarga asoslangan munosabatdir.

**Mehnat huquqining subyekti** - mehnat qonunchili- gi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy muno- sabatlarning ishtirokchisi va doimiy mehnat huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan hamda ularni amalga oshi- radigan jismoniy va yuridik shaxslar.

**Mehnat huquqining subyektlari** - mehnat qonun- chiligi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy mu- nosabatlarning ishtirokchisi va doimiy mehnat huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan hamda ularni amalga oshi- radigan jismoniy va yuridik shaxslar.

**Xodim** - ish beruvchi bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs.

**Ish beruvchi** - xodim bilan mehnat munosabatlariga kirishgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Mehnatga oid huquqiy layoqat** - mehnat qonun- chiligi normalariga binoan subyektiv huquq va majburi- yatlarga ega bo'la olish qobiliyati.

**Mehnatga oid huquqiy muomala layoqati** - qonun- chilikka muvofiq huquq va majburiyatlarni muayyan xat- ti-harakatlar orqali amalga oshirish qobiliyati.

**Delikt layoqat** - mehnat qonunchiligi bilan nazarda tutilgan va yuklatilgan majburiyatlarning ijrosi uchun javobgarlik.

**Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Mehnat huquqiy munosabati tushunchasi va mohi- yati haqida nimalarni bilasiz?
2. Mehnat huquqiy munosabatlari qanday asoslarda vujudga keladi?
3. Mehnat huquqiy munosabatlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Mehnat huquqiy munosabat obyektlarini sanab ber- ing?
5. Mehnat huquqiy munosabat subyektlari kimlar bo‘lishi mumkin?
6. Mehnat huquq layoqati va mehnat muomala layo- qati qanday layoqat va ularning mazmuni nima bilan belgilanadi?
7. Mehnat huquqiy munosabat subyektlari qanday tur- larga bo‘linadi?
8. Mehnatga oid munosabatlarda kimlar xodim bo‘li- shi mumkin? Uning mehnat huquq-muomala layoqati ni- malardan iborat?
9. Mehnat qonunchiligiga ko‘ra kimlar ish beruvchi bo‘lishi mumkin?
10. Ish beruvchining mehnat huquq-muomala layoqati tushunchasini bering.
11. Mehnat huquqining tizimi deganda nimani tush- unasiz?
12. Mehnat huquqining manbalari tushunchasini ber- ing.
13. Lokal hujjatlar mehnat huquqining manbasi sifa- tida.

**Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. G‘ofurov S. «Everest» qo‘shma korxonasida tar- jimon sifatida xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzgan. U barcha kasaba uyushmasining mablag‘lari hisobidan mehnat jamoasi bir kunlik dam olishga ketayotgani haqidagi xabarni eshitib qoldi. Ammo uni dam olishga hech kim taklif qilmadi. Bu holat adolatdan emasligini, u ham shu jamoada mehnat qilayotganligini va shu ja-

moa bilan birga dam olish huquqiga ega ekanligini bildi- rib, rahbariyatga o‘z e’tirozini bildirdi.

**G‘ofurovning e’tirozlari asoslimi? Vaziyatga huquqiy baho bering.**

2. Xalqaro tashkilotda ishlaydigan Zaynudinova M.yuristga murojaat qilib, o‘zining xalqaro tashkilot- da ishlashini va bu tashkilotda o‘zining ichki tartib va qoidalarga amal qilinishini aytib, ushbu tartib-qoidalarni O‘zbekiston qonunlariga muvofiq bo‘lishi lozimmi yoki bizning qonunlarimiz ularga nisbatan qo‘llanilmaydimi?- degan savol bilan murojaat qildi.

**Zaynudinovaga yuristning javobini shakllantirib, javob tayyorlang. Vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **III MAVZU. JAMOA SHARTNOMALARI VA JAMOA KELISHUVLARI**

*Umumiy tushunchalar va qoidalar. Jamoa shartnomasi- ning taraflari, tuzilish tartibi hamda uning mazmuni. Jamoa kelishuvlari va ularning ijtimoiy sherikchilik munosabatlarin- ing tartibga solinishidagi o'rni.*

#### **1- § Umumiy tushunchalar va qoidalar**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining IV bobi jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlariga oid qoidalariga bag'ishlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda kuchli davlatchilik- dan kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishga tomon yo'l tutilgani tufayli qarama-qarshiliklarni o'zaro konfliktlar, qarama-qarshi turishlar orqali emas, balki jamoa shart- nomasi va jamoa kelishuvlari orqali ijtimoiy sherikchilik prinsipini rivojlantirish, korxonalarda xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida mehnatga oid munosabatlarni shart- nomalar asosida tartibga solishni taqozo etadi.

Jamoa shartnomasi hamda jamoa kelishuvi xodimlar hamda ish beruvchilar ijtimoiy hamkorligi va sherik- chiligining asosiy shakli sanaladi. Zeroki, ushbu lokal hujjatlarda korxonalardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'z aksini topadi.

Jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvlarini tuzish va unda xodimlarga ham, ish beruvchiga ham taalluqli o'za- ro majburiyatlar nazarda tutilishi, bu majburiyatlarning bajarilish usullari, ijrosini nazorat qilish va bajarilmagan- ligi uchun javobgarlik mexanizmlarining belgilab olinishi korxona ishlab chiqarish faoliyatiga ham, xodimlaming moddiy, madaniy- maishiy va ijtimoiy ahvoliga ham ijo- biy ta'sir qiladi.

Jamoa shartnomasi huquq ijodkorligi ko‘rinishlaridan biri sifatida lokal-normativ yo‘l bilan mehnat sharoitlarini o‘rnatish vazifasini bajaradi.

Jamoa shartnomasining qoidalari nafaqat uning taraflari sanaluvchi shaxslarga, balki unga aloqasi bo‘lma-ganlarga ham tatbiq qilinadi (masalan, shartnoma qabul qilib bo‘linganidan so‘ng ishga kirgan yangi xodimlarga, korxonada mehnat bitimiga asosan mehnat qiluvchilarga, vafot etgan xodimning oila a‘zolariga, korxonada ishlab pensiyaga chiqqan faxriylarga va hokazo).

Jamoa bitimlarining yuqori darajada va keng miqyosda amalga oshiriladigan shakli bo‘lib jamoa kelishuvlari hisoblanadi. Ular tarmoq, hudud yoki iqtisodiyotning baracha tarmoqlari darajasidagi lokal me'yoriy hujjat sanala-di.

Jamoa kelishuvi jamoa shartnomasidan farqli ravishda bir korxona miqyosida emas, balki kattaroq miqyosda (hudud, tarmoq) amal qiladi va o‘z ahamiyati jihatdan muhim bo‘lgan ijtimoiy sherikchilik munosabatlarini katta hududda (bir necha yuzlab, hatto minglab korxona doirasida) tartibga soladi.

Jamoa shartnomaviy tartibga solish vositasi sifatida jamoa shartnomasi va kelishuvlari mehnat huquqining umumiy qismiga taalluqli sanaladi, chunki ular vosita-sida mehnat huquqining barcha institutlariga oid qoidalar va normalar kompleks holda joriy qilinadi. Jamoa shartnomalarida korxonaning idoraviy bo‘ysunishi, mulk-chilik shakli, ish yuritish usulidan qat’i nazar, mehnat shart-sharoitlari belgilanadi va mehnat sharoitlarini belgilovchi yuridik hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 30-moddasiga asosan, jamoa shartnomalari hamda jamoa kelishuvlari tuzishning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

qonun hujjalari normalariga amal qilish;

taraflar vakillarining vakolatliligi;

taraflarning teng huquqliligi;

jamoa shartnomalari, kelishuvlari mazmunini tashkil etuvchi masalalarni tanlash va muhokama erkinligi;

majburiyatlar olishning ixtiyoriyligi;

olinayotgan majburiyatlarning haqiqatda bajarilishini ta'minlash;  
tekshirib borishning muntazamligi;  
javobgarlikning muqarrarligi.



O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvlarini tuzish yoki ularga tegishli o'zgartishlar kiritish maqsadida muzokara o'tka- zish huquqiga ega shaxslar doirasi va uni o'tkazish tar- tibi beliglangan.

Umumiy qoidaga ko'ra, ish beruvchi, ish beruvchilar birlashmasi yoki ularning vakillari bilan kasaba uyush- malari yoki xodimlaming boshqa vakillik organlari o'rtasida muzokaralar olib boriladi.

Agar ma'lum bir korxonada xodimlaming bir nechta vakillik organlari mayjud bo'lsa, u holda jamoa shartno- masi yoki jamoa kelishuvining yagona loyihasini ishlab chiqish uchun ulardan birlashgan vakillik organi tuzilib, xodimlar vakili sifatida ishtirok

etadi.

Muzokaralar olib borish teng huquqlilik asosida te- gishli vakolatlarga ega bo‘lgan vakillardan iborat komis- siya tuzish orqali olib boriladi. O‘z navbatida, komissi- yaning tarkibi, muzokaralarning muddati, o‘tkazilgan joyi va kun tartibi taraflar qarori bilan belgilanadi.

Ish beruvchilar va ularning birlashmalari, ijro etu- vchi hokimiyat organlari kasaba uyushmalariga, xod- imlarning boshqa vakillik organlariga muzokaralar uchun zarur ma'lumotlarni berishlari shart. Agar talab qilingan ma'lumotlar davlat yoki tijorat siri hisoblansa, ularni os- hkor qilmasliklari kerak. Bu ma'lumotlarni oshkor qilgan shaxslar qonun hujjatlarida beliglangan tartibda javobgar- likka tortiladilar.

Muzokaralar davomida taraflarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra, murosaga kela olmagan bo ‘lsalar, mazkur vaziyat bo‘yicha bayonnomaga tuziladi va ushbu sabablarni bartaraf etish uchun zarur choralar to‘g‘risidagi takliflar kiritiladi, shuningdek, muzokaralarni qayta tiklash muddatlari to‘g‘risida kelishib oladilar.

Ta'kidlash joizki, jamoa shartnomalari va kelishuvlari to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgar- lik faqatgina ish beruvchilar va ularning vakillariga bel- gilangan. Mehnat kodeksining 34-moddasiga asosan, ish beruvchilarning manfaatlarini ifoda etuvchi shaxslar quy- idagilar uchun javobgar bo‘ladilar:

- jamoa shartnomasi, kelishuvini tuzish, o‘zgartirish yoki to‘ldirish yuzasidan olib borilayotgan muzokaralarda qatnashishdan bo‘yin tovlaganlik uchun yoki ularni ish- lab chiqish va tuzish muddatini buzganlik yoxud taraflar belgilagan muddatda tegishli komissiyaning ishini ta'min- lamaganlik uchun;

- muzokaralar olib borish va jamoa shartnomasi, kelishuviga roya etilishi ustidan tekshirish olib borish uchun kerakli axborot taqdim etmaganlik uchun;

- jamoa shartnomasi, kelishuvi majburiyatlarini buz- ganlik

va bajarmaganlik uchun. Kasaba uyushmasi, xod- imlarning boshqa vakillik organi talabiga ko‘ra mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs jamoa shartnomasi majburiyat- lari buzilishida yoki bajarilmasligida aybdor bo‘lgan rah- barga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cho- ralarni ko‘rishi shart;

Xodimlar vakillik organlari mansabdor shaxslarin- ing jamoa shartnomasi shartlarini bajarmaganligi uchun huquqiy javobgarligi nazarda tutilmagan va ular ushbu masalalar o‘zlarining xizmat vazifalari jumlasiga kirgan- laridagina huquqiy javobgar qilinishlari mumkin va bosh- qa hollarda ularning javobgarligi ma’naviy-axloqiy, ja- moat javobgarligidan iboratdir.

## **2- § Jamoa shartnomasining taraflari, tuzilish tartibi hamda uning mazmuni**

Jamoa shartnomasi ijtimoiy sherikchilikka oid mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ hujjat sifatida mulkchilik shakli, xo‘jalik yuritish usuli, qaysi tarmoqqa mansubligidan qat‘i nazar, barcha turdagи korxona va tashkilotlarda tuzilishi mumkin.

Mehnat kodeksining 36-moddasiga ko‘ra, jamoa shartnomasi, bir tarafdan, xodimlar tomonidan kasaba uyush-

malari yoki o‘zлari vakolat bergen boshqa vakillik organ- lari orqali, ikkinchi tarafdan bevosita ish beruvchi yoki u vakolat bergen vakillar tomonidan tuziladi.

Yuqoridagi norma jamoa shartnomasi ikki taraf: ish beruvchi hamda xodimlar vakillik organlari o‘rtasida tuz- ilishini nazarda tutadi. Modda mazmuniga ko‘ra korxon- alarning korxona joylashgan hududdan boshqa hududda faoliyat yurituvchi filiallari va boshqa tarkibiy qismlari ham ish beruvchi tomonidan berilgan vakolat asosida (bosh korxona ish beruvchisining filial rahbariga bergen vakolatiga ko ‘ra) jamoa shartnomasi tuzishi mumkin sanaladi.

Mehnat qonunchiligi (Mehnat kodeksi va bosh- qa mehnatga oid qonun hujjatlari, kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari) jamoa shartnomasi taraflarining shartnoma ishtirokchisi sifatidagi yuridik maqomini (vakolatlari va majburiyatlarini) belgilab beradi.

*Jamoa shartnomasi — korxonada ish beruvchi bilan xo- dimlar o‘rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatdir*

Ish beruvchi bilan jamoa shartnomasini tuzish zaru- rligi haqida qaror qabul qilish huquqi kasaba uyushmasi o‘z vakillik organi orqali, xodimlar tomonidan vakolat berilgan boshqa vakillik organiga yoki bevosita mehnat jamoasining umumiylig ‘ilishi (konferensiysi)ga beril- gandir.

Jamoa shartnomalari korxonalarda, ularning yuridik shaxs huquqi berilgan tarkibiy bo‘limmalarida tuziladi.

Mehnat kodeksining 31-moddasiga ko‘ra har qaysi taraf jamoa shartnomasi, kelishuvini tuzish va o‘zgartirish yuzasidan muzokaralar olib borish tashabbusi bilan chiqishga haqlidir.

Kasaba uyushmasi, xodimlaming boshqa vakillik or- gani o‘zlarini vakil qilgan xodimlar nomidan muzokaralar olib borish, jamoa shartnomasiga, kelishuviga o‘zlarini vakil qilgan xodimlaming manfaatlarini himoya qiluvchi ilovalar taklif etish va ularni imzolashga haqlidir.

Jamoa shartnomasini, tuzish, o‘zgartirish va to‘ldirish uchun ish beruvchi, ish beruvchilar birlashmasi (ularning vakillari) bilan kasaba uyushmalari yoki xodimlaming boshqa vakillik organlari o‘rtasida muzokaralar olib bo- riladi. Zarur hollarda muzokaralarda ijro etuvchi hokimi- yat organlari ishtirok etadilar. Ish beruvchilar, ijro etuvchi hokimiyat organlari kasaba uyushmalari yoki xodimlarn- ing boshqa vakillik organlari ko‘rib chiqish uchun taklif etgan mehnatga oid va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yu- zasidan muzokaralar olib borishga majburdirlar.

Tegishli yozma xabar olgan taraf yetti kunlik muhlat ichida muzokaralarga kirishishi shart.

Avvalgi jamoa shartnomasi, kelishuvining amal qil- ish muddati tugashiga qadar uch oy mobaynida yoki bu hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan muddatda har qaysi taraf boshqa tarafga yangi jamoa shartnomasini, kelishu- vini tuzish yuzasidan muzokaralar boshlash to‘g‘risida yozma xabar berishga haqlidir.

Jamoa shartnomasining loyihasi korxonaning bo‘lin- malarida xodimlar tomonidan muhokama qilinishi va bildirilgan fikr hamda takliflar hisobga olingan holda ish- lab takomiliga yetkaziladi.

Qayta ishlab takomiliga yetkazilgan loyiha mehnat ja- moasining umumiy yig‘ilishi (konferensiyasi) muhokama- siga qo‘yiladi.

Muzokaralar olib borish va jamoa shartnomasi, ke- lishuvining loyihasini tayyorlash uchun taraflar teng huquqlilik asosida tegishli vakolatlarga ega bo‘lgan va- killardan iborat komissiya tuzadilar.

Komissiyaning tarkibi, muzokaralarning muddati, o‘tkaziladigan joyi va kun tartibi taraflar qarori bilan belgilanadi.

Muzokaralarda ishtirok etayotgan taraflarga jamoa

shartnomasi, kelishuvining mazmunini tashkil etuvchi masalalarни tanlash va muhokama qilishda to‘la erkinlik beriladi.

Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishini taraflar belgilaydi.

Jamoa shartnomasiga ish beruvchi va xodimlarning quyidagi masalalar bo‘yicha o‘zaro majburiyatlar kiritilishni mumkin:

mehnatga haq to‘lash shakli, tizimi va miqdori, pul mukofotlari, nafaqalar, kompensatsiyalar, qo‘srimcha to‘lovlar;

narxlaming o‘zgarib borishi, inflyatsiya darajasi, ja-moa shartnomasi bilan belgilangan ko‘rsatkichlarning ba-jarilishiga qarab mehnatga haq to‘lashni tartibga solish mexanizmi;

xodimlarni ish bilan ta’minalash, qayta o‘qitish, ishdan bo‘shatib olish shartlari;

ish vaqt va dam olish vaqt, mehnat ta’tillarining muddatlari;

xodimlarning, shu jumladan ayollar hamda o‘n sakkiz yoshga to‘laman shaxslarning mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasini yaxshilash, ekologiya jihatidan xavfsizlikni ta’minalash;

korxonani va idoraga qarashli turar joyni xususiy- lashtirish vaqtida xodimlarning manfaatlariga rioya qilish;

ishni ta’lim bilan qo‘sib olib boruvchi xodimlar uchun imtiyozlar;

ixtiyoriy va majburiy tarzdagi tibbiy hamda ijtimoiy sug‘urta;

ish beruvchi tomonidan o‘z xodimlarining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo‘srimcha badallar kiritish miqdorlari va muddatlari;

jamoa shartnomasining bajarilishini tekshirib borish, taraflarning javobgarligi, ijtimoiy sheriklik, kasaba uyushmalari, xodimlarning boshqa vakillik organlariga faoliyat ko‘rsatish uchun tegishli sharoit yaratib berish.

Jamoa shartnomasida korxonaning iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda boshqa shartlar, shu jumladan, qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan normalar va qoidalarda ko‘rsatilganiga qara-ganda imtiyoziroq mehnat shartlari va ijtimoiy-iqtisodiy shartlar (qo‘srimcha ta’tillar, pensiyalarga tayinlanadigan ustamalar, muddatdan ilgari pensiyaga chiqish, trans-port va xizmat safari xarajatlari uchun

kompensatsiyalar, xodimlarni ishlab chiqarishda hamda ularning bolalarini maktabda va maktabgacha tarbiya muassasalarida tekin yoki qisman haq to‘lanadigan tarzda ovqatlantirish, bosh- qa qo‘srimcha imtiyoz va kompensatsiyalar) ham kiritil- ishi mumkin.

Basharti, amaldagi qonunlarda normativ tusdagi qoi- dalar jamoa shartnomasida, albatta, mustahkamlab qo‘yil- ishi shart deb bevosita ko‘rsatma berilgan bo‘lsa, bunday qoidalar jamoa shartnomasiga kiritiladi.

Jamoa shartnomasini muhokama qilish va qabul qilish huquqi korxona mehnat jamoasi umumiy majlisi (konfe- rensiyasi)ga berilgan bo‘lib, mehnat jamoasining yig‘ili- shi unda xodimlaming yarmidan ko‘prog‘i ishtirok etgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Mehnat jamoasining konferensiysi basharti unda delegatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Jamoa shartnomasi basharti uni umumiy yig ‘ilishda (konferensiada) ishtirok etayotganlarning ellik foizidan ko‘prog‘i yoqlab ovoz bergen bo‘lsa, ma’qullangan his- oblanadi.

Agar jamoa shartnomasining loyihasi ma’qullanmasa, taraflarning vakillari uni umumiy yig‘ilishda (konferen- siyada) bildirilgan taklif-istiklarni e’tiborga olgan holda ishlab takomiliga yetkazadilar hamda o’n besh kun ichi- da umumiy yig‘ilish (konferensiya) muhokamasiga qayta taqdim etadilar.

Umumiy yig‘ilishda (konferensiada) ma’qullangani- dan keyin taraflarning vakillari jamoa shartnomasini uch kun ichida imzolaydilar.

Jamoa shartnomasi imzolangan vaqtidan e’tiboran yoki jamoa shartnomasida ko‘rsatilgan kundan boshlab kuchga ki- radi hamda taraflar belgilagan muddat davomida amal qiladi.

Belgilangan muddat tugagach, jamoa shartnomasi taraflar yangi shartnoma tuzguncha yoki amaldagi shart- nomani o‘zgartirguncha, to‘ldirguncha amalda bo‘ladi.

Korxona qayta tashkil etilganda shu qayta tashkil qil- ish davrida jamoa shartnomasi o‘z kuchini saqlab qoladi, shundan keyin taraflardan birortasining tashabbusi bilan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

### **Fuqaro savoli:**

*Jamoa shartnomasida nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda bola tarbiya qilayotgan shaxslar uchun qo‘srimcha imtiyoz belgilanishi mumkinmi?*

### **Yurist javobi:**

Mehnat kodeksining 37-moddasiga muvofiq, jamoa shartnomasida korxonaning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, boshqa shartlar, shu jumladan, qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan normalar va qoidalarda ko‘rsatilganiga qaraganda imtiyozliroq mehnat shartlari va ij-timoiy-iqtisodiy shartlar (qo‘srimcha ta’tillar, pensiyalarga tay-inlanadigan ustamalar, muddatdan ilgari pensiyaga chiqish, transport va xizmat safari xarajatlari uchun kompen-satsiyalar, xodimlarni ishlab chiqarishda hamda ularning bolalarini mak-tabda va maktabgacha tarbiya muassasalarida tekin yoki qis-man haq to‘lanadigan tarzda ovqatlanirish, boshqa qo‘srim-cha imtiyoz va kompensatsiyalar) ham kiritilishi mumkin.

Korxona tarkibi, tuzilishi, boshqaruv organining nomi o‘zgargan, korxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shart-nomasi bekor qilingan hollarda ham jamoa shartnomasi o‘z kuchini saqlab qoladi.

Korxona mol-mulkining egasi o‘zgarganda jamoa shartnomasi o‘z kuchini olti oy mobaynida saqlab qoladi.

Bu davrda taraflar yangi jamoa shartnomasini tuzish yoki amaldagisini saqlab qolish, o‘zgartirish va to‘ldirish haqida muzokaralar boshlashga haqli.

Jamoa shartnomasi qayta ko‘rib chiqilayotganida av-valgi jamoa shartnomasida xodimlar uchun nazarda tutil-gan imtiyozlarni saqlab qolish va boshqa shartlarni ba-jarish mumkinligi to‘g‘risidagi masala hal etilishi kerak.

Korxona qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlar asosida tugatilayotganda jamoa shartnomasi bu-tun tugatish ishlari olib borilayotgan muddat davomida o‘z kuchini saqlab qoladi.

Jamoa shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini taraflarning vakillari, mehnat jamoasi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari

vazirligining tegishli organlari tekshirib boradilar.

Jamoa shartnomasini imzolagan shaxslar har yili yoki shartnomaning o‘zida maxsus ko‘rsatilgan muddatlarda majburiyatlarning bajarilishi haqida mehnat jamoasining umumiy majlisida (konferensiyasida) hisobot berib turadilar.

Tekshirish olib borish vaqtida taraflar o‘zlaridagi zarur bo‘lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

### **3- § Jamoa kelishuvlari va ularning ijtimoiy sherik-chilik munosabatlarining tartibga solinishidagi o‘rni**

Jamoa kelishuvi hududiy va tartibga solinadigan ma- salalari jihatdan keng miqyosda amal qiladigan lokal me'yoriy hujjatdan iborat bo‘lib, muayyan kasb, tar- moq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi ma- jburiyatlarni o‘z ichiga oluvchi normativ hujjat sanaladi.


**Jamoa kelishuvi** — muayyan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi normativ hujjatdir

Jamoa kelishuvlari muzokaralarda ishtirok etayotgan taraflarning kelishuviga muvofiq ikki taraflama va uch taraflama bo'lishi mumkin. Kelishuvni tuzish vaqtida uchinchi taraf sifatida ijro etuvchi hokimiyat organi ishtirok etishi mumkin.


Kasaba uyushmalari, xodimlaming boshqa vakillik orgانلари ish beruvchi yoki ish beruvchining vakili bo'lma-gan ijro etuvchi hokimiyat organidan ular bilan ikki taraflama kelishuv tuzishni talab etishga haqli emas.

Bosh kelishuv O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi (xodimlaming boshqa vakillik orgанлари) va ish beruvchilarining Respublika miqyosidagi birlashmalari o'rtaida, taraflarning taklifiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan ham tuziladi-gan normativ hujjat sanaladi.

Bosh kelishuv ijtimoiy-iqtisodiy masalalar xususida kelishib siyosat olib borishning umumiy prinsiplarini begilab beradi.



Tarmoq kelishuvlari tegishli kasaba uyushmalari (xodimlarning boshqa vakillik organlari) va ish beruvchilar (ularning birlashmalari) o'rtaida, taraflarning taklifiga ko'ra esa O'zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi bilan ham tuziladi.



Tarmoq kelishuvlari tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, mehnat shartlari va unga haq to'lashni, tarmoq xodimlarining (kasbdoshlar guruhalining) ijtimoiy kafolatlarini belgilab beradi.

Hududiy kelishuvlar tegishli kasaba uyushmalari (xodimlaming boshqa vakillik organlari) va ish beruvchilar (ularning birlashmalari) o'rtaida, taraflarning taklifiga ko'ra esa mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan ham tuziladi.

Hududiy kelishuvlar hududlarning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish shartlarini belgilaydi.



Jamoa kelishuvlarini ishlab chiqish va tuzish muzokaralar

olib borish, kelishuvining loyihasini tayyorlash uchun taraflar teng huquqlilik asosida tegishli vakolatlar- ga ega bo‘lgan vakillardan iborat komissiyaga topshirila- di.

Komissiyaning tarkibi, muzokalaralarning muddati, o‘tkaziladigan joyi va kun tartibi taraflar qarori bilan belgilanadi.

Muzokalaralarda ishtirok etayotgan taraflarga jamoa shartnomasi, kelishuvining mazmunini tashkil etuvchi masalalarni tanlash va muhokama qilishda to‘la erkinlik beriladi.

Ish beruvchilar va ularning birlashmalari, ijro etuvchi hokimiyat organlari kasaba uyushmalariga, xodimlaming boshqa vakillik organlariga muzokalarlar uchun o‘zlarida- gi zarur ma'lumotlarni berishlari shart.

Xodimlaming tegishli pog‘onadagi vakillik organlari (ularning birlashmalari) bir nechta bo‘lgan taqdirda xod- imlar tomonidan ajratiladigan komissiya a’zolari shu or- ganlar (ularning birlashmalari) o‘rtasidagi kelishuvga mu- vofiq belgilanadi.

Jamoa kelishuvining loyihasi komissiya tomonidan ishlab chiqiladi va kelishuv qatnashchilarining vakolat berilgan vakillari tomonidan imzolanadi.

Taraflar tomonidan imzolangan jamoa kelishuvi, uning ilovalari yetti kunlik muddat ichida kelishuv ishtirokchi- lariga, shuningdek bildirish ro‘yxatidan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabat- lari vazirligining tegishli organlariga yuboriladi.

Jamoa kelishuvlarining mazmunini taraflar belgilay- dilar.

Jamoa kelishuvlarida:

- mehnatga haq to‘lash, mehnat shartlari va uni muhofaza qilish, mehnat va dam olish tartibi;
- narxlaming o‘zgarib borishiga, inflyatsiya darajasi- ga, kelishuvlarda belgilab qo‘yilgan ko‘rsatkichlarning bajarilishiga qarab mehnatga haq to‘lashni tartibga solish mexanizmi;
- eng kam miqdori qonun hujjatlarida nazarda tutil- adigan kompensatsiya tarzidagi qo‘sishma to‘lovlar;
- xodimlaming ishga joylashishiga, ularni qayta o‘qitishga

ko‘maklashish;

- ekologiya jihatidan xavfsizlikni ta'minlash hamda ishlab chiqarishda xodimlaming sog‘lig‘ini muhofaza qil- ish;
- xodimlar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha maxsus tadbirlar;
- davlat korxonalarini xususiylashtirish chog‘ida xodimlarning manfaatlariga rioya qilish;
- nogironlar va yoshlar (shu jumladan, o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslar) mehnatidan foydalanish maq- sadida ular uchun qo‘srimcha ish joylari tashkil etuvchi korxonalarga beriladigan imtiyozlar;
- ijtimoiy sheriklik hamda uch taraflama hamkorlikni rivojlantirish, jamoa shartnomalarini tuzishga ko‘maklash- ish, mehnat nizolarining oldini olish, mehnat intizomi- ni mustahkamlash to‘g‘risidagi qoidalar nazarda tutilishi mumkin.

Jamoa kelishuvlarida boshqa mehnat va ijtimoiy-iqtisadiy masalalar bo‘yicha qonun hujjatlariga zid kelmay- digan qoidalar ham bo‘lishi mumkin.

Jamoa kelishuvi u imzolangan yoki kelishuvda belgi- langan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Jamoa kelishuvining amal qilish muddati taraflar to- monidan belgilanadi va u uch yildan oshib ketmasligi lozim.

Jamoa kelishuvi vakolatlari organlari shu kelishuvni tuzgan xodimlarga va ish beruvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

#### **Fuqaro savoli:**

*Jamoa shartnomasi va kelishuvini ijro etilishi nazorat qilinadimi?*

#### **Yurist javobi:**

*Ha, albatta. Jamoa shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini taraflarninf vakillari, mehnat jamoasi, shuningdek, O‘zbekiston Raspublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining tegishli organlari tekshirib boradilar.*

*Jamoa shartnomasini imzolagan shaxslar har yili yoki shartnomaning o‘zida maxsus korsatilgan muddatlarda majburiyatlarning bajarilishi haqida mehnat jamoasining umumiyligi majlisida (konserensiyasida) hisobot berib turadilar.*

*Tekshirish olib boorish vaqtida taraflar o‘zlaridagi buning uchun zarur bo‘lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.*

Uch taraflama kelishuv tuzilgan taqdirda uning amal qilishi ijro etuvchi hokimiyatning tegishli organiga ham tatbiq etiladi.

Barcha pog'onadagi jamoa kelishuvlarining bajarilishi bevosita taraflar yoki ular vakolat bergen vakillar, shun-ingdek O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat mu-nosabatlari vazirligining tegishli organlari tomonidan tek-shirib turiladi. Tekshirish vaqtida taraflar bu ish uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim qilishlari shart.

Jamoa kelishuvi ijtimoiy sherikchilik munosabatlarini makro darajada tartibga soluvchi lokal me'yoriy hujjat sifatida mehnat sharoitlarini tarmoq hamda yirik hudud doirasida belgilanishida muhim o'rinn tutadi hamda tar-moq doirasida xodimlar moddiyturmush, ishlab chiqarish sharoitlarini o'zaro yaqinlashtirishga, keng miqyosda ijti-moiy muhofaza choralarini ko'rilib shiga xizmat qiladi.

#### ***Mavzu bo'yicha nazorat savollari:***

1. Mehnat munosabatlari tartibga solinishida lokal me'yoriy hujjatlar qanday o'rinn tutadi?
2. Jamoa shartnomasi nima va uning funksiyalari nimalardan iborat?
3. Jamoa shartnomasining mazmuni nimalar, uning taraflari kimlar, jamoa shartnomasi tuzish prinsiplari haqida so'zlab bering.
4. Jamoa kelishuvi nima va u qanday ijtimoiy vazi-falarni bajaradi?
5. Jamoa kelishuvining taraflari bo 'lib kimlar qatnashadilar?

#### ***Mavzu yuzasidan kasuzlar.***

1. «BestDream» MChJning jamoa shartnomasida normalanmagan ish vaqtida uchun xodimlarga qo'shimcha pul to'lovlarni to'lashga oid normalar kiritilgan bo'lib, uni kiritish uchun korxona mehnat jamoasining 98% ovoz bergen, vaholanki normalanmagan ish vaqtida Mehnat ko-deksida nazarda tutilmagan.

***Vaziyatga amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda***

## *huquqiy baho bering.*

2. «Asaka» DAK bankining boshqaruv raisi bank yuristiga korxonaning jamoa shartnomasini ishlab chiq- ish vazifasini berdi. Loyiha tayyor bo‘lgach, u direktor- lar boshqaruv majlisida muhokama etilib rais tomonidan tasdiqlangan. Shahar kasaba uyushmasi tomonidan tashkil etilgan tekshiruv jarayonida mazkur jamoa shartnomasi haqiqiy emas deb topildi. Tekshiruv natijasida proku- ratura tomonidan korxona rahbariyatiga lokal hujjatlar- ni amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish talabi bilan taqdimnoma kiritildi.

## *Vaziyatga amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda huquqiy baho bering.*

3. Korxonaga yangi qabul qilingan xodim kadrlar bo‘limi boshlig‘i oldiga kelib, korxonada tuzilgan jamoa shartnomasining tegishli bandiga ko‘ra, 3 yoshga to‘lma- gan bolasi bor ayol xodimlarga ko‘shimcha tarzda o‘rt- acha oylik ish haqining 25 % miqdorida pul to‘lanishi unga ham tatbiq etilishi yoki etilmasilinigini so‘radi. Xo- dimlar bo‘limi boshlig‘i ushbu qo‘shimcha to‘lov unga dastlabki sinov muddatidan so‘ng to‘lanishini ma'lum qildi.

## *Xodimlar bo‘limi boshlig‘ining ushbu xatti harakati- ni qonun hujjatlariga asosan tahlil qiling.*

## **GLOSSARIY**

**Jamoa shartnomasi** - korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o‘rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatdir.

**Jamoa kelishivi** — muayyan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o‘z ichiga oluvchi normativ hujjatdir.

**Kasaba uyushmasi** - ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga ko‘ra o‘z a’zola- rining mehnat huquqlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog‘langan fuqarolarn- ing jamoat birlashmasidir.

**Ijtimoiy sheriklik** -bu mehnat munosabatlari va ular bilan

bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa munosabatlar- ni tartibga solish bo‘yicha xodimlar va ish beruvchilar manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlashga qaratilgan xodimlar (ularning vakillari), ish beruvchilar (ularning vakillari), davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv or- ganlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi.

**Bipartizm (Tripartizm)** - bu ixtiyoriy bo‘lib, to- monlarning mustaqilligi va teng huquqliligiga, xodimlar vakilligi va ish beruvchilar vakilligining milliy va xalqa- ro miqyosda, shuningdek mehnat nizolarini hal qilishda va qo‘llashda mehnat munosabatlari (muloqotlar, masla- hatlashuvlar, muzokaralar) ga asoslangan o‘zaro ta’siridir. Agar bunday hamkorlik uch tomon: xodimlar vakilligi, ish beruvchilar va davlat hokimiyati organlari ishtirokida amalga oshirilsa, u tripartizm deb ataladi.

#### **IV MAVZU. MEHNAT SHARTNOMASI**

*Mehnat shartnomasi tushunchasi. Mehnat shartnomasining shakli va muddatlari. Mehnat shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish. Xodimni boshqa ishga o‘tkazish tartibi. Mehnat shartnomasini bekor qilish. Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilish. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslari va tartibi. Mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar bo‘yicha bekor qilish.*

##### **1- §. Mehnat shartnomasi tushunchasi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsa- tilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan<sup>4</sup>.

Xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi mehnatga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelib

---

<sup>4</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018 y., 03/18/498/2051-son)

chiqishiga asos, ya'ni yuridik fakt bo'lib hisobla- nadi. Mehnat shartnomasi taraflarining huquq va ma- jburiyatlari mehnat shartnomasi tuzilgandan so'ng yuzaga kelib chiqadi. Mehnat shartnomasi mehnat huquqining ne- gizi bo'lib, mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tartib- ga solishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mehnat shartnomasini tuzish jarayonida uning taraflari mehnatga oid huquqiy munosabatlarning modelini belgilab oladilar. Mehnat shartnomasi imzolangan paytdan boshlab yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi.

*[Mehnat shartnomasi - xodim bilan ish beruvchi o'rtasi- dagi muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozimga oid ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjat- lar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir]*

Mehnat shartnomasining asosiy belgilar quyidagilar- dan iborat bo'ladi:

**a) muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim (mehnat funksiyasi) bo'yicha ishslash.**

Bunda mehnat shartnomasida taraflar kelishuviga ko'ra belgilangan aniq bir mutaxassislik, malaka yoki lavozim doirasida har qanday ishning bajarilishi mehnat shartnomasining predmeti hisoblanadi. Shu sababli, agar xodim muhandis, o'qituvchi, sotuvchi, bog'bon, farrosh va shu kabilar sifatida ishga qabul qilinayotgan bo'lsa, u bilan qanday muddat davomida mehnat qilishidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi tuziladi.

**b) xodim mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan ish- ni shaxsan o'zi bajarishi.**

Xodim mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan muayyan mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha ishni shax- san o'zi bajarishi shart. U mazkur ishni bajarishni bosh- qa biror shaxsga topshirishga yoki uni bajarish uchun boshqa shaxslarni jalg etishi mumkin emas.

**v) xodimning ichki mehnat tartibi qoidalariga bo'ysunishi.**

Mehnat munosabatlarda mehnat shartnomasi taraflari teng bo'lishi bilan bir vaqtida, xodim ish beruvchining qonuniy topshiriqlariga mazkur shartnoma doirasidagina bo'ysunadi, ya'ni

xodim zimmasiga ichki mehnat tartibi qoidalariga bo‘ysunish majburiyati yuklanadi.


*g) mehnat shartnomasida haq to‘lash ko‘zda tutil- ishining alohida xususiyati.*

Mehnat shartnomasi bo‘yicha haq to‘lashning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, xodim tomonidan ish uning mehnatiga haq to‘lash vositasida amalga oshiriladi. Bunday haq to‘lash xususiy-huquqiy (fuqarolik huquqi- ga xos bo‘lgan) usullar asosida ham, ommaviy-huquqiy usullar asosida ham tartibga solinadi.

*d) mehnat shartnomasi tuzgan xodim korxona mehnat jamoasiga kiritilishi.*

O‘zR MKning 72-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, **xodim** va **ish beruvchi** mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib hisoblanadilar.

Umumiy qoidaga ko‘ra, ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan yo‘l qo‘yiladi. Istisno hollarda ota-onasidan bir- ining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan bir- ining yozma roziligi bilan yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarining o‘quvchilarini ularning sog‘lig‘iga hamda ma’nnaviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta’lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o‘qish- dan bo‘sh vaqtida bajarishi uchun - ular o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.



Mehnat shartnomasini tuzish jarayonida xodimlarning qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlari darajasi pasaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zR MKning 5-moddasi). Taraflarning mehnat huquqlari va majburiyatları yig'indisi mehnat shartnomasining mazmunini tashkil etadi. Mehnat shartnomasining mazmuni - taraflar kelishuvi bo'yicha, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.



Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan quy'idagi **asosiy shartlar** belgilanadi:

- ish joyi (korxona yoki uning bo'linmasi);
- xodimning mehnat vazifasi - mutaxassisligi, mal-akasi, u ishlaydigan lavozim;

- ishning boshlanish kuni;
- mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;
- mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

Ba'zi mehnat shartnomalarini tuzishda zarur shartlar ro'yxatini kengaytirilishi mumkin.

*Masalan: muddatli mehnat shartnomasini tuzishda ishning nafaqat boshlanish sanasi, balki uning tamom bo'lish sanasi ham belgilab qo'yiladi. O'rindoshlar bilan mehnat shartnomasini tuzilayotganda qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan kundalik ish vaqtining aniq muddati bevosita mehnat shartnomasida belgilanadi.*

Taraflarning kelishuviga ko'ra, mehnat shartnomasi mazmuniga taraflarning majburiyatlarini aniqlash, ularni to'ldirish, xodimga qo'shimcha imtiyoz va afzalliklar berilishni nazarda tutgan **qo'shimcha shartlar** ham kiritilishi mumkin.

Jumladan, xodim dastlabki sinov muddati bilan ishga qabul qilinayotgan hollarda, dastlabki sinovning aniq muddati belgilanishi; tarif stavkalari, mansab maoshlari, qo'shimcha haqlar, ustamalar, mukofotlar va boshqa tarzdagi to'lovlarning yuqoriroq miqdorini yakka tartibda belgilash; xodim uchun to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish haftasi, qisqartirilgan ish vaqt, ish kunining boshlanishi va tamom bo'lishi; ijtimoiy-maishiy tusdagi shartlar, masalan, transport xizmati, muddatli mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda neustoyka to'lash kabi shartlar kiritilishi mumkin.

## 2- §. Mehnat shartnomasining shakli va muddatlari.

O'zR MKning 74-moddasiga ko'ra mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnomasining shakli O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 1997-yil 11-martdagi 133-sodan qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy mehnat shartnomasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur hujjatda yozma holdagi mehnat shartnomasini tuzish

yuzasidan tavsiyalar tasdiqlangan<sup>5</sup>.

Mazkur tavsiyalarda ko'rsatilganidek, xodimning tal- abiga ko'ra, mehnat shartnomasi u biladigan tilda tuzila- di va davlat tilida tuzilgan shartnoma bilan bir xil kuch- ga ega bo'ladi.

Mehnat shartnomasi teng kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi.

Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko'rsa- tiladi.

Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdon shaxsning imzosi bilan mustahkamlanib, uning tasdiqlangan muddati ko'rsatiladi. Bunday tasdiqlash imzoning haqiqiy va vakolatli ekanini ko'rsatadi.

Mehnat shartnomasi O'zR MKning 75-moddasida bel- gilanganidek, quyidagi muddatlarga:

nomuayyan, ya'ni amal qilish muddati ko'rsatilmagan muddatga;

besh yildan ortiq bo'limgan muddatga;

muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuziladi.

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish mudda- ti ko'rsatilmagan bo'lsa, mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnoma- si xodimning roziligesiz muayyan muddatga, shuningdek muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab qayta tuzilishi mumkin emas.

Muddatli mehnat shartnomasi bajarilajak ishning xus- usiyatlari, uni bajarish shartlari yoki xodimning manfaat- larini hisobga olib, nomuayyan muddatga mo'ljallangan mehnat shartnomalarini tuzish mumkin bo'limgan hollar- da, korxonalar, uning o'rinosarlari, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'limgan taqdirda, mazkur vazifani bajaruvchi xodim bilan, shun- ingdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda tuziladi.

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagи 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yozma holdagi mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzish yuzasidan tavsiyaları».

**Fugaro savoli:** Uch yildan beri korxonada uslubchi bolib ishlab kelayotgan xodimning mehnat shartnomamda uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan. Bu uni haqiqiy emas, deb hisoblanishiga olib kelmaydimi?

**Yurist javobi:** Yo'q, albatta. O'zR MKning 75-moddasi- ga ko'ra, mehnat shartnomalari: nomuayyan muddatga; besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga; muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, mehnat shartnomasi nomuayyan mud- datga tuzilgan, deb hisoblanadi.

### **3-      §. Mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish.**

O'zR MKning 78-moddasiga binoan, ishga qabul qil- ishni g'ayriqonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yilmay- di. Ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etish deb quyidagilar hisoblanadi:

O'zR MKning 6-moddasi talablarini buzish;

ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ish- ga qabul qilmaslik;

ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo'lgan shaxslarni (belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga yuborilgan shaxslarni; homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarni - tegishincha ularning homiladorligi yoki bolasi borligini vaj qilib) ishga qabul qilmaslik;

muqaddam sudlangan shaxslarni ishga qabul qilmas- lik, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno, yoxud shaxslarni ularning yaqin qarindoshlari sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilmaslik.

Harbiy xizmatga chaqirilgan (o'tgan) xodim rezervga bo'shatilgan yoki iste'foga chiqqanidan keyin, basharti, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo'shinlaridan bo'shatilgan kunidan boshlab uzog'i bilan uch oy ichida ishga joylashish mas- alasida ish beruvchiga

murojaat etgan bo'lsa, avvalgi ish joyida ishga joylashish huquqiga egadir.

Davlat organlaridagi saylab qo'yiladigan lavozimlar- ga saylanganligi tufayli ishdan ozod qilingan xodimlarga saylab qo'yiladigan lavozimdagi vakolatlari tugagandan keyin avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (la- vozim) mavjud bo'lmasa, avvalgisiga teng ish (lavozim) beriladi.

Sudyalik lavozimiga saylanganligi yoki tayinlanganligi tufayli ishdan ozod qilingan xodimlarga ularning vakolat- lari tugaganidan keyin sudyalik lavozimiga saylanishiga yoki tayinlanishiga qadar egallab turgan avvalgi ishi (la- vozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lma- ganda esa, avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) beriladi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini ka- maytirish taqiqlanadi.

*Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda, xodimning talabi bilan ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etish- ning sababini asoslab uch kun muddat ichida yozma javob berishi shart, bu javob ishga qabul qilish huquqi- ga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolan- gan bo'lishi lozim.* Asoslantirilgan javob berish haqidagi talablarni qondirishni rad etish xodimning ishga qabul qilish g'ayriqonuniy ravishda rad etilganligi ustidan shi- koyat qilishiga to'siq bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli qarori bilan davlat (ak- siyadorlik) korxonalarida birga xizmat qilishni cheklash qoidalaridan istisno etilishi mumkin bo'lgan xodimlar ro'yxati tasdiqlangan.

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni:

pasport yoki uning o'rnini bosadigan boshqa hujjatni, o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar esa, - tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma va turar joyidan ma'lumotnomani;

birinchi marotaba ishga kirayotgan shaxslardan tash- qari, mehnat daftarchasini, o'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasi o'rniga asosiy ish joyidan olgan ma'lumotnomani;

harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar te- gishincha harbiy biletni yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

qonun hujjatlariga muvofiq maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo'lgan ishlarga kirayotganda oliy yoki o'rtta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni yoxud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnomani yoki boshqa tegishli hujjatni taqdim etadi.

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxsdan qonun hujjatlarida ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

Agar ishga kirayotgan shaxsning pasporti yoki shaxsi- ni tasdiqlovchi boshqa hujjati haqiqiy bo'lmasa, uni ish- ga qabul qilish rad etilishi mumkin.

O'zR MKning 81-moddasiga ko'ra, ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasi tutishi shart.

Mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tas- diqlovchi asosiy hujjat bo'lib, mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarda besh kundan ortiq ishlagan, shu jumladan, muayyan muddatga yollanganlarga, shuningdek davlat ij- timoiy sug'urta qilinishi ko'zlangan taqdirda, shtatlar jad- validan tashqari xodimlarga ham yuritiladi.

Mehnat daftarchalarini yuritish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 29-yanvarda 402-raqa- mi bilan ro'yxatga olingan mehnat daftarchasini yuritish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga asosida amalga oshiriladi.

Mehnat daftarchasi O'zbekiston Respublikasining dav- lat tilida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa qoraqalpoq yoki O'zbekiston Respublikasi davlat tilida ish beruvchi tomonidan xodimning ishtirokida to'ldiriladi.

Mehnat daftarchasiga ishga qabul qilish, boshqa do- imiy

ishga o'tkazish (jamoa shartnomasida ko'rsatilgan hollarda ishlab chiqarish zarurati bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazish bundan mustasno), mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlar yoziladi.

Shuningdek, xodimning iltimosiga ko'ra, mehnat daftarchasiga o'rindoshlik asosida ishlagani va vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrlari haqidagi yozuvlar ham kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sa- bablari) mehnat daftarchasida qayd etilmaydi.

*Dastlabki sinov. Xodimning topshirilayotgan ishga layoqatligini tekshirib ko'rish hamda xodim mehnat shartnomasida shartlashilgan ishni davom ettirishning maqsadga muvofiqligi haqida bir qarorga kelishi maq-sadida mehnat shartnomasi dastlabki sinov sharti bilan tuzilishi mumkin.*

*Dastlabki sinovni o'tash haqida mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi lozim. Bunday shartlashuv bo'lmagan taqdirda xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi*

Homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, korxona uchun belgilangan minimal ish joy- lari hisobidan ishga yuborilgan shaxslar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining hamda oliy o'quv yurtlarining tegishli ta'lim muassasasini tamomlagan kun- dan e'tiboran uch yil ichida bиринчи bor ishga kirayot- gan bitiruvchilari ishga qabul qilinganda, shuningdek xo- dimlar bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilib, ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilan- maydi.

Dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emas. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga kiritilmaydi.

Dastlabki sinov davrida xodimlarga mehnat to'g'risi- dagi qonun hujjatlari va korxonada o'rnatilgan mehnat shartlari to'liq

tatbiq etiladi. Dastlabki sinov davri mehnat stajiga kiritiladi.

Dastlabki sinov muddati tugagunga qadar har bir taraf ikkinchi tarafni uch kun oldin yozma ravishda og- ohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishi mumkin. Mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi ogohlan- tirish muddatini qisqartirishga faqat shartnoma taraflarin- ing kelishuvi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Bunday holda ish beruvchi mehnat shartnomasini sinov natijasi qoniqarsiz bo‘lgandagina bekor qilishi mumkin.

Agar dastlabki sinov muddati tugagunga qadar tara- flardan birortasi ham mehnat shartnomasini bekor qilishni talab qilmagan bo‘lsa, shartnomaning amal qilishi davom etadi va bundan keyin uni bekor qilishga umumiy aso- slarda yo‘l qo‘yiladi.

#### *Fuqaro savoli:*

*Menga ishga qabul qilish vaqtida 3 oylik sinov mudda- ti sharti belgilangan edi. Sinov muddatining 2 oyini o‘tadim. Bugun esa boshlig‘im bilan aytishib qoldik va ariza yozib, 3 kundan keyin mehnat shartnomasini bekor qilishish to‘g‘risida rahbarimni ogohlantirdim. Ma‘lum vaqt o‘tgach,, o‘z fikrimni o‘zgartirdim. Yozgan arizamni qaytarib olsam bo‘ladimi?*

**Yurist javobi:** Ha, albatta. Arizangizni qaytarib olishin- gizga yo‘l qo‘yiladi. O‘zR MKning 87-moddasi 3-chi qismiga ko‘ra, ushbu moddarining 1-chi qismida nazarda tutilgan yoki mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan belgilab ol- ingan ogohlantirish muddati mobaynida xodim mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to‘g‘risida berilgan arizani qay- tarib olishga haqlidir.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnoma- si asos bo‘ladi.

Korxona rahbarini, uning o‘rinbosarlari, bosh bux- galterni ishga qabul qilish korxona mulki egasining huquqi bo‘lib, bu huquqni u bevosita, shuningdek o‘zi vakil qilgan organlar orqali yoki korxonani boshqarish huquqi berilgan korxona kengashi, boshqaruvi, boshqa organlar orqali amalga oshiradi.

Korxona rahbari mulkdor unga bergen vakolatlar doirasida xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzadi.

Ishga qabul qilish haqidagi buyruq tuzilgan mehnat shartnomasining mazmuniga to'liq muvofiq ravishda chiqarilishi kerak.

Buyruq xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

O'zR MKning 82-moddasi 6-qismiga ko'ra ishga qa- bul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs to- monidan yoki uning ijozati bilan xodimga ishslashga rux- sat etilgan bo'lsa, ishga qabul qilish tegishli ravishda rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmaganidan qat'i na- zar, ish boshlangan kundan e'tiboran mehnat shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

#### ***Fuqaro savoli:***

*Men ishga joylashayotgan tashkilotning kadrlar bo'limida menga mehnat shartnomasini imzolashni taklif qilishdi, biroq shu bilan birga meni ishga qabul qilish to'g'risida buyruq hali imzolanmaganini aytishdi. Ish beruvchining buyrug'i chiqmasdan turib mehnat shartnomasini imzolashim mumkin- mi, axir buyruq mazmuni va unda qanday lavozim ko'rsatil- ganligini bilmaymanku?*

#### ***Yurist javobi:***

*Ha, imzolashingiz mumkin. Mehnat kodeksining 82-mod- dasi 1-chi qismiga ko'ra, ishga qabul qilish ish beruvchin- ing buyrug'ini chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi. Shunday qilib, avval mehnat shartnomasi tuziladi va shundan keyin buyruq chiqariladi. Buyruq mazmunitan havotir olmang. Mehnat kodeksining 82-moddasi 4- chi qismiga ko'ra, ishga qabul qilish haqidagi buyruq tuz- ilgan mehnat shartnomasining mazmuniga to'la muvofiq rav- ishda chiqariladi.*

Mehnat shartnomasi taraflari o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi u imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi. Xodim shartnomada belgilab qo'yilgan kundan boshlab o'zining mehnat vazifalarini bajarishga kirishishi lozim bo'ladi.

Agar mehnat shartnomasida ishning boshlanish kuni haqida shartlashilmagan bo'lsa, xodim mehnat shartnoma- si imzolangan ish kunining (smenaning) ertasidan kechik- may ishga tushishi lozim.

Xodim o‘ziga yuklatilgan mehnat vazifalari bilan old- indan tanishtirilishi shart (O‘zR MKning 178-moddasi).

**O‘zR MKning 88-moddasida mehnat shartlarini belgilash va o‘zgartirishning umumiy tartibi belgilab qo‘yilgan.**

Ijtimoiy omillar jumlasiga mehnat haqi miqdori, ish vaqt hamda ta’til muddati va boshqa shartlar kiradi. Texnika, sanitariya, gigiena, ishlab chiqarish-maishiy va boshqa shartlar ishlab chiqarish omillari hisoblanadi.

Xodimning mehnat faoliyati doimo muayyan mutax- assislik (ixtisos), malaka yoki lavozimga oid ishni bajar- ish bilan bog‘liq bo‘ladi. Mehnat shartnomasida muayyan shartlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, ayni vaqtida xodimning mehnat faoliyati aniq ish joyida (muayyan korxona, uning tarkibiy bo‘linmasida) amalga oshiriladi. Demak, mehnat shartnomasining shartlarini tashkil etuvchi yuqoridaqgi omillarning o‘zgartirilishida mehnat shartnomasining ham o‘zgartirilishi tushuniladi.

Mehnat shartnomasini o‘zgartirish umumlashgan tush- uncha bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- mehnat shartlari;
- xodimning mehnat vazifasi;
- ishni bajarish joyining o‘zgartirilishi.

O‘zR MKning 88-moddasiga binoan, mehnat shartlari mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjat- lar, shuningdek mehnat shartnomasi taraflarining kelishu- vi bilan belgilanadi.

**Mehnat shartlari deganda, mehnat jarayonida kechadigan ijtimoiy va ishlab chiqarish omillarining jami tushuni-**

**ladi      *Umumiy qoidaga ko‘ra, mehnat shartlarini o‘zgartirish, ular qaysi tartibda belgilangan bo‘lsa, xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.***

Mehnat shartnomasi mazmuniga kiritilgan mehnat shartlarini o‘zgartirishga taraflaridan birining talabi bilan O‘zR MKning 89 va 90-moddalarida nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

Amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan mehnat shartlari jamoa shartnomasi va kelishuvlarida, boshqa lo- kal tusdagi hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasi- da xodim uchun qulay tomonga o‘zgartirilishi mumkin (masalan, uzaytirilgan yoki qo‘simecha ta’tillar, eng kam ish haqining oshirilgan miqdori, bayram va dam olish kunlarida, tungi vaqtida bajarilgan ishlar uchun oshirilgan miqdorda haq to‘lash shular jumlasiga kiradi).

***Ish beruvchining tashabbusi bilan xodim roziligidiz mehnat shartlarini o‘zgartirish.*** Umumiy qoidagi ko‘ra, mehnat shartnomasida taraflar shartlashib qo‘ygan mehnat shartlarini o‘zgartirishga faqat xodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi kelishuv bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi.

O‘zR MKning 89-moddasiga ko‘ra, ish beruvchi xod- imning roziligidiz mehnat shartlarini faqat texnologiyada- gi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishdagi o‘zgar- ishlar, ishlar (maxsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishi kabi sabablar xodimlar soni yoki ish xususiyatini o‘zgar- tirishga olib kelishi oldindan aniq bo‘lgan hollardagina o‘zgartirishi mumkin.

Ish beruvchi ayrim toifadagi xodimlar uchun mehnat shartlarini o‘zgartirish haqida korxonadagi xodimlarning vakillik organi bilan oldindan maslahatlashib olishi, ish beruvchi kelgusida mehnat shartlarini o‘zgartirish ehtimo- li haqida xodimni kamida ikki oy oldin yozma ravish-

da ogohlantirib, tilxat olishi shart. Ko'rsatilgan muddatni qisqartirishga faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yil- ishi, ko'pchilik xodimlar guruhi uchun mehnat shartlari noqulay tarzda o'zgargan taqdirda, ish beruvchi mahalliy mehnat organiga bunday o'zgartirishning sababi haqida ma'lumot berishi shartligi, xodim bilan mehnat shartno- masi u yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etgani sababli bekor qilinishi mumkinligi, bunday hollarda xodimiga o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'limgan miqdorda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanishi kerakligi, xodim ish beruvchi tomonidan mehnat shartlari o'zgartirilgani haqida sudga shikoyat qilishga haqliligi, nizoni ko'rish vaqtida avvalgi mehnat shartlarini saqlab qolish imkoniyati yo'qligini isbotlab berish majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatilishi kabi kafolatlar nazarda tutilgan.

***Xodim talabiga binoan mehnat shartlarini o'zgar- tirish.***

O'zR MKning 90-moddasi 1-qismiga muvofiq, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjat- larda nazarda tutilgan hollarda xodim ish beruvchidan mehnat shartlarini o'zgartirishni talab qilishga haqlidir.

Bunday holatlар O'zR MKning 218, 226, 227, 228, 228<sup>1</sup>, 229, 230, 232 va boshqa moddalarida nazarda tutilgan. Mehnat qonunchiligidagi alohida ijtimoiy himoya- ga muhtoj bo'lgan xodim tomonidan mehnat shartini o'zgartirishni talab qilishi ko'zda tutilgan.

***Masalan:*** muayyan xodimga TMEK tomonidan nogironlik guruhi belgilangan taqdirda unga ish vaqtini qisqartirish, 30 kalendar kundan iborat mehnat ta'tili berilishini va boshqa shartlarni o'zgartirishni talab qilish imkoniyati tug'iladi.

Xodimning mehnat shartlarini o'zgartirishni talab qil- ish huquqi jamoa kelishuvlarida, shuningdek korxonada qabul qilingan lokal hujjalarda ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

***Masalan:*** rafiqasi homiladorlik va tug'ish otpuskasiga chiqqan vaqtda eri uchun qisqartirilgan ish kuni yoki ish xafasini belgilash jamoa shartnomasida aks ettirilishi mumkin.

Xodimning mehnat shartlarini o‘zgartirish haqidagi arizasi, berilgan kundan e’tiboran 3 kundan kechiktirmay, ish beruvchi tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim.

Mehnat shartnomasida shartlashib olingen ishni bajar- ish joyining o‘zgarishi deganda, asosan korxona tarkibiy bo‘linmasining (bo‘lim, sex, uchastka, filial, va hoka- zolar) o‘zgargani tushuniladi. Muhimi, ish joyi o‘zgar- tirilganda mehnat shartnomasining boshqa barcha shart- lari saqlanib qoladi.

#### **4-§. Xodimni boshqa ishga o‘tkazish tartibi**

Boshqa ishga o‘tkazish muddatiga qarab ikki turga bo‘linadi: *doimiy va vaqtincha* boshqa ishga o‘tkazish.

O‘zR MKning 92-moddasiga ko‘ra *boshqa doimiy ishga o‘tkazishga*, ya’ni unga boshqa mutaxassislik, mal- aka, lavozimga oid ishni topshirishga faqat uning roziligi bilan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Ish beruvchi mehnat shartlaridagi bo‘lajak o‘zgarishlar to‘g‘risida xodimni kamida ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, tilxat olishi shart. Ushbu muddat faqat xod- imning roziligi bilan qisqartirilishi mumkin.

Xodim yangi mehnat shartlarida ishslashni davom et- tirishni rad etsa, mehnat shartnomasi ayni shu sababga ko‘ra bekor qilinadi (O‘zR MKning 89-moddasi to‘rtin- chi qismi).

Xodim yuqorida keltirilganlardan tashqari boshqa holatlarda ham o‘z roziligi bilan doimiy boshqa ishga o‘tkazilishi mumkin.

*Masalan: homilador ayollar (O‘zR MKning 226-modda- si), ikki yoshga to‘limgan bolasi bor ayollar (O‘zR MKning 227-moddasi) avvalgi ishlarini bajarishi mumkin bo‘limgan taqdirda, boshqa nisbatan yengilroq yoki ishlab chiqarish omillarining ta’siridan holi bo‘lgan ishga o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.*

O‘zR MKning 93-moddasida mehnat shartnomasida xodimni taraflarning kelishuvi bo‘yicha vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish nazarda tutiladi.

### **[Vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish**

(-----	■x r	taraf�arining kel- ishuvi bo‘yicha vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish	xodimning tashab- busi bilan vaqtin- cha boshqa ishga o‘tkazish	ish beruvchining tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish	X.

O‘zR MKning 94-moddasida xodimning tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o‘tkazishning ikkita shar- ti nazarda tutilgan. Xodimning vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish haqidagi iltimosi:

birinchidan, agar uning bu iltimosi uzrli sabablar tu- fayli kelib chiqqan bo‘lsa;

ikkinchidan, bunday ish korxonada mavjud bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan qanoatlantirilishi kerak.

Bundan tashqari, xodimlar sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra, vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta’siridan holi bo‘lgan ishga o‘tka- zish, shuningdek homilador ayollarni va ikki yosh- ga to‘limgan bolasi bor ayollarni vaqtinchalik boshqa ishga o‘tkazish (O‘zR MKning tegishli 218, 226 va 227-moddalari) kabi holatlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O‘zR MKning 95-moddasiga ko‘ra, ish beruvchi xodimning roziligesiz ishlab chiqarish zarurati mavjud bo‘lgan, shuningdek korxonada bekor turib qolingga hol- lardagina vaqtincha boshqa ishga o‘tkazishi mumkin.

Bunda xodim vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilgan davr- da unga bajarayotgan ishiga qarab, lekin avvalgi o‘rtacha ish haqidan kam bo‘limgan miqdorda ish haqi to‘lanadi.

Boshqa ishga o‘tkazish muddatining chegarasi, mehnatga to‘lanadigan haqning aniq miqdori, shuningdek ishlab chiqarish zarurati deb hisoblangan holatlar jamoa shartnomasida ko‘rsatiladi, agar jamoa shartnomasi tuzil- magan bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning va- killik organi bilan kelishib

belgilanadi.

**Fuqaro savoli:**

*Agar men boshqa sexga ishga o'tishni rad etsam, meni ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarayotganligi sababli tuga- tilayotgan korxonamizdan ishdan bo'shatishlari mumkinmi?*

**Yurist javobi:**

*Mumkin, agar siz yangi mehnat shartlari asosida ishlash- ni davom ettirishni rad etsangiz, sizga Mehnat kodeksining 89-moddasi 4-chi qismi tadbiq etiladi, unga ko'ra, xodim bilan mehnat shartnomasi u yangi mehnat shartlari asosida ishslashni davom ettirishni rad etganligi sababli bekor qilini- shi mumkin, bunda xodimga o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lмаган miqdorda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi.*

Sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lган ishga o'tka- zishga muhtoj xodimlarni ish beruvchi vaqtincha boshqa ishga o'tkazishi shart. Sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lган kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda xo- dimning shunday ishga o'tkazilgan kunidan boshlab ikki xafta mobaynida avvalgi o'rtacha oylik ish haqi saqla- nadi.

**Masalan:** O'zR MKning 226-moddasiga ko'ra, tibbiy xu- losaga muvofiq, xomilador ayollar yengilroq yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lган boshqa ishga o'tkaziladi. Bunday hollarda, ularning avvalgi ishidagi o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

Boshqa doimiy ishga o'tkazish haqida buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga kiritilgan o'zgarishlar asos bo'lib, buyruq mehnat shart- nomasiga kiritilgan o'zgartirishlarning mazmuniga mu- vofiq holda chiqariladi va xodimga ma'lum qilinib, un- dan tilxat olinadi.

Vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish uning muddati ko‘rsatilgan holda buyruq bilan rasmiylashtirilib, vaqtin- cha boshqa ishga o‘tkazishlar mehnat shartnomasida aks ettirilmaydi.

Mehnat shartlarini o‘zgartirish, shuningdek ish joy- ini o‘zgartirish ish beruvchining buyrug‘i bilan ras- miylashtiriladi. Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini o‘zgartirish haqida buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga kiritil- gan o‘zgartirishlar asos bo‘ladi.

Mehnat shartnomasida muayyan ish joyi aniq ko‘rsat- ib qo‘yilgan hollarda ish joyini o‘zgartirish haqida buyruq chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga kiritilgan o‘zgartirishlar asos bo‘ladi.

## 5- §. Mehnat shartnomasini bekor qilish

Odatda, mehnat shartnomasini bekor qilish kim to- monidan tashabbus ko‘rsatilganligiga qarab, uni bekor qilish asoslarini besh guruhga ajratish mumkin. Bu aso- slar O‘zR MKning 97-moddasida belgilab qo‘yilgan:

Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (O‘zR MKning 97-moddasi)		
/ ■ X		
Taraflar-ning kelishuviga ko‘ra. Ushbu asosga bino- an mehnat	V	V Taraflar ixtiyoriga
shartnomasi- ning barcha turlari istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.	( ----- , ----- Taraflardan birining tash- abbusi bilan	Muddat-ning tugashi bilan.
X — — z		bo‘lma-gan holatlarga ko‘ra
		Yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo‘yicha o‘tmaganligi) yoxud saylan- ishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munos- abati bilan

Mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to‘g‘risidagi shart mehnat shartnomasida bu shartnomada ish beruvchi tomonidan korxonalarini, uning o‘rinbosar- lari, bosh buxgalter bilan, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo‘lmasan taqdirda esa, bosh buxgalter vazifasini amalga oshiruvchi xodim bilan tuzilganda, shuning- dek qonunda yo‘l qo‘yiladigan boshqa hollarda ham nazarda tutilishi mumkin

**Taraflarning kelishuvi bo‘yicha mehnat shartnomasini bekor qilish.** O‘zR MK 97-moddasining 1-bandida ko‘rsatilganidek, taraflarning kelishuvi mehnat shartnomasini bekor qilish uchun mustaqil asos bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu asosga binoan mehnat shartnomasining barcha turlari, ya'ni nomuayyan muddatga tuzilgan yoki besh yilga qadar muddatga, shuningdek muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilgan shartnomalar istalgan va- qtda bekor qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini (kontraktni) bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanilishi haqida» 1998 yil 17 apreldagi 12-sonli qarorining 14-bandida ta'kidlanganidek, avvalo, mehnat shartnoma-sini O'zR MKning 97-moddasi 1-bandiga binoan bekor qilish bilan bog'liq nizolarni ko'rishda xodim bilan ish beruvchi o'rtasida chindan ham mehnat munosabatlarini bekor qilish haqida kelishuv bo'lganbo'lmananini aniqlash zarur hisoblanadi. Ushbu asosga ko'ra, shartno-ma taraflar belgilagan muddatda bekor qilinadi.

O'zR MKning 97-moddasi 1-bandi bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi kelishuvni bekor qilishga, shuningdek shu asosga ko'ra mehnat munosabatlarini bekor qilish sanasini o'zgartirishga xodim va ish beruvchining kelishuvi bilanshina yo'l qo'yiladi.

#### **6- §. Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilish.**

O'zR MKning 99-moddasiga muvofiq xodim, nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham, ikki hafta oldin bu haqda ish beruvchini yozma ravishda ogohlantirib, bekor qilishga haqlidir. Xodim har qanday holatda, ya'ni ish davrida, ta'til vaqtida, xizmat safarida bo'lган yoki kasallik davrida, shuningdek davlat hamda jamoat vazifalarini bajarayotgan paytda ish beruvchini ogohlantirishi mumkin.

Ogohlantirish muddati tugagandan so'ng xodim ishni to'xtatishga haqli bo'lib, ish beruvchi esa buyruq chiqarishi, unga mehnat daftarchasini berib, u bilan hisob-kitob qilishi kerak.

Nomuayyan muddatga tuzilgan, shuningdek muddatli mehnat

shartnomasini bekor qilish haqida ish beruvchini ogohlantirgan xodim ogohlantirish muddati tugagunga qa- dar, o‘z arizasini qaytarib olishi mumkin.

Xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini be- kor qilish haqidagi arizada uning tomonidan ishni davom ettirish imkoniyati yo‘qligi dalillar bilan asoslangan (o‘quv yurtiga qabul qilingani, pensiyaga chiqqani, say- lanib qo‘yiladigan lavozimga saylangani va h.k.) taqdir- da, ish beruvchi mehnat shartnomasini xodim iltimos qil- gan muddatda bekor qilishi shart.

Mehnat shartnomasi ikki haftalik ogohlantirish mud- dati tugagunga qadar ham ish beruvchi bilan xodimning kelishuviga ko‘ra, bekor qilinishi mumkin.

Arizani berish sanasi uni ish beruvchiga (korxona boshlig‘iga, kadrlar bo‘limiga, devonxonaga va boshqa- larga) topshirilgan kun hisoblanadi, ogohlantirish muddati esa O‘zR MKning 13-moddasida ko‘rsatilganidek, ariza topshirilgan kunning ertasidan boshlanadi. Ogoohlantirish muddatiga kalendar hisob bo‘yicha barcha kunlar kira- di. Ogoohlantirish muddatining tugashi dam olish yoki bayram (ish kuni bo‘lмаган kunga) kuniga to‘g‘ri kel- gan taqdirda, shartnomaning bekor bo‘lish kuni dam ol- ish yoki bayram kunidan keyingi birinchi kun hisoblana- di (O‘zR MKning 83-moddasi uchinchi qismi).

O‘zR MKda belgilangan yoki taraflar kelishuviga ko‘ra qisqartirilgan ogohlantirish muddati tugagach, xo- dim ishni tugatishga haqli, ish beruvchi esa xodimga mehnat daftarchasi va mehnat shartnomasi bekor qilin- gani haqidagi buyruqdan nusxa berib, u bilan hisob-ki- tob qilishga majbur. Ish beruvchi tomonidan xodimning tashabbusiga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilishni kechiktirishga, shuningdek boshlagan ishini tugatmagani, qarzi yo‘qligi to‘g‘risidagi varaqasining imzolanmagani, unga topshirilgan moddiy qiymatliklarni qaytarmaganligi sababli ham kechiktirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ogoohlantirish muddati o‘tgan, mehnat shartnomasi be- kor qilinmagan va mehnat munosabatlari davom etayot- gan bo‘lsa, xodimning mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi arizasi o‘z kuchini yo‘qotadi va bu arizaga ko‘ra mehnat shartnomasini

bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ba’zi xodimlar o‘z tashabbusi bilan mehnat shartno- masini bekor qilishlari mumkin emas. Ma’lumki, jinoyat qonunchiligiga binoan jazoni boshqa joylarda o‘tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar ja- zoni ijro etish inspeksiyasi tomonidan belgilab beriladigan korxona, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi (O‘zbekis- ton Respublikasi Jinoyat- ijroiya kodeksining 26-moddasi). Shu sababli, mazkur inspeksiya belgilaydigan joylarda jazoni o‘tash muddati mobaynida inspeksiyaning yozma ruxsatisiz mehnat shartnomasini mahkumning tashabbu- si bilan bekor qilish taqiqlanadi. Inspeksiya ruxsatnoma berishni rad etgan taqdirda, mahkum yuqori mansabdor shaxsga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin (O‘zbekis- ton Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 29- moddasi).

Bundan tashqari, muqobil xizmatni o‘tayotgan fuqa- rolar ham tegishli mansabdor shaxsning ruxsatisiz xizmat joyi va ishini tashlab ketishi mumkin emas.

#### **Fuqaro savoli:**

*Men nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ishlayapman. Bugun o‘z xohishim bilan mehnat shart- nomasini bekor qilish haqida ariza yozdim. Ertadan boshlab ishga chiqmasligim mumkinmi?*

#### **Yurist javobi:**

*O‘zR MKning 99-moddasiga muvofiq, xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham, ikki hafta oldin ish beruvchini yozma ravishda ogohlantirib, bekor qil- ishga haqlidir. Ogohlantirish muddati tugagandan so‘ng xod- im ishni to‘xtatishga haqli, ish beruvchi esa xodimga mehnat daftarchasini berishi va u bilan hisob-kitob qilishi shart.*

### **7- §. Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslari va tartibi**

O‘zR MK talabiga ko‘ra, nomuayyan muddatga tuz- ilgan

mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qa- dar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli bo‘lishi shart.

Mehnat shartnomasini bekor qilishning asosli ekani- ni bildiruvchi sabablar O‘zR MKning 100-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, mazkur moddaning ikkinchi qis- mi 5, 6 va 7-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar qonunga bi- noan xodimlarning faqat ayrim toifasiga tatbiq etiladi.

*Ushbu moddaning ikkinchi qismi 1-bandida xod- imlarning soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishi munosabati bilan mehnat shartnomasi ish beruvchin- ing tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin bo‘lgan muayyan sabablar belgilab qo‘yilgan.* Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarish- lar ana shunday sabablar jumlasidandir. Korxonaning tu- gatilgani ham mehnat shartnomasini bekor qilish uchun alohida asos bo‘ladi. Demak, 100-moddaning ikkinchi qismi 1- bandida mehnat shartnomasini bekor qilishning quyidagi ikki mustaqil asosi nazarda tutiladi:

- 1) yuqorida keltirilgan sabablar tufayli xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishi;
- 2) korxonaning tugatilishi.

O‘zR MKning 100-moddasi 2-qismi 1-bandi bo‘yicha bekor qilish uchun mehnat shartnomasida belgilangan ishlarni bajarishga imkon bermayotgan texnologiyada- gi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi juz’iy o‘zgarishlar yoki ish xususiyatining o‘zgargani kabi sa- bablar bo‘lishi lozim.

O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 1-band- ga binoan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida- gi masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini (kontraktni) bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarn- ing qo‘llanishi haqida» 1998 yil 17 apreldagi 12-sonli qarorida aniq tushuntirish berilgan. Mazkur asosga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinayotganda haqiqatdan ham xodimlar soni (shtati) qisqargani, ishning xususi-

yati o‘zgargan-o‘zgarmaganini, aniqlashi, O‘zR MKning 103-moddasiga muvofiq xodimning malakasi va mehnat unumдорligi e’tiborga olinishi lozim.

O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 1-ban- di bo‘yicha mehnat shartnomasini bekor qilishga olib keluvchi sabablardan biri - korxonaning tugatilishi bilan bog‘liq.

O‘zR MKning 98-moddasiga muvofiq, korxona mulk- dori almashgan, korxona qayta tashkil etilgan, idoraviy bo‘ysinuvi o‘zgargan hollarda ham mehnat shartnoma- si o‘z kuchini saqlab qoladi. Shuning uchun korxona mulkdori almashganda, shuningdek qayta tashkil etilgan- da (qo‘sib yuborilgan, birlashtirilgan, bo‘lib yuborilgan, qayta tashkil etilgan, ajratilganda) mehnat munosabatlari xodimning roziliqi bilan davom etaveradi.

Yangi mulkdor faqat korxonaning rahbari, uning o‘rinbosarlari va bosh buxgalter bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir. (O‘zR MKning 100-moddasi 6-band). Korxonaning boshqa xodimlari bi- lan esa, mehnat shartnomasi qonun hujjatlariga muvofiq holda bekor qilinishi mumkin.

#### **Fuqaro savoli:**

*Boshqa mulkdor bizning korxonamizni sotib oldi. Yangi mulkdor xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilib yuborishi mumkinmi, degan savol qiziqtiradi.*

#### **Yurist javobi:**

*O‘zR MKning 98-moddasi 1-chi qismiga muvofiq bun- day hollarda mehnat munosabatlari xodimning roziliqi bilan davom etaveradi. Korxona mulkdori almashishi, shuningdek korxona qayta tashkil etilishisiz va sizning hamkasblaringiz bilan tuzilgan mehnat shartnomasini qonun hujjatlariga mu- vofiq umumiylasoslarda bekor qilinishi mumkin.*

**O‘zR MKning 100-moddasi 2-bandiga muvofiq, xodimning malakasi yetarli bo‘magani yoki sog‘lig‘i ho- latiga ko‘ra bajarayotgan ishiga noloyiq bo‘lib qolishi sababli mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbu- si bilan bekor qilinadi.**

**Bajarayotgan ishiga noloyiqlik** - bu xodimning mehnat shartnomasida nazarda tutilgan vazifalarni sifat- li qilib bajara

olmasliligidir. Odatda, xodimning ishga noloyiqligiga malakasining yetarli emasligi yoki sog‘lig- ining holati sabab bo‘lishi mumkin.

Ma'lumki, xodimlarni o‘z vazifasiga noloyiqligini tasdiqlovchi dalil bo‘lib attestatsiya materiallari mehnat shartnomasining (O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 2-bandiga asosan) bekor qilinishiga asos bo‘lishi mumkin. Attestatsiya komissiyasining xulosasi xodimning malakasi yetarli emasligini tasdiqlovchi dalillardan biri bo‘lib hisoblanishi mumkin.

Tibbiy xulosa ham xodimning bajarayotgan ishiga noloyiq deb topilishiga asos bo‘lishi mumkin. Masalan, nogiron uchun tibbiy mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) yoki umuman tibbiy maslahat komissiyasi (TMK) to- monidan berilgan xulosa asosida xodim sog‘lig‘ining ho- lati oqibatida bajarayotgan ishiga noloyiq deb topiladi. Muhimi, tibbiy xulosada xodimning aynan qanday vazi- faga noloyiqligi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari xizmat vazifasining xususiyatiga ko‘ra, tegishli tarzda tibbiy ko‘rikdan o‘tib turishi lozim bo‘lgan xodimlar (transport haydovchilari, mакtabга-cha tarbiya muassasalari, jamoat ovqatlanish korxonalari, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari xodimlari va boshqalar) bunday ko‘riqdan o‘tkazilmagan yoki tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortgan taqdirda, mehnat shart- nomasi O‘zR MKning 100-moddasi 2-bandiga asosan be- kor qilinadi.

*Xodim o‘z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzib kelgani uchun mehnat shartnomasi ish beruv- chining tashabbusi bilan bekor qilish (O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 3-bandи).*

O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 3-ban- dida xodim tomonidan mehnat vazifalarini uzrli sabab- larsiz muntazam ravishda bajarmasligi mehnat shartno- masini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish uchun asos bo‘lishi va bu hol bir qancha shartlar bi- lan izohlanishi belgilab qo‘ylgan. Unga ko‘ra, mehnat shartnomasining bekor qilinishi quyidagi hollarda qon- uniy hisoblanadi:

**birinchidan**, xodim faqat qonunda mehnat shartno- masi yoki ichki mehnat tartibi qoidalariiga binoan o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarni uzrli sabablarsiz bajar- magan yoki noloyiq darajada bajarayotgan bo‘lsa;

**ikkinchidan**, xodim uzrli sabablarsiz, ya’ni o‘zin- ing qonunga xilof harakati (yoki harakatsizligi) tufayli mehnat vazifalarini bajarmagan bo‘lsa;

**uchinchidan**, mehnat vazifalari muntazam ravishda buzilayotgan bo‘lsa;

**to‘rtinchidan**, xodimga nisbatan qonun va boshqa normativ hujjatlarga binoan qo‘llanilgan ta’sir choralari ijobiy natija bermayotgan bo‘lsa.

Intizomiy jazo choralari xodimga yuklatilgan majburiyatlarini nojo‘ya xatti-harakatlari tufayli bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi (ichki tartib qoidalari, la- vozim yo‘riqnomalari, korxona nizomi, ish beruvchining qonuniy buyruqlari, texnika qoidalarini buzish va hoka- zolar) sababli qo‘llanishi mumkin.

Intizomiy jazo chorasi nojo‘ya xatti-harakat aniqlan- gandan keyin, xodimning kasal yoki ta’tilda bo‘lgan vaqtini hisobga olmasdan, uzog‘i bilan bir oy ichida qo‘llaniladi. Nojo‘ya xatti-harakat sodir etilgan kundan boshlab olti oy, moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijasi bo‘yicha esa, sodir etilgan kun- dan boshlab ikki yildan keyin jazo qo‘llab bo‘lmaydi. Jinoiy ish bo‘yicha ish yuritilgan davr bu muddatga kirmaydi.

*Ilgari mehnat vazifasini buzganligi uchun xodim in- tizomiy yoki moddiy javobgarlikka yoxud unga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan ta’sir choralari qo‘llanil- gan kundan e’tiboran bir yil mobaynida yana intizomga xilof nojo‘ya harakat sodir qilishi mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzish hisoblanadi.*

Nojo‘ya xatti-harakati uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilganda yoxud ta’sir choralari qo‘llanilganiga qaramay, xodim tomonidan o‘ziga yukla- tilgan mehnat vazifalarini buzish hollari davom etadigan taqdirda, xodimga nisbatan yangi intizomiy jazo cho- ralari qo‘llanishi yoki mehnat

shartnomasi O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 3-bandiga ko‘ra bekor qilin- ishi ham mumkin.

**Xodimning o‘z mehnat vazifalarini** bir marta qo‘pol ravishda buzganligi uchun mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi

4- bandida belgilab qo‘yilgan.

O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismining 4-ban- diga ko‘ra, xodim o‘z vazifalarini bir marta qo‘pol rav- ishda buzgani uchun mehnat shartnomasining bekor qilin- ishiga faqat nojo‘ya xatti-harakatlar ro‘yxati:

- korxona rahbari, uning o‘rribosarlari, bosh bux- galter nisbatan korxona mulkdori (vakolatli organi) bilan ular o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida;

- ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan intizom haqida- gi tegishli nizom va ustavlarda;

- boshqa barcha xodimlarga nisbatan - korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarida aniq ko‘rsatib o‘tilgan holdagini yo‘l qo‘yiladi.

Xodimning o‘z mehnat vazifalarini buzishi qo‘pol tusga ega ekani yoki ega emasligi har bir muayyan hol- da sodir etilgan nojo‘ya xatti-harakatning og‘ir-yengilligi- ga hamda shu tufayli kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarga qarab hal etiladi.

Mehnat shartnomasi O‘zR MKning 100-moddasi ik- kinchi qismi 4-bandiga ko‘ra bekor qilish uchun asos bo‘ladigan nojo‘ya xatti-harakatlarning namunaviy ro‘yxa- ti O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi (hozirda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi) to- monidan 1999 yil 4 mayda tasdiqlangan «Idoraviy man- subligi, mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat‘i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning namu- naviy ichki mehnat tartibi qoidlari»da keltirilgan. Maz- kur Namunaviy qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 14 iyunda 746- son bilan ro‘yxatga olingan.

Korxonada ichki mehnat tartibi qoidalari ishlab chiqilmagan

va bu qoidalarni qonunda belgilangan tas- diqlash tartibi buzilgan yoki xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan mehnat vazifalarini bir marta qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar ro‘yxati ich- ki mehnat tartibi qoidalarida aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mazkur asosga ko‘ra, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarida o‘z mehnat vazifalarini bir marta qo‘pol ravishda buzganlik uchun barcha xo- dimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo‘luvchi xatti-harakatlar (masalan, uzrli sabablersiz ish- ga chiqmaslik; ish kuni mast holda ish joyida bo‘lish va ishga kelish, ish beruvchining mulkini o‘g‘irlash va boshqalar) shu bilan bir qatorda faqatgina ba’zi toifadagi xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo‘luvchi bir marta sodir etilgan nojo‘ya xatti-harakat- lar ham (masalan, tijorat siri oshkor qilinishi, tarbiyaviy vazifalarni bajarishi lozim bo‘lgan shaxs tomonidan to- monidan axloqan nojo‘ya xatti-harakat sodir etilishi va boshqalar) ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarida xodim alkogollli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta’siridan mastlik holatida ishga kelgani yoki ish joyida shu holatda bo‘lgani uchun O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 4-bandiga asosan, mehnat shartnomasini bekor qilish nazarda tutilgan taqdirda, bu asos ko‘rsa- tilgan holatda faqat korxona hududida paydo bo‘lgan xodimga nisbatan emas, balki o‘z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo‘lgan mazkur holatda boshqa joylarda yurgan xodimga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin.

O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 3 va 4-bandlari bo‘yicha mehnat munosabatlarni bekor qilin- ishiga intizomiy jazo choralarini qo‘llash (O‘zR MKning 182-moddasi) uchun belgilangan muddat o‘tgach, yo‘l qo‘yilmaydi.

***O‘rindoshlik bo‘yicha ishlayotgan xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi Mehnat ko- deksining 100-moddasining ikkinchi qismi 5-bandida bayon etilgan.***

O‘rindoshlik asosida ishlaydiganlar bilan tuzilgan mehnat

shartnomasi boshqa barcha xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadigan umumiy asoslar bo'yicha bekor qilinadi. O'rindoshlik asosida ishlaydigan xodim bilan mehnat shartnomasi O'zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismining 5-bandiga ko'ra ikki holda: boshqa o'rindosh bo'lмаган, bu ish asosiy ish joyi bo'lgan xodim bilan mehnat shartlariga ko'ra o'rindoshlik ishi cheklanishi sa-babli o'rindoshlar bilan bekor qilinadi.

*Mulkdorning almashishi sababli korxona rahbari, uning o'rinbosarlari va bosh buxgalter, korxonada bosh buxgalter lavozimi bo'lмаган taqdirda, uning vazifasini amalgamoshiruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shart-nomasini O'zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 6-bandiga binoan bekor qilinishi ko'zda tutilgan.*

Mehnat shartnomasini bekor qilishning bunday asosi faqat yuqorida eslatilgan shaxslarga nisbatangina qo'llan- ilishi mumkin. Boshqa barcha xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi, mulkdor almashgan taqdirda ham, o'z kuchini yo'qotmaydi va ularning roziligidagi ko'ra mehnat munosabatlari davom etaveradi (O'zR MKning 98-moddasi 1-qismi).

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzish hollari, ya'ni nojo'ya xatti-harakatlar ro'yxati ish beruvchi kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib tasdiqlaydigan ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilab qo'yiladi.

Mazkur asos bo'yicha mehnat shartnomasini korxona mulk huquqini olgan kundan boshlab uch oy mobayni- da bekor qilinishiga yo'l qo'yiladi. Xodimning vaqtin-cha mehnatga qobiliyatizlik davri mehnat to'g'risidagi qonunlar hamda boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan vaqt, uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lмаган boshqa davrlari bu muddatga kiritil- maydi.

O'zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 7-bandiga ko'ra ish beruvchining tashabbusiga bilan mehnat shartno- masini

bekor qilishga xodimning pensiya yoshiga to‘lgan- ligi va bunda umumiy asoslarda yoshga doir davlat pen- siyasini tayinlash uchun talab etiladigan ish stoji mavjud bo‘lib, davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo‘lganda- gina yo‘l qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentin- ing 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-son «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirdorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tad- birlar to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra ayollarning pensiya yoshiga to‘lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yosh- ga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beru- vchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mehnat shartnomasi- sini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish tartibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

**birinchidan**, mehnat shartnomasini bekor qilish haqi- da kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning bosh- qa vakillik organlari bilan kelishib olish;

**ikkinchidan**, mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida xodimni ogohlantirish;

**uchinchidan**, qonunchilikda ayrim toifa xodimlar uchun belgilangan kafolatlarga rioya qilish.

O‘zR MKning 101-moddasiga binoan, basharti jamoa kelishivi yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasi- ini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlar boshqa vakil- lik organining oldindan roziligini olish nazarda tutilgan bo‘lsa, bunday rozilikni olmay turib, mehnat shartnomasi- sini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

#### *Fuqaro savoli:*

*Men qo‘shma korxonada 3 yil iqtisodchi lavozimida ish- ladim. Men bilan mehnat shartnomasi bir hafta oldin ish beruvchining tashabbusi bilan bekor bo‘lishi haqida kuti- layotganligi to‘g‘risida ogohlantirishdi. Menda savol tug‘ildi, bunday holatlarda kasaba uyushmasidan rozilik olinishi shart- masmi?*

### ***Yurist javobi:***

Bunday holatda tashkilotingizda jamoa shartnomasi yoki jamoa kelishuvi tuzilganligiga va ularda kasa ba uyushmasi- ning yoki boshqa vakillik organining roziligin olish nazarda tutilganligiga bog'liq. O'zR IKning 101-moddasi 1-chi qismi- ga ko'ra, basharti jamoa kelishuvi yoki jamoa shartnomasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan be- kor qilish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasi xodimlari bosh- qa vakillik organining oldindan roziligin olish nazarda tutil- gan bo'lsa, shartnomani bunday rozilikni olmay turib bekor qilishg a yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998 yil 17 apreldagi 12-son qarorida ta'kidlanishicha, nizoni to'g'ri hal etish uchun sud jamoa kelishuvi yoki shart- nomasi tuzilgan yoki tuzilmaganini va unda xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun kasaba uyush- masi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik or- ganining oldindan roziligin olish nazarda tutilgan yoki tutilmaganini aniqlash lozim. Agar xodimning korxonada- gi manfaatlarini kasaba uyushmasi qo'mitasi emas, bal- ki boshqa vakillik organi himoya qilayotgan bo'lsa, bu organning saylanish tartibi, uning vakolatlari muddati va miqdoriy tarkibini mehnat jamoasining yig'ilishi (konfer- ensiyasi) belgilaydi.

Ish beruvchi mehnat shartnomasini bekor qilish niya- ti haqida xodimni quyidagi muddatlarda yozma ravishda (imzo chektirib) ogohlantirishi shart:

1) mehnat shartnomasi texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxananing tugatilganligi munosabati bilan (O'zR MK 100-moddasi ikkinchi qismining 1-bandi), shuningdek xodimning pen- siya yoshiga to'lganligi munosabati bilan, qonun hujjatlar- iga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo'lgan taqdirda (O'zR MKning 100-modda ik- kinchi qismining 7-bandi) bekor qilinganda kamida ikki oy oldin;

2) mehnat shartnomasi xodimning malakasi yetar- li bo'limgani yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishiga

noloyiq bo‘lib qolishi munosabati bilan bekor qil- inganda (O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismining 2-bandи) kamida ikki hafta oldin.

Xodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi kelishuvga bi- noan, ogohlantirish uning muddatiga muvofiq keladigan pullik kompensatsiya bilan almashtirilishi ham mumkin.

Agar tibbiy xulosaga binoan, muayyan ishni bajarish xodimning sog‘lig‘iga to‘g‘ri kelmasa, mehnat shartno- masi xodimning sog‘lig‘i holatiga ko‘ra bajarilayotgan ishiga noloyiq bo‘lib qolishi munosabati bilan bekor qil- inganda, qonunda nazarda tutilgan ogohlantirish qo‘llanil- maydi. Bunday hollarda xodimga ikki haftalik ish haqi miqdorida kompensatsiya to‘lanadi (O‘zR MKning 102-moddasi ikkinchi qismi).

Muayyan korxona mulkdori almashgani tufayli korx- ona rahbari, uning o‘ribbosarlari, bosh buxgalter bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda (O‘zR MKning 100- moddasi ikkinchi qismi 6-bandи), yangi mulkdor ularni mehnatga oid munosabatlarning kelgusida bekor qilinishi to‘g‘risida kamida ikki oy oldin yozma ravishda (imzo chektirib) ogohlantirishi yoki shunga mu- tanosib kompensatsiya to‘lashi shart.

Xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi buyruqni ana shunday huquqqa ega bo‘lgan mansabdor shaxsgina imzolashi mumkin. Ogohlantirishda xodimning imzosi bo‘lмаган taqdirda ham ish beruvchi xodimni belgilangan muddatda ogohlantirish bilan tan- ishtirgani, lekin xodim imzo qo‘yishdan bosh tortganligi haqida ishonarli dalillar keltirgan taqdirdagina, sud xo- dim o‘z vaqtida mehnat shartnomasining bekor qilinishi haqida ogohlantirilgan, deb topishi mumkin.

Mehnat shartnomasi xodim tomonidan aybli xat- ti-harakatlar sodir etgani munosabati bilan bekor qilin- gan hollarda (O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qis- mi 3 va 4-bandlari), ish beruvchi xodimni mehnatga oid munosabatlarning bekor qilinishi to‘g‘risida kamida uch kun oldin xabardor qilishi va unga mutanosib rav- ishda kompensatsiya to‘lashi shart. Demak, ushbu aso- slar bo‘yicha xodim bilan mehnat munosabatlarini bekor

qilishda u yozma yoki og‘zaki xabardor qilinishi ham mumkin.

#### **8- §. Mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lman holatlar bo‘yicha bekor qilish**

O‘zR MKning 106-moddasida mehnat shartnomasi- ni taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lman holatlar bo‘yicha bekor qilish mumkin bo‘lgan asoslar ko‘rsatilgan.

*Xodim harbiy xizmatga yoki muqobil xizmatga ch- aqirilgan taqdirda mehnat shartnomasini bekor qilish (O‘zR MKning 106-moddasining 1-bandisi).*

Harbiy xizmat yoki muqobil xizmatga chaqirilgani sa- babli mehnat shartnomasi MKning 106-moddasi 1-bandisiga binoan bekor qilinganda xodimga bir oylik o‘rtacha maosh miqdorida ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanadi (O‘zR MKning 109-moddasi).

O‘quv muassasalariga yoki kontrakt asosida harbiy xizmatga kirgan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartno- masi xodimning talabiga ko‘ra O‘zR MKning 99-modda- si yoki taraflar kelishuvi bo‘yicha 97-moddaning 1-ban- diga muvofiq bekor qilinadi va bunda ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanmaydi.

O‘zR MKning 68-moddasida harbiy xizmatga ch- aqirilgan, lekin keyinchalik rezervga bo‘shatilgan yoki iste’foga chiqqan xodim, agar uning harbiy xizmatga ch- aqirilgan (o‘tgan) kunidan boshlab uch oydan ortiq vaqt o‘tmagan bo‘lsa, avvalgi ish joyiga (lavozimiga) qaytib kelish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan.

*Shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklan- gan taqdirda mehnat shartnomasini bekor qilish (O‘zR MKning 106-moddasi 2-bandisi).*

O‘zR MKning 106-moddasi 2-bandiga ko‘ra, mehnat shartnomasi shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ish- ga tiklangan taqdirda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senatida doimiy asosda ishlagan Senat a’zosi vakolatlari muddati tugaganligi yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda Senati tarqat- ib yuborilganligi munosabati bilan avvalgi

lavozimiga (ishiga) qaytgan taqdirda bekor qilinadi. Bu masala xu- susida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi lenumining yuqorida eslatilgan 1998 yil 17 apreldagi 12-sonli qa- rorida mufassal tushuntirish berilgan. Mazkur Plenum qarorida ta'kidlanishicha, O'zR MKning 106-moddasi 2-bandи bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilish qonunlarga asosan shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim- ni ishga tiklash ish beruvchining majburiyati hisoblangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Mehnat shartnomasini O'zR MKning 106-moddasi 2-bandiga ko'ra bekor qilinayotganda ish beruvchi to- monidan xodimga uning mutaxassisligi va malakasiga mos ish taklif etilishi lozim. Bunday ish bo'lmasa, unga korxonada mayjud bo'lgan boshqa ish tavsiya etilishi shart.

Mehnat shartnomasi ushbu asosga binoan bekor qil- inganda O'zR MKning 109-moddasiga muvofiq, xodim- ga bir oylik o'rtacha oylik ish haqi miqdorida ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi. O'zR MKning 67-moddasi- da ushbu asoslar bo'yicha mehnat shartnomasi bekor qil- ingan xodimlar uchun moddiy madad berish maqsadida qo'shimcha kafolatlar ham belgilangan. Jumladan, shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklanishi sababli mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimning ish qidirish davrida 2 oydan ortiq bo'limgan davr mobaynida o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi. Bunday hollarda xod- imga to'langan bir oylik ishdan bo'shatish nafaqasi ham qo'shib hisobga olinadi. Agar xodim mehnat shartnomasi si bekor qilingan kundan boshlab 10 kalendar kun mo- baynida mahalliy mehnat organida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, mahalliy mehnat or- gani tomonidan berilgan ma'lumotnomaga binoan uchin- chi oy ham oldingi ish joyidan o'rtacha ish haqi olish huquqiga ega bo'ladi.

*Xodimni jazoga mahkum etgan sudning hukmi qon- uniy kuchga kirgan taqdirda, basharti buning natijasi- da xodim avvalgi ishini davom ettirish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lsa, shuningdek xodim sudning qaroriga binoan ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga yo'llangan taqdirda mehnat shartno- masining bekor qilinishi*

*(O'zRMKnинг 106-moddasi*

*3- bandi).*

O'zR MKning 106-moddasi 3-bandida ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun quy- idagi ikki holatdan birining, ya'ni:

— sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi;

— sudning qaroriga binoan xodimni ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktik muassasasiga yo'llash haqidagi qarori mavjud bo'lishi ko'zda tutiladi.

Mehnat shartnomasi faqat sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi natijasida xodim o'z faoliyatini bundan keyin davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lmay qolgan taqdirdagina bekor qilinadi.

Xodimning jinoyat qonunchiligiga muvofiq ozodlik- dan mahrum qilmasdan, axloq tuzatish ishlariga hukm qilinishi, belgilangan jazoni korxonadan boshqa joylarda o'tashi lozim bo'lsa, mehnat shartnomasi ushbu 106-mod- daning 3-bandi bo'yicha bekor qilinadi.

Xodim tomonidan jinoyat sodir qilingan bo'lsa-da, lekin unga nisbatan qo'llanilgan jazo tufayli u o'z ishi- ni davom ettirish imkoniyatini yo'qotmagan bo'lsa, (ma- salan, o'z ish joyida o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishiga hukm qilingan, jarima solingan hollarda) mehnat shartnomasini ushbu asos bo'yicha bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruq sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan keyin chiqariladi. Agar xodim qamoqda saqlanayotgan yoki belgilangan tartibda vazifasidan chetlashtirilgan bo'lsa, keyinchalik mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqda uning oxirgi ishlagan kuni ishdan bo'shatilgan kun sifati- da ko'rsatilishi lozim.

Mazkur moddaning 3-bandida xodimni sud qaroriga binoan ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassa- sasiga yuborilgan taqdirda mehnat shartnomasini bekor qilish nazarda tutilgan bo'lib, mazkur asos amaldagi qonunchilikka muvofiq, ashaddiy ichkilikbozlikka va gi- yohvandlikka berilgan shaxslarni majburiy ravishda davo- lashga yuborish paytida qo'llaniladi.

*Ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar*

*buzilganligi munosabati bilan, agar yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etishning imkoni bo'lmasa va ish-ni davom ettirishga to'sqinlik qilgan taqdirda, mehnat shartnomasini bekor qilish (O'zR MKning 106-moddasasi 4- bandi).*

Umumiy qoidaga ko'ra, bevosita O'zR MKning 106-moddaning 4-bandida ko'zda tutilgan shartlar mayjud bo'lgandagina, mehnat shartnomasi bekor qilinishi mum-kin.

Ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilgan hollarga quyidagilar kiradi:

— sud hukmiga ko'ra, muayyan mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilinganlarni sud tomonidan tayinlangan vaqt davomida ishga qabul qilish;

— qonunchilikda voyaga yetmaganlar va ayollarni jalg qilish taqiqlangan ishlarga qabul qilish.

Mehnat shartnomasini O'zR MKning 106-moddasining 4-bandi bo'yicha bekor qilishga, agar ishga qabul qilish paytida yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik ishni davom ettirish- ga to'sqinlik qilgan holdagini yo'l qo'yilishi mumkin.

O'zR MKning 109-moddasiga muvofiq, ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga bir oylik o'rtacha ish haqi miqdorida ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi.

Ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar xodimning aybi bilan buzilgan (sudning muayyan lavozimni egallash yoki muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish haqidagi hukmini chiqartirish, soxta hujjatlar taqdim etish va hokazo) hollarda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanmaydi (O'zR MKning 109-moddasasi).

*Xodimning vafoti munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish (O'zR MKning 106-moddasasi 5-bandı).*

Xodimning vafoti munosabati bilan mehnat shartnomasini MKning 106-moddasasi 5-bandiga ko'ra bekor qilish uchun uning vafoti haqidagi guvohnoma asos bo'ladi va bu hol ish beruvchining tegishli buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Guvohnomada ko'rsatilgan xodim vafotin- ing sanasi mehnat shartnomasi bekor qilingan kun deb hisoblanadi. Xodimning mehnat daftarchasiga «Mehnat shartnomasi bekor qilindi» deb yoziladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingani to‘g‘risidagi buyruqdan ko‘chirma nusxasi, marhumning mehnat daft- archasi va unga tegishli pul mablag‘i uning oila a’zolari yoki qaramog‘idagi shaxslarga topshiriladi.

O‘zR MKning 106-moddasi 5-bandida faqat xodimn- ing vafoti munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilishdan tashqari, sud amaliyotidagi boshqa holatlarga e’tiborni qaratish lozim.

O‘zR Fuqarolik kodeksining 36-moddasiga binoan te- gishli holatlar mavjud bo‘lganda, sud fuqaroni vafot et- gan deb e’lon qilishi mumkin. Sudning bu haqidagi qa- rori qonuniy kuchga kirgan kuni fuqaroning vafot etgan kuni hisoblanadi. Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish uning huquq va burchlariga tegishli bo‘lgan oqibatlarni vujudga ketiradi.

*Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda mehnat shartnomasining bekor qilinishi (O‘zR MKning 106-mod- dasi 6-band)*. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenu- mining 1998 yil 17 apreldagi 12-sonli qarorida ta’kid- langanidek, mehnat shartnomasi mazkur asosga ko‘ra bekor qilishiga, agar tegishli qonun hujjatlarida mehnat munosabatlarining O‘zR MK 106-moddasi 1-5-bandlari- da sanab o‘tilmagan mehnat shartnomasi taraflari ixtiy- origa bog‘liq bo‘lмаган boshqa holatlar bo‘yicha bekor qilinishi mumkinligi ko‘zda tutilgan bo‘lsa yo‘l qo‘yiladi. Bunday hollarga, jumladan, 18 yoshga to‘lмаган shax- slar bajarayotgan ishni davom ettirish ular sog‘lig‘iga zi- yon qiladigan yoki boshqacha tarzda zarar yetkazadigan bo‘lsa, bunday shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartno- masi ota-onalar, vasiylar (homiyalar) va vakolatli organlar (mehnatni muhofaza qilish ustidan nazorat qiluvchi or- ganlar, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar) talabiga binoan (O‘zR MKning 247-moddasi), shuningdek muqobil xizmat organlari talabi bo‘yicha bekor qilinishi kiradi.

**Alovida hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish.** O‘zR MKning 97-moddasi 5-bandining mazmuniga ko‘ra, mehnatga oid munosabatlarni bekor qilishning shartlari qonunda yo‘l qo‘yiladigan hollardagina taraflar tomonidan mehnat shartnomasida ko‘rsatib qo‘yilishi mumkin. Unga ko‘ra, mehnat shartnomasi bevosita shartnomaning o‘zi- da nazarda tutilgan asosga muvofiq bekor qilinadi. O‘zR MKning 97-moddasining 5-bandida ko‘rsatilgan mehnat shartnomasini bekor qilish asosi faqat ayrim toifa xod- imlarga nisbatan tatbiq etiladi. Masalan, mulkdor korx- ona rahbari, uning o‘rinbosarlari, bosh buxgalter bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bevosita korxona faoliyati bilan bog‘liq holatlar yuz bergen taqdirdagina, bekor qil- ishga haqli. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, bu holatlar korx- onaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Ana shunday xodimlar toifasi tegishli qonunlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zR MKning 72-moddasida mehnat shartnomasini tuzishdan oldin qo‘sishimcha holatlar (masalan, konkursdan o‘tish, tegishli organ tomonidan tasdiqlanishi, lavozimga saylanish va boshqalar) yuzaga kelishi mumkin.

O‘zR MKda mustaqil asos sifatida yangi muddat- ga saylanmagani (konkursdan o‘tmagani) yoxud saylov- da (konkursda) qatnashishni rad etgani munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqida tegishli qoida kiritilgan.

O‘zR MKning 97-moddasi 6-bandida ko‘rsatilgan mehnat shartnomasini bekor qilish asosi faqat ishga qa- bul qilishdan avval lavozimga saylangan yoki konkurs- dan o‘tgan, tegishli lavozimni egallagan xodimlarga nis- batan tatbiq etilishini eslatib o‘tish lozim.

Muhimi, qonun hujjatlarida bu toifa xodimlarning saylangan yoki konkursdan o‘tgani shart etib qo‘yilgan bo‘lish kerak.

O‘zR MKning 107-moddasida mehnat shartnomasini bekor qilishni rasmiylashtirish tartibi bayon etilgan. Unga ko‘ra, mehnat shartnomasini bekor qilish ishga qabul qil- ish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va buyruq bilan rasmiylashtiriladi. Oxirgi ish kuni - mehnat shartnomasi bekor qilingan kun hisobla- nadi.

Amaldagi qonunchilikka binoan, ish beruvchining buyrug'i mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari O'zR MKning 87, 89, 97, 99, 100, 105, 106-moddalari ta'rifi- ga yoki mehnat shartnomasini bekor qilishning qo'shim- cha asoslarini nazarda tutuvchi boshqa normativ hujjatlar ta'rifiga to'liq muvofiq holda yozilishi hamda kodeksning yoxud boshqa normativ hujjatning tegishli moddalari (bandlari) ko'rsatilishi talab etiladi.

Mehnat shartnomasi xodimning tashabbusi bilan un- ing kasalligi, nogironligi, yoshga doir pensiya chiqishi, oliv yoki o'rta maxsus o'quv yurti yoxud aspirantura- ga qabul qilinishi va qonun hujatlariga ko'ra muayyan imtiyozlar va afzalliklar beriladigan boshqa sabablar tu- fayli bekor qilinganda, mehnat shartnomasini bekor qil- ish haqidagi buyruqda ana shu sabablar ko'rsatilishi shart. Mehnat shartnomasi O'zR MKning 106-moddas- ining 6-bandiga asosan bekor qilinganda tegishli qonun yoki boshqa normativ hujjat ham ko'rsatilishi mumkin. Mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni xodimga uning mehnat daftarchasi va mehnat shartnomasi bekor qilin- gani haqidagi buyruqning nusxasi berilishi lozim (O'zR MKning 108-moddasi).

Mehnat daftarchasini berish kechiktirilgan taqdirda, O'zR MKning 188-moddasida ko'rsatilgan huquqiy oqi- batlar kelib chiqadi, ya'nii xodim g'ayriqonuniy ravishda mehnat qilish imkoniyatidan mahrum etilishi tufayli olol- may qolgan ish haqi ish beruvchi tomonidan to'lanadi.

O'zR MKning 109-moddasiga muvofiq, mehnat shartnomasi bekor qilingan quyidagi hollarda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi:

- ish beruvchining tashabbusi bilan, lekin xodim o'zi mehnat vazifalarini bajarmagani sababli shartnomaning bekor qilinishi bundan mustasno;

- taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan, O'zR MKning 106-moddasi 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan holatlar- ga binoan, mehnat shartnomasi Kodeksning 106-modda- si 4-bandiga binoan bekor qilinganda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi, ammo ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar xodimning aybi bilan buzilgan hol- lar (sudning muayyan lavozimni egallah yoki

muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etish haqidagi hukmini yashirish, soxta hujjatlar taqdim etish va hokazo) bundan mustasno;

- xodim yangi mehnat shartlari asosida ishni davom ettirishni rad etgani sababli (MKning 89-moddasasi 4-qis- mi).

Ishdan bo‘shatish nafaqasining miqdori o‘rtacha oylik ish haqidan kam bo‘lishi mumkin emas. Mehnat shart- nomasi bekor qilinganda O‘zR MKning 110-moddasida ko‘rsatilgan muddatlarda xodimga ish beruvchi tomoni- dan tegishli ish haqi to‘lanadi.

Mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki g‘ayriqonuniy ravishda xodim boshqa ish- ga o‘tkazilgan hollarda, u ish beruvchining o‘zi, sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan avvalgi ishiga tiklanadi.

Nizoni ko‘rish chog‘ida mehnat shartnomasini bekor qilish yoki xodimmi boshqa ishga o‘tkazishning tegishli asosga ega ekanini isbotlab berish mas’uliyati ish beruv- chi zimmasiga yuklatiladi.

O‘zR MKning 112-moddasida mehnat shartnoma- sini g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilgani va xodimni g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazgani uchun ish beruvchining javobgarligi nazarda tutilgan. Mazkur moddaga binoan, ishga tiklanganda ish beruvchi zim- masiga xodimga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati yuklatiladi.

Zararni qoplash:

majburiy progul vaqtি uchun haq to‘lash shartligidan;

mehnat shartnomasi bekor qilingani yoki xodim boshqa ishga o‘tkazilgani yuzasidan shikoyat qilish bi- lan bog‘liq qo‘srimcha xarajatlarning o‘rnini qoplashdan (mutaxassislardan maslaxat olish, ish yuritish uchun ket- gan xarajatlar va hokazolar);

ma’naviy zarar uchun kompensatsiya to‘lashdan ibo- ratdir. Ma’naviy zararning qoplanishi lozim bo‘lgan miqdori ish beruvchining xatti-harakatiga berilgan baho- ni hisobga olgan holda, sud tomonidan belgilanadi, lekin bu xodimning oylik ish haqi miqdoridan kam bo‘lmagligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Ma’naviy

zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llash- ning ayrim masalari to'g'risida» 2000 yil 28 aprelda- gi 7-sonli qarorida ma'naviy zarar tushunchasi bayon etib berilgan. Unga binoan, ma'naviy zarar deganda ayblanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan ruhiy va jismoniy (kamsitish, jismoniy azoblar, zarar ko'rish, no- qulaylik va boshqalar) azoblar tushuniladi.

Ma'naviy zarar, jumladan, xodim ishini yo'qotishi tufayli yoki boshidan kechirgan ruhiy azoblar natijasi- da turli kasalliklarga chalinib qolishi kabi holatlarida namoyon bo'lishi mumkin (mazkur Plenum qarorining 2-bandı).

Xodimning iltimosiga ko'ra sud uni ishga tiklash o'rniga (majburiy progul vaqtı uchun ish haqi, ma'naviy zarar, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazish yuzasidan shikoyat qilish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlardan tashqari) kamida uch oylik ish haqidan kam bo'limgan miqdorda qo'shimcha kompen- satsiya undirib berishi mumkin (O'zR MKning 112-mod- dasi 2-qismi).

O'zR MKning alohida - 113-moddasida ta'kidlanga- nidek, xodimni ishdan chetlashtirishga, qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari yo'l qo'yilmaydi.

Alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik va toksik modda ta'siridan mastlik holatida ishga kelgan xodim shu kuni (smenada) ishga qo'yilmaydi.

Xodim majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishdan bo'yin tovlagan yoki o'tkazilgan tekshirishlar natijasida bo'yicha tibbiy komissiya tavsiyalarini bajarmagan taqdirda, ish beruvchi uni ishga qo'ymaslikka haqlidir.

Xodim ish beruvchining aybi bilan g'ayriqonuniy rav- ishda ishdan chetlashtirilgan hollarda, unga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati ish beruvchiga yuklatiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 255-moddasiga binoan, xodim surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabi bi- lan ishdan chetlashtiriladi. Buning uchun qonunda ko'rsa- tilgan asoslar mavjud bo'lishi lozim.

**Fugaro savoli:** Meni mehnat shartnomasi bekor qilingan- ligi haqidagi buyruq bilan tanishtirishdi, biroq unda bekor qilishning asoslari ko'rsatilmagan edi. Bu holatda ish beru- vchi haqmi?

**Yurist javobi:** Ish beruvchi bu holatda nohaq va u Mehnat kodeksi 107-moddasining 3-chi qismi talablarini buz- moqda, ya'ni ish beruvchining buyrug'iда mehnat shartno- masini bekor qilish asoslari Mehnat kodeksining 87, 89, 97, 100, 105, 106-moddalari ta'rifiga yoki mehnat shartnomas- ini bekor qilishning qo'shimcha asoslarini nazarda tutuvchi boshqa normativ hujjatlar ta'rifiga to'la muvoofiқ holda yo- zilib, Kodeksning yoxud boshqa normativ hujjatlarning tegish- li moddasi (bandi)ni dalil qilib ko'rsatishi lozim.

## Glossary

**Mehnat shartnomasi** - mehnat shartnomasi xod- im bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqida- gi kelishuvdir.

**Mehnat shartnomasining taraflari** - xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari hisoblanadilar.

**Mehnat daftarchasi** - mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy xujjatdir.

**Dastlabki sinov** - xodimning topshirilayotgan ishga layoqatligini tekshirib ko'rish; uning muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emas.

**Mehnat shartnomasini o'zgartirish** - mehnat shart- nomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mu- taxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjat- lar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajar- ish haqidagi kelishuvdir.

**Mehnat shartlari** - deganda mehnat jarayonidagi ij- timoiy va ishlab chiqarish omillarining jami tushuniladi. Ijtimoiy omillar: mehnat haqi miqdori, ish vaqtি, ta'tiln- ing muddati. Ishlab chiqarish omillari: texnika, sanitariya, - gigienaga oid, maishiy shartlar.

**Boshqa ishga o‘tkazish** - xodimning mehnat vazifas- ini o‘zgartirilishi, ya’ni unga bir korxona doirasida bosh- qa mutaxassislik, malaka yoxud lavozim bo‘yicha ish topshirilishi tushuniladi. Boshqa ishga o‘tkazish amalga oshirilgan muddatlarga bog‘liq holda vaqtincha va do- imiy ravishda o‘tkazishlarga bo‘linadi.

**Ish joyini o‘zgartirish** - mehnat shartnomasida shart- lashib olinmagan ish joyini o‘zgartirish mehnat shartlar- ini o‘zgartirish deb hisoblanmaydi va bu haqida xodim bilan kelishish talab qilinmaydi.

**Mehnat shartnomasini bekor qilish** - mehnat shart- nomasi bekor bo‘lishi muayyan yuridik shart sharoitlar yuz berishi tufayli hodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat huquqiy aloqalariga barham berilishi.

**Muddatli mehnat shartnomasi** - muddatli mehnat shartnomasi muddati tugashi bilan bekor qilinadi. Agar muddat tugagandan keyin ham mehnatga oid munosa- batlar davom etaversa va taraflardan birortasi bir hafta davomida uning bekor qilinishini talab qilmagan bo‘lsa, shartnomaga nomuayyan muddatga uzaytirilgan deb his- oblanadi.

**Ishdan bo‘shatish nafaqasi** - ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlarda mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shash nafaqasi to‘lanadi. Ishdan bo‘shatish nafaqasining miqdori o‘rtacha oylik ish haqidan kam bo‘lishi mumkin emas.

**Ishga tiklash** - mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki xodim g‘ayriqonuniy rav- ishda boshqa ishga o‘tkazilganda, uni ish beruvchining o‘zi, sud yoki boshqa vakolathi organ tomonidan avvalgi ishiga tiklanishi .

**Ishdan chetlashtirish** - xodim alkogolli ichimlikdan, giyovandlik yoki toksik modda ta’siridan mastlik holatida ishga kelganda, xodim majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tish- dan bo‘yin tovlagan yoki o‘tkazilgan tekshirishlar nati- jalari bo‘yicha tibbiy komissiya tavsiyalarini bajarmagan- ida, ish beruvchi uni ishga qo‘ymaslikka haqlidir.

## **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Mehnat shartnomasi nima va uning amaliy ahami- yati qanday?
2. Mehnat shartnomasining taraflari kimlar bo'lishi mumkin?
3. Mehnat shartnomasining mazmunini qanday shart- lar tashkil qiladi?
4. Ishga qabul qilish qanday rasmiylashtiriladi?
5. Mehnat shartlari deganda nimalar tushuniladi?
6. Boshqa ishga o'tkazish deganda nima tushuniladi?
7. Mehnat shartnomasi qanday asoslar bo'yicha bekor qilinishi mumkin?
8. Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Qanday sabablar (asoslar) mavjud bo'lgan taqdirda mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli deb topiladi?
10. Muddatli mehnat shartnomasi qanday asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin?
11. Mehnat shartnomasining taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha bekor qilinishi asoslari
12. Yakka tadbirdor sifatida xodim bilan sinov mud- dati shartini belgilagan holda mehnat shartnomasi tuzing.
13. Ishga qabul qilish haqidagi buyruqlar namunalar- ini tayrlang.
14. Xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish bilan bog'liq tartibni ketma-ketlikda keltiring.
15. Ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnoma- sini bekor qilish bosqichlarini ketma-ketlikda ko'rsatib bering.

## **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sud tomoni- dan mehnat nizosini ko'rish jarayonida g'isht teruvchi V.ni ishga qabul qilish tegishli tartibda rasmiylashtirilma- ganligi, jumladan ishga qabul qilishda mehnat shartnoma- si tuzilmaganligi va bu haqda buyruq chiqarilmaganligi aniqlandi.

V. qachondan boshlab qurilish boshqarmasiga ishga qabul qilinganligini aniqlash, bir qator huquqiy mas- alalarni hal qilish uchun asos bo‘ladi.

*Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.*

2. Korxona chilangari Malishev ish beruvchining boshqa brigadaga o‘tib ishlashi haqida talabini rad etdi va ish beruvchi uning roziligesiz boshqa ishga o‘tkazishga haqi yo‘qligini aytdi. Ish beruvchi vakili nizo ko‘rilayot- gan chog‘da Malishevning mehnat majburiyatlari hajmi o‘zgarmagan holda boshqa ish joyiga o‘tib ishslash taklif qilinganligini ko‘rsatdi.

*Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.*

3. Korxonada shtat qisqarishi tufayli ishdan bo‘shatil- gan operator Shamshiboev ishga tiklashlarini so‘rab sudga murojaat qildi. Navbatchi sud‘ya xodim ishdan bo‘shatil- ganiga ikki yarim oy o‘tganini aytib, da‘vo arizasini ol- ishdan bosh tortdi.

*Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.*

## V MAVZU. ISH VAQTI

*Ish vaqt tushunchasi va uning turlari. Ish vaqtining normal muddati. Ish vaqtining qisqartirilgan muddati.*

*To'liqsiz ish vaqt. Ish vaqt rejimi. Ish vaqtini hisobga olib borishning tushunchasi va turlari. Ish vaqtidan tashqari ishlari.*

### **1-§. Ish vaqt tushunchasi va uning turlari.**

Ish vaqt tushunchasi O‘zR MK 114-moddasida belgi- lab qo‘yilgan. Ish vaqtidan foydalanishda xodim tomoni- dan haqiqatda ishlangan vaqtini, shuningdek xodim uchun belgilangan ish vaqt muddati doirasidagi belgilangan ish- ni bajarish bilan band bo‘lмаган bo‘lsa ham, ish vaqtiga qo‘shib hisoblanadigan ayrim (xodimning aybisiz bekor turib qolingga davrlar, ish kuni (smena) davridagi haq to‘lanadigan tanaffuslar, malaka oshirish va qayta tayyor- lashga yuborilishi, donorlik qilish, ishdan bo‘shatilgan va keyinchalik ishga tiklangan va sh.k.) davrlar ish vaqtiga tenglashtiriladi va xodimga ushbu vaqt uchun belgilangan tartibda haq to‘lanadi.

*Ish vaqt deb xodim ish tartibi yoki grafigiga (jadvaliga) yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o‘z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo‘lgan vaqt hisoblanadi*

Haqiqatda ishlangan vaqt deganda, u yoki bu kalen- dar davrda xodim tomonidan o‘zi uchun belgilangan nor- ma doirasida yoki belgilab qo‘yilgan tartibda bu norma- dan tashqari ishlangan vaqt tushuniladi.

O‘zR MKga asosan ish vaqtining quyidagi turlari nazarda tutiladi:

Ish vaqtি		
1-----	X	1
normal	qisqartirilgan	to‘liqsiz

**Ish vaqtining normal muddati.** O‘zR MKning 115-moddasi birinchi qismiga binoan olti kunlik ish haftasida ham, besh kunlik ish haftasida ham ish va- qti haftasiga qirq soatdan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Kundalik ishning normal muddati turlari korxonalar- da ish haftasi turiga bog‘liq bo‘lib, O‘zR MKning 115-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq korxonada olti kunlik ish haftasi joriy etilgan bo‘lsa, har kungi ish- ning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.

*Qonunchilik bilan o‘rnatalgan ish vaqtining normalariga rioya etish to‘g‘risidagi talablar mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, barcha korxonalarga, shuningdek yollanma xodimlar mehnatidan foydalanuvchi jismoniy shaxslarga ham tadbiq etiladi*

Har kungi ish muddati va ish haftasi muddati che- garasining qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan nor- malarini inobatga olgan holda boshqa kalendar davrlarga (o‘n kunlik, oylik, yilning choragi uchun, yillik va hoka- zo) ham ish vaqtining muddatining chegarasi normalari aniq belgilab qo‘yiladi.

**Masalan:** ikki kun dam olinadigan besh kunlik ish haftasi asosida faoliyat yuritadigan korxonalarda amalda ko‘pincha shunday rejim joriy etiladiki, unga xodimlar har kungi sakkiz soatlik ishga jabb etiladilar ( $5 \times 8 = 40$  soat). Faoliyati bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasiga asoslangan korxo- nalarda aksariyat hollarda besh kun yetti soatdan va bir kun besh soatdan ishlash belgilangan ( $5 \times 7 + 5 = 40$  soat).

## 2- §. Ish vaqtining qisqartirilgan muddati

Ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog‘ligi holati, mehnat sharoitlari, mehnat vazifalariing o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zga holatlarni inobatga olib, mehnat

to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjat- larga muvofiq mehnatga to‘lanadigan haqni kamaytirmas- dan, ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi.

Bunday xodimlarning ro‘yxati O‘zR MKning 116-mod- dasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra ish vaqtining qisqartirilgan muddati o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan, I va II guruh nogironi bo‘lgan, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy ji- hatdan ta‘minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ish- layotgan ayollar, noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan, alohida tusga ega bo‘lgan ishlardagi xod- imlar uchun belgilanadi.

*Fugaro savoli:* Meni kadrlar bo‘limi boshlig‘i lavozimiga o‘tkazishdi. Shu sababli ish vaqtini qisqartirish bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalarni chuqurroq o‘rganmoqchi edim. Aytingchi, ushbu ma‘lumotlarni qayerdan olsam bo‘ladi?

*Yurist javobi:* Albatta, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksidan. O‘zR MKning 116-moddasiga ko‘ra, ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi: o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan xodimlar; I va II guruh no- gironi bo‘lgan xodimlar; noqulay mehnat sharoitlaridagi ish- larda band bo‘lgan xodimlar; alohida tusga ega bo‘lgan ish- lardagi xodimlar; uch yoshga to‘lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihandan ta‘minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar.

Bundan tashqari amaldagi qonun hujjatlari barcha xodimlar, shu jumladan yuqorida ko‘rsatilgan xodim- lar uchun bayram (ishlanmaydigan) kunlari arafasidagi ish vaqtini hamda tungi vaqtdagi ish vaqtini kamida bir soatga qisqartirishni ham nazarda tutishi lozim.

Jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomasida, shuning- dek mehnat shartnomasi shartlarida mehnatga to‘lanadi- gan haqni kamaytirmasdan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarga qo‘srimcha ravishda korxonaning bosh- qa xodimlariga ham ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanishi mumkin.

O‘zR MKning 242-moddasiga muvofiq o‘n sakkiz yoshga

to‘lмаган шахслар учун qisqartirilgan ish vaq- tining muddati hamda O‘zR MKning 220-moddasi uchin- chi qismiga binoan I va II guruh nogironi hisoblangan xodimlarga mehnatga haq to‘lash kamaytirlмаган holda ish vaqtining haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi.

1999-yil 14-aprelda kabul qilingan, 1999 yil 1 iyuldan e’tiboran kuchga kiritilgan «Xotin-qizlarga qo’shimcha imtiyozlar to‘g‘risida»gi Qonun bilan O‘zR MKning 116-moddasiga qo’shimcha kiritildi, O‘zR MK 228-mod- da bilan to‘ldirildi. Bunga ko‘ra uch yoshga to‘lma- gan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta’minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga o‘ttiz besh soatdan osh- maydigan qisqartirilgan muddati belgilangan.

O‘zR MKning 117-moddasi noqulay mehnat sharoit- laridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar учун ish vaq- tining qisqartirilgan muddati belgilanishini nazarda tuta- di. Noqulay mehnat sharoitlarida band bo‘lgan xodimlar mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ish- larda band bo‘lgan xodimlar kiritilsa, mehnat jarayonida sog‘lig‘iga ishlab chiqarishning zararli omillari (fizikaviy, kimyoviy, biologik va b.) ta’sir etadigan boshqa barcha xodimlar ikkinchi guruhga kiradi. Korxonadagi bunday ishlarning ro‘yxati va ularni bajarishda ish vaqtining muayyan muddati tarmoq kelishuvlarida, jamoa shartnom- alarida belgilab qo‘yiladi, agar ular tuzilmagan bo‘lsa, - ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib, mehnat sharoitlariga baho berishning O‘zbekiston Res- publikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bi- lan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan uslubiyati asosida belgilanadi.

Mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarni ba- jarish bilan mashg‘ul xodimlar учун ish kuni muddati normasining chegarasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martda qabul qilingan 133- son qarorining 8-ilovasiga

muvofig tasdiqlangan bo‘lib, bu toifadagi xodimlarning ish vaqtining muddati cheg- arasi kuniga to‘rt yoki besh soatdan oshmasligi belgilab qo‘yilgan.

*Fuqaro savoli:* *Kimyo zavodida to‘liq stavkada to‘lay- digan dugonam bilan ishga birga ketamiz. Men ishdan qaytayotganimda, uy ishlari bilan shug‘ullanayotgan bo‘ladi. Nima uchun u ishdan mendan oldin qaytadi, degan savol meni o‘ylantiradi.*

*Yurist javobi:* *O‘zR MKda belgilangan ayrim toifada- gi xodimlarga beriladigan imtiyoz va kafolatlarga muvofig, qo‘sningizga qisqartirilgan ish vaqtini belgilangan bo‘lishi mumkin. O‘zR MKning 117-moddasiga muvofig, ish vaqtin- ing haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati mehnat jarayonida sog‘lig‘iga fizikaviy, kimyoviy, bi- ologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta’sir etadigan xodimlar uchun belgilanadi.*

O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muho- fazा qilish to‘g‘risida»gi Qonunining (yangi tahriri) 14-moddasiga ko‘ra *ish o‘rinlarining mehnat sharoit- lari bo‘yicha attestatsiyasi - mehnat sharoitlarining, ish o‘rinlaridagi mehnat jarayoni og‘irligi va tig‘izligining hamda ularning jarohatlanish jihatidan xavfliligining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofigligini baholash, zararli ishlab chiqarish omilini va (yoki) xav- fli ishlab chiqarish omilini aniqlash maqsadida o‘tkazi- ladigan tadbirlar majmuidir.*

Mehnatni attestatsiyadan o‘tkazishning aniq tartibi «Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliliги yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomda belgilab berilgan.

Alovida tusga ega bo‘lgan ishlardagi xodimlar jum- lasiga ishi yuqori darajadagi his-hayajon, aqliy zo‘riqish, asab tangligi bilan bog‘liq ishlarda ishlayotgan xodimlar kiradi. Ularning ro‘yxati hamda ish vaqtini qisqartirilgan muddatining chegarasi O‘zbekiston Respublikasi Vazir- lar Mahkamasining 1997 yil 11 martda qabul qilingan 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib,

tibbiy yoki pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat etilgan barcha tibbiyot xodimlari, pedagoglarga ish vaqtining muddati haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib joriy etilgan bo'lishi talab etiladi.

O'zR MKning 121-moddasiga binoan bayram (ishlanmaydigan) kunlar arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi (O'zR MKning 131-moddasi).

### 3- §. To'liqsiz ish vaqtি.

To'liqsiz ish vaqtি to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasini qamrab oladi. Xodimning mehnat rejimi ish kuni muddati hamda haftadagi ish kunlari soni kamaytir- ilishini nazarda tutilgan bo'lsagina, to'liqsiz ish vaqtি hi- soblanadi. To'liqsiz ish kuni davrida ish vaqtি muddatin- ing normasi kamayadi, ya'ni xodim mazkur korxonadagi ichki tartib yoki ish jadvalida belgilab qo'yilgan vaqtidan kamroq vaqt ishlaydi.

*Masalan: ish vaqtining normal muddati amal qilib tur- gan vaqtida xodim sakkiz soat o'rniغا, aytaylik, faqat olti, besh, to 'rt soat va undan ham kamroq vaqt yoki o'smirlar uchun kundalik ishning qisqartirilgan muddati olti soat deb belgilangan bo 'lsada, faqat besh, to 'rt, uch soat va undan ham kamroq vaqt ishlaydi.*

To'liqsiz ish vaqtি mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga binoan belgilanadi. To'liqsiz ish haftasida kundalik ish muddati saqlanib qolgan holda haftadagi ish kunlari soni kamayadi. *Masalan, olti kunlik ish haftasi- da xodim faqat uch to 'liq ish kuni mobaynida mehnat qiladi.*

To'liqsiz ish vaqtি normal yoki qisqartirilgan ish vaqtining (ish kuni, haftasining) bir qismi bo'lib, un- ing muddati xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi keli- shuvga asosan belgilanadi, hamda unga ish haqi ishlab berilgan vaqtga mutanosib ravishda, ishbay haq to'lashda esa haqiqatda bajarilgan ishga belgilangan baho bo'yicha to'lanadi.

O'zR MKning 119-moddasining uchinchi qismiga bi- noan to'liqsiz ish vaqtি shartlari asosida ishlayotgan xo- dimlar

mehnatiga ishlangan vaqtiga mutanosib ravishda mehnat haqi ishbay asosida bo‘lganda esa ishlab chiqarilgan mahsulotga qarab haq to‘lanadi.

Xodimning o‘zi uchun belgilab berilgan to‘liqsiz ish vaqt muddatidan tashqari ish beruvchining farmoyishiga (buyrug‘iga) binoan yoki uning ruxsati bilan ishlangan va- qti uchun ish vaqtidan tashqari ishlashga to‘g‘ri kelgan vaqt deb hisoblanib, kamida ikki hissa miqdorda haq to‘lanadi.

#### **4- §. Ish vaqtি rejimi.**

**Mehnat huquqida ish vaqtি rejimi deganda xodim- lar uchun belgilangan ish vaqtি muddatining muayyan kalendar davr (sutka, hafta, oy va shu kabilar) doirasidagi taqsimoti tushuniladi.**

**Ish vaqtি rejimi tushunchasi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:** kundalik ish vaqtining (sme- naning) muddati, ishning boshlanish va tugash vaqtি, ish- dagi tanaffuslar vaqtি, sutka davomidagi smenalar soni, ish kunlari hamda ishlanmaydigan kunlarning navbat bilan almashinishi, xodimlarning smenadan smenaga o‘tish tarti- bi) korxonada ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqalar.

Xodimlar uchun ish vaqtি rejimi korxonaning lokal normativ hujjatlarida, bunday hujjatlar bo‘limgan taqdir- da esa korxonaning ish rejimini inobatga olgan hol- da, mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga binoan belgilab qo‘yiladi. Belgilab qo‘yilgan ish rejimi, bir to- mondan, korxonaning unga yuklatilgan vazifalarining ba- jarilishini, ikkinchi tomondan esa qonun hujjatlari, lokal normativ hujjatlar yoki mehnat shartnomasida har bir xo- dim uchun belgilab qo‘yilgan ish vaqtি muddatiga rioya etilishini ta’min etilishini nazarda tutadi.

#### **5- §. Ish vaqtini hisobga olib borishning tushunchasi va turlari.**

Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida «ish vaqtini hisobga olish» atamasi ikki xil ma’noda ishlataladi.

Ulardan birinchisi ish vaqtি rejimining kunbay hiso- biga

asoslangan, ikkinchisi esa, ish vaqtি jamlab hisobga olinadigan turlarini birlashtiradi

Ish vaqtি kunbay hisobga olinadigan ishlarda ish re- jimi har bir ish kuni va har bir ish haftasi muddati te- gishli toifadagi xodimlar uchun qonun hujjatlarida bel- gilab qo‘yilgan ish muddati normasi chegarasidan ortib ketmagan holda taqsimlanadi. Ish kunining aniq mudda- ti umumiy qoidaga ko‘ra ichki mehnat tartibi qoidalari yoki ish smenasi jadvallari bilan belgilanadi va boshqa turlarini nazarda tutishi mumkin.

*Masalan: olti kunlik ish haftasida xodimlarning haftada besh kun 7 soatdan, dam olish kuni arafasidagi kunda 5 soat yoki to‘rt kun 7 soatdan va ikki kun 6 soatdan yoxud ikki kun 7 soatdan va to‘rt kun 6,5 soatdan ishlashini nazarda tutish mumkin.*

Besh kunlik ish haftasida ish vaqtining qirq soatlik muddati sakkiz soatlik ish kunini belgilash yo‘li bilan ta‘minlanadi.

Ish vaqtini jamlab hisobga olishning mohiyati shun- daki, hisobga olinadigan davrdagi ish vaqtining mud- dati ish soatlarining normal miqdoridan oshib ket- maydigan shart bilan korxonada ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy qilinishi mumkin. (*Masalan, oy, yil choragi, mavsum, yil va shu kabi muhlatlarda*).

## 6- §. Tungi vaqtdagi ish.

O‘zR MKning 122-moddasi birinchi qismiga binoan soat 22-00 dan to soat 6-00 gacha bo‘lgan vaqt tun- gi vaqt deb hisoblanadi. Tungi vaqtdagi ishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, xodim uchun belgilangan kundalik ish vaqtি muddati yoki ish smenasi muddatining kamida yarmi tungi vaqtga to‘g‘ri kelsa, tungi ish vaqtি muddati bir soatga, ish haftasi muddati ham shunga mu- vofiq ravishda qisqartiriladi.

Ishlab chiqarish sharoitlariga ko‘ra zarur bo‘lgan hol- larda, xususan ishlab chiqarish uzlusiz bo‘lgan joylarda, shuningdek bir kun dam olinadigan olti kunlik ish hafta- si sharoitida smena bo‘lib ishlanayotgan joylarda tungi ish muddati kunduzgi ish muddatiga tenglashtiriladi.

Tungi paytda ish vaqtidan foydalanishning boshqa bir o‘ziga xos xususiyati ayrim toifadagi xodimlarni tungi vaqtdagi ishga jalg etish cheklangandir.

**Masalan:** O‘zR MKning 245-moddasiga binoan o‘n sakkiz yoshga to‘lмаган шахсларни тungi ишларга жалб этиш тақиқла-нади. Bu qoida o‘zgarmas bo‘lib, o‘smir yigit yoki qizlarning tungi smenada ishlashigina emas, balki uning ish vaqtining bir qismigina tungi ish vaqtiga to‘g‘ri kelib qolishining o‘zi ham qonun talabining buzilishi deb hisoblanadi.

O‘zR MKning 228-moddasiga binoan homilador ayollarni hamda o‘n to‘rt yoshga to‘lмаган боласи (o‘n olti yoshga to‘lмаган ногирон боласи) bor ayollarni tun- gi vaqtdagi ишларга faqatgina ularning roziligi bilan jalg qilish mumkin. Shu bilan birga, bunday rozilik bo‘lgan taqdirda ham, homilador ayollar va uch yoshga to‘lмаган боласи bor ayollar tungi vaqtdagi ишларга, bunday ish ona va bolaning sog‘ligi uchun xayf tug‘dirmasligini tasdiqlov- chi tibbiy xulosa bo‘lgan taqdirdagina qo‘yilishi mumkin.

O‘zR MKning 220-moddasiga binoan nogironlar faqatgina ularning o‘z roziligi bilan, basharti ular uchun bunday ishlar tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo‘lsa, tungi vaqtdagi ишларга qo‘yiladi.

Tungi vaqtdagi ишларга тibbiy xulosaga binoan bun- day ish sog‘ligi holatiga to‘g‘ri kelmaydigan xodimlar ham qo‘yilmaydi.

O‘zR MKga binoan tungi vaqtdagi ish uchun to‘la- nadigan haqning aniq miqdori ham jamoa shartnomasi- da, agar u tuzilmagan bo‘lsa, - ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi. Tungi vaqtda- gi ishning har bir soati uchun kamida bir yarim bara- var miqdorda haq to‘lash hamda oshirilgan miqdorda to‘langan haq tarif stavkalariga va mansab maoshlariga qo‘shilmagan holda belgilanadi.

#### **6-§. Ish vaqtidan tashqari ish.**

O‘zR MK 124-moddasining birinchi qismiga binoan xodim

uchun belgilangan kundalik ish (smena) mud- datidan tashqari ishslash ish vaqtidan tashqari ish deb hi- soblanadi.

*Mehnat kodeksi dam olish va bayram kunlarida ish- ga jalg etish cheklanganligi to‘g‘risidagi umumiy talab- ni nazarda tutadi. Bunday kunlarda ishga jalg etishga umumiy qoidadan istisno sifatida qaraladi. Dam olish va bayram kunlaridagi ishlarga, birinchidan, korxonan- ing faqat ayrim xodimlarini, ikkinchidan esa alohida, oldindan nazarda tutilgan hollardagina jalg etishga yo‘l qo‘yiladi.*

O‘zR MKning 132-moddasiga binoan alohida hollar- da ish beruvchining farmoyishi bo‘yicha ayrim xodimlar- ni dam olish kunlari ishga jalg etishga, har bir korxona jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish be- ruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xod- imlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilan- gan asoslar bo‘yicha va tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Korxonada xodimlarni dam olish kunlaridagi ishlarga jalg etish tartibini belgilashda qonun hujjatlarida mustah- kamlab qo‘yilgan cheklashlarga qat’iy rioya etish kerak.

*Masalan: O‘zR MKning 220-moddasi beshinchi qismi- ga binoan, nogironlarni dam olish kunlaridagi ishlarga jalg etishga ularning roziligi bilangina, basharti ular uchun bun- day ishlar tibbiy tavsiyalarda taqiqlanmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.*

*O‘zR MKning 228-moddasiga binoan homilador ayollar- ni va o‘n to‘rt yoshga to‘Imagan (o‘n olti yoshga to‘Imagan nogiron) bolasi bor ayollarni ham ish beruvchi dam olish kunlaridagi ishlarga faqatgina ularning roziligi bilangina jalg etishga haqlidir.*

*O‘n sakkiz yoshga to‘Imagan xodimlar, O‘zR MKning 245- moddasiga binoan, har qanday hollarda ham dam olish kunlaridagi ishlarga qo‘yilmaydi.*


**Fugaro savoli:** Bayram kunlari arafasida sovg‘alarni o‘z vaqtida tayyorlash va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish qiyin bo‘ladi. Men ish beruvchidan bayram kunlari arafasida bir oz oldinroq ruhsat so‘rashim mumkinmi?

**Yurist javobi:** Albatta mumkin. Hattoki, O‘zR MKning 121- moddasiga muvofiq bu ish beruvchi ning majburiyati hi- soblanadi: «Bayram (ishlanmaydigan) kunlari (131-modda) arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida bir

*soatga qisqartiriladi».*

O‘zR MKning 124-moddasi ikkinchi qismiga binoan ish vaqtidan tashqari ishlar faqatgina xodimning roziligi bilan qo‘llanilishi mumkin. Xodim ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etilganda har bir holda uning roziligi olin- ishi kerak.

Quyidagilarni hatto o‘zlari rozilik bergan taqdirda ham ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etilishi taqiqla- nadi.



\* ' \ ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishlarining muddati qonun- da belgilab qo‘yilgan chegaradan ortiqcha bo‘lgan barcha xodimlar  
\\ \_\_\_\_\_ z

O‘zR MKning 125-moddasida ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etish imkonini berish bilan bir vaqtida ish vaqtidan tashqari ishlar muddatining yo‘l qo‘yiladigan normasi chegarasi ham belgilab qo‘yilgan.

Umumiy qoidaga ko‘ra, ish vaqtidan tashqari ish- ning muddati har bir xodim uchun surunkasiga ikki kun davomida to‘rt soatdan ortiq bo‘imasligi lozim, ya’ni, agar xodim birinchi kuni ish vaqtidan tashqari to‘rt soat ishlagan bo‘lsa, ertasi kuni hatto o‘z rozili- gi bo‘lgan taqdirda ham uni bunday ishga jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi. *Demak, agar birinchi kuni ish va- qtidan tashqari ishning muddati uch soatni tashkil et- gan bo‘lsa, ertasi kuni mazkur xodim, O‘zR MKning 125-moddasiga binoan, ish vaqtidan tashqari ishga ko‘pi bilan faqat bir soatga qo‘yilishi mumkin (3+1).*

**Fuqaro savoli:**

*Qo'shnimning aytishicha, u ba'zida bir sutka ketma-ket ishlar ekan. Qonunda xodimni qariyb bir sutka ketma-ket ish- lashga majbur qilishga ruxsat etiladimi?*

***Yurist javobi:***

*Yo'q, ruxsat etilmaydi. Xodimni ishga ikki smena ket- ma-ket jalb qilish taqiqlanadi.*

Bundan tashqari, smenali ish Mehnat kodeksining 123-moddasiga asosan jamlab hisobga olinadi. Bunda hisob- ga olinadigan davr 1 yildan, kundalik ish vaqt 12 soatdan ortib ketmasligi kerak. Ish smenasining muddati 12 soatdan iborat bo'lganda, shuningdek, mehnat sharoiti o'ta og 'ir va o'ta zararli va o'ta zararli ishlarda ish vaqtidan tashqari ishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnat sharoiti og'ir va zararli ishlarni bajarishda umumiyl qoidadan farqli ravishda ish vaqtidan tashqa- ri ishlar chegarasining normasi ikki baravar kam qilib, aniqroq qilib aytganda, xodim surunkasiga ikki kun davomida ish vaqtidan tashqari ishlarni bajarishlariga ko'pi bilan ikki soatga qo'yilishi mumkin (O'zR MKning 125-moddasasi).

Bundan tashqari, O'zR MKning 125-moddasasida ish vaqtidan tashqari ishning yillik normasi chegarasi ham belgilab qo'yilgan. Bunday ishning muddati har qan- day hollarda ham yiliga bir yuz yigirma soatdan ortiq bo'lmasligi lozim.

O'zR MKning 157-moddasasi birinchi qismiga bino- an ish vaqtidan tashqari ishlar uchun kamida ikki hissa miqdorida, xodimning iltimosiga ko'ra boshqa dam olish kuni berish bilan kompensatsiya qilinadigan bo'lsa, kami- da bir hissa miqdorida haq to'lanadi.

## **Glossary**

**Ish vaqtini (huquq tushunchasi sifatida)** - O'zR MKning 114-moddasiga muvofiq xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqt deb hisoblanadi.

**Ish vaqtining normal muddati** - qonun hujjatlari ish haftasi muddatini hamda ish kuni muddatini belgilab qo'yish orqali ish vaqt ni normasini belgilaydi.

**Ish vaqtining qisqartirilgan muddati** - ayrim toi- fadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog‘lig‘i, mehnat shartlari, o‘zga holatlarni inobatga olib, mehnat to‘g‘risi- dagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, shuningdek mehnat shartnomasi shartlariga binoan mehnatga to‘lan- adigan haqni kamaytirmsandan, ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi.

**Ish vaqtini rejimi** - belgilangan ish vaqtini muddati normasini qo‘llash hamda xodimlarning ish va dam olish vaqtini sutka, hafta hamda boshqa kalendar davr doirasini- da taqsimlash tartibi. Ish vaqtini rejimi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: kundalik ish muddati, ish boshlanadigan va tugallanadigan payt, ishdagi tanaffuslar vaqtini, sutkadagi smena miqdori, ish kunlari bilan ishlaymaydigan kunlar navbatma-navbat kelishi, xodimlarni bir smenadan boshqasiga o‘tkazish tartibi va boshqalar.

**Ish vaqtidan tashqari ishslash** - xodim uchun bel- gilangan kundalik ish muddatidan tashqari ishslash ish vaqtidan tashqari ish deb hisoblanadi. Ish smenasining muddati 12 soatdan iborat bo‘lganda, shuningdek mehnat sharoiti o‘ta og‘ir va o‘ta zararli ishlarda ish vaqtidan tashqari ishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

#### **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ish vaqtini tushunchasi va uni o‘rnatish tartibini tushuntiring.
2. O‘zR MKda ish vaqtining qanday turlari nazarda tutilgan?
3. Ish vaqtining qisqartirilgan muddatini belgilash tar- tibini tushuntiring.
4. Ish vaqtidan tashqari ishga jalb etishning tartibi, chegarasi va muddati.
5. Ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish uchun kompen- satsiya va haq to‘lash tartibini tushuntiring.
6. Ish vaqtini jamlab hisobga olish deganda nimani tushunasiz?
7. Qaysi toifa hodimlar bu qoida asosida ishlaydi?
8. Ichki mehnat tartibi qoidalari tushunchasini bering.
9. Korxonada ichki mehnat tartibi qoidalarini tas- diqlash

tartibini tushuntiring.

10. Korxonaning bir oylik smenalar grafigini tuzing.
11. Ish vaqtidan tashqari ishga jalb qilishga oid buyruq namunasini tayyorlang.
12. Korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarining namunaviy ish vaqtি bo‘limini ishlab chiqing.

### **Mavzu yuzasidan kazuslar:**

1. Ishlar hajmining qisqarganligi munosabati bilan tashkilot to‘liqsiz ish haftasiga, bo‘limlarning ba’zi xod- imlari esa to‘liqsiz ish kuniga o’tkazildi. Ayrim xodimlar bunday ish rejimida ishslashdan bosh tortib, kasaba uyush- masiga tushuntirish berishlarini so‘rab murojaat qildilar.

*Vaziyatni amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tahsil qiling.*

2. Davlat tashkiloti xodimi ish beruvchidan o‘n bir yoshli nogiron farzandi borligi uchun ish haqini to‘liq saqlagan holda ish kunini 1 soatga qisqartirishni so‘rab murojaat qildi. Ish beruvchi murojaatni o‘rganib, xod- imning iltimosini qanoatlantirishini, biroq ish vaqtini qis- qartirish natijasida ish haqi hamda yillik mehnat ta’tili muddati kamayishini bildirdi. Korxona buxgalteri esa ish vaqtining qisqartirilgan muddati beriladigan xodimlar ro‘yxatida nogiron farzandi borlar yo‘qligi, shu sababli xodimning arizasini to‘liq rad qilish kerakligini ta’kidla- di.

*Vaziyatni amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tahsil qiling.*

3. Soat 16.00 da, ya’ni ish smenasi tugagach, tikuv sexi boshlig‘ining og‘zaki buyrug‘i bilan olti nafar ish- chini, ya’ni II guruh nogironi, 3 yoshga to‘lmagan far- zandi bor tikuvchini topshirilgan vazifani tugatish uchun olib qoldi. Ish soat 23.00 da tugatildi.

*Vaziyatni amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tahsil qiling.*

## VI MAVZU. DAM OLISH VAQTI

*Dam olish vaqtini tushunchasi va turlari. Kundalik (smenalaro) dam olish vaqtini. Haftalik uzluksiz dam olish kunlari. Bayram (ishlanmaydigan) kunlar. Ishdan holi bo'lgan qo'shimcha kunlar. Ta'tillar tushunchasi va uning turlari. Mehnat ta'tillari muddati-ni hisoblab chiqarish tartibi. Ta'tillar uchun haq to'lash. Ta'tilni qismlarga bo'lish. Yillik mehnat ta'tillaridan chaqirib olish. Foydalilmagan ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lash. Ijtimoiy ta'tillar. Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tillar.*

### 1- §. Dam olish vaqtini tushunchasi va turlari

*Dam olish vaqtini bu - xodim mehnat vazifalarini bajarishdan holi bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalaniishi mumkin bo'lgan vaqtdir.*

Dam olishga bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va milliy qonunchilikning boshqa aktlarida mustahkamlangan.

Mehnat qonunchiligidagi dam olish vaqtining quyidagi turlari nazarda tutilgan:



Ish kuni (smena) davomidagi tanaffuslar dam olish va

ovqatlanish uchun beriladigan va ish vaqtiga qo'shil- maydigan tanaffuslardir.

Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffus- ning boshlanish va tugash vaqtি ichki mehnat tartibi qoi- dalarida, ish smenasi jadvallarida yoki xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan bevosita mehnat shartnomasida belgilab qo'yiladi.

Bajarilayotgan ishlarning o'ziga xos jihatи va xususi- yatlarini hamda boshqa holatlarni hisobga olib, dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffuslardan tashqari qo'shimcha tanaffuslar berish ham nazarda tutilishi mum- kin. O'zR MKning 236-moddasiga ko'ra ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari, bolani ovqatlatan- tirish uchun qo'shimcha tanaffuslar ham beriladi.

Bu tanaffuslar kamida har uch soatda bir marta har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan muddat bilan ber- iladi. Ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi bo'lgan taqdirda tanaffusning muddati kamida bir soat qilib belgilanadi.

Bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar ish vaqtiga kiritiladi va o'rtacha oylik ish haqi hisobi bo'yicha haq to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagи PQ-4235-son «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyati- ni qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbi- yalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beril- adigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalilanligidan tanaffus vaqtini belgilash huquqi berilishi belgilab qo'yilgan.

### **Kundalik (smenalararo) dam olish vaqtি.**

Kundalik dam olish vaqtি - bu bir ish kuni (smena) tugashi bilan keyingi kungi (smenadagi) ish boshlanishi o'rtasidagi vaqtdir.

Kundalik dam olish vaqtining eng kam muddati qonun bilan

belgilangan va Mehnat kodeksining 128-moddasiga ko‘ra o‘n ikki soatdan kam bo‘lishi mumkin emas.

### **Haftalik uzlusiz dam olish kunlari.**

Haftalik dam olish deb ishdan ozod bo‘lgan va xo- dimlarga har haftada berilishi kafolatlangan dam olish kunlari tushuniladi.

Xodimlarga har bir ish haftasida dam olish kunlari, ularning soni (bir yoki ikki dam olish kuni) korxonada joriy etilgan ish haftasi turiga bog‘liqdir.

Ishlab chiqarish texnikaviy sharoitlariga ko‘ra yoki aholiga muntazam uzlusiz xizmat ko‘rsatish taqozosi oqibatida ishni to‘xtatish mumkin bo‘lmagan korxonalar- da, shuningdek uzlusiz ishlab chiqarishga asoslangan korxonalarda dam olish kunlari soni korxonada joriy etil- gan ish haftasi turiga qarab, tegishli ravishda olti kunlik yoki besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlarga belgilagan muddatidan kam bo‘lishi mumkin emas.

### **Bayram (ishlanmaydigan) kunlar**

*Bayram kunlari - bu mamlakat hayoti uchun, un- ing tarixi uchun yoki xalqi uchun muhim ahamiyatga molik voqeahodisaga bag‘ishlab belgilangan tartibda e’lon qilingan kalender sanadir.*

O‘zR MKning 131-moddasiga ko‘ra quyidagi kunlar bayram (ishlanmaydigan) kunlari deb hisoblanadi:

- 1 yanvar - Yangi yil;
  - 8 mart - Xotin-qizlar kuni;
  - 21 mart - Navro‘z bayrami;
  - 9 may - Xotira va qadrlash kuni;
  - 1 sentyabr - Mustaqillik kuni;
  - 1 oktyabr - O‘qituvchi va murabbiylar kuni;
  - 8 dekabr - Konstitutsiya kuni;
  - Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni;
  - Qurban hayit (Iyd al-Adha) diniy bayramining birin- chi kuni.
- Jamoa kelishuvlarida yoki korxonaning jamoa shartnomasida qo‘srimcha bayram kunlari belgilanishi mum- kin (masalan, korxona tashkil topgan yoki o‘zining ma'lum bir mahsulotini ishlab chiqargan kunning yubiley sanasi va shu kabilar). Qonun bilan belgilab qo‘yilgan bayram

(ishlanmaydigan) kunlarini ish beruvchi ish kuni deb e'lon qilishga yoki ularni boshqa bir kunga ko'chir- ishga haqli emas.

Ish beruvchi faqat alohida hollardagina ayrim xod- imlarni jamoa shartnomasida belgilab qo'yilgan, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uy- ushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik or- gani bilan kelishib belgilanadigan asoslar va tartibda jalb etishga haqlidir. Bayram (ishlanmaydigan) kunlaridagi ish uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi.

**Ishdan holi bo'lган qо'shimcha kunlar.**

*Ishdan holi qо'shimcha kunlar shunday ish kunlar- iki, bunday paytlarda muayyan maqsadlarni amalga os- hirish uchun xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishdan ish haqi saqlangan holda ozod etib qo'yiladi.*

Mehnat kodeksida quyidagi toifadagi xodimlarga ish beruvchi tomonidan ishdan holi qo'shimcha kun berilishi shart ekanligi belgilab qo'yilgan:

- nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onasidan biriga (homiyga, vasiyga);
- donorlarga;
- ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartno- masi bekor qilinishi to'g'risida ogohlantirilgan xodimlar- ga;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim muassasalarida o'qiyotgan xodimlarga.

Bundan tashqari, dam olish va bayram kunlarida yoki ish vaqtidan tashqari ishlaganlik uchun kompensatsiya tariqasida xodimning xohishiga ko'ra unga qo'shimcha dam olish kuni berilishi mumkin.

Ba'zida bayram (ishlanmaydigan) kunlar haftaning dam olish va ish kunlarining bo'linishini keltirib chiqara- di. Bu holat xodimlarning surunkali dam olishlari hamda korxonaning normal faoliyat ko'rsatishida noqulayliklar keltirib chiqaradi.

O'zR MKda esa dam olish kunlarini ko'chirish bilan bog'liq qoidalarni tartibga soluvchi normalar nazarda tutil- magan. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentin- ing 2017-yil 28-dekabrdagi «2018 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida

qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida»gi PF-5290-sonli Farmoni bilan o'z yechimini topdi.


Farmoning 4-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda xodimlarning dam olish va bayram kunlaridan oqilona foydalanishini ta'minlashni inobatga olgan holda, kelgusi kalendar yili uchun qo'shimcha dam olish kunlarini belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida har yili 15-oktabrdan kechikmasdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishlari belgilab qo'yilgan.

Mazkur Farmonga muvofiq, 2018-yildan boshlab rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlar belgilanligi va yillik mehnat ta'tili muddati ushbu kunlarga kamaytirilishini hisobga olgan holda yillik mehnat ta'tili vaqtida saqlanib qoladigan o'rtacha ish haqi miqdorini aniqlash, shuningdek foydalanilmagan mehnat ta'tili uchun pullik kompensatsiya to'lovini hisoblab chiqish tartibini belgilaydi.

## 2- §. Ta'tillar tushunchasi va uning turlari

O'zbekistan Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Haq to'lanadigan yillik ta'tillar to'g'risida»gi 52-sonli konvensiyasi (1936) talablariga muvofiq bo'lib, xodimning ta'til olish huquqididan voz kechish to'g'risidagi yoki minimal ta'tilni pullik kompensatsiya bilan almashtirish to'g'risi-dagi kelishuvi Mehnat kodeksining 5-moddasiga muvofiq haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko'ra ta'tillarning uchta turi nazarda tutilgan:



**Mehnat ta'tili vaqtning shunday muayyan bir davriki, uning muddati qonun hujjatlarida belgilab qo'yilganidan kam bo'lmaydi va har bir xodimga uzlusiz dam olish hamda mehnat qobiliyatini tiklash uchun ish joyi va o'rtacha ish haqi saqlangan holda har ish yilida beriladi.**

Barcha xodimlarga ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi.

**Yillik asosiy ta'til.** O'zR MKning 134-moddasiga ko'ra, mehnat ta'tilining davomiyligi o'n besh ish kuni- dan kam bo'imasligi kerak. O'rindoshlik asosida, to'liq- siz ish vaqt shartlarida va muddatli mehnat shartnomasi shartlarida ishlayotgan xodimlarga ham yillik asosiy ta'til umumiy qoidalarga rioya qilingan holda beriladi.

Quyidagi toifadagi xodimlarga ularning yoshi va sog'lig'i holatini, shuningdek mehnat vazifalarining o'zi- ga xos jihatlari va xususiyatlarini hamda boshqa holatlar- ni e'tiborga olib asosiy uzaytirilgan ta'tillar nazarda tutil- gan bo'lib, yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi:

o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarga - o'ttiz kal- endar kun;

ishlayotgan I va II guruh nogironlariga - o'ttiz kal- endar kun.

Bundan tashqari, «Prokuratura to'g'risida»gi O'zbeki- ston Respublikasi Qonuning 50-moddasi uchinchi qismi- ga binoan prokuror-tergov xodimlarining uzaytirilgan aso- siy ta'tili muddati o'ttiz kalendrar kunni tashkil etadi. Bu xodimlar ish stoji uchun qo'shimcha ta'til olish huquqi- ga ham egadir. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunining (yangi tahriri) 75-moddasiga muvofiq, sudyalarga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan ta'til beriladi. O'zbekiston Respublikas- ining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи

Qonun- chilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida»gi Qonunining 16-moddasiga ko'ra deputat- ga, senatorga har yili o'ttiz olti ish kunidan iborat haq to'lanadigan uzaytirilgan mehnat ta'tili beriladi. Har yil- gi mehnat ta'tili deputatga qoida tariqasida, Qonunchilik palatasining sessiyalari oralig'idagi davrda berilishi kafo- latlangan.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi O'RQ-576-son «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunining 15-moddasining uchinchini qismiga ko'ra, dav- lat ilmiy tashkilotlarida ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar- ga qirq sakkiz ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan hamda moddiy yordamni ko'zda tutadigan mehnat ta'tili berilishi nazarda tutilgan.

*Qo'shimcha ta'til - bu alohida toifadagi xodimlar- ga belgilangan asosiy (minimal yoki uzaytirilgan) ta'til- dan tashqari (qo'shimcha ravishda) beriladigan mehnat ta'tilining turidir.*

O'zR MKning 136-moddasiga ko'ra qo'shimcha ta'til- lar quyidagi xodimlarga berilishi nazarda tutilgan:

- 1) mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lган xodimlarga;
- 2) o'ziga xos bo'lган, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga;
- 3) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar- da.

Qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan hollardan tashqari qo'shimcha ta'tillar jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida yoki xodim bilan tuzilgan mehnat shartno- masi shartlarida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Mehnat sharoiti noqulay va o'ziga xos bo'lган ish- larda band bo'lганлик uchun yillik qo'shimcha qo'shim- cha ta'tillarning davomiyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi «Xod- imlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yana- da takomillashtirish to'g'risida»gi 263- son qarori bilan tasdiqlangan «Ish o'rinalarini mehnat sharoitlari va as- bob- uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizomning

3- ilovasida belgilab qo‘yilgan.

O‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoitida ishlovchi xodimlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagи 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan<sup>6</sup>. Mazkur qaror mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda band bo‘lgan shaxslar uchun ish vaqtining eng ko‘p muddatini va qo‘srimcha ta‘tilning eng kam muddatini nazarda tutadi. Ro‘yxatda nazarda tutilgan xodimlar qo‘srimcha ta‘tilining muddati o‘n ikki ish kunidan kam bo‘lishi mumkin emas.

O‘zR MKning 135-moddasiga binoan o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslarga, shuningdek ishlayotgan I va II guruh nogironlariga yillik uzaytirilgan mehnat ta’ti- li muddati kalendar kunlarda hisoblab chiqariladi.

O‘zR Vazirlar Mahkamasining «Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘srim- cha choratadbirlar to‘g‘risida»gi 2019 yil 6 sentyabr 743-sonli qarori bilan «Tabiiy-iqlim va maishiy sharoit- lari og‘ir va noqulay bo‘lgan joylarda ishlovchi xodim- larga har yili beriladigan qo‘srimcha ta‘tilning eng kam muddatini belgilash va qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi Ni- zom»<sup>7</sup> tasdiqlangan (keyingi o‘rinlarda - Nizom). Maz- kur Nizomga ko‘ra mehnat sharoitlari og‘ir va noqulay bo‘lgan tumanlar va joylarda ishlaganlik uchun eng kam yillik qo‘srimcha ta‘til berish tartibga solingan va eng kam yillik qo‘srimcha ta‘tilning xodim to‘liq ish yilida ishlagan taqdirda berilishi belgilab qo‘yilgan.

**Masalan:** Nizom bilan tasdiqlangan «Tuman koeffitsiyentlari, shuningdek, yillik qo‘srimcha ta‘tilning eng kam muddati qo‘llaniladigan tabiiy-iqlim sharoitlari og‘ir va noqulay bo‘lgan joylar Ro‘yhati» bilan Navoiy viloyati- ning Uchquduk va Zarafshon shaharida ishlayotganlar- ga 6 kun qo‘srimcha ta‘til

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 133-son qarori /-1997.- 11 mart.

<sup>7</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.09.2019-y., 09/19/743/3710-son

*berilishi, dengiz sathidan 3 000 metrdan ortiq baland tog‘li tumanlarda ishlaganlik uchun barcha iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning xo-dimlari uchun 4 kundan iborat qo‘sishimcha ta’til berilishi nazarda tutilgan.*

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, tabiiy-iqlim sharoit-lari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar uchun qo‘sishimcha ta’tillar tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat‘i nazar barcha tashkilotlar tomonidan qo‘llanishi majburiy bo‘lib bo‘lib hisoblanadi.

Qo‘sishimcha ta’tillarning boshqa turlarini korxonaning mablag‘lari hisobidan berish jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida yoki xodim bilan tuzilgan mehnat shartno-masi shartlarida nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

*Masalan: aksariyat korxonalarda shu korxonadagi yoki tarmoqdagi uzlusiz ish staji uchun qo‘sishimcha ta’til berilishi belgilab qo‘yiladi.*

### **3-§. Mehnat ta’tillari muddatini hisoblab chiqarish tartibi**

Yillik mehnat ta’tilining umumiy muddatini hisoblab chiqarishda xodimga belgilangan barcha qo‘sishimcha ta’tillar uning yillik asosiy minimal yoki asosiy uzaytiril-gan ta’tiliga qo‘sib jamlanadi. Agarda xodim bir qancha turdag‘i qo‘sishimcha ta’tillarni olish huquqidан foydalansa, ular unga belgilangan asosiy minimal yoki asosiy uzay-tirilgan ta’til bilan ham qo‘sib jamlanadi.

*Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnat ta’til-larining barcha turlarini qo‘sib jamlaganda ularning umumiy muddati barcha hollarda 48 ish kunidan oshib ketishi mumkin emas.*

O‘zR MKning 139-moddasiga ko‘ra ta’tillarning mud-dati olti kunlik ish haftasi yuzasidan kalendar bo‘yicha ish kunlari bilan hisoblab chiqariladi. Ta’til davriga to‘g‘ri kelib qolgan ishlanmaydigan kunlar deb hisoblan-adigan bayram kunlari ta’til muddatini belgilashda hisob-ga olinmaydi.

O‘zR MKning 140-moddasiga ko‘ra yillik mehnat ta’tilining umumiy muddatini hisoblab chiqarishda qo‘sishimcha ta’tillar yillik asosiy ta’tilga (shu jumladan, uzaytirilgan ta’tilga ham) qo‘sib

jamlanadi.

**Masalan:** xodim 6 kun qo 'shimcha ta'til olish huquqi- ga ega. Bu holda umumiy yillik mehnat ta'tili 21 ish kunini tashkil qiladi (6+15).

Xuddi shunday olti kunlik qo 'shimcha ta'til asosiy uzay- tirilgan ta'til olishga huquqi bor xodimga berilganda, yillik mehnat ta'tillarining umumiy muddati 42 ish kunini tashkil qiladi (36+6).

Mehnat kodeksining 141-moddasiga ko'ra, ta'til- lar muddatini ishlangan vaqtga mutanosib ravishda his- oblаб chiqarishda ularning muddati har bir to'liq ta'til miqdorini o'n ikkiga bo'lib, so'ng to'liq ishlangan oylar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

**Masalan:** 48 ish kuni miqdorida yillik ta'til o'rnatil- gan xodimga (asosiy uzaytirilgan ta'til 36 ish kun va o 'ta og 'ir mehnat sharoitlarida ishlaganligi uchun 12 ish kuni miqdorida qo 'shimcha ta'til) ta'tillar muddatini amalda ish- langan 8 oylik muddatdan kelib chiqib, hisoblash lozim.

Ta'tillar muddatini ishlangan vaqtga mutanosib rav- ishda to'g'ri hisoblab chiqarish uchun O'zR MKning 141-moddasiga ko'ra o'n besh kalendar kuniga teng va undan ko'p bo'lган kunlar bir oy deb yaxlitlanadi, o'n besh kalendar kundan kami esa chiqarib tashlanadi.

Ishlangan vaqtga mutanosib ravishda yillik mehnat ta'til muddatini hisoblab chiqarish mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham amalga oshiriladi. Mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimga foydalanilmagan barcha yillik asosiy va qo 'shimcha ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lanadi.

Yillik asosiy ta'tilni olish huquqini beruvchi ish staji- ga quyidagilar kiradi:

- ish yili davomida haqiqatda ishlangan vaqt;
- xodim haqiqatda ishlangan bo'lsa ham, lekin un- ing ish joyi (lavozimi) saqlangan vaqt, bundan bolani parvarishlash uchun qisman haq to'lanadigan ta'til va ish haqi saqlanmagan holda beriladigan muddati ikki haftadan ko'p bo'lган ta'tillar mustasno;
- mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor

qilinganligi yoki xodim g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazilganligi, xodim keyinchalik avvalgi ishiga tiklangan bo‘lsa va buning natijasida haq to‘lanadigan majburiy progul vaqt;

- tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalari va korx- onaning o‘zga lokal hujjatlari, mehnat shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan boshqa davrlar.

Haqiqatda ishlangan vaqt qoida tariqasida yillik ta‘til- ni olish huquqini beradigan ish stajining asosi hisobla- nadi.

Bolani parvarishlash uchun beriladigan qisman haq to‘lanadigan ta‘til va muddati ikki haftadan ko‘p bo‘lgan ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta‘til davrlarida xodimning ish joyi saqlanib qolishiga qaramay, bu davr- lar istisno holda asosiy ta‘tilni hisoblab chiqarish ish sta- jiga qo‘sib hisoblanmaydi.

Umumiy qoidaga ko‘ra, ish yilini hisoblab chiqqa- rish xodim ishga kirgan kundan e’tiboran boshlanadi. Ish yilining tugash sanasi esa faqat ta‘til olish huquqi- ni beradigan ish stajiga qo‘sib hisoblanadigan muayyan davrlarnigina o‘z ichiga oladigan o‘n ikki oy o‘tganidan keyin aniqlanadi. Ayni shu sanaga ko‘ra, har yili joriy ish yilining tugashi va keyingi ish yilining boshlanishi hisoblab chiqariladi.

O‘zR MKning 144-moddasiga muvofiq, yillik mehnat ta‘tillarini berish navbatli har bir kalendar yil boshlan- guna qadar ish beruvchi kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib tasdiqlanadigan lokal normativ hujjatlardan biri bo‘lib hi- soblanadigan, har bir korxonada majburiy tartibda qabul qilinishi shart bo‘lgan jadvalga muvofiq belgilanadi.

O‘zR MKning 144-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, quyidagi xodimlarga ta‘til ularning xohishiga ko‘ra yoz- gi yoki ular uchun qulay bo‘lgan boshqa vaqtda berilishi kerak:

1) o‘n to‘rt yoshga to‘limgan bitta yoki undan ortiq bolani (o‘n olti yoshga to‘limgan nogiron bolani) tarbiya- layotgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onaga (beva erkaklar, beva ayollar, nikohdan ajrashganlar, yolg‘iz onalarga) va mud- datli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarining xotinlariga;

2) I va II guruh nogironlariga;

- 3) 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari bo'yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga;
- 4) ta'lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralma- gan holda o'qiyotganlarga.

Ishlayotgan erkaklarga yillik ta'til ularning xohish- lariga ko'ra, xotinlarining homiladorlik va tug'ish ta'ti- li davrida beriladi. Bundan tashqari, jamoa kelishuvida yoki jamoa shartnomasida boshqa toifadagi xodimlarga ham ta'tildan yozgi yoki boshqa qulay vaqtida foydalan- ish huquqini berish nazarda tutilishi mumkin.

Yillik mehnat ta'tillarini berish navbatni kalendar yil boshlanguniga qadar ish beruvchi tomonidan kasaba uy- ushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik or- gani bilan kelishib tasdiqlanadigan jadvalga muvofiq bel- gilanadi.

Ta'tillar jadvalini kelishib olish uni tasdiqlash uchun xodimlarning vakillik organi roziliginini olishni bildiradi.

Alohibda toifa xodimlarga mehnat ta'til quyidagi xod- imlarga ularning xohishi bo'yicha olti oy o'tmasdan ber- ilishi mumkinligi O'zR MKning 143-moddasi uchinchi qismida belgilab qo'yilgan.

O'zR MKning 144-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ta'til berish vaqtini haqida xodim ta'til boshlanishidan ka- mida o'n besh kun oldin xabardor qilinishi kerak.

Xodimlar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri- da; homiladorlik va tug'ish ta'tili muddati boshlanganda; yillik ta'til o'quv ta'tiliga to'g'ri kelib qolganda; davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotganida, basharti qonun- lar va boshqa normativ hujjatlarda bunday vazifalarni ba- jarish uchun xodimni ishdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa, ta'tilni uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chir- ish huquqiga egadirlar.

Mehnat ta'tili davrida yuzaga kelgan, qonunlar va mehnat to'g'risidagi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan obyektiv sabablar mavjud bo'lgan hollarda, ta'til uzaytirilishi shart.

O'zR MK 143-moddasining beshinchi qismiga mu- vofiq mehnat ta'tili har yili, ta'til qaysi ish yili uchun berilayotgan bo'lsa, shu ish yili tugaguniga qadar berilish lozim.

O‘zR MK 143-moddasining oltinchi qismiga muvofiq mehnat ta‘tilining o‘n ikki ish kunidan ortiq bo‘lgan qismi keyingi ish yiliga ko‘chirilishi mumkin. Bunday ko‘chirishga ham faqat xodimning roziligi bilan va faqat ishlab chiqarish tusidagi sabablarga ko‘ra joriy yilda ta‘tilni to‘liq berish imkonli bo‘lmasligi alohida hollarda yo‘l qo‘yiladi.

O‘zR MK 143-moddasining yettinchi qismiga muvofiq o‘n sakkiz yoshga to‘lmasligi xodimlarga yillik ta‘tilni, shuningdek mehnat sharoiti noqulay va o‘ziga xos bo‘lgan ishlarda, og‘ir va noqulay tabiiy shart-sharoitlar- idagi ishlarda band bo‘lgan xodimlarga yillik qo‘sishmcha ta‘tillarni bermaslik taqiqlanadi.

**Ta‘tilni qismlarga bo‘lish.** O‘zRning 146-modda- si xodimning xohishiga ko‘ra va uning yozma arizasi asosida ta‘tilni qismlarga bo‘lishga yo‘l qo‘yadi. Bun- da ta‘tilning qismlaridan biri o‘n ikki ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

**Masalan:** xodimga umumiyl muddati 24 ish kunidan ibo- rat yillik mehnat ta‘ili belgilangan. Qonun hujjatlarida ta‘til nechta qismiga bo‘linishi mumkinligi belgilab qo‘yilmaganligi sababli mazkur xodim ta‘tilning muddati 12 ish kunidan ibo- rat qismidan bir vaqtida ta‘tilning qolgan 12 ish kunidan esa boshqa vaqtida foydalanishi yoki uni qismlarga bo‘lib (2,3,4 ish kuni bo‘yicha va xokazo) foydalanishi mumkin.

Xodimning iltimosiga binoan ta‘tilni qismlarga bo‘lib foydalanish bevosa ta‘tillar jadvalida nazarda tutilishi mumkin.

**Ta‘tildan chaqirib olish.** O‘zR MKning 147-mod- dasiga muvofiq ta‘tildan chaqirib olishga faqat xodimning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Ta‘tildan chaqirib olish munosabati bilan ta‘tilning foydalanilmay qolgan qismi xodimga mazkur ish yili davomida boshqa vaqtida berilishi yoki MKda nazarda tutilgan talablarga rioya qilgan holda keyingi ish yilining ta‘tiliga qo‘sib qo‘yilishi kerak.

**Masalan,** agar xodimga ta‘tilning qonun hujjatlariga mu- vofiq, joriy yilda foydalanilishi shart bo‘lgan va keyingi ish yiliga ko‘chirilmaydigan qismini ish yili tugagunga qadar berishning imkoniyati bo‘lmasa, uni ta‘tildan chaqirib olish mumkin emas (noqulay yoki o‘ziga xos mehnat sharoitida ishlaganlik uchun

*qo'shimcha ta'til va boshqalar).*

Ta'tildan chaqirib olishda uning foydalanimagan qis- mini pullik kompensatsiya bilan almashtirish masalasi ta'tilni pullik kompensatsiya bilan almashtirishni nazarda tutuvchi umumiy qoidalarga rioya etilgan holda hal etil- ishi mumkin.

#### **4- §. Ta'tillar uchun haq to'lash. Foydalanimagan ta'tillar uchun pullik kompensatsiya to'lash**

O'zR MK 148-moddasining birinchi qismiga muvofiq yillik mehnat ta'tillari davri uchun xodimga o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda haq to'lash kafolatlanadi.

Barcha hollarda, shu jumladan xodimga ta'tilning foydalanimagan va boshqa vaqtga ko'chirilgan qismi beril- ganda ta'til uchun o'rtacha ish haqini hisob-kitob qilish xodimning mehnat ta'tili yoki uning foydalanimagan qismi boshlanmasidan oldingi oxirgi ish kunidagi oylik maoshi yoki tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи 133-son- li qaroriga muvofiq, xodim mehnat ta'tilda bo'lgan davr- da tarif stavkalari, xizmat maoshlari miqdorlari oshirilgan taqdirda, ta'tilning xodim mazkur korxonada ish haqi miqdorlari oshirilgandan keyin amalda foydalangan kun- lariga to'g'ri keladigan ish kunlari soni uchun haq qayta hisoblab chiqiladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilinganda yillik asosiy va qo'shimcha ta'tillarning foydalanimagan kunlari uchun pullik kompensatsiya to'lanishi kerak. O'zR MKning 151-moddasida xodimlarga ish davrida, ularning xohishi- ga ko'ra yillik mehnat ta'tilining qonun hujjatlari bel- gilangan eng oz muddatidan (15 ish kunidan) ortiqcha qismi uchun pullik kompensatsiya to'lanishi mumkin.

O'zR MKning 151-moddasi uchinchi qismiga muvofiq eng kam muddati qonun hujjatlari bilan belgilangan quy- idagi qo'shimcha ta'tillarni pullik kompensatsiya bilan al- mashtirishga yo'l qo'yilmaydi, demak ulardan faqat asli holida foydalanimishi

mumkin:

- noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitida ishlagan- lik uchun beriladigan qo‘srimcha ta’tillar;
- og‘ir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida ishlagan- lik uchun beriladigan qo‘srimcha ta’tillar.

## 5- **§ Ijtimoiy ta’tillar turlari**

Qonun hujjatlari ish beruvchi zimmasiga xodimlarga mehnat ta’tillaridan tashqari ijtimoiy ta’tillar ham berish majburiyatini yuklaydi.

Bu ta’tillar qonunchilik bilan nazarda tutilgan ijtimoiy maqsadlarda (bolaning ma'lum yoshga yetgunicha uni parvarishlash uchun, o‘qish bilan bog‘liq, ilmiy tadqiqot ishini yakunlash uchun) beriladi.

O‘zR MKning 149-moddasiga muvofiq xodim quyida- gi ijtimoiy ta’tillarni olish huquqididan foydalanadi.



### **Homiladorlik va tug‘ish ta’tillari**

Homiladorlik va tug‘ish ta’tilini olish huquqiga mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlovchi barcha ayollar ish staji bo‘lishidan qat’i nazar egadirlar.

O‘zR MKning 233-moddasiga muvofiq tuqqunga qa- dar 70 kalendar kun va tuqqandan keyin 56 kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda 70

kalendar kun) muddati bilan homi- ladorlik va tug‘ish ta’tili vaqtincha mehnatga qobiliyatsi- zlik varaqasi asosida beriladi.

Ko‘rsatilgan ta’tilning umumiy muddati faqat qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda, xususan, tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollar- da ta’tilning umumiy muddati 140 kalendor kungacha ko‘paytiriladi.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tilining muddati kalendor kunlarda hisoblanishi sababli, bu ta’til hisobiga faqat ish kunlarigina emas, balki dam olish va bayram kunlari ham qo‘shib hisoblanadi.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta’til mehnat stajiga, shu jumladan mutaxassisligi bo‘yicha ish stajiga, shuningdek keyingi mehnat ta’tilini olish huquqini beradigan stajga qo‘shiladi. Homiladorlik va tug‘ish ta’tili davrida ayolga o‘rtacha oylik ish haqining 100% miqdorida nafaqa to‘la- nadi. Ishga kirgan hamda ishdagi tanaffuslardan so‘ng mehnat faoliyatini davom ettirayotgan ayollarga ishga qabul qilingan kunidan boshlab, amalda ishlagan davri uchun differensial yondashgan holda, nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi belgilangan. Jumladan, ishga qabul qilin- gan kunidan boshlab 12 oygacha amalda ishlaganlarga - o‘rtacha ish haqining 75 foizi miqdorida homiladorlik va tug‘ish ta’tilida bo‘lgan davriga hamda ishga qabul qilin- gan kunidan boshlab 12 oydan ortiq amalda ishlaganlarga homiladorlik va tug‘ish ta’tilida bo‘lgan davrlariga o‘rta- cha oylik ish haqining 100 foizi miqdorida tayinlanadi.

O‘zR MK 235-moddasiga muvofiq yangi tug‘ilgan bolalarni bevosita tug‘ruqxonadan farzandlikka olgan yoki bolalarga vasiy qilib belgilangan shaxslarga bola farzand- dikka olingan (vasiylik belgilangan) kundan boshlab, bola tug‘ilgan kundan e’tiboran 56 kun (ikki yoki undan or- tiq bola asrab olingan (vasiylik belgilangan) taqdirda esa 70 kalendor kun) o‘tguniga qadar bo‘lgan davrda nafaqa to‘langan holda ta’til beriladi.

### **Bolani parvarishlash ta’tili.**

O‘zR MKning 234-moddasiga muvofiq homiladorlik va

tug‘ish ta’tili tugaganidan keyin ayolning xohishiga ko‘ra ish stajidan qat‘i nazar, bola ikki yoshga to‘lgunga qadar bolani parvarishlash uchun qonun hujjatlarida bel- gilangan tartibda nafaqa to‘lash nazarda tutilgan.

Mazkur ta’tildan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham to‘liq yoki uni qismlarga bo‘lib foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdaggi PQ-4231-son «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyati- ni qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida bola parvarishlash ta’tilining kamida uch oyiga ota tomonidan foydalanimagan taqdirda, ota yoki onadan biri- ga O‘zR MKning 234-moddasi tartibida qo‘srimcha bir oy nafaqa to‘lanadigan bola parvarishlash ta’tili berilishi nazarda tutilgan.

Bolani parvarishlash ta’tili vaqtli ish stajiga, shu jum- ladan mutaxassisligi bo‘yicha ish stajiga ham qo‘shiladi. Biroq bu vaqt, agar jamoa shartnomasida yoki korxo- naning boshqa lokal hujjatida yoxud mehnat shartnoma- sida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, navbatda- gi mehnat ta’tilini olish huquqini beradigan ish stajiga qo‘shilmaydi.

Bolani parvarishlash ta’tili davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi, korxonaning tugatilishi hollari bun- dan mustasno.

Bolani parvarishlash nafaqasi bolaning onasiga yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshiga tay- inlanadi. Bu nafaqani tayinlash va to‘lash tartibi Mehnat kodeksi bilan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2002 yil 18 fevralda tasdiqlagan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2002 yil 14 martda ro‘yxatga ol- gan «Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to‘lgunga- cha parvarish qilish bo‘yicha har oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom» bilan belgilangan. Nafaqa bola ikki yoshga to‘lgunga qadar har oyda re- spublikada belgilangan eng kam ish haqining 200 foizi miqdorida, parvarishlanayotgan bolalar soni va nafaqa oluvchi shaxsning

mehnat stajidan qat'i nazar, to'lanadi. Nafaqa bola ikki yoshga to'lgan oyga qadar to'lanadi.

Odatda, bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'til- dan (bola ikki yoshga to'lguna qadar qisman haq to'la- nadigan ta'tildan ham, bola uch yoshga to'lguna qadar ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tildan ham) bolaning onasi foydalanadi. O'zR MK 234-moddasining uchinchi qismiga muvofiq bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillardan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshi ham to'liq yoki uni qismlarga bo'lib foydalanishlari mumkin.

O'zR MKning 232-moddasiga muvofiq o'n ikki yosh- ga to'lmanik yoki undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmanik nogiron bolasi bor ayollarga har yili uch ish kunidan kam bo'lmanik muddat bilan haq to'la- nadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

### **O'qish bilan bog'liq ta'tillar.**

Ta'lim muassasalarida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qib, o'quv rejasini bajarayotgan xodimlar mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda bel- gilangan tartibda ish joyidan haq to'lanadigan qo'shim- cha ta'tilga chiqish, qisqartirilgan ish haftasi sharoitida ishslash va boshqa imtiyozlar olish huquqiga egaliklari O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida belgilab qo'yilgan.

O'zR MKning 256-moddasi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan xodimlarga laboratori- ya-imtihon sessiyasida qatnashish davrida quyidagi tartib- da: birinchi va ikkinchi kursda ta'limning kechki shak- lida oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlarga har yili kamida yigirma kalendar kun, o'rta maxsus o'quv yurt- larida ta'lim olayotganlarga har yili kamida o'n kalen- dar kun, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida sirtdan ta'lim olayotganlarga esa har yili kamida o'ttiz kalendar kun; uchinchi va undan keyingi kursda ta'limning kechki shaklida oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlarga har yili kamida o'ttiz

kalendor kun, o‘rta maxsusus o‘quv yurt- larida ta’lim olayotganlarga har yili kamida yigirma kal- endar kun, oliy va o‘rta maxsusus o‘quv yurtlarida sirtdan ta’lim olayotganlarga esa har yili kamida qirq kalendor kun; oliy va o‘rta maxsusus o‘quv yurtlarida bitiruv imti- honlarini topshirish davrida kamida o‘ttiz kalendor kun; diplom loyihasini (ishini) tayyorlash va yoqlash davrida oliy o‘quv yurti talabalariga to‘rt oy, o‘rta maxsusus o‘quv yurti talabalariga esa ikki oy muddat bilan o‘rtacha oylik ish haqi saqlangan holda qo‘srimcha ta’tillar berilishini nazarda tutadi.

Ish beruvchi oliy o‘quv yurtlarida sirtdan ta’lim olayotgan xodimlarga laboratoriya-imtihon sessiyasida qa- tnashish maqsadida o‘quv yurti joylashgan yerga borishi va u yerdan qaytib kelishi uchun hamda diplom loyihasi (ishi) tayyorlash va uni yoqlash yoki bitiruv imtihonlarini topshirish uchun borib kelinganda yiliga bir marta yo‘l kiraning ellik foizdan kam bo‘lmagan qiymatini to‘lashi nazarda tutilgan.

### **Ijodiy ta’tillar.**

O‘zR MKning 285-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga qo‘sib olib borayotgan shaxslarga doktorlik dissertatsi- yasini yakunlash, shuningdek darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yozish uchun asosiy ish joyida o‘rtacha oy- lik ish haqi va lavozimi saqlangan holda ijodiy ta’tillar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи 133-sон qaroriga muvofiq ilmiy darajalarga da’vogarlar doktorlik dissertatsiyalarini, shun- ingdek darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning mu- alliflari qo‘lyozmalarini yakunlashlari uchun shart-sharoit yaratish maqsadida ishlab chiqarish yoki pedagogik faoli- yatni ilmiy ish bilan muvaffaqiyatli qo‘sib olib borayot- gan shaxslarga asosiy ish joyida o‘rtacha oylik ish haqi va lavozimi saqlangan holda doktorlik dissertatsiyasini yakunlash uchun olti oygacha muddat bilan ijodiy ta’til beriladi.

6- §. Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta’tillar.

Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'til boshqa ta'tillardan farqli ravishda bu ta'til davrida xodimning ish haqi saqlanib qolmaydi, ammo xodimning ish joyi (lavozimi) saqlanib qoladi.

O'zR MK 150-moddasining birinchi qismiga muvofiq xodimning arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmagan holda ta'til berilishi mumkin, uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rta sidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi, lekin u o'n ikki oylik davr mobaynida jami uch oydan ortiq bo'lmasligi kerak.

O'zR MK 150-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq quyidagi xodimlarga ularning xohishiga ko'ra ish haqi saqlanmagan holda ta'til berilishi shart:

1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari jihatidan ularga tenglashtirilgan shaxslarga - har yili o'n to'rt kalendar kunga qadar;

ishlayotgan I va II guruh nogironlariga - har yili o'n to'rt kalendar kunga qadar;

ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolani parvarish qilayotgan ayollarga;

o'n ikki yoshga to'lмаган ikki va undan ortiq bola-ni tarbiyalayotgan ayollarga - har yili o'n to'rt kalendar kunga qadar.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining oxirgi kurs-larida o'qiyotgan xodimlarga ta'til davrida talabalar va o'quvchilarga umumiy asoslarda stipendiya tayinlani-shi kafolati bilan diplom loyihasiga materiallar toplash uchun o'ttiz kalendar kun muddat bilan ish haqi saqlanma-gan holda ta'til beriladi.

O'zR MK mazkur moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, ish beruvchi 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarini bo'lgan xodimlarning va imtiyozlari jihatidan ular-ga tenglashtirilgan shaxslarning iltimosiga binoan har yili 14 kalendar kungacha muddat bilan ish haqi saqlanma-gan holda ta'til berishi shart.

Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'til faqat xodim bilan ish beruvchi o'rta sidagi kelishuvga binoan keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin.

## Glossary

**Dam olish vaqtি** - qonun hujjatlariga ko‘ra xodim o‘zining mehnat vazifalarini bajarishdan ozod qilingan va sarflangan jismoniy hamda ma’naviy-ruhiy quvvatini qay- ta tiklashi lozim bo‘lgan vaqtি.

**Dam olish huquqi** yollanib ishlovchi xodimlarga berilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 38-moddasi) dam olish huquqi va uni amalga oshirilishi Mehnat kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan kafolatlanadi.

**Bayram kunlari** - bu mamlakat hayoti uchun, uning tarixi uchun yoki xalqi uchun muhim ahamiyatga molik voqyeahodisaga bag‘ishlab belgilangan tartibda e’lon qil- ingan kalendar sanadir.

**Yillik mehnat ta’tili** - O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yollanib ishlovchi xodim- lar uchun kafolatlab qo‘ylgan yillik dam olish vaqtি. Bu davrda xodimning ish joyi (lavozimi, vazifasi) hamda o‘rtacha ish haqi saqlab qolinadi.

**Mehnat ta’tillari** - har bir shaxs dam olish huquqini- ing eng asosiy kafolatlaridan biri ish vaqtি muddatining cheklanganligidir. Dam olish huquqining eng muhim ka- folatlaridan biri dam olish vaqtি turlarining qonun hujjat- lari asosida mustahkamlab berilganligi hamda aksariyatini- ing eng kam muddati aniqlab qo‘ylganligidir.

**Qo‘srimcha ta’tillar** - yollanib ishlovchi xodimlar- ga muayyan hollarda asosiy ta’tiliga qo‘srimcha ravishda beriladigan mehnat ta’tili.

### Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Dam olish vaqtining qanday turlari bor?
2. Dam olish kunlari va bayram (ishlanmaydigan) kunlari xodimlarni ishga jalb etish bo‘yicha qonunchilik- da qanday kafolatlar nazarda tutilgan?

3. Ta'tillar grafigini tuzish, tasdiqlash tartibi va uning ahamiyatini tushuntiring.
4. Ta'tildan chaqirib olish bilan bog'liq kafolatlarni ta'minlab berish tartibi.
5. Qaysi hollarda mehnat ta'tilini pullik kompensatsi- ya bilan almashtirishga yo'l qo'yiladi?
6. Yillik ta'tilni pullik kompensatsiya qilish bilan bog'liq qanday kafolatlar mavjud?
7. Yillik ta'tillardan foydalanishda qanday kafolatlar nazarda tutilgan?
8. Ish haqi saqlanmagan holda ta'til berish tartibi qa- nday? Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tillar bo'yicha qonunchilikda qanday kafolatlar nazarda tutil- gan?
9. Ijtimoiy ta'tillarni berishda qanday kafolatlar nazarda tutilgan?
10. Korxonaning ta'tillar berish jadvalini tuzing.
11. Xodimni ta'tildan chaqirib olish bilan bog'liq hujjatlarning namunalarini tayyorlang.
12. Korxona ichki mehnat tartibi qoidalalarining Dam olish vaqtি bo'limining namunaviy matnini ishlab chiqing.

### **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. Kichik korxona rahbarining buyrug'i bilan barcha xodimlar uchun yakshanba ish kuni deb e'lon qilindi. Korxona laboranti Jo'raeva dam olish kuni ishga chiqma- ganligi sababli intizomiy jazoga tortildi.

Jo'raeva bundan norozi bo'lib mehnat nizolari komissiyasiga shikoyat qildi, u o'z shikoyatida ikki yoshga to'lmagan farzandi borligi hamda 80 yoshdan oshgan onasiga qarab turganligi sababli ishga chiqsa olmaganini ko'rsatdi.

*Vaziyatni amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tahlil qiling.*

2. Noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lganligi uchun Lukmanova asosiy mehnat ta'tilidan tashqari qo'shimcha ta'til olish huquqiga ega. Unga oldingi ish yili uchun mehnat ta'tili

berilmagan. Farg‘ona shahrida yashovchi qizining oldiga borib kelish maqsadi- da ikki yillik mehnat ta’tilini qo’shib berishlarini so‘rab, rahbaryyatga murojaat qildi.

***Vaziyatni amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tahlil qiling.***

3. Mexnat ta’ili berish jadvaliga ko‘ra Kalonov 2012 yilning 1 mart kuni mehnat ta’tiliga chiqarildi. Asosiy mehnat ta’ili 30 kun, zararli omillar ta’sir etadigan ish- larda ishlaganligi uchun haq to‘lanadigan qo‘srimcha 9 kunlik ta’tildan foydalanish huquqiga ega. Bundan tash- qari, dam olish kunlarida ishlaganligi (yanvar-fevral oy- lari) uchun 3 kunlik otgul berishlarini so‘radi.

***Vaziyatni amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda tahlil qiling.***

**VII MAVZU.**


**MEHNATGA HAQ TO‘LASH.**

**KAFOLATLI TO‘LOVLAR VA KOMPENSATSIYA  
TO‘LOVLARI**

*Mehnatga haq to‘lash, tarifli tizim, tarifsiz tizim, yagona tarif setkasi. Kafolatli to‘lovlar va kompensatsiya to‘lovleri, xizmat safari.*

**1- §. Mehnatga haq to‘lash.**

Har bir xodimga o‘z mehnati uchun qonun hujjatlari- da Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo‘yicha belgilanganidan oz bo‘limgan miqdorda haq olish huquqi kafolatlangan. Mehnat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi va uning eng ko‘p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi.



O‘zbekiston Respublikasida mehnatga haq to‘lashning asosan vaqtbay va ishbay shakllari hamda tarif tizimi va tarifsiz tizim qo‘llaniladi. Ish haqining tariflari asosiy tartibga soluvchi mezon bo‘lib hisoblanadi. Ish haqining tarifi o‘zida turli xil mehnatning murakkabligi, og‘irligi va ijtimoiy ahamiyatiga bog‘liq holda uning bahosini if- odalaydi. Ish haqining tarifi ikki xil shaklda amal qiladi:

- a) xodimlarga ish haqi to‘lashning tarif tizimi shakli;
- v) rahbar lavozimlar uchun mansab maoshlari tizimi shakli.

Tarifli tizim - mehnat sharoitlari va uning og‘irligi, ishlarni bajarishning tabiiy iqlim sharoitlari, mehnatning jadalligi va xususiyati inobatga olingan holda, mehnatga haq to‘lashni tabaqaqlashtirishni ta'minlashda foydalilanil- adigan me'yorlar majmuidir.

Tarifsiz tizimi qo‘llanilganda, ishchining ish haqi miqdori har doim bo‘limning yoki korxonaning yakuniy ish natijalariga bog‘liq bo‘ladi, chunki ish haqining umumiy fondi shu natijalarga muvofiq ravishda aniqla- nadi.

Tarifsiz tizimi qo‘llanilganda mehnatga haq to‘lash miqdori, ish beruvchining yoki korxona mulkdorlarining imkoniyatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Tarifsiz tizim asosan kichik biznes subyektlariga xos holat

bo‘lib, bahzida mehnat haqi miqdorini xodim qo‘sghan mehnat hissasiga bog‘liq bo‘lmagan omillarga bog‘lab qo‘yishi mumkin. Masalan ofitsialtlar, sotuvchi- lar mehnatida ushbu tizim qo‘llaniladi.

Shuning uchun ham kasaba uyushmalari tarif tizimin- ing tarafdori hisoblanadi va har bir xodimning o‘z razry- adi va tarif koeffitsienti bo‘lishini himoya qiladi.

Mehnat haqining tarif qismiga xodimning tarif stavkasi (lavozim maoshi yoki ishbay baholar bo‘yicha haq) hamda qonun hujjatlarida belgilangan ustama va qo‘srimcha haqlar kiradi.

Mehnat haqining tarifga qo‘srimcha qismiga har qanday ko‘rinishdagi ustamalar, qo‘srimcha to‘lovlar, kompensatsiyalar, mukofotlar va hokazolar kiradi.

Ushbu tarkibiy qismlarning farqi shundaki, mehnat haqining tarif qismi - bu kafolatlangan qism hisoblana- di va uning miqdorini pasaytirish imkoniyatlari qonun hujjatlari bilan cheklangan.

Mehnat haqining tarifga qo‘srimcha qismi esa, odat- da mehnatning yakuniy natijalari bilan bog‘liq bo‘lib, ish unumdarligi pasayganda ushbu turkumga kiruvchi to‘lovlar avtomat tarzda kamaytirilishi yoki bekor qilin- ishi mumkin.

Shu bois ham kasaba uyushmalari ish haqi fondining tarif qismi, ya‘ni kafolatlangan qismi, yuqori bo‘lishining tarafdori.

Tarif tizimi o‘ziga quyidagi elementlarni biriktiradi:

- tarif-malaka ma'lumotnomasi (xizmatchilar lavozim- lari malaka ma'lumotnomasi);
  - tarif setkasi;
  - tarif stavkasi (mansab maoshi);
  - tarif koeffitsientlari;
  - noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlar uchun ustama va turli qo‘srimcha to‘lovlar(rayon koeffitsientlari).

Mehnatga haq to‘lash miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda mehnatga haq to‘lash, pensiyalar tayinlash hamda soliqlar, davlat bojlari, jarimalar, yig‘im- lar va boshqa to‘lovlarни undirish o‘rtasidagi sharqlarning bog‘liqligini bartaraf etish maqsadida 2019-yil 21-mayda- gi «Mehnatga haq

to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risi- da»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5723- son Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, 2019-yil 1-sentabrdan boshlab ish haqining eng kam miqdori o‘rniga quyidagi miqdorlar belgilandi:

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori - 634.880 so‘m;

Bazaviy hisoblash - 223.000 so‘m;

Pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori - 223.000 so‘m.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16-sentabrdagi «Mehnatga haq to‘lash yago- na tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 775-sonli qaroriga 1-ilova «Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasi» bilan 22 ta razryad va ularning tarif koef- fitsienti belgilandi.

Qaror bilan Mehnatga haq to‘lash yagona tarif set- kasi tasdiqlandi va mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori (634 880 so‘m) uning asosi etib qabul qilindi (bunga qadar esa yagona tarif setkasining asosi etib eng kam oylik ish haqi olingan edi).

Unga ko‘ra birinchi razryadning tarif koeffitsienti «1» ga teng. Bu 1-razryaddagi xodimning mehnatiga haq to‘lashning eng kam miqdori - 634.880 so‘mni tashkil qilishini anglatadi. Mehnatga haq to‘lashning 22 ta raz- ryadi bor. Har bir razryadning oklad ish haqi turlicha bo‘ladi. Siz o‘zingizni okladingiz qancha bo‘lishini jad- val asosida o‘zingiz hisoblab ko‘rishingiz mumkin. Bun- ing uchun razryad ro‘parasidagi koeffitsientni 634.880 so‘mga ko‘paytirasiz.

Masalan, 7-razryadda ishlaydigan xodimlarning oklad ish haqini hisoblaymiz -  $1,505 \times 634\ 880 = 955\ 494$ . De- mak, 7-razryaddagi xodimlarning okladi - 955 ming 494 so‘mni tashkil etadi.

### Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasi

Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Tarif koeffitsientlari
1	<b>1,000</b>
2	1,053
3	1,106
4	1,158
5	1,269
6	1,384
7	<b>1,505</b>
8	1,630
9	1,755
10	1,883
11	2,014
12	2,148
13	2,284
14	2,421
15	2,561
16	2,704
17	2,847
18	2,993
19	3,141
20	3,292
21	3,444
22	3,597

*Izoh. Tarif stavkasi miqdorini (lavozim maoshi- ni) belgilash uchun tarif koeffitsienti mehnatga haq to‘lashning qonun hujjatlariida belgilangan eng kam miqdoriga ko‘paytiriladi.*

Ushbu qarorning 2-ilovasi «O‘zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to‘lashning tarif setkasi»ga ko‘ra tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun esa alohida 11 ta raz- ryad belgilangan.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun 1-razry- addagi tarif koeffitsienti — 1,526 ga teng. Bu 1-razry- adli tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga 968 ming 826 so‘m 88 tiyindan kam oylik belgilash mumkin emas de- gani.

**O‘zbekiston Respublikasi davlat  
muassasalari tibbiyot va  
farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to‘lashning**

**TARIF SETKASI**

<b>Mehnatga haq to‘lash razryadlari</b>	<b>Tarif koeffitsientlari</b>
<b>1</b>	<b>1,526</b>
2	1,679
3	1,847
4	2,031
5	2,234
6	2,458
7	2,704
8	3,001
9	3,331
10	3,698
11	4,067

Mehnatga haq, qoida tariqasida, pul shaklida to‘la- nadi. Mehnat haqini ***natura shaklida*** to‘lash taqiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagи 88-sonli «Ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishiga doir qo‘srimcha cho- ra-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida fuqarolarning konsti- tutsiyaviy huquq va manfaatlarini ta‘minlash, mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar korxonalar va tashkilotlar xod- imlariga ish haqi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning javobgarligini oshirish maqsadida:

2002-yil 1-apreldan boshlab mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar korxonalar va tashkilotlarning ish haqini to- varlar bilan natura shaklida to‘lashi taqiqlanishi (qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtiril- gan va qayta ishlangan, xodimlarning yozma arizasiga ko‘ra shartnomaviy narxlarda beriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bundan mustasno) belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi

kodeksning 175-4-moddasida ish haqi- ni taqiqlangan shakllarda to‘laganlik uchun, mansabdar shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgil- angan.

Tabiiy-iqlim va turmush sharoitlari noqulay bo‘lgan joylarda mehnat haqiga rayon koeffitsientlari va ustamalar belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama- sining 2019-yil 6-sentyabrdagi 743-son «Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra:

Tabiiy-iqlim va maishiy sharoitlari og‘ir va noqu- lay bo‘lgan joylarda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to‘lashga tuman koeffitsiyentlarini, shuningdek, ularga har yili beriladigan qo‘srimcha ta’tilning eng kam muddatini belgilash va qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Ishlarning ayrim texnologik turlari, ishlab chiqarish- lar va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishchilarning tarif stavkalarini oshirishning tarmoq koeffitsiyentlarini qo‘llash tartibi va ularning miqdori to‘g‘risidagi nizom

2- ilovaga muvofiq;

Ko‘chma va qatnash tusidagi ishlar bilan bog‘liq ustamalar to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga saqlanadigan tashkilotlarda band bo‘lgan xizmatchilarning keng tarqalgan lavozimlari xodimlari ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha razryadlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

Mulkchilik shaklidan qat‘i nazar korxona va tashki- lotlarda mehnatga haq to‘lash ish haqining ishbay yoki vaqtbay turlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ishbay ish haqi xodim tomonidan muayyan vaqt birligi davomida bajarilgan ish, yaratilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmat birligiga qarab haq to‘lashlikni an- glatadi.

Ishbay ish haqi *oddiy ishbay va mukofotli ishbay* bo‘lishi mumkin. Mukofotli ishbay ish haqi joriy qil- inganida xodimga

belgilangan normadagidan ortiqcha ish bajarganligi uchun mukofot to‘lash (bajarilgan ish, yaratilgan mahsulot birligiga oshirilgan miqdorda (mu- kofot tariqasida haq to‘lash) nazarda tutiladi va bunday ishlar ish haqi tizimida nazarda tutilgan mukofot to‘lan- adigan ishlar sanaladi.

Mehnatga haq to‘lash shartlari qaysi tartibda o‘rnatil- gan bo‘lsa, o‘sha tartibda, ya’ni, qonun hujjatlarida bel- gilangan shartlar vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan tegishli qonun hujjati asosida, lokal me’yorlar bilan o‘rnatilgan shartlar esa ish beruvchi va xodimlarn- ing vakillik organi tomonidan o‘zaro kelishuvga ko‘ra o‘zgartiriladi.

Mehnatga haq to‘lashning mehnat shartnomasida nazarda tutilgan yakka shartlarini xodim uchun noqulay tomonga o‘zgartirishga uning roziliginiz yo‘l qo‘yilmaydi. Istisno tariqasida ish beruvchi o‘z tashabbusi bilan xod- imning roziliginiz quyidagi hollarda o‘zgartirishga haqli bo‘ladi:

- 1) Texnologiyada, ishlab chiqarish va mehnatni tash- kil etishda o‘zgarishlar yuz bergan taqqirda, basharti mehnatga haq to‘lashning avvalgi shartlarini saqlab qol- ish mumkin bo‘lmasa;
- 2) Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Mehnatga haq to‘lashga oid shartlarning kelajakda o‘zgartirilishi haqida xodim **kamida ikki oy oldin** tilhat olingani holda yozma ravishda ogohlantirilishi lozim..

Yangi shartlar asosida ishslashdan bosh tortgan xodim Mehnat kodeksining 89 moddasi, 4-qismiga ko‘ra ishdan bo‘shatilishi mumkin.

Ish beruvchi o‘zining moliyaviy holatidan qat’i nazar, xodimga bajargan ishi uchun haqni belgilangan mehnat haqi shartlariga muvofiq ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lashi shart.

Mehnat shartnomasining taraflari kelishuvi bilan bel- gilangan mehnat haqi miqdori jamoa shartnomasi yoki kelishuvida o‘rnatilgan miqdordan kam bo‘lishi mumkin emas.

**Vaqtbay ish haqi to‘lash** amalga oshiriladigan joylar- da xodim bajargan ishning natijasi emas, balki u amalda o‘z xizmat vazifasini bajargan vaqt hisobga olinadi.

Davlat xizmatchilariga asosan vaqtbay ish haqi tizimi asosida

mehnat haqi to‘lanadi. Vaqtbay ish haqi soat- bay, kumbay va oylik bo‘lishi mumkin. Oylik vaqtbay ish haqi mansab maoshlari ko‘rinishida mayjud bo‘ladi hamda oklad miqdori tegishli shtat jadvallarida belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nor- mal sharoitdan chetga chiqib bajarilgan ish sifatida quy- idagilar nazarda tutilgan:

- 1) Ish vaqtidan tashqari ishlar hamda dam olish kun- lari va bayram kunlaridagi ishlar;
- 2) Tungi vaqtdagi ish;
- 3) Yaroqsiz mahsulot tayyorlanganda va bekor turib qolningan vaqt;
- 4) Bir necha kasbda (lavozimda) va o‘rindoshlik aso- sida ishlaganlik;
- 5) Vaqtincha yo‘q xodimning o‘rnida ishlaganlik

Ish vaqtidan tashqari ishlar hamda dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar deganda, ish kuni (smenasi) tamom bo‘lganidan keyingi vaqtda bajarilgan ish nazarda tutiladi va ish vaqtidan tashqari ishlar, dam olish kun- lari va bayram kunlaridagi ishlar uchun **kamida ikki his- sa miqdorida** haq to‘lanadi. To‘lanadigan haqning aniq miqdori jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa-ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xod- imlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

Xodimning iltimosiga binoan, ish vaqtidan tashqari ishlar hamda dam olish kunlari va bayram kunlarida- gi ishlar uchun ish soatlariga teng keladigan miqdorda boshqa dam olish kuni - **otgul** berish ham mumkin.

Tungi vaqtdagi ish. Soat 22-00 dan to soat 6-00 ga- cha bo‘lgan vaqt tungi vaqt deb hisoblanadi.

Tungi vaqtdagi ishning **har bir soati uchun kamida bir yarim baravar** miqdorda haq to‘lanadi.

Xodimning aybisiz yaroqsiz mahsulot tayyorlanganda va bekor turib qolningan vaqtda uning o‘rtacha ish haqi saqlanadi.

Xodimning aybi bilan tayyorlangan qisman yaroqsiz mahsulot uchun kamaytirilgan ishbay baholar bo‘yicha haq

to‘lanadi, bunday baholar jamoa shartnomasida bel- gilab qo‘yiladi, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarn- ing boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

Xodimning aybi bilan tayyorlangan to‘liq yaroqsiz mahsulot va bekor turib qolining vaqt uchun haq to‘lan- maydi.

Xodimning aybi bilan yaroqsiz mahsulot tayyorlanishi ishlab chiqarish texnologiyasi va talablarini buzilishi si- fatida baholani- shi va butunlay yaroqsiz mahsulot tayyor- langan hollarda unga intizomiy va moddiy javobgarlik qo‘llanilishiga asos bo‘lishi mumkin.

Xodim ayni bir ish kuni(smenasi) davomida bir necha kasb (lavozim)da ishlaganligi uchun unga qo‘shimcha ish haqi to‘lanadi.

Bunda ishbay ish haqi oluvchi xodimlarga bajar- gan ishining miqdori va sifatiga ko‘ra cheklanmagan miqdorda haq to‘lanadi. Vaqtbay ishlovchi xodimlarga esa qo‘shimcha bajargan ishi (egallagan lavozimi) uchun belgilangan ish haqi (mansab maoshi)ning 50 foizgacha bo‘lgan qismi to‘lanishi mumkin.

Xodim vaqtincha yo‘q xodim lavozimida ishlashlik uchun o‘z vazifasidan vaqtincha boshqa ishga o‘tkazil- gani hollarda (ishlab chiqarish zarurati tufayli) vaqtincha egallab turgan lavozimida nazarda tutilgan mansab mao- shini (ish haqini) oladi. Ammo, o‘zining avvalgi lavozimi (vazifasi) da ish haqi (mansab maoshi) vaqtincha egal- lab turgan lavozimidagidan ko‘p bo‘lgan hollarda o‘z ish joyidagi ish haqi to‘lanishini talab qilishga haqli bo‘ladi.

Mehnatga haq to‘lash muddatlari jamoa shartnomasi yoki boshqa lokal normativ hujjatda belgilanadi va **har yarim oyda bir martadan** kam bo‘lishi mumkin emas. Xodimlarning ayrim toifalari uchun alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan ish haqi to‘lashning boshqa muddatlari belgilab qo‘yilishi mumkin.

Haq to‘lanadigan kun dam olish kuni yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, mehnat haqi shu kun arafasida to‘lanadi.

Jamoa shartnomasida ish beruvchining aybi bilan xo- dimga haq to‘lash belgilangan muddatlarga nisbatan ke- chikkanligi

uchun javobgarlik nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinganda xodimga tegishli ish haqini berish muddatlari Mehnat kodeksining 110-moddasida belgilab qo‘yilgan va unga ko‘ra:

1) mehnat shartnomasi bekor qilingan kunga qadar ishlayotgan xodimga - mehnat shartnomasi bekor qilin-gan kuni;

2) mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni ishla-mayotgan xodimga,- u hisob-kitob qilishni talab etgan kuni to‘lanishi kerak.

Mehnat shartnomasi xodimning tashabbusi bilan be-kor qilinganda unga tegishli ish haqi, uning miqdori xu-susida nizo bo‘lmasa:

1) qonun bo‘yicha yoki shartnomaga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ish beruvchini ogoh-lantirishi shart bo‘lgan xodimga, - ogohlantirishiga ko‘ra u ishni tashlab ketishga haqli bo‘lgan kundan kechiktir-masdan;

2) mehnat shartnomasini bekor qilishi haqida ish be-ruvchini ogohlantirishi shart bo‘lmagan xodimga, - ish- dan ketgan kunining ertasidan kechiktirmasdan to‘lanishi lozim.

Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga te-gishli haqning miqdori yuzasidan nizo chiqqan taqdirda, xodimga shashubhasiz tegadigan summani ish beruvchi ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsa- tilgan muddatlarda to‘lashi shart.

Xodim vafot etgan holda u vafot etgan kunga qa-dar olinmagan ish haqi uning oila a’zolariga, shuningdek mehnatga qobiliyatizligi tufayli vafot etgan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga beriladi.

Ish haqi, odatda, xodim ishlayotgan joyda to‘lanadi. Ya’ni ish obyekti korxona idorasi (kassasi) joylashgan yerdan boshqa joyda bo‘lgan hollarda ish beruvchi ish haqini ish uchastkasida berilishini tashkil qilishga ma-jburdir va xodimlar ortiqcha chiqimdon bo‘lmasliklari lozim.

Uzoq xizmat safarida, malaka oshirishda bo‘lgan xodimlarning ish haqlari ular ishlab turgan hududga ish beruvchi tomonidan o‘z hisobidan jo‘natish xarajatlari qoplangani holda

pochta orqali jo‘natilishi kerak.

Umumiy qoidaga ko‘ra, xodimning yozma roziligi bilan, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda esa, sudning qaroriga asosan mehnat haqidan ushlab qolinishi mum- kin. Faqatgina Qonunda nazarda tutilgan hollardagina xo- dimning roziligidan qat‘i nazar, mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkin.

Ish haqini har gal to‘lash vaqtida ushlab qolinadi- gan haqning umumiy miqdori xodimga tegishli bo‘lgan mehnat haqining ***ellik foizidan*** ortib ketmasligi lozim.

Aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzdor va axloq tu- zatish ishlari tarzidagi jazo tayinlangan xodimning ish haqidan ushlab qolishda esa, jazo va aliment majburi- yatlari bo‘yicha qarz dorlik uchun ushlab qolinadigan haqning miqdori ***yetmish foizdan*** ortib ketmasligi lozim.

Ish beruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda to‘lan- gan, shu jumladan qonunni noto‘g‘ri qo‘llanish oqibatida to‘langan ortiqcha ish haqi qayta undirib olinishi mum- kin emas, hisob- kitobda yo‘l qo‘yilgan xato oqibatidagi ortiqcha to‘lovlar bundan mustasno.

Shuningdek, xodimning u bergen yolg‘on ma'lumot- lari yoki taqdim etgan soxta hujjatlari oqibatida to‘lan- gan summalar undan sudning qarori yoki hukmi asosida undirib olinadi.

### ***Fuqaro savoli:***

*Men internet orqali ish qidirib topdim. Yozishmalar orqa- li menga ishga haq to‘lash ishbay ekanligini va ish haqi qachonki firma hisobraqamida pul bo‘lganda to‘lanishini ma'lum qilishdi. Bunday holat qonunchilik talablariga mu- vofiqmi?*

### ***Yurist javobi:***

*Yo‘q muvofiq emas. Mehnat kodeksining 154-moddasiga ko‘ra, ish beruvchi o‘zining moliyaviy holatidan qat‘i na- zar, xodimga bajargan ishi uchun haqni belgilangan mehnat haqi shartlariga muvofiq (ushbu Kodeksning 161-moddasiga asosan mehnatga haq to‘lash muddatlari jamoa shartnomasi yoki boshqa lokal normativ hujjatda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo‘lishi mumkin emas. Xodimlarning ayrim toifalari uchun alohida hollarda O‘zbekiston Respub- likasi Hukumati tomonidan ish haqi to‘lashning boshqa mud- datlari belgilab qo‘yilishi mumkin) to‘lashi shart. Shu bilan birga, tomonlarning kelishuviga ko‘ra*

*mehnat shartnomasida belgilangan oylik ish haqi jamoa shartnomasidan belgilan- gan miqdordan kam bo'lmasligi kerak. Siz topgan ish ras- miylash tirilmaydi va bunda mehnat shartnomasi tuzilmasligi ehtimoli bor. Boshqa ish topishga harakat qiling.*

## **2- §. Kafolatli to‘lovlar va kompensatsiya to‘lovлari**

Kafolatli to‘lovlar-bu xodim qonunchilikda nazarda tutilgan uzrli sabablarga ko‘ra, o‘zining mehnat vazifala- rini bajarmagan vaqt uchun beriladigan to‘lovlardir. Bun- day to‘lovлarni joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad, asosan xodim davlat va jamoat vazifalarini bajargan, shuningdek ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlari hamda jami- yat manfaatlariga doir harakatlar qilgan davrda uning o‘rtacha ish haqini saqlashdan iboratdir. Ayni vaqtda bu kabi to‘lovlar xodimning ish haqini kamayib ketishdan saqlash vazifasini ham o‘taydi.

Kafolatli to‘lovlar ish haqidan farq qilib, bajarilgan ishning miqdori va sifatiga ko‘ra emas, balki qonun- da ko‘zda tutilgan sabablarga ko‘ra to‘lanadi. Kafolatli to‘lovлarning ijtimoiy vazifasi xodim o‘zining huquqla- rini amalga oshirishi, majburiyatlarini bajarishi tufayli ishlamagan vaqtarda ular turmush darajasining pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Kompensatsiya to‘lovлari deganda xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq ravishda o‘z hisobidan qilingan xarajatlarni ish beruvchi to‘liq qoplab berishi nazarda tutiladi.

Kompensatsiya to‘lovлari berish tartib-qoidalari va shartlari qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu qoida- lar korxonaning lokal me'yoriy hujjatlarida qonundagidan xodim uchun afzal tarzda aniqlashtirib qo‘yilishi mumkin.

Mehnat qonunchiligidagi xodim uchun kafolatli va kompensatsiya to‘lovлari berilishini nazarda tutilganligi xodim va uning oila a’zolari moddiy manfaatlari himoya qilinishga, ularning turmush darajasi pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda ijtimoiy mehnat munosabatlari chog‘ida ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan in- sonparvar tadbirdan iboratdir.

Xodim davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida

ish beruvchi uni ish joyi (lavozimi)ni saqlagan holda ishdan ozod qilishi shart. Bu davrda xodimning o‘rtacha ish haqi saqlanadi. Ish beruvchi va mehnat ja- moasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish maqsadida xodimni ishdan ozod etish shartlari, to‘lanadigan kafolatli to‘lovlar miqdori jamoa shartnomalarida belgilab qo‘yila- di. Lekin bu to‘lov miqdori o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmasligi kerak. Majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart bo‘lgan xodimlarga statsionar tibbiy muassasalarda tekshiruvdan o‘tish davrida ham o‘rtacha ish haqi to‘lanadi.

Mehnat kodeksi va tegishli qonun hujjatlariga ko‘ra xodimning o‘z vazifasidan vaqtinchada ozod etilib, bosh- qa vazifalarni bajarishi va bu vaqt uchun uning o‘rtasida ish haqi saqlanib qolish asoslari turlicha bo‘lib, ular quy- idagicha tasniflanishi mumkin:

- 1) Davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida beriladigan kafolatlar;
- 2) Ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarish vaqtida beriladigan kafolatlar;
- 3) Jamiat manfaatlariga doir harakatlar qilganda beriladigan kafolatlar.

Kafolatli to‘lovlarni berish asoslari va tartibi Mehnat kodeksida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи «O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 133-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishlari, shuningdek, ularning jamiyat manfaatlariga doir harakatlarni amalga oshirish- lari bilan bog‘liq kafolatlari to‘lovlarni berish tartibi» bilan belgilab qo‘yilgan.


#### **Fuqaro savoli:**


*Men kriminalist bo‘lib ishlayman. Ekspert xulosasini berish uchun meni sudga chaqirishdi. Sud majlis cho‘zilib ketdi va bir nechta majlis bo‘lib o‘tdi. Bu oyda sud sababli to‘rt marta ish jadvalimda uzilish bo‘lganligi ish haqimga ta’sir qiladimi?*

#### **Yurist javobi:**

*Yo‘q, ta’sir qilmaydi. Sizning sud majlislardida ishtirok etishingiz davlat yoki jamoat vazifasini bajarish hisoblanadi. Ushbu vazifalarni*

bajarish vaqtida xodimning o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi. Mehnat kodeksining 165-moddasiga ko'ra, xodim davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida, masalan saylov huquqini amalga oshirish, deputatlilik vazifalari- ni bajarish, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi ishida ishtirok etish, harbiy burchni bajarish, surishtiruv organiga, tergovchi, prokuror huzuriga yoki sudga guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, mu-taxassis, tarjimon, xolis tariqasida chaqirilganda, xuddi shun-ingdek sud majlislarida xalq maslahatchisi, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining vakili sifatida ishtirok etganda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ish beruvchi uni ish joyini (lavozimini) saqlagan holda ishdan ozod qilishi shart.





Davlat yoki jamoat vazifalarini bajarish vaqtida (qonun bilan belgilangan yoki tegishli organning chaqiriq qog'ozida, xabarnomasida ko'rsatilgan vaqtida) ish beruv- chi xodimning ish joyi (lavozimi)ni saqlagan holda uni ishdan ozod qilishi shart.


Xodimning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishi, shuningdek, uning jamiyat manfaatlariga doir qilayot- gan harakatlari vaqtida ushbu vazifalarni bajarish uchun qonun bilan belgilangan vaqtidagi yoki tegishli organ tomonidan berilgan ma'lumotnomada ko'rsatib o'tilgan muddatdagi limitga muvofiq o'rtacha ish haqi saqlab qo- linadi.

Xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarish, shuningdek, jamiyat manfaatlariga doir harakatlari qilish- lari vaqtidagi ularning o'rtacha ish haqini saqlab qolish bilan bog'liq xarajatlar budget hisobidan — budgetdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

Davlat boshqaruvi organlari, korporatsiyalar, kontsern- lar, uyushmalar va boshqa xo'jalik birlashmalari boshqa- ruv apparati, shuningdek, jamoat tashkilotlari va birlash- malari, moliyaviy ta'minlash manbalaridan qat'i nazar, xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq kafolatli to'lovlarni tashkilotlarning ish haqi fondi hisobidan amalga oshiradilar.

Mehnat kodeksining 166-moddasiga binoan Ish be- ruvchi va

mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalar- ni bajarish (malaka oshirish, ratsionalizatorlik takliflari- ni joriy etish ishida qatnashish, xizmat safarida bo‘lish, tibbiy ko‘rikdan o‘tish va boshqa hollarda) maqsadida xodimni ishdan ozod etish shartlari, shuningdek ana shu davr uchun to‘lanadigan kafolatli to‘lovlar miqdori ja- moa shartnomalarida belgilab qo‘yiladi, lekin bu to‘lov miqdori o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmasligi kerak.



Majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart bo‘lgan xod- imlarga, ularning ishga yaroqliligini aniqlash maqsadida statsionar tibbiy muassasalarda tekshiruvdan o‘tadigan davri uchun, ushu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan kafolatlar beriladi.

Ish (malaka oshirish, ratsionalizatorlik takliflarini joriy etish ishida qatnashish, xizmat safarida bo‘lish, tibbiy ko‘rikdan o‘tish va boshqa hollarda) maqsadida xo- dimni ishdan ozod etish shartlari, shuningdek ana shu davr uchun to‘lanadigan kafolatli to‘lovlar miqdori ja- moa shartnomalarida belgilab qo‘yiladi, lekin bu to‘lov miqdori o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmasligi kerak.

Majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart bo‘lgan xod- imlarga, ularning ishga yaroqliligini aniqlash maqsadida statsionar tibbiy muassasalarda tekshiruvdan o‘tadigan davri uchun ham yuqoridagi kafolatlar beriladi. Korxona jamoa shartnomasi yoki

ish beruvchi xodimlar vakillik organi bilan kelishib qabul qilgan boshqa lokal hujjat- larda ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariiga doir vazifalarni bajarish uchun qonundagidan afzalroq kafolat- lar berilishi nazarda tutib qo‘yilishi mumkin.

Xodimlar tomonidan jamiyat manfaatlari yo‘lida qilin- adigan harakatlar jumlasiga avariylar, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish; inson hayotini saqlab qolish; quyish uchun qon topshirish va boshqa hollar kiritilishi mumkin.

Tibbiy tekshiruvdan o‘tadigan kuni va quyish uchun qon topshiradigan kuni xodimlarga sog‘liqi saqlash muassasalariga borishlariga ish beruvchi moneliksiz rux- sat berishi shart.

Donorlik qiluvchi xodimlarga har safar quyish uchun qon topshirgan kunning albatta ertasiga dam olish uchun bir kun beriladi. Xodimning xohishiga ko‘ra bu kun ta’tilga qo‘shib beriladi. Tekshiruvdan o‘tadigan va quy- ish uchun qon topshiradigan kuni ishdan ozod etilgan davr uchun, shuningdek dam olish kunlari xodimning o‘rtacha ish haqi saqlanadi.

Davlat yoki jamoat vazifalarini bajarish vaqtida (qonun bilan belgilangan yoki tegishli organning chaqiriq qog‘ozida, xabarnomasida ko‘rsatilgan vaqtida) ish beru- vchi xodimning ish joyi (lavozii)ni saqlagan holda uni ishdan ozod qilishi shart.

Xodimning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishi, shuning- dek uning jamiyat manfaatlariiga doir qilayotgan harakatlari vaqtida ushbu vazifalarni bajarish uchun qonun bilan belgilangan vaqtdagi yoki tegishli organ tomonidan berilgan ma'lumotnomada ko‘rsatib o‘tilgan muddatdagi limitga muvofiq o‘rtacha ish haqi saqlab qolinadi.

Xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarish, shuningdek jamiyat manfaatlariiga doir harakatlar qilish- lari vaqtidagi ularning o‘rtacha ish haqini saqlab qolish bilan bog‘liq xarajatlar:

- budgetdan ta‘minlanadigan muassasalar va tashki- lotlar tomonidan amalga oshirilganida- budget hisobidan xo‘jalik hisobi asosida ishlovchi korxona va tashkilotlar- da esa - hisobot davridagi amalda hisoblangan kafolatli to‘lovlar miqdorida soliq to‘lovlarini summasini kamaytir- ish bilan moliyaviy faoliyatni

amalga oshiruvchi korxo- nalar va tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

Kafolatli to‘lovlar berish chog‘ida o‘rtacha oylik ish haqini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah- kamasining 1997-yil 11-martdagi 133 - sonli qarori bilan belgilangan.

Kafolatli qo‘srimcha ish haqi to‘lash haqidagi qonun talabi ham barcha turdagи korxona va tashkilotlar uchun majburiy bo‘lib sanaladi.

Kompensatsiya to‘lovlari deganda xodim tomonidan korxona manfaatlari yo‘lida qilingan moddiy sarf-xara- jatlarni ish beruvchi tomonidan qoplanishi tushuniladi va bu to‘loving maqsadi xodim va uning oila a’zolari moddiy manfaatlarini himoya qilish, ishlab chiqarish- da qatnashishlari oqibatida ziyon ko‘rishlariga yo‘l qo‘ymas-likdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 170-moddasiga binoan xodimning o‘z mehnat vazifala- rini bajarishi bilan bog‘liq qo‘srimcha xarajatlar qonun hujjatlari, jamoa shartnomalari va kelishuvlari, shuning- dek mehnat shartnomalarida belgilangan shartlar va tar- tibda ish beruvchi tomonidan qoplanishi lozim.

Mehnat qonunchiligi xodimning xizmat burchlarini bajarishi bilan bog‘liq ravishda qilgan va ish beruvchi tomonidan qoplanishi lozim bo‘lgan quyidagi xarajatlar doirasini belgilaydi:

Xizmat safariga borish bilan bog‘liq xarajatlar;

Boshqa joyga ko‘chish bilan bog‘liq xarajatlar;

Xodimga tegishili bo‘lgan mol-mulkdan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar, xodim amalda qilgan boshqa xarajatlar ish beruvchi bilan kelishib belgilanadi.

Xizmat safari va xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplanishi masalalari O‘zbekis- ton Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 29-avgustda 1268-son bilan ro‘yxatga olingan «O‘zbekis- ton Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi» bilan tartibga solinadi.

Ushbu yo‘riqnomaga ko‘ra, xizmat safari deb xodim- ni tashkilot, muassasa, birlashma, korxona rahbarini far- moyishi

bo'yicha, o'zining doimiy ish joyidan tashqarida xizmat topshirig'ini bajarish uchun boshqa joyga, mah- lum bir muddatga yuborilishi (borib kelish) tushuniladi.

Tashkilotni tarkibiga kiruvchi filiallar (shaxobchalar), uchastkalar va boshqa bo'linmalar boshqa yerda joylash- gan hollarda doimiy ish joyi bo'lib mehnat shartnomasi sida belgilangan ishlab chiqarish bo'linmasi hisoblanadi.

Doimiy ishi yo'lida yoki ko'chib yurish bilan bog'liq bo'lgan, yoxud doimiy harakatlanuvchi tusga ega bo'lgan ishchilarni xizmat yuzasidan borib kelishlari xizmat safar- ri hisoblanmaydi.

Xodimlarni xizmat safarlariga yuborish tashkilot rahbarining buyrug'i (farmoyishi)ga ko'ra amalga oshiriladi va xizmat safariga borish haqidagi ushbu farmoyish xod- im uchun majburiy sanaladi.

Ayni paytda Mehnat kodeksiga ko'ra homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lman bolasi (o'n olti yoshga to'lman nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligesiz xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Xizmat safari muddati tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi va har bir holat uchun yo'ltagi vaqtini hisob- ga olmagan holda 40 kundan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ushbu xizmat safarining eng ko'p muddati xodimlar- ni taftish va tekshirishlarni o'tkazish uchun xizmat safariga yuborishga ham taalluqlidir.

Montaj, sozlash va qurilish ishlarini bajarish uchun yuboriladigan xodimlar, rahbarlar va mutaxassislarni xizmat safarlari muddati 12 oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Xizmat safari muddatini uzaytirishga istisno tariqasida faqat xizmat safariga yuborgan tashkilot rahbarining yoz- ma ruxsatnomasiga asosan yo'l qo'yiladi.

Xizmat safariga yuborilgan joyda haqiqatda o'tka- zilgan vaqt xizmat safari guvohnomasida xizmat safari joyiga kelgan kundan xizmat safari joyidan ketgan kun joyiga belgi qo'yish orqali aniqlanadi.

Tashkilotlarda xizmat safarlariga ketayotgan shaxslar va ushbu tashkilotga xizmat safariga kelayotgan shaxslar maxsus jurnallarda ro'yxatga olinadilar. Tashkilotni rah- bari xizmat

safarlariga yuborilayotgan, xizmat safariga ketayotgan shaxslarni ro‘yxatga olish jurnalini yuritish va xizmat safarlari guvohnomasiga belgi qo‘yish uchun javobgar bo‘lgan shaxsni buyruq chiqarish yo‘li bilan tasdiqlaydi.

Xodimning safarini to‘g‘ri rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar to‘ldirilishi zarur:

xizmat safariga yo‘llash to‘g‘risida buyruq,  
xizmat topshirig‘i,  
xizmat safari guvohnomasi,  
xizmat safari to‘g‘risida hisobot,  
bo‘nak hisoboti

Xizmat safarida bo‘lgan xodimlarga ular yuborilgan korxonalardagi ish vaqtি rejimi va dam olish vaqtлari taalluqli bo‘ladi. Xizmat safari vaqtida foydalanilmagan dam olish kunlari, boshqa dam olish kunlari xizmat saf- haqidан qaytganda tiklanmaydi.

Xizmat safariga yuborilgan xodimni xizmat safhaqida bo‘lgan muddatida va yo‘lda bo‘lgan muddatda ish joyi (lavozimi), ishbaylar uchun o‘rtacha ish haqi yoki mans- ab maoshi yoki ishchilarni boshqa toifalari uchun stavka- lari saqlanib qoladi

O‘rindoshlik bo‘yicha ishlayotgan shaxs xizmat sa- fariga yuborilganda uning o‘rtacha ish haqi uni xizmat safariga yuborgan tashkilotda saqlanadi. Agar xizmat safariga bir vaqtни o‘zida ham asosiy ham o‘rindoshlik ishi bo‘yicha xizmat safariga yuborilganda ish haqi har ikkala mansab bo‘yicha saqlanadi, xizmat safariga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar esa xizmat safariga yuboruv- chi tashkilotlarni o‘zaro kelishuviga binoan taqsimlanadi.

Xizmat safariga yuborilgan xodimlarga quyidagi xara- jatlar kompensatsiya qilinishi lozim:

- a) Yo‘l xarajatlari;
- b) Sutkalik xarajatlar;
- v) Turar joy ijerasi bilan bog‘liq xarajatlar;
- g) Ish beruvchi (korxona rahbari) roziligi bilan qilin- gan boshqa xarajatlar kompensatsiya qilinadi.

2019-yil 13-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi

hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi (ro‘yxat raqami: 1268-1).

Endilikda yo‘l hujjatlari mavjud bo‘lmagan xizmat safarida bo‘lgan byudjet tashkiloti xodimlariga har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 0,08 foiz (223.000\*008% = 178 so‘m 40 tiyin) miqdorida yo‘l xarajati to‘lanadi (ilgari bu masalani belgilangan talablar asosida korxona rahbarining o‘zi hal qilgan).

Boshqa tashkilot xodimlariga jamoa shartnomasi yoki mehnat shartnomasida belgilangan miqdorlarda biroq, har bir kilometrga BHMning 0,08 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda yo‘l haqi to‘lanadi.

Masalan, xodim Toshkent shahridan Samarcand shah- riga xizmat safariga yuborildi. Xodim Samarcand shah- riga borish uchun mahalliy taksilar xizmatidan foydalan- di. Toshkent va Samarcand shaharlari orasidagi masofa taxminan 310 km. Demak, bu holatda xodimga, 310 km \*178 so‘m 40 tiyin = 55 304 so‘m miqdorda yo‘l haqi to‘lanadi.

Shuningdek, mehmonxonalarida yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda, ushbu nomer qiymatining 70 foizigacha miqdori byudjet mablag‘lari hisobidan, qolgan qismi esa tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi (ilgari faqat 70 foiz miqdorida qoplab berilgan).

Xizmat safarida ijarada turganlik bo‘yicha hujjatlar mavjud bo‘lmagan hollarda, har bir sutka uchun BHMn- ing 20 foizi miqdorida (44 600 so‘m) xarajatlar qoplana- di (ilgari eng kam oylik ish haqining 2 foizi (4 460so‘m) miqdorida qoplangan).

Xodim xizmat safaridan qaytgan kundan e’tiboran 3 ish kun mobaynida avans (bo‘nak) hisobotini taqdim qil- ishi shart (ilgari 3 kun bo‘lgan).

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi xizmat sa- fariga yuborish masalalari O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son «Mansabdor shaxslarn- ing xorijiy

mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashti- rish choralari to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 9-sentyabrdagi 417-sun «Vazirliklar, idoralar va boshqa respublika or- ganlari xodimlarining chet el xizmat safarlariga borishini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2001-yil 27-iyuldagagi 321-sun «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom- ni tasdiqlash haqida»gi qarorlariga muvofiq qabul qilin- gan O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 19-oktyabrdagi «Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tash- kilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tas- diqlash haqida»gi 92-sun buyruq bilan tartibga solinadi.

Xodimni xizmat safariga yuborish uchun tashkilot rahbari tomonidan buyruq chiqariladi va safar reja-top- shirig‘i tasdiqlanadi.

Xizmat safariga yuboriladigan shaxsga chet el valy- utasida bo‘nak berilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga xizmat safariga yuborilgandagi xizmat safari xarajatlariga quy- idagilar kiradi:

- sutkalik xarajatlar;
- yashash uchun (turar joy ijerasi bo‘yicha) xarajatlar;
- transport xarajatlari (taksidan tashqari);
- vakillik xarajatlari;
- ko‘zda tutilmagan xarajatlar;
- mazkur Tartibga muvofiq qoplanishi lozim bo‘lgan xizmat safarining boshqa xarajatlari.

Boshqa joydagi ishga ko‘chib borganda ko‘chish va molmulkni ko‘chirib borish bilan bog‘liq xarajatlar, yan- gi joyda o‘rnashib olish bilan bog‘liq xarajatlar va xod- im tomonidan ish beruvchi bilan kelishib qilingan bosh- qa xarajatlar to‘lab beriladi.

Boshqa joydagi ishga (avvaldan shartlashib olib) qa- bul qilinganligi munosabati bilan o‘sha joyga (mavjud Ma’muriy- hududiy bo‘linish bo‘yicha boshqa aholi punk- tiga) ko‘chib boruvchi xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida

belgilangan miqdorda:

1. Xodimning o‘ziga va oila a’zolariga yo‘l kira haqi (Ma’muriyat tegishli transport vositasi bergan hollar bun- dan mustasnodir);
2. Mol-mulkini olib ketish xarajati;
3. Yo‘lda bo‘lgan har kun uchun beriladigan sutkalik haq;
4. Yo‘lga otlangan kun va yangi istiqomat joyiga o‘rnashish davri uchun (bu davr olti kundan ortib ket- masligi kerak), shuningdek yo‘lga ketadigan vaqt uchun beriladigan ish haqi to‘lanadi.

Mazkur xodimlarga beriladigan bir yo‘la nafaqa tara- flarning kelishuvi bilan to‘lanishi mumkin.

Avtomobil transportidan foydalanganda - hamma foydalanadigan avtomobil transporti (taksidan tashqari) uchun haq to‘lanadi.

Xodimning o‘ziga 500 kg.gacha, ketayotgan har bir oila a’zosiga esa 50 kg.gacha bo‘lgan miqdordagi uy- ro‘zg‘or buyumlarini temir yo‘l, suv va avtomobil trans- portida tashish xarajatlari to‘lanadi.

Yo‘lda bo‘lgan vaqt uchun sutkalik pul xodimga har bir kun uchun belgilangan miqdorida to‘lanadi.

Xodim o‘z iltimosiga ko‘ra, boshqa joydagи ishga o‘tganda to‘la yoki qisman kompensatsiya to‘lash haqi- da oldindan kelishilishi lozim. Bunday kelishuv bo‘lma- gan taqdirda xodim kompensatsiya to‘lashni talab qili- shi mumkin emas. Biroq Ma’muriyat oldindan kelishuv bo‘lmanan hollarda ham boshqa joydagи ishga ko‘chiril- gan xodimga kompensatsiya to‘lashga haqlidir.

Xodimga tegishli mol-mulkdan foydalanganlik uchun xarajatlar. Ish beruvchining roziligi bilan va uning man- faatlari yo‘lida xodim o‘ziga tegishli mol-mulkdan foyda- langanda transport vositalarining amortizatsiyasi va ular- dan foydalanganlik uchun qilingan xarajatlar, shuningdek asboblarning, texnik vositalarning yoki o‘zga mol-mulk- ning amortizatsiyasi ish beruvchi hisobidan to‘lanishi lozim. Ana shu xarajatlarni to‘lashning miqdori va tartibi jamoa shartnomasida,

agar u tuzilmagan bo'lsa, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilab qo'yiladi.

Korxona, muassasa, tashkilotning ehtiyoji uchun o'zlariga tegishli asboblardan foydalanadigan xodimlar asboblarning eskirishi (amortizatsiyasi) uchun kompen-satsiya olish huquqiga egadirlar. Bu kompensatsiyaning miqdori va to'lash tartibi, basharti markazlash-tirilgan tartibda belgilanmagan bo'lsa, korxona, muassasa, tashki- lot kasaba qo'mitasi kelishuviga binoan belgilanadi.

Xodimga tegishli asbobning eskirganligi uchun to'lan- adigan kompensatsiyaning miqdori mazkur asbobning bo- zor savdosi narxlari bo'yicha qiymatiga nisbatan foizlar hisobida belgilanadi.

Bunday asbob buzilib yoki sinib qolganda xodimga asbobni tuzatish uchun haqiqatda sarflangan summa yoki shu asbobning bozor narxi bo'yicha bahosi to'lanadi.

O'zbekiston Respublika-si Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 4-apreldagi 154-sonli «Budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tash- kilotlarda xizmat yengil avtotransportdan foydalanishi tartibga solish to'g'risida» qaroriga 3-ilova shaklida «Xo- dimlarning shaxsiy avtomobillaridan xizmat maqsadlari uchun (xizmat safarlaridan tashqari) foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lash Tartibi» tasdiqlangan.

Kompensatsiya avtomobillar motorining ot kuchi so- niga qarab quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

100 ot kuchidan yuqori - bazaviy hisoblash miqdorin- ing 4,5 baravari

70 ot kuchidan 100 ot kuchigacha - bazaviy his- oblash miqdorining 3,5 baravari

70 ot kuchigacha - bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari.

Kompensatsiya oyiga bir marta, kalendar kunlarning sonidan qat'i nazar, oyning ikkinchi yarmi uchun ish haqi bilan bir vaqtda to'lanadi.

Xodim ta'tilda, xizmat safarida bo'lган, vaqtincha- lik mehnatga layoqatsizligi tufayli, shuningdek, u boshqa sabablarga ko'ra ishga chiqmagan, shaxsiy avtomobilidan foydalanmagan

vaqtlar uchun kompensatsiya to‘lanmaydi.

### Glossary

1. **Mehnat haqining miqdori** - ish beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdor- dan oz bo‘lishi mumkin emas va uning eng ko‘p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi.

2. **Mehnat haqining eng kam miqdori** - muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif set- kasining birinchi razryadi bo‘yicha belgilangan miqdor- dan oz bo‘lishi mumkin emas.

3. **Mehnatga haq to‘lash muddatlari** - jamoa shart- nomasi yoki boshqa lokal normativ hujjatda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo‘lishi mumkin emas. Xodimlarning ayrim toifalari uchun alohida hol- larda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan ish haqi to‘lashning boshqa muddatlari belgilab qo‘yili- shi mumkin. Haq to‘lanadigan kun dam olish kuni yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, mehnat haqi shu kun arafasida to‘lanadi.

4. **Tarifli tizim** - mehnat sharoitlari va uning og‘irli- gi, ishlarni bajarishning tabiiy iqlim sharoitlari, mehnat- ning jadalligi va xususiyati inobatga olingan holda, mehnatga haq to‘lashni tabaqlashtirishni ta'minlashda foydalaniladigan me’yorlar majmuidir.

5. **Tarifsiz tizim** - ishchining ish haqi miqdori har doim bo‘limning yoki korxonaning yakuniy ish natijalar- iga bog‘liq bo‘ladi, chunki ish haqining umumiy fon- di shu natijalarga muvofiq ravishda aniqlanadi. Tarifsiz tizimi qo‘llanilganda mehnatga haq to‘lash miqdori, ish beruvchining yoki korxona mulkdorlarining imkoniyatlari hisobga olingan holda amalgamoshiriladi.

6. **Xizmat safari** - xodimni tashkilot, muassasa, bir- lashma, korxona rahbarini farmoyishlari bo‘yicha, o‘zin- ing doimiy ish joyidan tashqarida xizmat topshirig‘ini bajarish uchun boshqa joyga, ma’lum bir muddatga yuborilishi (borib kelish) tushuniladi.

## **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ish haqi to‘lashda lokal hujjatlarning ahamiyati qa- nday?
2. Ish haqi turlari va tizimlarini tushuntirib bering.
3. Yagona tarif razryadlari tizimi nima?
4. Ish haqi to‘lash tartiblari, ish haqidan ushlab qol- ish qoidalari qanday?
5. Davlat va jamoat vazifalarini bajargandagi kafolatli to‘lovlar haqida so‘zlab bering.
6. Jamiyat manfaatlari yo‘lida qilingan harakatlar pay- tida kafolatli to‘lovlar to‘lash tartibi qanday?
7. Ish beruvchi va mehnat jamoalari manfaatlari yo‘li- da harakat qilganda kafolatli to‘lovlar to‘lash qanday amalga oshiriladi?
8. Kafolatli to‘lovlar berish paytida o‘rtacha ish haqi qanday tartibda hisoblab chiqiladi?
9. Kompensatsiya to‘lovlari deganda nimalar tushuni- ladi va uning qanday turlari mavjud?
10. Xizmat safari tushunchasi, unga yuborish tartibini yoritib bering.

## **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. «ExpoCity» reklama agentligining Mijozlar bi- lan ishslash bo‘limi boshlig‘i N.Ianova mehnat ta‘tiliga chiqqanligi munosabati bilan uning vazifasini vaqtincha bajarish Qabullarni tashkillashtirish bo‘limi bosh mutax- assisi A.Qobilovga yuklatildi. Ish beruvchi A.Qobilovga N.Ivanovaning mehnat vazifalarini bajarganligi uchun hech qanday ortiqcha haq to‘lamadi. Qobilov ish beru- vchidan o‘zining mehnat haqini talab qilganida N.Ivano- va haq to‘lanadigan mehnat ta‘tiliga chiqqanligini, unga bu davr uchun haq oldindan to‘langanligini, shu bois bit- ta ish o‘rni uchun ikki marta haq to‘lanmasligini, vaqtin- cha boshqa xodimning vazifalarini bajarishlik xodimning kasb vazifalariga kirishini ma'lum qildi.

### **Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.**

2. Kimyo-laborotoriyasi mudiri M.Salihov 10 kunga chet elga xizmat safariga xizmat safariga yuborildi. Xi- zmat safaridan

qaytib kelgach, o‘zi ishlayotgan tashkilot ma’muriyatiga xizmat safarida qilgan harajatlari to‘g‘risi- dagi hisobotini taqdim qildi. Tashkilot ma’muriyati esa, M.Salihov xizmat safarida o‘ziga yuklatilgan vazifani to‘liq bajara olmagani, shu bilan bir qatorda u erda amalda bo‘lgan mehnat tartibi qoidalarni buzib qattiq hayfsan olganligini aytib xizmat safarida tashkilot hiso- bidan qilgan harajatlari uchun ish haqidan ushlab qolish to‘g‘risida buyruq chiqarganini aytdi. M.Salihov korxona yuristi K.Xolmurodovga murojaat qilib Mehnat kodeksi normalari, ishlayotgan korxonanining jamoa shartnomasi, ichki tartib qoidalari asosida xizmat safaridagi xodimn- ing huquqiy holati, bir vaqtda qattiq hayfsan va oylik ish haqidan ushlab qolish bilan bog‘liq intizomiy jazolar- ni qo‘llanganligi, xizmat safari jarayonida qilingan xara- jatlarning qoplanmasligi bilan bog‘liq harakatlar asosli hisoblanishi bilan bog‘liq masalaga tushuntirish berishini so‘radi.

### **Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.**

#### **VIII MAVZU. MEHNAT INTIZOMI**

*Mehnat intizomi tushunchasi va uning ahamiyati. Mehnat- dagi yutuqlar uchun rag‘batlantirish. Intizomiy jazolarni qo‘llash tartibi*

#### **1- §. Mehnat intizomi tushunchasi va uning ahamiyati**

Mehnat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - bu fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli rav- ishda ichki mehnat tartibi qoidalarinining bo‘lishi hamda unga barcha xodimlarning qat’iy rioya qilishidan iboratdir. Mehnat munosabatlarining muhim elementi xodimlarning korxonada mehnat intizomiga amal qilishlaridir. Mehnat intizomi korxonada xodimlarning funksional vazifalarini bajarishi va ichki mehnat tartibi qoidalariiga bo‘ysunishini bildiradi. Mehnat intizomining mazmuni o‘zida xodimlar va ish beruvchilarning o‘zaro majburiyatlarini vijdonan va aniq bajarishga qaratilgan harakatlarini ifodalaydi.

Intizom, tartib har bir sohada bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim shart hisoblanadi. Chunki tartib bo‘lmagan yer- da rivojlanish ham bo‘lmaydi. Mehnat qonunchiligidagi mehnat intizomi umumiylar mazmundagi intizomning mehnat munosabatlaridagi ko‘rinishidir.

Mehnat intizomi - umum belgilangan mehnatning tashkil etilishida birligida mehnatni amalga oshirishga oid harakat tartibi va unga rioya etilmaganda esa inti-zomiy javobgarlik kabi oqibatni yuzaga keltiruvchi jaray- ondir. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (keyingi o‘rnlarda - Mehnat kodeksi)ning XI bobi «Mehnat inti-zomi» deb nomlanib, uning 174-184 moddalarida bevosita ushbu bobga oid qoidalar o‘z aksini topgan.

Mehnat intizomi xodimlar uchun belgilab qo‘yil- gan va ular o‘z xizmat burchlarini bajarishlari chog‘ida amal qilishlari shart bo‘lgan talab va qoidalar yig‘indisi bo‘lib, u ish beruvchi va xodimning mehnat qonunchiligi va lokal hujjatlar normalari doirasidan tashqarida bo‘lgan xulq-atvorlarini tartibga solishni nazarda tutadi.

Mehnat intizomi masalasi haqida gap ketganda mehnat intizomini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb eta- di. *Mehnat intizomini ta‘minlash* halol mehnat uchun rag‘batlantirish va mukofotlash usullari bilan normal tarzda ishslashga zarur tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratib berish, noinsof xodimlarga nisbatan jazo choralar- ining qo‘llanishini ifodalaydi.

Mehnat vazifalari - xodimning o‘z mehnat funksi- yalarini amalgalash oshirishi uchun mehnat shartnomasi, la- vozim (mansab) yo‘riqnomasi, shuningdek korxonadagi lokal normativ hujjatlarda nazarda tutilgan majburiyatlar- idan kelib chiqadigan majburiyatlardir.

	Xodim korxonada		
ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi	o‘z vazifalarini halol va vijdonan bajarishi	ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini	
	bajarishi lozim		

#### Shuningdek, xodim korxonada mavjud

^texnologiva^ intizomiga	mehnat ^muhofazasij	texnika xavfsizligi	ishlab chiqarish sanitariyasi talablari va qoidalariga
-----------------------------	------------------------	------------------------	--

rioya qilishi shart

^odim korxonada ish beruvchining mol-mulkini avaylab asrashi shart)

Xodimning lavozim majburivatlari va vazifalari korxonadagi lokal aktlar (ichki mehnat tartibi qoidalari, la- vozim (mansab) vo‘riqnomalari, jamoa shartnomalari)da ifodalanadi. Mehnat majburiyatlari xodimning ham ich- ki mehnat tartibiga bo‘ysunish bilan bog‘liq vazifalarini, ham muayyan mutaxassislik, malaka yohud mansab bilan bog‘liq xizmat vazifalarini o‘z ichiga oladi.

**Ish beruvchining  
mehnat intizomi-  
ni ta'minlashdagi  
burchlari:**

V \_\_\_\_\_ J


korxonada munosib mehnat sharoitlari- ni yaratish;	mehnat va ishlab chiqarish intizomi- ni ta'minlashi; < _____ >	Mehnatni muhofa- za qilish qoidalari- ga rioya etishi.
--	---	--

Shuningdek, ish beruvchi xodimdan		
uning lavozim majburiyatlariga kirmaydigan ishlarni bajarishni talab qilish	sha'n, qadr- qimmatini kamsituvchi ishlar,	hayoti va va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi ishlar  buyurishga haqli emas.

Mehnat kodeksining 178-moddasiga ko‘ra, har bir xo- dim o‘ziga yuklatiladigan mehnat vazifalari doirasi bilan oldindan tanishtirilishi lozim. Mazkur norma xodim man- faatlarini muhofaza qilishga qaratilgan muhim kafolat hi- soblanadi. Bu me'yor xodim ishga qabul qilinayotganida ham, boshqa ishga o‘tkazilayotganida ham qo‘llanilishi kerak. Xodimni unga yuklatilgan vazifalar bilan tanishtir- maslik kelgusida unga qo‘llanilgan intizomiy jazoningadolatliligi borasidagi nizoli bahsga sabab bo‘lishi mum- kin. Qonunchilikda tanishtirish shakli berilmaganligiga qaramasdan, xodimni unga yuklatilgan mehnat vazifalari doirasi bilan yozma ravishda imzo chektirgan holda old- indan tanishtirib qo‘yish nizoli vaziyatlarning oldini ola- di, xodimning mas‘uliyatini ham oshiradi.

Korxonada mehnat intizomini ta'minlashdagi asosiy lokal hujjat bu - ichki mehnat tartibi qoidalardir. Ich- ki mehnat tartib qoidalaring namunaviy shakli 1999-yil 14-iyunda Adliya vazirligidan 746-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Idoraviy mansubligi, mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllaridan qati

nazar, korxona, muassasa, tash- kilot ichki mehnat tartibi Namunaviy qoidalarida belgil- angan bo‘lib, u barcha tashkilot va muassasalar uchun model sifatida qo‘llaniladi. Har bir korxonada ish beru- vchi va xodimlar vakillik organi o‘zining xususiyati, tuzilishiga ko‘ra ichki mehnat tartibi qoidalarini kelishib tasdiqlaydilar.



Ichki mehnat tartibi qoidalarida namunada keltirilgan umumiylar jihatlardan tashqari korxona xususiyatidan ke- lib chiqqani holda mehnat vazifalarini bir marta qo‘pol ravishda buzish sanaladigan holatlar ham ko‘rsatiladi. Mehnat vazifalarining bir marta qo‘pol ravishda buzilishi mehnat shartnomasining ish beruvchi tomonidan bekor qilinishiga asos bo‘ladi. Ba’zi toifa shaxslar (prokuratura, bojxona, soliq, temir yo‘l xodimlari) mehnatining xususiyatlari ko‘ra ularda intizom to‘g‘risida ustav va nizom- lar amal qiladi. Ularda mazkur toifa kasblari xususiyat- laridan kelib chiqqani holda alohida normalar belgilanishi mumkin.

Ish beruvchi tomonidan yakka (individual) tartibda tasdiqlanadigan lavozim (mansab) yo‘riqnomalari ham mehnat intizomini belgilashda muhim mezon hisoblana- di. Lavozim yo‘riqnomalarida har bir lavozim egalarin- ing funksional majburiyatlarini belgilanadi. Mazkur lokal hujjatda belgilangan vazifalar doirasidan kelib chiqib ish beruvchi xodimdan unga yuklatilgan ishni talab qiladi va uning hisobini so‘raydi. Ish beruvchi xodimga vazifalar topshirishda mazkur lokal hujjatga tayanishi lozim.

Jamoa shartnomalarida mehnat intizomining ko‘proq rag‘batlantirish to‘g‘risidagi normalari o‘z ifodasini top- gan bo‘ladi. Uni xodimlar manfaati yo‘lidagi «ijobiy mazmundagi lokal hujjat» deb atasa ham bo‘ladi. Korx- onada moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizom mavjud bo‘lgani holda u ham mehnat intizomiga taalluqli lokal hujjat sanaladi. Unda belgilangan vaziyatlarda xodimlarni rag‘batlantirish, mukofot pullarini berish va hokazo ho- latlar nazarda tutiladi.

Korxonada mehnat intizomi quyidagi hujjatlarga rioxal qilishi lozim:

Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga

Jamoa shartnomasi shartlariga

Ichki mehnat tartibi qoidalarga  
va texnologiya intizomiga

Mehnatni muhofaza qilish

Xavfsizlik texnikasiga

Ishlab chiqarish sanitariyasi  
bo‘yicha talablarga

Har bir xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlarini ko‘zda tutadigan tutadigan korxonaning boshqa lokal hujjatlariga

Mehnat munosabatlarida mehnat intizomi muhim insti- tut hisoblanib, u xodimlar intizomi va ishlar samaradorligini ta‘minlashda muhim harakatlantiruvchi kuch sifati- da ahamiyatlidir. Mehnat intizomi ta‘minlanishi korxona faoliyati pirovard kelajagini belgilab beradi.

## 2- §. Mehnatdagi yutuqlar uchun rag‘batlantirish

Mehnat intizomini ta‘minlashda rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Halol va mehnatkash xodimlarni rag‘batlantirish mehnat intizomining «ijobiy» ko‘rinishi

hisoblanadi. Har bir xodim o‘z mehnatiga yarasha adolatli munosabatni ko‘rmasa uning ishtiyobi so‘nadi, ayni payt- da bu holat korxonadagi ish samaradorligiga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkazadi. Hozirgi kunda ish beruvchi mohiyatan «boss» emas, «lider» sanalgani holda u ko‘proq o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar bilan emas, jamoa bilan ishlay- di. Mazkur uslubning o‘ziyoq korxonada faol va tashab- buskor xodimlarni rag‘batlantirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

**Mehnat vazifalarini namunali bajarganlik, mehnat unumdorligini oshirganlik, mahsulot sifatini yaxshilaganlik, uzoq va benuqson ishlaganlik, novatorlik va mehnatdagi boshqa muvaffaqiyatlar ni qo‘lga kiritganlik uchun quyidagi rag‘batlantirishlar qo‘llaniladi:**

Tashakkur e’lon qilish;

Mukofot berish;

Qimmatbaho sovg‘a bilan taqdirlash;

Faxriy yorliq bilan taqdirlash va hokazo.

Mehnat qonunchiligiga ko‘ra, ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralar qo‘llanilishi mumkin. Rag‘batlantirish turlari, ularni qo‘llanish tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, ja- moa kelishuvlarida, intizom to‘g‘risidagi ustav va nizom- larda belgilab qo‘yiladi.

Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim et- ilishi mumkin.

Ish haqi, mukofotlar, qo‘srimcha to‘lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar rag‘batlantirish turlariga kirmaydi.

Intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida (183-modda) xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralar qo‘llanilmaydi.

Xodimlarni halol mehnati uchun rag‘batlantirish turi va

shaklini ish beruvchi mustaqil yoki kasaba uyushmasi yohud xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari bi- lan kelishilgan holda aniqlaydi. Jamiat va davlat oldi- da mehnat sohasida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlar davlat mukofotlari va unvonlarga tavsiya etilishi mum- kin. Rag‘batlantirish chorasi ni qo‘llash - bu ish beruv- chining huquqi, lekin majburiyati hisoblanmaydi. Biroq bunda shuni alohida e’tiborga olish lozimki, ish beruvchi xodimlarni rag‘batlantirgani taqdirda ularga teng munosa- batda bo‘lishga majbur, kamsitishga ***haqli emas***.

Moddiy turdagи rag‘batlantirishlar mukofot pullari va ustamalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ularning turi va miqdori korxona lokal hujjatlarida nazarda tutiladi. Rag‘batlantirish choralarini qo‘llash xodimlarning ish- chanlik motivatsiyasini oshiradi.

Ba’zi toifa xodimlar mehnati xususiyatiga ko‘ra inti- zom to‘grisidagi ustav va nizomlarda rag‘batlantirish tur- lari ko‘rsatiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazir- lar Mahkamasining 2014-yil 17-yanvardagi 8-sон qarori bilan tasdiqlangan Temir yo‘l transporti xodimlarining intizomi to‘g‘risidagi Nizomda xodimlar mehnat majburi- yatlari namunali bajarilganligi, ish sifati yaxshilanganli- gi, mehnat unumdorligi oshganligi, novatorlik, tashabbus ko‘rsatganlik, tashiladigan yuklar va bagajning saqlanishi ta’minlanganligi, ishonib topshirilgan boshqa mol-mulk- ka ehtiyyot bilan munosabatda bo‘lganligi, uzoq vaqt va nuqson siz ishlaganligi uchun rag‘batlantirilishi, xodimlar uchun rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llanilishi belgilangan:

- a) tashakkurnoma e’lon qilish;
- b) mukofot berish;
- v) qimmatli sovg‘a bilan taqdirlash;
- g) faxriy yorliq bilan taqdirlash
- d) esdalik belgisini topshirgan va pul mukofoti bi- lan taqdirlagan holda ishdagi muvaffaqiyatlar uchun kasb bo‘yicha eng yaxshi xodim unvonini yoki boshqa un- vonlarni berish.

Ba’zan ish beruvchi xodimni boshqalardan farq- li tashabbuskorligi va kreativligini yuksak baholab uni korxonada

«yuqori lavozimga qo‘yishi» (xodim roziligi bilan doimiy boshqa ishga o‘tkazish), ya’ni ko‘pincha rahbarlik lavozimlari (takibiy bo‘linma boshlig‘i va h.k.) ga o‘tkazishi mumkin. *Kar’yeraviv o’sish* rag‘batlantirish- ning qonunda belgilangan turi hisoblanmasa-da, xodimn- ing motivatsiyasini oshiradi, uning mehnati qadrlanishini anglatadi.

Ayrim toifa xodimlar mehnat intizomi alohida qonun- chilik normalarida ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi PF-5843-son far- moniga asosan tashkil etilgan Davlat xizmatini rivojlanti- rish agentligi xodimlari uchun ham qonunchilikda maxsus rag‘batlantirish chora-tadbirlari nazarda tutilgan. Jumladan Agentlik va uning filiallari xodimlarini moddiy rag‘bat- lantirish va ijtimoiy qo‘llab- quvvatlashning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

oylik, choraklik, yarim yillik, yillik ish yakunlari bo‘yicha proqnoz ko‘rsatkichlarni bajarganlik va oshirib bajarganlik uchun, shuningdek, bayram kunlari mukofo- tlash;

alohida muhim topshiriqlarni bajarganlik uchun yakka tartibda mukofotlash va boshqa rag‘batlantirish to‘lovlar;

biriktirilgan ish sohasining murakkabligi va muhimli- gi hamda mehnatda erishgan yuqori natijalari uchun xod- imning lavozim maoshiga ustamalar to‘lash;

xizmat majburiyatlarini bajarishdagi alohida xizmatlari uchun, yubiley sanalari va pensiyaga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlash;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va uning fil- iallari xodimlarining lavozim maoshlariga har oylik shax- siy ustamalar;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va uning fil- iallari xodimlariga Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan belgilanadigan tartibda uy-joy va avtotransport vositalarini sotib olish kreditlari bo‘yicha boshlang‘ich badalni to‘lash uchun bazaviy hisob-kitob miqdorining ikki yuz baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda foizsiz qarz taqdim etish;

o‘z turar joyiga ega bo‘lmagan Davlat xizmatini rivo- jlantirish agentligi va uning filiallari xodimlariga uy-joyni ijara- olish shartnomalari bo‘yicha xarajatlarini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan belgilanadi- gan tartibda

qoplash.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va uning fil- iallari xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi qoshidagi Davlat xizmatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:

yil davomidagi ish yakunlari bo‘yicha lavozim mao- shining besh baravarigacha miqdorda mukofot puli;

boshqa ustamalar va to‘lovlardan qat‘i nazar lavozim maoshlariga har oy ustamalar va boshqa rag‘batlantiruvchi to‘lovlardan to‘lanadi.

Mazkur bandda nazarda tutilgan moddiy rag‘batlan- tirish tadbirlari miqdori va ularni to‘lash tartibi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan belgilanadi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktori Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi xodimlariga byud- jetdan tashqari mablag‘lar hisobidan ularning lavozim maoshiga 400 foizgacha miqdorda shaxsiy ustamalar bel- gilashga haqlidir. Shaxsiy ustamalar miqdorini belgilashda mehnatga haq to‘lash Yagona tarif setkasi bo‘yicha tarif koeffitsientlari bilan bir qatorda Byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasidan beriladigan shaxsiy ustamalar, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladi- gan davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari davlat xizmatchilarining lavozim maoshlariga nisbatan mehnatni rag‘batlantirish koeffitsiyenti ham lavozim maoshi hisobi- ga kiritiladi.

Rag‘batlantirish bilan «ijtimoiy himoya»ni adashtir- maslik lozim. Rag‘batlantirish odatda konkret shaxsga ishdagi yutuqlari, normadan ortiq bajarilgan xizmatlari, ba’zan esa shunchaki intizomiy jazo chorasi qo‘llanil- magani uchun ham tatbiq etiladi. Jamoa shartnomalari va boshqa lokal hujjatlarda nazarda tutiladigan «sotsial paketlar» ham mohiyatan rag‘batlantirishdan ko‘ra ijti- moiy himoyani nazarda tutadi. Rag‘batlantirish konkret xodimning taqdirlanishini anglatadi. Xodim o‘z mehnati uchun munosib darajada rag‘batlantirilmagani taqdirda u o‘z tashabbusi

bilan korxonani «tark etishi» ham mum- kin. Bu kabi vaziyatlar bora-bora korxona uchun salbiy voqe'lik hisoblanadigan kadrlar qo'nimsizligi holatiga olib keladi.

### 3- §. Intizomiy jazolarni qo'llash tartibi

Intizomiy jazo mehnat intizomini buzgan xodimga nisbatan ish beruvchi tomonidan qo'llaniladigan majbur- lov chorasi hisoblanadi. Intizomiy jazolar qo'llanilishi natijasida xodim o'zini kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nomaqbul xulq-atvordan o'zini tiyadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga muvofiq, ish beruvchi mehnat intizomini buzgani uchun xodimga quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqlidir:

Hayfsan;

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'limgan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Bir jihatga alohida e'tibor berish lozimki, ish beruvchi yuqorida sanab o'tilgan intizomiy jazo choralarini qo'llashga *haqli, majbur emas*. Ba'zan ish beruvchi xodimning tushuntirishlari assosida sodir etilgan nojo'ya xat- ti-harakatni uzrli deb topsa unga intizomiy jazo qo'lla- masligi mumkin. Biroq

bunda ish beruvchi bir xodimga boshqalardan ortiq afzallik berish natijasida qonunchilik- dagi tenglik va mehnat munosabatlarida kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi kabi prinsiplarga daxl qilmasligi lozim.

Qonunda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralar- ining qo‘llanishi qat’iyan taqiqlanadi. Ko‘pincha amaliy- otda xodimga «ogohlantirish», «qattiq hayfsan» kabi in- tizomiy jazolar qo‘llanilishining guvohi bo‘lamiz. Lekin mehnat qonunchiligidagi mazkur tushunchalar nazarda tutil- magan bo‘lib, ularni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo‘lla- nishini, jumladan Mehnat kodeksi 100-moddasi 2-qismin- ing 3 va 4- bandlari bo‘yicha mehnat shartnomasini bekor qilinishi ish beruvchi tomonidan intizomiy jazo chorasi qo‘llanish muddati va tartiblariga rioya qilinmagan hol- laridan tashqari nojo‘ya xatti- harakatlar haqiqatdan ham sodir etilgan, biroq uning og‘irlik darajasi, xodimning oldingi xulq-avtori va uni ishga bo‘lgan munosabati hi- sobga olinmagan holda (Mehnat kodeksining 184- modda- si 2-qismi) bekor qilingan, degan xulosaga kelgan taqdirda ham mehnat shartnomasini bekor qilish g‘ayriqonuniy deb topishga haqli. Shu tufayli intizomiy jazo choralar- ni qo‘llashda ish beruvchi qonun talablariga qat’iy rioya qilishi lozim.

Intizomiy jazo bevosita xatti-harakat aniqlangandan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xodimning kasal yoki ta’tilda bo‘lgan vaqtini hisobga olmasdan, uzog‘i bilan bir oy ichida qo‘llaniladi. No- jo‘ya xatti-harakat sodir etilgan kundan boshlab olti oy o‘tganidan, moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijasida aniqlanganda esa, sodir etilgan kun- dan boshlab ikki yil o‘tganidan keyin jazoni qo‘llab bo‘lmaydi. Jinoiy ish bo‘yicha ish yuritilgan davr bu muddatga kirmaydi. Inizomiy jazo berilgani to‘g‘risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xodimga ma‘lum qilinib, tilxat olinadi.

Intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo‘llanil- gan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas. Agar xodim shu muddat ichida yana intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisobla- nadi.

### **Fuqaro savoli:**

*Hayfsan olganimga bir oy bo'ldi. Yaqinda qator bayram- lar munosabati bilan xodimlarga mukofotlar beriladi. Shu tu- fayli qo'llanilgan intizomiy jazo turining olib tashlanishidan manfaatdor va umidvorman. Uning muddatidan ilgari olib tashlanishi uchun olti oy kutishim shartmi?*

### **Yurist javobi:**

*Yo'q, olti oy bo'lishi shart emas. Mehnat kodeksining 183-moddasiga ko'ra, intizomiy jazoning amal qilsih mudda- ti jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas. Agar xodim shu muddat ichida yana intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi. Intizomiy jazoni qo'llagan ish beruvchi o'z tashabbusi bilan, xodimning iltimosiga binoan, mehnat jamoasi yoki xodimning bevosita rahbari iltimosnomasiga ko'ra jazoni bir yil o'tmas- dan oldin ham olib tashlashga haqli.*

Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Mehnat kodeksining 189-moddasiga muvofiq intizomiy jazo ustidan yakka mehnat nizolari ko'rish uchun belgilangan tartib- da shikoyat qilinishi mumkin. Mehnat intizomini tartib- ga soluvchi va intizomni buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi huquqiy normalarning samarali omillari bo'lib intizomiy javobgarlik to'g'risidagi mehnat huquqi norma- larini malakali va to'g'ri qo'llash hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonunchilikda nazarda tutilgan mazkur normalardan to'g'ri foydalanish mehnat jarayonida xod- imlarning xulq-atvoriga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, mehnat intizomini mustahkamlaydi va natijada korxonadagi huquq-tartibotning umumiy holatini yaxshilaydi. Shuning uchun xodimni ish beruvchi tomonidan intizomiy javob- garlikka tortish intizomiy ishlarni yuritish tartibiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

**Mehnat intizomini qo'llash tartibi  
quyidagilarni o'z ichiga oladi:**



Mehnat sohasida intizomiy javobgarlikka tortish Mehnat kodeksida belgilangan tartibga muvofiq hamda xodimlar uchun nazarda tutilgan bir qator kafolatlarga amal qilingan holda amalga oshirilishi kerak.

Jumladan, Mehnat kodeksining 182-moddasiga ko‘ra intizomiy jazo qo‘llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodim- ing tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo‘ya xatti-harakati uchun jazo qo‘llashga to‘siq bo‘la olmaydi. Ish beruvchi mazkur holatda tegish- li tartibda dalolatnoma tuzadi.

Yozma tushuntirish xati talab qilinishi xodimga unga qo‘yilayotgan ayblovdan *himoyalanish imkoniyatini* ber- ishni anglatadi. Mehnat intizomi buzilishiga unga bog‘liq bo‘lmagan ob‘yektiv holatlar sabab bo‘lganligini va bunda o‘zining aybi yo‘qligini tegishli faktlar bilan isbotlab ber- gan xodim intizomiy javobgarlikka tortilmasligi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Mehnat  
kodeksining 182-moddasi  
3-qismiga ko‘ra, intizomiy jazoni  
qo‘llashda quyidagilar hisobga  
olinadi:**  
V

sodir etilgan nojo‘ya xat- ti-harakatning qay darajada og‘ir ekanligi	shu xatti-hara- kat sodir etil- gan vaziyat	xodimning oldingi ishi va xulq-atvori
---	---	---

Ish beruvchi xodimga intizomiy jazo chorasini qo‘llashda barcha holatlarni aniqlashtirishi kerak. Bun- day holatlarga yuqorida qayd etilganidek quyidagilar ki- radi: aybning darajasi, sodir etilgan qilmishning og‘irligi, qilmish natijasida yetkazilgan zarar, qilmish sodir etilgan vaziyat, qilmishning motivi, shaxsning qilmishdan oldingi ishlari va xulq-atvori.

Intizomiy jazo chorasini qo‘llash uchun «sodir etilgan nojo‘ya xatti-harakatning qay darajada og‘ir ekanligi» tushunchasini har kim o‘z bilganicha baholaydi. Masalan, bir ish beruvchi xodimlar ish vaqtida sigareta chekish uchun qisqa dam olishni hotirjam

baholashi mumkin, boshqasi esa buning uchun intizomiy jazo beradi. Maz- kur holda vaziyatni baholash birmuncha murakkablashadi. Mazkur masalada xolislikni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakt)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo‘llanishi haqida»gi 12-sonli qarorining 30-bandi qoidalari asosida ta‘minlash mumkin. Mazkur qarorga ko‘ra, ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha holatlarni inobat- ga olgan holda asoslangan va qonuniy qaror chiqarilishi lozim, bunda qaror xodimga intizomiy jazoni qo‘llashda ish beruvchigaadolatilik, mutanosiblik, tenglik, qonuniy- lik va insonparvarlikka riox qilinganligini isbotlab ber- ish majburiyatini yuklaydi.

Intizomiy jazolar mehnat shartnomasida o‘zaro kelishilmagan vazifalarni bajarishni rad etgan xodimga nis- batan qo‘llanishi mumkin emas. Ta‘kidlash joizki, xod- imning bevosita mehnat vazifalari bilan bog‘liq huquqqa xilof harakat yoki harakatsizligi intizomiy nojo‘ya harakatlar sifatida baholanadi.

Intizomiy jazo turini tanlashda har bir nojo‘ya harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasi qo‘llaniladi. Ma- salan, sodir etilgan intizomga xilof harakat uchun ham hayfsan berish, ham mehnat shartnomasini bekor qilish mumkin emas. Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari- da nazarda tutilgan intizomiy jazo turlari korxona bilan mehnat munosabatida bo‘lgan barcha xodimlarga (rahbar, mutaxassis, texnik xodimlar, doimiy yoki vaqtinchasi ish- laydigan xodimlar) qo‘llaniladi.

Intizomiy jazo turini qo‘llash (tanlash) huquqi korx- ona ish beruvchisiga berilgan. U sodir etilgan intizomiy nojo‘ya harakatning og‘ir-yengilligini, ahamiyati, oqibat- lari, xodimning shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olib o‘zi maqbul deb hisoblagan intizomiy jazoni qo‘llashi mum- kin. Bunda masalan jarima yoki hayfsanning qo‘llanilgan- ligi mazmunan *bir xil* huquqiy oqibatni vujudga keltiradi.

Ish beruvchi xodimni intizomiy jazo qo‘llanganligi haqida buyruq (farmoyish) bilan tilxat orqali tanishtirishi lozim. Agar xodim buyruq bilan tilxat berish orqali tan- ishishdan bosh tortsa,

rad qilinganligi haqida bayonnomma tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Intizomiy jazo qo'llanilganligi fakti xodimning mehnat daftarchasida qayd etilmaydi. Intizomiy jazoni qo'llash muayyan muddatlar bilan cheklab qo'yilgan va ushbu muddatlarning ish beruvchi tomonidan uzrli sabablarsiz o'tkazib yuborilishi jazo qo'llash huquqining barham to-pishiga sabab bo'ladi.

Fuqarolarimizning aniq haq-huquqlarini himoya qilish, shu masalaga oid qonunlarimizning samarali ish-lashini ta'minlash, adolatli va oqilona bo'lishiga erishish maqsadli amalga oshirilmog'i darkor. Bunda xodimlarning huquqlarini yuqori darajada himoya qilish uchun ish beruvchilar tomonidan ichki mehnat tartibi qoidalari og'ishmay amal qilish, bunda avvalo korxona va tashki-lotlarda ichki mehnat tartibi qoidalari ishlab chiqilishi va ulardan xodimlarni xabardor qilishga alohida qat'iy talab qo'yilishi lozim.

Intizomiy jazolar ma'muriy, jinoiy va moddiy jazo choralaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Ushbu farqlarni quyidagilarda ko'rish mumkin:	
1	Intizomiy jazo choralar faqat xodimlarga nisbatan qo'llaniladi.
2	Intizomiy jazo choralar xodimlarning o'z mehnat majburiyatlarini buzgan hollardagina qo'llaniladi.
3	Xodimning intizomga xilof harakat qilgan bo'lsa ham intizomiy jazo chorasi qo'llash-qo'llamaslik masalasi ish beruvchi tomonidan hal qilinadi.
4	Intizomiy jazo choralar qo'llashga faqat ish beruvchilargina haqli bo'ladilar.
5	Intizomiy jazo choralar qo'llash tartibi va muddatlari boshqa jazo choralarini qo'llashdan farq qiladi.
6	Intizomiy jazo olib tashlash muddatlari ish beruvchi tomonidan mustaqil ravishda yoki mehnat jamoasining iltimosnomasiga ko'ra muddat o'tmasidan ham ish beruvchi tomonidan olib tashlanishi mumkin.

Korxonalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish va xi-zmat ko'rsatishda yuqori natijalarga erishishda intizomiy jazo choralarini qo'llashda yuqoridagi kamchiliklarni bar-taraf etish

va xodimlarni boshqarishning zamonaviy uslu- blarini qo‘llash, ya’ni bunda «qo‘rqtish», «majburlash», «jazolash» emas, balki «rag‘batlantirish», «jamoa bo‘lib ishlash» kabi usullar mehnat intizomini samarali ta‘min- lashga xizmat qiladi.

## Glossary

**1. Intizom to‘g‘risidagi ustav va nizomlar** - xalq xo‘jaligining ba’zi tarmoqlarida amal qiladigan normativ huquqiy hujjatlar bo‘lib, mehnat intizomini buzish inson hayoti, salomatligi, davlat va jamiyat manfaatlari uchun jiddiy xavf-xatar tug‘diradigan tashkilotlarda mehnat in- tizomini ta‘minlashga qaratilgan qat‘iy choralarni nazarda tutuvchi hujjat.

**2. Intizomiy javobgarlik** - yuridik javobgarlikning mustaqil turi bo‘lib, intizomga xilof nojo‘ya harakat so- dir etganlik uchun mehnat huquqida nazarda tutilgan in- tizomiy jazolarni qo‘llashga asos bo‘ladigan xodimning ish beruvchi oldidagi majburiyatining buzilishi oqibati.

**3. Mehnat intizomi** - xodimlar uchun belgilab qo‘yil- gan va ular o‘z xizmat burchlarini bajarishlari chog‘ida amal qilishlari shart bo‘lgan talab va qoidalar yig‘indisi. Ish beruvchi va xodimning ba’zan mehnat qonunchiligi va lokal hujjatlar normalari doirasidan tashqarida bo‘lgan xulq-atvorlarini tartibga soluvchi qoidalarning jami.

**4. Rag‘batlantirish** - mehnat intizomini ta‘minlash usuli bo‘lib, mehnat vazifalarini namunali bajarganlik, mehnat unumdarligini oshirganlik, mahsulot sifatini yax- shilaganlik, uzoq va benuqson ishlaganlik, novatorlik va mehnatdagi boshqa muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritganlik, umuman olganda xodimlarga ishdagi yutuqlari uchun ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan rag‘bat chorasi.

**5. Jarima** - bozor munosabatlari tamoyillariga mos jazo turi bo‘lib, xodimga iqtisodiy ta’sir o‘tkazish orqa- li uni intizomga rioya qilishiga majburlash maqsadini ko‘zlaydigan chora. Jarimaning eng ko‘p miqdori qonun bilan cheklangan, uning eng kam miqdori esa belgilan- magan.

**6. Hayfsan** - mehnat qonun hujjatlariga ko'ra mehnat intizomini buzgan xodimlarga qo'llanadigan intizomi y jazo choralarining eng keng tarqalgan turi, muhim ta'sir usulidir.

### **Mavzu bo'yicha nazorat savollari:**

1. Mehnat intizomi deganda nimani tushunasiz?
2. Korxonada mehnat intizomini ta'minlashda lokal hujjatlarning o'rni qanday?
3. Mehnat intizomini buzish qanday holatlarga olib keladi?
4. Intizomiy jazolarning qanday turlari mavjud?
5. Intizomiy jazolarni qo'llashda ish beruvchi nima- larga e'tiborga berishi lozim?
6. Xodim va ish beruvching burchlarini sanang!
7. Hayfsan va jarima tushunchalarini izohlang!
8. Rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?
9. Intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarning ichki mehnat tartibi qoidalaridan farqini keltiring!
10. Mehnat intizomini ta'minlashda kamsitishga yo'l qo'yilishi mumkinmi? Misollar keltiring!

### **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. Tikuvchi Z.Mahmudova ishga kech kelganligi tu- fayli ish beruvchi undan tushuntirish xati oldi, biroq in- tizomiy jazo chorasini ko'rmadi. Oradan uch oy o'tgani- dan so'ng Z.Mahmudova yana intizomiy nojo'ya harakat sodir etgani uchun ish beruvchining talabi bilan tushun- tirish xatini yozdi. Bu gal ish beruvchi Z.Mahmudovaga hayfsan berib, ikki kundan so'ng u bilan mehnat shartno- masini mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi tufayli bekor qildi. Z.Mahmudova bu holatni adolatsizlik deb baholadi.

#### **Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling!**

2. M.Yuldashevaga jarima jazosi qo'llanildi. Shu tu- fayli unga ishning natijalariga ko'ra beriladigan chorak- lik ustama

haqi berilmadi. M.Yuldasheva unga hayfsan emas, balki jarima jazosi qo'llanilgani uchun uni rag'bat- lantirish to'lovlaridan mahrum qilish adolatsizlik ekanlig- ini aytib, intizomiy jazo qo'llanilganida xodimga faqat mukofot puli berilmasligini ma'lum qildi. Ish beruvchi uning talabini qonunga zid deb topdi.

### **Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling!**

## **IX MAVZU. MEHNAT SHARTNOMASI TARAFLARINING MODDIY JAVOBGARLIGI**

*Moddiy javobgarlik tushunchasi va uning mohiyati. Ish beruvchining moddiy javobgarligi. Xodimning moddiy javobgarligi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Moddiy javobgarlikning yuzaga kelishi shartlari. Xodimga to'lanishi lozim bo'lgan zarar. Ish beruvchining xodim sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash majburiyati. Taraflarinining aralash javobgarligi. Bir yo'la beriladigan nafaqa. Zararni undirishga doir ishlarni ko'rish tartibi. Xodimning moddiy javobgarligini is-tisno etuvchi holatlar. Ish beruvchining xodimdan zararni un-dirishdan voz kechish huquqi. Xodimning moddiy javobgarligi chegarasi. Xodimning to'liq moddiy javobgarligi hollari. To'liq moddiy javobgarlik. Xodimdan undiriladigan zarar miqdorining sud tomonidan kamaytirilishi.*

### **1- §. Moddiy javobgarlik tushunchasi va uning mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga mu-vofiq, mehnat shartnomasining bir tarafi (ish beruvchi yoki xodim) mehnat sohasidagi vazifalarni bajarishi mu-nosabati bilan boshqa tarafga yetkazilgan zararni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga asosan qoplashi lozimligi belgilab qo'yilgan. Yetkazilgan zararni bunday qoplash majburiyati mehnat huquqi bo'yicha moddiy javobgarlik deb ataladi. Moddiy javobgarlik tushunchasi va asoslari mehnat shartnomasining muhim qismi bo'lib, tomonlarning bir-birlari oldidagi javobgarliklari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga<sup>8</sup> asosan,

taraflarining moddiy javobgarligi mehnat shartnomasi yoki unga qo'shimcha ravishda tuzilgan yozma shakldagi kelishuvda, shuningdek jamoa shartnomasida aniqlashtirib qo'yilishi mumkin. Bunda shartnoma bo'yicha ish beru- vchining xodim oldidagi javobgarligi qonunda nazarda tutilganidan kam, xodimning ish beruvchi oldidagi javob- garligi esa nazarda tutilganidan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Mehnat qonunchiligiga ko'ra xodim va ish beruvchi o'zaro huquqlar va majburiyatlar bilan bog'langan. Bun- day majburiyatlar orasida xodimni ish beruvchining mul- kiy manfaatlariiga rioya etishi, uning mol-mulkini avaylab asrashi, ziyon yetkazmasligi kerakligi muhim o'rinn tutadi. Ayni paytda ish beruvchi xodimning mulkiy huquqlarni ta'minlashi, uning hayoti va sog'lig'iga, mulkiga ziyon etishining oldini olishi lozim bo'ladi.


Mehnat munosabatlarida *moddiy javobgarlik - ish beruvchi va xodim o'rtasida o'zaro mulkiy xususiyatga ega bo'lgan zarar yetkazish natijasida yuzaga keluvchi zarar- ni qoplash majburiyati hisoblanadi*.

Moddiy javobgarlikning *o'ziga xos jihat* shundan ibo- ratki, amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq, mehnat shartnomasining bir tarafi (ish beruvchi yoki xodim) mehnat sohasidagi vazifalarni bajarishi munosabati bilan boshqa tarafga yetkazilgan zararni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplash majburi- yati tushuniladi.

Moddiy javobgarlik bir qancha huquq sohalarida mav- jud bo'lib, u huquqiy munosabat ishtirokchilarining o'za- ro yetkazgan zararni qoplashini nazarda tutadi. Mehnat munosabatlarining ishtirokchilarini ish beruvchi va xodim bo'lib, ularning mehnat munosabatlari bilan bog'liq rav- ishda bir-biriga zarar yetkazishi moddiy javobgarlikni vu- judga keltiradi.

Moddiy javobgarlik yuridik javobgarlikning bir turi hisoblanib, yuridik javobgarlikning bundan tashqari jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, fuqarolik-huquqiy

javobgarlik, intizomiy javobgarlik kabi turlari mayjud. Moddiy javobgarlik ulardan farqli ravishda, huquqbu- zarlikning oqibatida moddiy zarar yetkazilganda yuzaga keladi. Aynan bir turdag'i huquqiy munosabatlardan bir paytning o'zida turli xil javobgarlik kelib chiqishi mum- kin. Shu o'rinda xodimning boshqa turdag'i javobgarlik- ka tortilishi uni moddiy javobgarlikka tortilishini istisno qilmasligi haqidagi qoida mehnat qonunchiligidagi nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.



Mehnat munosabatlardagi moddiy javobgarlikning fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan bir qator jihatlari bilan farqlanib turadi. Moddiy javobgarlik mehnat shartnomasi bilan bog'langan subyektlar o'rtasida mehnat munosabatlari davomida yuzaga keladi. Fuqarolik huquqiy javobgarlik esa, fuqarolik huquqiy munosabatlari natijasida yu- zaga keladi.

Mehnat munosabatlari bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasini aniqlashda bu turdag'i javobgarlikning mehnat huquqidagi moddiy javobgarlikdan farq qiluvchi jihatlarini ajratib olish lozim. Huquqiy adabiyotlarda mazkur turdag'i javobgarlik quyidagi belgilari bilan farqlanishi ko'rsatib o'tilgan:

**birinchidan**, moddiy javobgarlik faqatgina ish beru- vchi bilan mehnat munosabatlariغا kirishgan xodimlarga nisbatan qo'llaniladi. Agar xodim unga muayyan ishni bajarishni topshirgan shaxs bilan mehnat munosabatlari- ga kirishmagan va fuqaroviy-huquqiy shartnomasi (pudrat yoki xizmat ko'rsatish) bo'yicha faoliyat olib borayotgan bo'lsa, fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan javobgarlik choralarini qo'llaniladi;

**ikkinchidan**, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning maz- muni va hajmi shartnomasi bilan belgilansa, mehnat huquqida yetkazilgan zararni qoplash qonunchilikda qat'iy belgilangan bo'ladi;

**uchinchidan**, xodimning moddiy javobgarligi faqatgi- na uning aybi mavjud bo ‘lganda vujudga keladi. Fuqa- rolik huquqiy javobgarlik esa aybsiz ham vujudga kelishi mumkin;

**to‘rtinchidan**, mehnat huquqida faqatgina yetkazilgan haqiqiy zarar undirilsa, fuqarolik huquqida yetkazilgan zarar tarkibiga boy berilgan foyda ham kiritiladi;

**beshinchidan**, bir necha xodimlar tomonidan yetkazil- gan zarar har bir xodimning aybini hisobga olgan hol- da to‘lanadi, fuqarolik huquqida esa bu holatda hissali emas, solidar javobgarlik vujudga keladi;

**oltinchidan**, xodimning moddiy javobgarligi zarar, uni bartaraf etish mumkin bo‘lмаган кучлар, normal xo‘ja- lik tavakkalchiligi oqibatida, oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa natijasida kelib chiqqan bo‘lsa istisno etiladi, fuqarolik huquqida esa engib bo‘lmas kuch (fors-major), oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa holatida yetkazilgan zarar to‘lanmasligi belgilangan bo‘lib, normal xo‘jalik ta- vakkalchiligi javobgarlikni istisno etmaydi;

**yettinchidan**, mehnat huquqi va fuqarolik huquqida yetkazilgan zararni qoplash tartibi turli xil bo‘lib, xod- im javobgarlikka sud tartibida ham va qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda ish beruvchi tomonidan ham tor- tilishi mumkin. Fuqarolik huquqida esa, yetkazilgan zarar faqat sud tartibida undiriladi va buning uchun 3 yillik da‘vo muddati amal qiladi.

Moddiy javobgarlikning mohiyatiga to‘xtaladigan bo ‘lsak, uning o‘ziga xos jihatlarini alohida ko‘rsatib o‘tish joiz hisoblanadi va fuqarolik-huquqiy javobgarlik o‘rtasi- dagi farqli jihatlar xususidagi fikrlarga qo‘srimcha rav- ishda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- moddiy javobgarlik faqatgina xodim va ish be- ruvchi o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar (mehnat shartnomasi, ishonchnoma, maxsus shartnoma) dan ke- lib chiqsa, fuqarolik- huquqiy javobgarlik shartnomaviy va shartnomadan tashqari (zarar yetkazish, asossiz boylik orttirish) munosabatlardan kelib chiqadi va ular moddiy javobgarlikdagi kabi o‘zaro uzviylikka ega bo‘lmaydi;

- fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy maqsadi buzilgan huquqni tiklash va huquqbuzarga qo'shimcha mulkiy majburiyat yuklash bilan bog'liq bo'lsa, mod-diy javobgarlikning maqsadi faqatgina buzilgan huquqni qisman yoki to'liq tiklashga qaratiladi va huquqbuzarga qo'shimcha mulkiy majburiyat yuklamaydi (masalan, xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligida);

- moddiy javobgarlik miqdoriga nisbatan yetkazilgan zararning miqdori va hajmidan qat'iy nazar muayyan chegara belgilanishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 201-moddasiga muvofiq, agar ushbu Kodeksda boshqacha holat nazarda tutilma-gan bo'lsa, xodim yetkazgan zarar uchun o'zining o'rt- acha oylik ish haqi miqdori doirasida moddiy javobgar bo'ladi.

Fuqarolik huquqida esa delikt majburiyatlarida chek- langan javobgarlik qo'llanilmaydi (cheklangan javobgarlik shartnomaviy munosabatlarda qo'llanilishi mumkin). Moddiy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik talablarini to'liq bajarilishiga erishilishi xodim va ish beruvchi manfaatlariga to'la mos keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, moddiy javobgarlik xodimda ham ish beruvchida ham yuzaga kelishi mumkin. Shu bois moddiy javobgarlik bilan bog'liq mu-nosabatlarning subyekti ish beruvchi va xodim bo'ladi.


## **2- §. Ish beruvchining moddiy javobgarligini yuzaga kelish shartlari**

Har qanday yuridik javobgarlikning yuzaga kelishi uchun muayyan asoslar bo'lishi zarurligi singari moddiy javobgarlikning yuzaga kelishining ham muayyan asoslar, shartlari mavjud. Bunday asoslar yuridik javobgarli- kni belgilashning muhim jihatlari hisoblanadi va ularning mavjud bo'lmasisligi yuridik javobgarlikni istisno etilishiga olib keladi.

Moddiy javobgarlik yuzaga kelishi uchun, avva-lo, mehnat huquqbizarligi tarkibi bo'lishi talab etiladi. Mehnat kodeksining 186-moddasida moddiy javobgarlikning yuzaga kelish shartlari

belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, mehnat shartnomasining bir tarafi o‘zining g‘ayri- huquqiy aybli xulq-atvori (harakati yoki harakatsizligi) natijasida boshqa tarafga yetkazgan zarari uchun, bashar- ti Mehnat kodeksida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, moddiy javobgar bo‘ladi. Ushbu normadan kelib chiqqan holda, moddiy javobgarlikning tarkibini quy- idagi elementlarga ajratishimiz mumkin: *Huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, ayb, zarar, yetkazilgan zarar va huquqqa xilof qilmish o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish.*

Mehnat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy muno- sabatlar davomida mazkur munosabat ishtirokchilari to- monidan huquqqa xilof bo‘lgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yilishi tufayli muayyan hollarda mehnat shartnomas- ining muhim shartlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lмаган tarzdagi zarar yetkazilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma- jburiyatlarni yuzaga keltiradi va bunday munosabatlarda ko‘pincha xodim jabrlangan shaxs sifatida, ish beruvchi esa, zarar yetkazgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.



Moddiy javobgarlik asosi bu huquqbazarlik emas, zararning mavjudligi hisoblanadi. Chunki moddiy javob- garlik huquqbazarlik bo‘lмаган taqdirda ham vujudga kelishi mumkin. O‘z navbatida, mehnat munosabatlari bilan bog‘liq huquqbazarlik sodir etilish fakti, moddiy zarar yetmagan taqdirda boshqa turdagи - ma'muriy, ji- noyi, intizomiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Moddiy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi tarkibning har bir elementiga alohida to‘xtalib o‘tamiz. **Huquqqa xilof xatti-**

**harakat** deganda xodim tomonidan qonun hujjatlarida, hukumat qarorlarida, ichki mehnat tartibi qoidalarida, shuningdek, ma'muriyatning buyruq va far- moyishlari, mehnat jamoasi kengashining qarorlarida bel- gilangan xizmat majburiyatlarini bajarmaslik yoki yetarli darajada bajarmaslik tushuniladi.

Boshqacha qilib aytganda, huquqqa xiloflilik deganda shaxsning qonun hujjatlarida talablarini buzuvchi, ularga muvofiq bo'lgamagan qilmish tushuniladi. Shuni nazarda tutish lozimki, ish beruvchining xodimga zarar yetka- zuvchi harakatlariga nafaqat, harakatlar balki xodimga moddiy zarar yetkazuvchi qarorlar ham kiradi. Masalan, xodimni g'ayriqonuniy boshqa ishga o'tkazish oqibatida xodim o'z lavozimidagidan kam oylik ish haqi olib ish- lagan davrda ko'rgan moddiy zarar uchun ish beruvchin- ing moddiy javobgarligi yuzaga kelishiga asos huquqqa xilof qaror hisoblanadi.

**Ayb** - moddiy javobgarlik yuzaga kelishining eng zarur elementlaridan hisoblanadi. Umumiy qoidaga ko'ra moddiy javobgarlik zarar yetkazuvchining aybi mav- jud bo'lganda vujudga keladi. Faqat qonun hujjatlari- da ko'zda tutilgan hollardagina aybsiz holdagi moddiy javobgarlik vujudga kelishi mumkin.

Aybning ikki xil shakl mavjud bo'lib, ular qasd va ehtiyyotsizlik hisoblanadi. Huquqbazarlikni sodir etgan mehnat shartnomasi tarafi (ish beruvchi yoki xodim) o'z qilmishining oqibati va xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday **harakat qasddan sodir etilgan deb topiladi**.

Huquqbazarlikni sodir etgan mehnat shartnomasi tara- fi (ish beruvchi yoki xodim) o'z xulq-atvori zararli oqi- batlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyyotkorlik choratadbirlariga ongli ravishda rioya yet- magan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asos- siz ravishda umid qilgan yoki oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi etmasada, lekin ko'zi etishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday **huquqbazarlik beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi**.

Mehnat huquqida ish beruvchining moddiy javob- garligida

fuqarolik huquqidagi kabi moddiy javobgarlik uchun aybdorlik prezumptsiyasi amal qiladi. Bu pre-zumptsiya jinoyat protsessidagi aybsizlik prezumptsiyasining aksi bo'lib, bunda zarar yetkazuvchi - huquqbuzar o'zining aybsiz ekanligini isbotlamagunicha aybdor deb topiladi va isbotlash burchi har doim uning o'ziga yukla-tiladi. Jabrlanuvchi esa, o'zining haq ekanligini isbotlashi talab etilmaydi. Bunday prinsip qo'llanilishining saba- bi, huquqqa xilof qilmish natijasida kelib chiqqan zarar mavjud bo'ladi va u ayblanayotgan tarafning harakati yoki harakatsizligi natijasida kelib chiqqan bo'ladi. Shu bois, mazkur taraf ushbu zararning kelib chiqishida aybsizligini isbotlab berishi talab etiladi.

**Zarar** - moddiy javobgarlik yuzaga kelishining eng muhim shartlaridan bo'lib, zarar yo'q bo'lsa, moddiy javobgarlik vujudga kelishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, zarar degan- da, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, un- ing mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Mehnat huquqida qo'llaniladigan zarar tushunchasi mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Jumladan, xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarlik da- rajasini aniqlash vaqtida olinmay qolgan foyda (daromad) zarar tarkibiga kiritilmaydi. Ish beruvchi esa, o'z xod- imiga zarar yetkazganida bevosita zarardan tashqari olin- may qolgan daromad (masalan, ishlab topilmay qolgan ish haqi)ni ham, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tovon pullarini ham to'lab berishi kerak bo'ladi. Shuningdek, ma'naviy zarar, ya'ni shaxs sha'ni, obro'-e'tiboriga putur yetkazilishi oqibatida unga to'lani- shi lozim bo'lgan moddiy tovon fuqarolik huquqlaridagi zarar tushunchasi tarkibiga kiritilmagan bo'lsa-da, mehnat munosabatlarida u xodimiga ish beruvchi tomonidan yet- kazilgan zarar sifatida talqin etilmog'i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 187-moddasida mehnat huquqiy munosabatlarda qo‘llanil- adigan ish beruvchi tomonidan yetkaziladigan zarar tush- unchasi ta’riflangan bo‘lib, unga ko‘ra, o‘z mehnat vazi- falarini bajarishi munosabati bilan yoki mehnat qilish imkoniyatidan g‘ayriqonuniy ravishda mahrum etilganligi natijasida xodimga, boquvchisi ish bilan bog‘liq holda

vafot etgan taqdirda esa - uning oila a'zolariga yetkazil- gan har qanday zararni (shu jumladan, ma'naviy zararni) ish beruvchi to'liq hajmda to'laydi.

Ayni paytda jabrlanuvchi ruhiy va jismoniy azoblarni boshidan kechirgan va ma'naviy zararni undirishni so'ra- gan barcha hollarda real vaziyatdan kelib chiqib talab qondirilishi lozimligi nazarda tutilgan. Lekin amaliyatda ma'naviy zararni qoplash masalasida ayrim muammolar mavjud, ya'ni sud ish holatlaridan kelib chiqib ma'naviy zarar miqdorini qisman qoplab beradi.

**Sababiy bog'lanish** - moddiy javobgarlikka tortish uchun zarur tarkibning muhim elementi bo'lib, uning mazmuniga ko'ra, taraflardan biriga yetkazilgan zarar ik- kinchi tarafning harakati yoki harakatsizligining natijasi bo'lishi, ya'ni javobgarning qilmishi va kelib chiqqan moddiy zarar o'rtasida «sabab-oqibat»ning o'zaro aloqa- dorligi bo'lishi lozim. Bunda moddiy javobgarlik yuklash uchun zararli oqibat aynan taxmin qilinayotgan shaxs xatti-harakatlari bilan bog'liqligi va uning natijasi ekanligi aniqlanishi hamda isbotlanishi lozim. Harakat bilan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjud emasligi moddiy javobgarlikni istisno qiladi.

---

Mehnat qilish  
imkoniyatidan  
g'ayriqonuniy  
ravishda mahrum  
etilgan xodimga  
yetkazilgan zarar.

---

Xodim va uning  
oila a'zolariga  
to'liq tarzda to'lani-  
shi lozim bo'lgan  
zarar.

---

Boquvchisi ish  
bilan bog'liq holda  
vafot etgan yoki  
nogiron bo'lib qol-  
gan xodimning oila  
a'zolariga yetkazil-  
gan zarar.

---

Bunda moddiy javobgarlik yuklash uchun zararli oqibat aynan taxmin qilinayotgan shaxs xatti-harakatlari bilan bog'liqligi va uning natijasi ekanligi aniqlanishi hamda isbotlanishi lozim. Harakat bilan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjud emasligi moddiy javobgarlikni istisno qiladi.

**Fuqaro savoli:**

*Men tarix o'qituvchisiman. Maktabdan O'qituvchilar mal-  
akasini oshirish instituti tomon seminarga borayotgan vaqtim- da  
men ketayotgan yo'nalishli taksi ag'darilib ketib, qattiq*


*shikastlandim. Davolanish jarayoni vaqt va dori vositalarini talab qilingani uchun menga ish joyimdan biron bir nafaqa to'lanadimi?*

***Yurist javobi:***

Mehnat kodeksining 189-moddasiga ko'ra, xodimning sog'lig'iga mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalini- shi yoki u o'z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq hol- da sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli yet- kazilgan zararni ish beruvchi to'liq hajmda to'lashi shart. Siz o'quv mashg 'ulotiga maktab rahbariyati tomonidan yuboril- ganligiz va ish vaqtida jarohat olganingiz uchun Mehnat ko- deksining 285- moddasiga ko'ra, vaqtincha mehnatga qobili- yatsizlik nafaqasi mehnatda mayib bo'lganda ish haqining to'liq miqdorida to'lanadi.

Xodimning sog'lig'iga shikast etganligi munosaba- ti bilan to'lanishi lozim bo'lgan zarar miqdori amalda- gi qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, to'lanishi lozim bo'lgan zarar jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar olgan o'rtacha oy- lik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq bel- gilanadigan har oylik to'lovdan, sog'lig'iga shikast etishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlammg kompensatsiyasi- dan, shuningdek belgilangan hollarda esa, — bir yo'la beriladigan nafaqa to'lashdan iboratdir.

Kasbga oid mehnat qibiliyatini yo'qotganlik darjasini va jabrlanuvchining qo'shimcha yordam turlariga muh- tojligi tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan aniqlanadi.



Mazkur holatda zarar o'rnini qoplash uchun to'lovlar- ni

tayinlashda jabrlanuvchi olayotgan ish haqi, stipendi- ya, pensiya va boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. Bunda mehnatda mayib bo‘lgan jabrlanuvchilar nogiron- larga zararni qoplash uchun to‘lanadigan summa qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik foizidan oz bo‘lishi mumkin emas.

### **3-        §. Xodimning moddiy javobgarligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

Har bir xodimningadolatli mehnat sharoitlarida ish- lashi, hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini ta‘minlash, g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatishdan himoyalash mehnatga oid munosabatlarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

*Xodimning mehnatdan mayib bo‘lishi, kasb kasalligi- ga chalinishi yoki u o‘z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda sog‘ligining boshqacha tarzda shikastlanishi sa- babli yetkazilgan zararni ish beruvchi to‘liq hajmda to‘lashi shart.*

Xodimning ish beruvchi hududida ham, uning tash- qarisida ham mehnatdan mayib bo‘lishi, shuningdek ish beruvchi tomonidan ajratilgan transportda ish joyiga ke- layotgan yoki ishdan qaytayotgan paytda shikastlanishi natijasida yetkazilgan zarar uchun ish beruvchi moddiy javobgar bo‘ladi.


Amaldagi qonunchilikka asosan, xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan bevosita zarar deganda quyidagi- lar tushuniladi:

**Birinchidan**, ish beruvchining o‘z mol-mulki, o‘zgalardan ijara ga vaqtincha foydalanish uchun, saqlash uchun olgan asosiy va aylanma mablag‘lari, ko‘char va ko‘chmas mulklari, binolari, inshootlari, uskunalari, trans- port vositalari, xom-ashyosi, tayyor mahsuloti, pul yoki boshqa qimmatli qog‘ozlari hamda boshqa boyliklarining yo‘qolishi, nobud bo‘lishi, yaroqsiz holga kelishi;

**Ikkinchidan**, ish beruvchi mol-mulkiga ziyon etishi natijasida uning yaroqsiz holga kelishi va uni tiklash uchun qo‘sishimcha moddiy-moliyaviy xarajatlar qilish zaruratinining yuzaga kelishi;

*Uchinchidan*, o‘zga shaxslarga zararni qoplab berish, buyumni o‘z hisobidan ta’mirlab berish majburiyati pay- do bo‘lishi.

Xodim faqat bevosita zararnigina to‘laydi va olinmas- dan qolgan foyda (daromad)dan undirilishiga yo‘l qo‘yil- maydi. Xodim o‘z xatti-harakatlari tufayli yuz bergan bevosita zarardan tashqari zarar yetkazilishi oqibatida vu- judga kelgan qo‘srimcha xarajatlarni ham to‘lashi lozim. Bunday qo‘srimcha xarajatlar qatoriga ish beruvchi uchinchi shaxslarga to‘lagan jarima yoki boshqa to‘lovlar kiritilishi mumkin (masalan, korxonaning transport vosi- tasida o‘zga shaxs sog‘lig‘iga zarar yetkazilganida bevo- sita zarar (ish haqi)dan tashqari davolanishi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni ham qoplanishi).



Xodimning moddiy javobgarligini istisno qiluvchi holatlar ham mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 199-moddasiga ko‘ra, agar zarar uni bartaraf etish mumkin bo‘lmagan kuchlar, normal xo‘ja- lik tavakkalchiligi oqibatida oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa natijasida kelib chiqqan bo‘lsa, xodimning mod- diy javobgarligi istisno etiladi.


Xodim moddiy javobgarligini istisno qiluvchi shartlar o‘z mohiyatiga ko‘ra:

- obyektiv tabiiy hodisalar;
- muayyan ijtimoiy hodisalar;
- zarar yetkazilgan deb taxmin etilayotgan xodimn- ing subyektiv xatti-harakatlari;

g) uchinchi shaxslar tomonidan sodir etiladigan harakatlarga bo‘linishi mumkin va ularning har biri o‘z holicha xodim moddiy javobgarligi istisno etilishiga sa- bab bo‘lishi mumkin. Xodimning moddiy javobgarlikka tortishning shartlari esa ish beruvchining moddiy javob- garligi bilan bir xil bo‘lib, bu xususida bob avvalida to‘xtalib o‘tildi.

Shuni inobatga olish lozimki, O‘zbekiston Respublika- si Mehnat kodeksining 200-moddasi mazmuniga ko‘ra, ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni undirishdan ish beruvchi to‘liq yoki qisman voz kechish huquqiga ega. Davlat mulki shaklidagi korxonalarda ana shun- day qaror, agar u jamoa shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, qabul qilinishi mumkin. Bunday holda yetkazil- gan zarar korxona foydasi hisobidan qoplanadi.

Xodimning ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarligining ikki asosiy turi farqlanadi. Bu *cheklangan moddiy javobgarlik hamda to‘liq moddiy javobgarlik*.



O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 201-mod- dasiga ko‘ra, agar ushbu kodeksda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, xodim yetkazilgan zarar uchun o‘zining o‘rtacha oylik ish haqi miqdori doirasida mod- diy javobgar bo‘ladi. Bu yerda xodimning moddiy javob- garligi chegarasi belgilanmoqda.

Xodim o‘zining aybi bilan korxona yoki tashkilot- ga yetkazilgan moddiy zararni intizomiy, ma’muriy yoki jamoat javobgarligiga tortilganidan qat‘i nazar, to‘lashi lozim. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga ko‘ra, xodimning ish beruvchi oldidagi javobgarligi qonunda nazarda tutilganidan ko‘p bo‘lmasli- gi kerak.

*Cheklangan moddiy javobgarlik deganda, xodimning aybli ravishda korxonaga yetkazgan moddiy zararni qonunda belgi- lab*

*qo'yilgan eng ko'p miqdordan ortiq bo'lмаган darajada qoplash majburiyati tushuniladi.*

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi xod- imning cheklangan moddiy javobgarligining ikki xil ko'rinishini belgilaydi. Yetkazilgan zarar miqdorida, ammo xodim o'rtacha bir oylik ish haqi miqdoridan ko'p bo'lмаган moddiy javobgarlik - xodim o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida ehtiyyotsizlik natijasida zarar yetkazgan barcha hollarda, basharti qonun hujjatlar- ida moddiy javobgarlikning boshqacha hajmi ko'rsatilma- gan bo'lsa, qo'llaniladigan universal moddiy javobgarlik sanaladi.

Cheklangan moddiy javobgarlikning ikkinchi turi maxsus xususiyatga ega bo'lib, faqat korxona va tash- kilotlarning (ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish, ishdan bo'shatish vakolatiga ega bo'lgan) rahbarlariga nisbatan qo'llaniladi.

Yetkazilgan zarar o'mini qoplash uchun to'lanadigan haq miqdori mansabдор shaxsnинг uch oylik maoshi- dan ortib ketmasligi lozim. Demak, cheklangan moddiy javobgarlikning miqdori korxona rahbari va xodimlari uchun farqlanar ekan, o'z navbatida, korxona rahbarining ish beruvchiga yetkazgan zarari uchun cheklangan mod- diy javobgarligi faqatgina Yuqorida sanalgan ikki holat uchun belgilanishini ta'kidlab o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida va boshqa mehnatga oid qonun hujjatlarida ehtiyyotsizlikdan zarar yetkazgan xodimga to'liq (zararning to'la qiymati- da) moddiy javobgarlik yuklanadigan hollar nazarda tut- ilishi (masalan, moddiy javobgar shaxslar, mast holda va boshqa holatlarda zarar yetkazish) mumkin.

Xodimning moddiy javobgarligining chegarasiga ko'ra ikkinchi turi - to'liq moddiy javobgarlik.

*To'liq moddiy javobgarlik deganda, xodimning aybli ra- vishda korxonaga yetkazgan moddiy zararni qonunda zarar- ning to'liq miqdorida qoplash majburiyati tushuniladi.*

Xodimni ish beruvchiga yetkazgan zarari uchun to'liq moddiy

javobgarlikka tortishga faqatgina qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 202-moddasida belgilangan asoslarga ko‘ra, quyidagi hol-larda xodimga to‘liq moddiy javobgarlik yuklatiladi:

- 1) maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamagan-lik uchun (203-modda);
- 2) bir gallik hujjat asosida olingan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamaganlik uchun;
- 3) qasddan zarar yetkazilganda;
- 4) alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda;
- 5) xodimning sud hukmi bilan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda;
- 6) tijorat sirlari oshkor etilganda;
- 7) qonunlarda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

Amaldagi mehnat qonunchiligiga ko‘ra, maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamaganlik (ularni yo‘qolishiga, normadan ortiq kamayishiga, nobud bo‘lishiga, talon-toroj qilinishiga, sifatining buzilishiga sabab bo‘lganiq) uchun to‘liq moddiy javobgarlik yuklash mumkin.

Moddiy javobgarlik haqidagi yozma shartnoma faqat korxona bilan mehnat shartnomasi tuzgan va ishga qa-bul qilingan xodim bilan (ishga qabul qilish chog‘ida yoxud keyinchalik) tuzilishi mumkin. Korxona xodimi bilan tovar-moddiy va boshqa boyliklar yuzasidan tuzi-ladigan shartnomalar hamda ular amal qilishi davomida zarar yetkazilishiga oid munosabatlar, mehnat munosa-batlari bo‘lmasdan, fuqarolik huquqiy munosabat sanaladi va shuftayli ular fuqarolik qonun hujjatlari bilan tarti-bga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 203-moddasiga ko‘ra, bevosita pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilayotgan xodim maxsus yozma shartnoma asosida

unga ishonib topshirilgan qimmat- liklarning saqlanishini ta'minlamaganligi uchun to‘liq moddiy javobgar bo‘ladi. Pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilish xizmat vazifasiga kirmaydigan xod- im bilan to‘liq moddiy javobgarlik haqida tuzilgan shart- noma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bevosita pul yoki tovar qimmatliklari bilan muoma- la qiluvchi o‘n sakkiz yoshga to‘lgan xodim bilan ishga qabul qilish paytida ham, keyinchalik ham mehnat shart- nomasiga qo‘srimcha tarzda to‘liq moddiy javobgarlik haqida maxsus yozma shartnoma tuzilishi mumkin.

To‘liq moddiy javobgarlik haqida shartnoma tuziladi- gan xodimlaming toifalari ro‘yxati jamoa shartnomasida belgilab qo‘yiladi, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruv- chi bilan kasaba uyushmasi qo ‘mitasi yoki xodimlarn- ing boshqa vakillik organi o‘rtasidagi kelishuvga bino- an belgilanadi. Bevosita pul yoki tovar boyliklari bilan muomala qiluvchi xodimlar tomonidan ishlar birgalikda bajariladigan, jamoa (brigada) moddiy javobgarligi joriy etilishi mumkin bo‘lgan bo‘linmalammg ro‘yxati ham xuddi shunday tartibda belgilanadi.

Agar xodim talabgor bo‘layotgan ish (lavozim) to‘liq moddiy javobgarlik haqida shartnoma tuzishni talab qilsa, xodim esa bunday shartnoma tuzishga rozi bo ‘lmasa, ish beruvchi uni ishga qabul qilishni rad etishga haqlidir.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xodimdan undiril- adigan zarar miqdorining sud tomonidan kamaytirilishi belgilangan bo‘lib, sud aybning darajasi va shaklini, aniq holatlarni va xodimning moddiy ahvolini hisobga olib undiriladigan zarar miqdorini kamaytirishi mumkin. Sud undiriladigan zarar miqdorini kamaytirish haqidagi keli- shuv bitimini tasdiqlashga haqlidir. Xodimdan undiriladi- gan zararning miqdorini, agar zarar g‘arazli maqsadlar bilan sodir qilingan jinoyat natijasida yetkazilgan bo‘lsa, kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

### Glossariy

**Zarar** - huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqi- ni tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xara- jatlari, uning

mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o‘z huquqlari buz- ilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda);

**Mehnatda mayiblanish** - ishlab chiqarishdagi baxt- siz hodisa oqibatida sug‘urtalangan shaxsning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi;

**Kasb kasalligi** - sug‘urtalangan shaxsga unga ish- lab chiqarishning zararli yoki xavfli omili ta’siri natijasi- da uning kasbga oid mehnat qibiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga sabab bo‘lgan o‘tkir yoki surunkali kasallik; zararli mehnat sharoitlari ta’siridan paydo bo‘la- di va kasb kasalliklari ro‘yxatiga kiritilgan xastalik;

**Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javob- garligi** - o‘zlarining aybli, qonunga xilof, zarar keltiruv- chi xatti- harakatlari bilan bir-birlariga yetkazgan moddiy zarar uchun yuzaga keladigan javobgarlik turi.

**Huquqqa xilof xatti-harakat** - xodim tomonidan qonunda, hukumat qarorlarida, ichki mehnat tartiboti qoidalarida, qo‘llanmalarda, shuningdek ma’muriyatning buyruq va farmoyishlari, mehnat jamoasi kengashining qarorlarida belgilangan xizmat majburiyatlarini bajarmas- lik yoki yetarli darajada bajarmaslik;

**To‘liq moddiy javobgarlik** - bevosita pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilayotgan xodimning maxsus yozma shartnomasi asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta‘minlamaganligi javobgarligi;

**Cheklangan moddiy javobgarlik** - xodim aybli rav- ishda korxonaga yetkazgan moddiy zararni qonunda bel- gilab qo‘yilgan eng ko‘pidan ortiq bo‘lmagan darajada qoplash majburiyati.

#### **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Moddiy javobgarlikni vujudga keltiruvchi shartlarni sanab ko‘rsating va ularning mazmunini tushuntiring.

2. Xodimga to‘lanishi lozim bo‘lgan zarar va uning tartibini tushuntiring.

3. Ish beruvchining xodim sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash majburiyati bilan bog‘liq holatlarni aso- slab bering.
4. Xodimning moddiy javobgarligini istisno etuvchi holatlarni ko ‘rsating.
5. Cheklangan moddiy javobgarlikning to‘liq moddiy javobgarlikdan farqlarini ajratib bering.
6. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgar- ligi aniqlashtirib qo‘yiladigan yozma shakldagi kelishuv loyihasini tayyorlang.
7. Boquvchining vafot etganligi munosabati bilan zararni ish beruvchi tomonidan to‘lab berilishi to‘g‘risi- dagi sudga kiritiladigan da‘vo arizasini tayyorlang.
8. Xodimning vafoti munosabati bilan bir yo‘la beriladigan nafaqani to‘lash to‘g‘risidagi ish beruvchi bo‘yrug‘i loyihasini tayyorlang.
9. N-1 shakldagi dalolatnomaning loyihasini rasmiylashtiring.
10. O‘rtacha oylik ish haqidan ortiq bo‘lmagan miqdorda yetkazilgan zarar uchun aybdor xodimdan pul undirish to‘g‘risidagi ish beruvchining buyrug‘i loyihasini tayyorlang.

### **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. Tushlikdan so‘ng «Future buildings» quruvchilik korxonasi avtokran mashinasi boshqaruvchisi Xayitov uncha kuchli bo‘lmagan alkogol ta’sirida ishga keldi. Shirkat boshlig‘i mazkur holatdan xabardar bo‘lgan hol- da ishni bajarishi zarurati obyektni o‘z vaqtida bitkazish bilan bog‘likligi aytib uni ishga qo‘ydi. Xayitov mastligi sababli uning boshqaruvidagi avtokran qurilish obyekti- ga jiddiy zarar yetkazdi, zarar miqdori 22 mln so‘m etib baholandi. Ish beruvchi yetkazilgan zararni Xayitovdan to‘liq miqdorda undirib berilishini talab qildi.

*Vaziyatni qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.*

2. Angren kon metallurgiya kombinati tomonidan shartnomaga asosida ikki nafar talabanining to‘lov shart- noma pullari talabalarning o‘qishni tugatganlaridan so‘ng korxonada besh yil

ishlab berishlari sharti bilan 41 528 000 so‘m miqdorida to‘liq to‘lab berilgan. Le- kin talabalar tomonidan mazkur shartnoma shartlari ba- jarilmagan. Shunga ko‘ra korxonaning yuridik xizmati xodimi Sh.Turaev tomonidan sudga da‘vo kiritildi, lekin sudga da‘vo kiritish muddatlari asossiz ravishda o‘tka- zib yuborilganligi sabab da‘vo arizasi sud tomonidan rad etildi. Korxona direktori mazkur holat yuzasidan Sh.Tu- raevga nisbatan jazo qo‘llab yetkazilgan moddiy zararni to‘liq to‘lab berish majburiyatini unga yukladi. Sh.Turaev mazkur jazodan norozi bo‘lib sudga murojaat qildi.

*Mazkur vaziyatga huquqiy baho bering!*

**X BOB.**

### **MEHNATNI MUHOFAZADA QILISH**

*Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uning ahamiyati.*

*Mehnat muhofazasi sohasidagi davlat siyo- sati va boshqaruvi.*

*Xodimning mehnat muhofazasiga doir huquqlari va uni ro‘yobga chiqarishdagi kafolat- lar. Xodim va ish beruvchining mehnat muhofazasiga oid majburiyatları.*

#### **1-§. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi va uning ahamiyati**

Mehnat muhofazasi murakkab tizim sifatida faqat mehnat huquqida o‘rganiladigan tushuncha emas (mehnat muhofazasi texnika fanlarida ham o‘rganiladi). Ammo mamlakatimizda fuqarolarning mehnatini muhofaza qilish, ularning mehnat qilishi jarayonida sog‘lig‘i va hayotini muhofazalash maqsadida mehnat muhofazasi qonun dara- jasida tartibga solingan hamda mehnat huquqining muhim instituti sifatida o‘rganiladi.

Mehnat muhofazasi bilan bog‘liq normalar qonun va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, bugungi kunda mazkur hujjatlarning ahamiyati yuqoridir.

Mehnat muhofazasi tushunchasini izohlash uchun, eng avvalo, qonun hujjatlari normalarini tahlil etish ta- lab etiladi. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi- da mehnat muhofazasi bilan bog‘liq masalalar 2016-yil 22-sentabrda yangi

tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»- gi Qonuni<sup>9</sup> bilan tartibga solinadi. Mazkur Qonunning

4- moddasida mehnatni muhofaza qilish tushunchasiga rasmiy ta’rif berilgan.

Mehnat muhofazasiga berilgan ushbu ta’rif uni keng ma’noda izohlab beradi. Tor ma’noda mehnatni muhofaza qilish tushunchasi mehnat huquqining instituti sifati- da xodimlaming mehnat faoliyati jarayonida sog‘lig‘i va hayotini ta’minlashga qaratilgan huquqiy normalar yig‘in- disini anglatadi.

*f Mehnatni muhofaza qilish - mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta’minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, tex-nikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirdilari hamda vositalari tizimi hisoblanadi.*

E’tibor beradigan bo‘lsak, mehnat muhofazasi instituti normalarining o‘ziga xosligi uning texnik va sanitar qoi- dalar bilan uzviy bog‘liqligidadir. Ya’ni xodimlar mehnatni muhofaza qilish jarayonida mehnat huquqiga oid mu- nosabatlar bilan birga boshqa munosabatlar ham vujudga keladi. Bu esa ish beruvchilarga ko‘proq mas’uliyat va majburiyat yuklaydi.



<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. -2016. -N» 38. 441-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2018. - 5 yanvar. - N» 03/18/456/0512.

Mehnatni muhofaza qilishga oid munosabatlar- ni huquqiy jihatdan tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qil-

ingan «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»-gi Qonunining<sup>10</sup> ham ahamiyati kattadir. Chunki «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonun mehnatni muhofaza qilishning huquqiy jihatlarini yor- itib beradigan bo‘lsa, «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi Qonun fuqarolarning har qanday sha- roitda sog‘lig‘ini saqlash masalalariga bag‘ishlangan.

Qayd etish kerakki, «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunning maqsadi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan ibo- rat bo‘lib, bunda xodimlaming hayoti va sog‘lig‘i asosiy o‘rinda turadi.

## **2-§. Mehnat muhofazasi sohasidagi davlat siyosati va boshqaruvi**

Har qanday munosabatni tartibga solishda davlat va uning mas’ul organlarining vazifalari muhim ahami- yat kasb etadi. Mazkur vazifa va funksiyalarni bajarish uchun davlat organlariga qonun hujjatlari asosida va- kolatlar berilgan. O‘zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 5-moddasida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

---

ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarning sabablarini tahlil qiladi hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga bunday jarohatlanishlarning oldini olish bo‘yicha takliflar kiritadi

---

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirli- gi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy  
yo'nalishlari**

xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash  
xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash  
mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish  
va amalga oshirish  
davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyyati  
organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini mu-  
vofiqlashtirish

barcha tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni  
belgilash

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi  
ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalgalash  
xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya  
va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish  
fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha  
ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb  
kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish  
xalqaro hamkorlikni amalgalash  
masining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari  
berilgan.

### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari**

mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosati amalgalash  
oshirilishini ta'minlaydi

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini  
tasdiqlaydi va amalgalash oshiradi

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati  
organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati  
muvofiglashtirilishini ta'minlaydi

muvofiglashtirilishini ta'minlaydi

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish  
hamda hisobga olish tartibini belgilaydi

mehnat sharoitlarining davlat ekspertizasini  
o'tkazish tartibini belgilaydi

mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchi tomonidan mablag'lар  
ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarini tuzish va  
ularning mablag'lарidan foydalanish tartibini belgilaydi

tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini  
tashkil etish tartibini belgilaydi

## O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

mehnatni muhofaza qilish  
sohasida yagona davlat siyosatini  
amalga oshiradi

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihat- dan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vako- latlari doirasida ishlab chiqadi, kelishib oladi hamda tasdiqlaydi

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning maxsus tekshiruvi o'tkazilishimi va hisobga olinishi ta'minlaydi

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi

mehmatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi, shu jumladan noqulay va alohida mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar berilishi yuzasidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiradi  
Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi  
~~davoladana belgilik boshqaruvi~~  
vi organlaryunda mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining yagona reestrini O'zbekiston

mehnatni muhofaza qilishning holati monitoringini o'tkazadi  
O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vako- latlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qonunning 9-moddasida esa O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ham mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari berilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi**  
xodimlarning dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rıklarini o'tkazish tartibini belgilaydi  
ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og'irligi va tig'izligi ko'satkichlari bo'yicha sanitariya

qidalarini, normalarini va gigiena normativlarini belgilaydi  
mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga beril-  
adigan sutni (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini),  
davolash-profilaktika oziq-ovqatini, gazlangan tuzli suvni (issiq sexlarda  
ishlovchilar uchun) berish normativlarini belgilaydi  
xodimni yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'sirini  
istisno etadigan ishga o'tkazish uchun tibbiy va boshqa ko'rsatkichlar  
ro'yxatini tasdiqlaydi  
xodim kasb kasalligiga chalingga deb guman qilinganda uning mehnat  
sharoitlarining sanitariya-gigiena tavsifini tuzishga  
doir talablarni belgilaydi  
kasb kasalliklarini aniqlash va xodimlarning kasbga oid mehnat  
qobiliyatini yo'qtganligi darajasini aniqlash uchun  
yo'llanma berish tartibini belgilaydi

---

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish  
to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasiga asosan davlat va  
xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati  
organlari o'z vakolatlari doirasida vakolatlarga ega.

Mehnat huquqining mehnatni muhofaza qilish instituti juda  
murakkab institut hisoblanadi. Chunki unda inson hayoti va  
sog'lig'ini muhofaza qilish masalasi muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish faoliyatini amalga  
oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan or- tiq bo'lgan  
har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya  
etilishini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga  
oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil  
etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli  
tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi.  
Ellikta va un- dan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan  
tashkilotda yo'l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi  
yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy  
etiladi. Mazkur mutaxassis tashkilotda xodimlar mehnatini  
muhofaza qilish, baxtsiz hodisalarни oldini olish choralarini  
ko'rish va boshqa shu kabi vazifalarni amalga oshiradi.

### **3- §. Xodimning mehnat muhofazasiga doir huquqlari va uni ro‘yobga chiqarishdagi kafolatlar**

O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofa- za qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar mehnatni muhofaza qilish sohasida bir qancha huquqlarga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 16-moddasida ko‘rsatilganidek, mehnat shartnomasi (kon- trakt)ning shartlari mehnat muhofazasiga oid qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning talablariga muvofiq bo‘li- shi shart. Bundan kelib chiqadiki, ish beruvchi xodimga mehnat shartnomasi tuzilgan zahoti munosib va xavfsiz mehnat sharoiti yaratib berishi va uning hayoti hamda sog‘lig‘ining muhofazalanganligini kafolatlashi shart. Bu ish beruvchining asosiy majburiyatlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuning 21-moddasiga muvofiq ishga qabul qilishda va boshqa ishga o‘tkazishda xodimning mehnati muhofaza qilinishga bo‘lgan huquqining kafo- latlari belgilab qo‘yilgan. Aytish joizki, mehnat shartno- masining shartlari mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, jamoa shartnomalari, shuningdek jamoa kelishuvlari va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi boshqa ichki nor- mativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Fuqarolar sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan ishga qabul qilish va xodimlarni boshqa shunday ishga o‘tkazish taqiqlanadi.

Fuqarolar sog‘lig‘i va hayotiga yuqori darajada xavf tug ‘dirishi mumkinligi oldindan ayon bo‘lgan ishga qa- bul qilish hamda xodimlarni boshqa shunday ishga o‘tka- zish chog‘ida ish beruvchi ularni bu haqida ogohlantiri- shi shart.

Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra yengilroq ishga yoki no- qulay ishlab chiqarish omillari ta’sirini istisno etadigan ishga o‘tkazishga muhtoj xodimlarni ish beruvchi ana shunday ishga

ularning roziligi bilan tibbiy xulosaga muvofiq vaqtincha yoki muddatini cheklamay o'tkazishi lozim.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan kam haq to'lanadigan ishga o'tkazishda xodimlarning av- valgi o'rtacha oylik ish haqi O'zbekiston Respublikasini- ing Mehnat kodeksida belgilangan tartibda va muddatlar- da saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»- gi Qonunining 19-moddasida voyaga yetmagan fuqaro- lar o'zlarining fiziologik xususiyatlari va sog'lig'iga mos sharoitlarda mehnat qilish huquqiga ega ekanliklari bel- gilanganligi ham mehnatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari talablariga mosdir.

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qil- ish to'g'risida»gi Qonunining 22-moddasida xodimning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari belgilan- gan.

Xodim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunining 18-moddasida xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash ko'rsatib o'tilgan. Mehnat sharoitlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigi- ena vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, ularni berish normalari, ular bilan ta'minlash tartibi va shartlari jamoa shartnomalari hamda kelishu- vlarida belgilanadi, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish be- ruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kel- ishuvga ko'ra qonun hujjatlarida belgilanadi.

Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va


zararsizlantirish ish beruvchining mablag'larini hiso- bidan amalgalash oshiriladi.

### **Fuqaro savoli:**

*Men xususiy korxonada tikuvchi bo'lib ishlayman. Bizga ajratilgan xona juda kichik, umuman ta'mirlanmagan. 2x3 xonada 8 ta tikuvchi ishlaymiz. Xonada isitish tizimi ham yo'q. Qish mavsumiga tayyor bo'lmagan ish joyida ishlashga majburnizmi?*

### **Yurist javobi:**

Mehnat kodeksining 211-moddasiga ko'ra, barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kira-di. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-sonli «Xodimlar mehnatini muhofaza qilish choratadbirlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan Ish o'rinxarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliliqi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan barcha ish o'rinxarini attestatsiya qilinishi lozim. Ish beruvchi xodimga munosib mehnat sharoiti yaratib bermagan taqdirda hamda ish o'rinxarini talabga javob bermagan holda xodimning hayoti va sog'lig'iqa tahdid solayotgan bo'lsa xodim ishini davom ettirmaslikka haqli (Mehnat kodeksining 219-moddasi).



ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan qonun hujjatlarida belgilangan taribda davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinish;

o'z ish o'rnidagi mehnat sharoitlari hamda muhofazasi mehnatni muhofaza qilishga oid talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organ tomonidan tekshirishdan o'tkazilishi uchun so'rovnama berish;

o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligi- ga chalinishi yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetishi munosabati bilan hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini ish beruvchidan undirish;

tibbiy tavsiyalarga muvofiq navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tish, ushbu tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida uning ish joyi (lavozimi) va ish haqi saqlanishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida o'z hayoti va sog'lig'i uchun xavf yuzaga kelgan taqdirda, agar shunday holatlar mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan tasdiqlansa, ishlarni bajarishni bunday xavf bartaraf etilguniga qadar rad etish;

ish beruvchining mablag'lari hisobidan mehnatning xavfsiz uslublari va usullari bo'yicha o'qish; qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiya larni olish;

o'z ish o'mida mehnat qilish uchun xavfsiz sharoitlar ta'minlanishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilayotganda va o'zi bilan sodir bo'lgan baxtsiz hodisa yoki uning kasb kasalligi tekshirilayotganda shaxsan o'zi ishtirok etish yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablar buzilganligi oqibatida ish o'rnini tugatilgan taqdirda ish beruvchining mablag'lari hisobidan qayta tayyorgarlikdan o'tish.

Xodimlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 16-moddasiga muvofiq xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish huquqi- ga ega bo'lib, ish beruvchidan o'ziga munosib mehnat sharoiti yaratib berishini talab qilishi mumkin, aks holda ishlamaslik huquqiga ham ega.

## **4- §. Xodim va ish beruvchining mehnat muhofazasiga oid majburiyatları**

O‘zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 23-moddasida ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlari va majburiyatları belgilangan.



Ish beruvchi:

har bir ish o‘rnida mehnat sharoitlarining mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo‘lishini ta’min- lashi;

binolar, inshootlar, asbob-uskunlardan foydalanish, texnologik jarayonlarni amalga oshirish chog‘ida, shun- ingdek ishlab chiqarishda xom-ashyo va materiallami qo‘llash, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish chog‘ida xodimlaming

xavfsizligini ta'minlashi;

ish o'rinalarida mehnat sharoitlarining holati, ayniqsa zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli ishlab chiqarish omillari yuzasidan nazoratni amalga oshirishi;

mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb ka-salliklari va boshqa kasalliklar xavfi mavjudligi, muayyan ish o'rinalarida va ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishning holati haqida, shuningdek shu munosabat bilan xodimlarga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar va kompen-satsiyalar, shaxsiy himoya vositalari to'g'risida xodimlar- ni o'z vaqtida xabardor qilishi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilish xizmatini va yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etishi;

xodimlarni belgilangan normalar bo'yicha sut, davo- lash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya hamda gigiena vositalari bilan ta'minlashi, shuning- dek jamoaviy himoya vositalari qo'llanilishini ta'minlashi;

xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar olishini, mehnatni muhofaza qilish mas- alalari bo'yicha o'quvdan, qayta tayyorgarlikdan o'tishini, malaka oshirishini va bilimlari tekshirilishini ta'minlashi;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quvdan o'tma- gan, yo'l-yo'riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo'ymasligi;

xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar belgila- nadigan, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqi beriladigan, nogironlar band bo'lgan zararli, xavfli va boshqacha mehnat sharoitlariga ega ish o'rinalarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish o'rinalining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasini o'tkazishi;

dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklar belgilangan tartibda o'tkazilishini tashkil etishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya et- ilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga os- hiruvchi

organlarga, shuningdek kasaba uyushmalariga va xodimlaming boshqa vakillik organlariga ularning mehnatni muhofaza qilish holati, baxtsiz hodisalarini va kasb kasalliklarini tekshirishi yuzasidan nazoratni, tek-shirishni va monitoringni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan axborot va materiallami taqdim etishi;

avariya vaziyatlarining oldini olish, bunday vaziyat-lar yuzaga kelganda xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, shu jumladan jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rishi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etili-shi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning ko‘rsatmalarini bajarishi hamda kasaba uyushmalarining va xodimlar boshqa vakillik organlarining taqdimnomalarini ko‘rib chiqishi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug‘urta qilinishini, shuningdek ish beruvchining fuqarolik javob-garligi majburiy sug‘urta qilinishini ta‘minlashi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarini va kasb kasalliklarini belgilangan tartibda tekshiruvdan o‘tkazishi, shuningdek ularning hisobini yuritishi shart.

Ish beruvchining zimmasida qonun hujjatlariga mu-vofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 24-moddasida majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq qoidalar o‘z aksini topgan. Ish beruvchi o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslarning va umumiyligi belgilangan pensiya yoshiga etgan shaxslarning va umumiyligi belgilangan tartibda dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘riklardan o‘tkazilishini tashkil etishi shart.

Tibbiy ko‘riklar tashkilotlarga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, bunday

muassasalar mavjud bo‘lмаган тақдирда esa ташкilot joylashган yerдаги hududiy davolash-profilaktika muassa- sasi tomonidan o‘tkaziladi.

Qонун hujjatlariga muvofiq majburiy tibbiy ko‘riklar- dan o‘tishi lozim bo‘lgan shaxslar boshqa ishga o‘tkazil- gan taqdirda ham tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Tibbiy ko‘riklardan o‘tilishi munosabati bilan xodim- lar chiqimdar bo‘lmaydilar.

Xodimlar tibbiy ko‘riklardan o‘tishdan bo‘yin tovslash- ga haqli emas. Xodimlar tibbiy ko‘riklardan o‘tishdan bo‘yin tovlagan yoki ular o‘tkazilgan tekshiruvlar nati- jalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tav- siyalarni bajarmagan taqdirda ish beruvchi ularni ishga qo ‘ymaslikka haqli.

Agar xodim o‘z sog‘lig‘ining holati mehnat sharoit- lari bilan bog‘liq holda yomonlashgan deb hisoblasa, u navbatdan tashqari tibbiy ko‘rik o‘tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Tibbiy ko‘riklami o‘tkazish vaqtida xodimning ish joyi (lavozimi) va o‘rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qil- ish to‘g‘risida»gi Qонuning 25-moddasida xodimlarga mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish va ularni o‘qitish bilan bog‘liq qoidalar belgilangan.

Ish beruvchi barcha yangi ishga kirayotgan, shun- ingdek boshqa ishga o‘tkazilayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullarini hamda baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishga o‘qitishni tashkil etishi shart.

Xavfliliги yuqori bo‘lgan ishlab chiqarishga ish- ga kirayotgan yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kirayotgan xodimlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullariga dastlabki tarzda tayyorlash, kasb bo‘yicha imtihonlar topshirgan holda bir oy mobaynida stajirovka va so‘ngra mehnatni muhofaza qilish mas- alalari bo‘yicha davriy attestatsiya o‘tkaziladi.

Tashkilotlaming xodimlari, shu jumladan rahbarlari o‘z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddat- larda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘qu- vdan o‘tishi, yo‘l-yo‘riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o‘tishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan tartib- da o‘quvdan o‘tmagan, yo‘l-yo‘riqlar olmagan va bilim- lari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo‘yish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 212-moddasiga muvofiq, xodim mehnatni muhofaza qil- ish normalariga, qoida va yo‘riqnomalariga, shuningdek ma’muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi far-moyishlariga rioya qilishi, olingen shaxsiy himoya vosi- talaridan foydalanishi, insonlar hayoti va sog‘lig‘iga bev- osita xavf soladigan har qanday holat haqida, shuningdek ish jarayonida yoki u bilan bog‘liq holda sodir bo‘lgan har qanday baxtsiz hodisa haqida o‘zining bevosita rah- barini (brigadir, ustasi, uchastka boshlig‘i va boshqalar- ni) darhol xabardor qilishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish jarayonida xodimlar ish beruvchi tomonidan o‘rnatilgan barcha talablarga rioya qilishlari talab etiladi. Bunda ular sanitariya-gigiena qoi- dalariga, texnika- xavfsizligi qoidalariiga rioya qilishlari lozim. Agar xodimlar ish beruvchi tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilmagan va hayoti hamda sog‘lig‘iga atayin shikast etishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa ish beruvchi- lar vujudga kelishi mumkin bo‘lgan javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mehnatni muhofaza qilish xodimlaming hayoti va sog‘lig‘i bilan bevosita bog‘liq ekanligi uchun ish beru- vchilar har qanday vaziyatda o‘z zimmasiga xodimlarn- ing hayoti va sog‘lig‘ini ta‘minlash majburiyatini oladi- lar. Ushbu majburiyatni bajarish jarayonida xodimlarning qonuniy talablarini bajarishlari shart hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, mehnat shartnomasi asosida o‘z mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan xodimlar ish beruvchi- dan o‘zlarining mehnat faoliyati davomida hayoti va sog‘lig‘ini ta‘minlashni talab etishlari mumkin. Bu esa ularning

eng muhim huquqidir.

## Glossary

**Zararli ishlab chiqarish omili** — ta'siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili.

**Ish o'rni** — mehnat faoliyati jarayonida xodimning doimiy yoki vaqtinchalik bo'lish joyi.

**Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa** — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtida mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobili- yatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa.

**Mehnat sharoitlari** — mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi.

**Mehnatni muhofaza qilish** — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilak-tika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi.

**Mehnatda mayib bo'lish** — ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qibiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi.

**Noqulay ishlab chiqarish omillari** — zararli ishlab chiqarish omilining va (yoki) xavfli ishlab chiqarish om- ilining mavjudligi.

**Xavfli ishlab chiqarish omili** — ta'siri xodimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili.

**Shaxsiy himoya vositalari** — xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining

oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalanish uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar.

### **Mavzu bo‘yicha nazorat savollari**

1. Mehnat qonunchiligidagi korxonada xodimlar mehna- tini muhofaza qilish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar amalgamoshirilishi nazarda tutilgan?
2. Mehnat muhofazasiga bo‘lgan huquqni ifodasi si- fatida xodimning o‘z hayoti yoki sog‘lig‘iga tahdid so- layotgan ishni bajarishni rad etish huquqini tushuntiring. Nogironlar mehnatini muhofaza qilishning o‘ziga xoslig- ini izohlang.
3. Mehnatni muhofaza qilish choralaridan biri sifa- tida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish maqsadini tushuntiring. Majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart bo‘lgan xodimlar doirasini aniqlang. Tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tort- ganlikning huquqiy oqibatini tushuntiring.
4. Mehnatni muhofaza qilishda davlat vakolatlari or- ganlari va ularning bu sohadagi vazifalarini aytib bering.
5. Korxonada mehnatni muhofaza qilish tartibini bel- gilab beruvchi nizom loyihasini tayyorlang va mazkur loyihsada mehnatni muhofaza qilish uchun ish beruvchin- ing majburiyatlarini va javobgarligini aniq ko‘rsatib bering.
6. Korxonaning ish o‘rinlari va mehnat sharoitlari- ni attestatsiyadan o‘tkazish bosqichlarini aniq ko‘rsatgan holda tegishli hujjatlar loyihsalarini tayyorlang (ish beruvchi buyrug‘i loyihasi, shartnoma loyihasi, dalolat- nomalarning loyihalari).
7. Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun ish beruvchi tomonidan ko‘riladigan chora-tadbirlarni ko‘rsat- gan holda buyruq loyihasini tayyorlang.
8. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarini rasmiylashtirishda zarur bo‘ladigan hujjatlar loyihsalarini tayyorlang.

## **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. «Kashmir» MCHJda yuk tashuvchi lavozimida ish- lovchi Turg‘unov yuklarning kundan-kunga og‘irligi ortib borayotganligi va bu yuk tashish uchun maxsus moslama va vositalar talab qilishini aytib ish beruvchiga murojaat qildi. Ish beruvchi Alimov esa unga 20 kilogrammga- cha bo‘lgan yuklarni bir odam bemalol tashishi mumkin ekanligini ta’kidladi. Turg‘unov o‘zining kasal ekanligi va unga 5 kilogrammdan ortiq yuk tashish mumkin emaslig- ini ma'lum qildi. Alimov Turg‘unovning arzini eshitishni ham istamadi, agar istamasa, ishdan bo‘sashi mumkin ekanligi, uning o‘rniga ishlashni xohlovchilar ko‘p ekan- ligini aytди. Ish beruvchining bunday harakatlaridan noro- zi bo‘lgan xodim Turg‘unov Alimovning ustidan tuman prokuraturasiga murojaat qildi va ish beruvchi uning ha- yoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilmayotganligini va unga ishslash uchun yaxshi mehnat sharoiti yaratib bermayot- ganligini ma'lum qildi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

2. «Best» yonilg‘i quyish shahobchasida yonilg‘i quyuvchi bo‘lib ishlovchi Kamilov mijozlarning biri bilan gap talashib qoldi. Shu paytda mijoz unga yonilg‘i quyu- vchi moslama bilan og‘ir tan jarohati yetkazdi va hodisa joyidan qochib ketdi. Boshqalar bu vaziyatni ko‘rganlari- da Kamilov yonilg‘i quyuvchi moslamaga o‘ralib xushsiz yotgan edi. Ushbu hodisa guvohlar ishtirokida va Ichki ishlar xodimlari bilan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa sifatida rasmiylashtirilib, ish beruvchidan Kamilovga pul to‘lash talab etildi.

Ish beruvchi mazkur vaziyatda aybi yo‘q ekanligini ta’kidladi va pul to‘lashdan bo‘yin tovladi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## XI MAVZU. MEHNAT NIZOLARI

*Mehnat nizolari tushunchasi va uning tasnifi. Mehnat nizolarini ko‘rish va hal qilish prinsiplari. Yakka mehnat nizolari. Jamoalarga doir mehnat nizolari. Mehnat nizolari komissiyasi. Mehnat nizolari komissiyasi tarkibi. Mehnat nizolari komissiyasida ish ko‘rish tartibi. Mehnat nizolarining taalluqliligi va sudlovga tegishliligi. Yakka mehnat nizolari- ni sudda ko‘rish tartibi Mehnatga oid nizoli ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar. Mehnatga oid nizoli ishlarda muddatlar. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarorlarini ijrosi.*

### **1-§. Mehnat nizolari tushunchasi va uning tasnifi**

Mehnat nizolarini ko‘rish va hal qilish xodimlarning mehnat huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qil- ishning muhim usullaridandir.

Taraflar o‘rtasidagi kelishmovchilik asosidagi nizo- li holat mehnat nizosi vujudga kelguniga qadar paydo bo‘ladi. Kelishmovchiliklarning predmeti yangi mehnat shartlarini belgilash yoki mavjud shartlarini o‘zgartirish masalalari, mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa nor- mativ hujjatlar, jamoa shartnomasi hamda mehnatga oid boshqa shartnomalarni qo‘llashga oid masalalar bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda mehnat nizolarini kelib chiqishiga mehnatga oid huquqbazarliklar sabab bo‘ladi.

Kelib chiqqan kelishmovchilikni xodim o‘zi yoki o‘zining vakili orqali ish beruvchi bilan olib borilgan muzokaralar jarayonida hal qilishi mumkin. Agar mu- zokaralar jarayonida hal qila olmasa yoki muzokaralar bo‘lib o‘tmasa, mehnatga oid kelishmovchiliklarni yu- risdiksiya organida ko‘rib chiqish uchun beriladi. Aynan kelib chiqqan kelishmovchiliklarni hal qilish uchun yu- risdiksiya organiga murojaat qilingan taqdirdagina mehnat nizosi vujudga keladi.

Mehnat nizolari yuridik ziddiyatlarning alohida turi sifatida o‘ziga xos tuzilishga ega. Mehnat nizolari tuzil- ishining asosiy element(unsur)lari bo‘lib quyidagilar his- oblanadi:

- mehnat nizolarining taraf(subyekt)lari
- mehnat nizolarining obyektlari
- mehnat nizolarining predmeti
- mehnat nizosining subyektiv tomoni
- mehnat nizosining obyektiv tomoni.

#### **Mehnat nizolari tuzilishining asosiy element(unsur)lari**

V _____	I _____			
mehnat nizolarining taraf (sub- yekt)lari	mehnat nizola- rining obyektlari	mehnat nizolari- ning predmeti	mehnat nizosining subyektiv tomonи	mehnat nizosining obyektiv tomonи

Mehnat nizolarining *taraf(subyekt)lari* bo‘lib, mehnat nizosining turidan yoki uning holatlaridan kelib chiqib, shaxsan o‘zları yoxud o‘zlarining vakillari (kasaba organ- lari, tashkilotning rahbarlari) orqali xodim va ish beru- vchilar bo‘lishi mumkin.

Mehnat nizolarining *obyektlari* sifatida xodim va ish beruvchining manfaatlarini ta‘minlovchi mehnat munosa- batlarini normal amalga oshirilishi tan olinadi.

Mehnat nizosining subyektiv tomoni uning ichki to- monlarini aks ettiradi, ya’ni u taraflarning o‘zaro mehnat munosabatlarini amal qilishiga to‘sqinlik qilgan hodisa va harakatlarga nisbatan taraflarning motiv va maqsadla- rini qamrab oladi. Xodim va ish beruvchining subyektiv mehnat huquqi va yuridik majburiyatlari aybli harakat (masalan, xodim o‘ziga o‘zi chekish uchun tanaffus e’lon qilib ish joyida 15 minut davomida bo‘limganligi uchun unga hayfsan e’lon qilingan) yoxud aybsiz harakat (ma- salan, xodim hafta davomida kasalligi tufayli ish joy- ida bo‘limganligini vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi bilan tasdiqlangan, lekin ish beruvchi u

bilan tuzilgan mehnat shartnomasini progul uchun bekor qil-gan) yoxud taraflardan birining huquq va majburiyatlarini tushunmaganligi, harakat(harakatsizligi)ni noto‘g‘ri qabul qilganligi natijasida baxsli holat vujudga kelishi mumkin.

Mehnat nizosining *obyektiv tomoni* mehnat nizosining tashqi tomonini aks ettiradi, ya’ni taraflarning ma'lum joyda, ma'lum vaqtida mehnat huquqlarini, majburiyatla- rini va manfaatlarini amalga oshirishi uchun to‘sinqilik qilgan yuridik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan qilmish- larini qamrab oladi.

Mehnat nizolarini mazmuniga, subyektlariga va obyektiga ko‘ra tasniflash mumkin.

Mehnat nizolari *mazmuniga* ko‘ra ikki turga ajratila- di: da'voli va da'vosiz nizolar.

### **Mehnat nizolari**

#### **mazmuniga ko‘ra**

da'voli                          [ da'vosiz

Da'voli mehnat nizolarini predmetini xodimlar mehnat huquqlarini tan olish yoki uni tiklash tashkil etadi. Xod- imning bunday mehnat huquqi avval boshdan qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek jamoa shartnomasi yoki kelishuvi va mehnat shartnomasi bilan belgilangan bo‘ladi. Bunday hollarda xodim o‘z mehnat huquqlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatla- rini qayta tiklashni talab qiladi (masalan, mehnat shart- nomasi noqonuniy asosda bekor qilinganda xodim qayta ishga tiklash to‘g‘risidagi da'vo bilan murojaat qiladi).

Da'vosiz mehnat nizolari ish beruvchi bilan korx- onadagi kasaba uyushma qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari o‘rtasida mehnat shartlarini o‘rnatish yoki o‘zgartirish kabi masalalarda namoyon bo‘ladi. Odadta, bu turkumdag‘i nizolar tegishli qonunlar yoki boshqa ayrim normativ huquqiy hujjatlar bilan hal etilmagan masalalar yuzasidan kelib chiqadi (masalan, korxonada yangi ishlab chiqarish normasini belgilash

haqidagi nizolar).

Mehnat nizolarini subyektiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:


- 1) yakka mehnat nizolari
- 2) jamoalarga doir mehnat nizolari.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 259-moddasiga muvofiq, yakka mehnat nizolari — bu ish beruvchi va xodim o‘rtasida mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo‘llanish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklardir. Bunday hollarda ni-zoning xodim manfaatini ifoda etuvchi tarafi bo‘lib xod-imlarning vakillik organi ishtirok etishi mumkin.

Mehnat kodeksining 218-moddasida: Jamoalarga doir mehnat nizolari (ziddiyatlari) — bu ish beruvchi (ish beruvchilar birlashmasi) va xodimlar jamoalari (xod-imlarning vakillik organlari) o‘rtasida mehnatning yangi shartlarini belgilash va mavjud shartlarini o‘zgartirish, jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzish, o‘zgartirish va bajarish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklardir, ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Mehnatning yangi shartlarini belgilash yoki mavjud shartlarini o‘zgartirish xususidagi jamoalarga doir mehnat nizolarini hal etish tartibi qonun bilan belgilab qo‘yiladi.

Mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni, shu jumladan ish beruvchi va kasaba uyush-masi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik or-gani o‘rtasidagi kelishuvga binoan qabul qilingan jamoa shartnomalari, kelishuvlari, lokal hujjatlarni qo‘llanish xususidagi jamoalarga doir mehnat nizolari sud tartibida ko‘rib chiqilishi lozim. Ish beruvchi va kasaba uyush-masi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o‘rtasidagi kelishuvga binoan qabul qilingan jamoa shart-nomalari, kelishuvlari va boshqa lokal hujjatlarni qo‘lla-nish xususidagi jamoalarga doir mehnat nizolarini sudlar taraflardan birining arizasi asosida ko‘rib chiqadilar.



## 2-§. Mehnat nizolarini ko'rish va hal qilish prinsiplari

*Mehnat nizolarini ko'rish va hal qilish prinsiplari*- bu ushbu nizolarni ko'rish va hal qilish jarayonining asosida yotuvchi qoidalardir.

Qonunchilikni hamda mehnat nizolarini ko'rish va hal qilish jarayonini tahlili mehnat nizolarini ko'rish va hal qilish prinsiplarining quyidagi turlarini ajratish imkoniyati beradi:

- a) xodimlar mehnat huquqlarini himoyasini ta'minlash;
- b) qonun oldida nizoli munosabat taraflarining teng huquqliliginini ta'minlash;
- v) xodim vakillarining ishtirokini ta'minlash (demokraticheskiy prinsipi);
- g) mehnat nizolarini ko'ruchchi organlarga murojaat qilish huquqining ta'minlanganligi;
- d) mehnat nizolarini ko'rishda qonuniylikni ta'minlanganligi;
- e) mehnat nizolarini ko'rishda oshkoraliylikni ta'minlanganligi;
- j) ish materiallарини va dalillarni tekshirishning obyekti va to'liqliliginini ta'minlash;
- z) bechiqimlik;
- i) nizoni ko'rishning tezkorligi;

Xodimlar mehnat huquqlarini himoyasini ta'minlash prinsipi deganda, mehnat nizolarini hal qilish uchun vakolat berilgan organlarga qonunga muvofiq holda huquqning buzilishini to'xtatish va uni tiklash, shuningdek ish beruvchini qonunga roya qilishini talab qilish huquqi va majburiyati tushuniladi.

*Qonun oldida nizoli munosabat taraflarining teng huquqliliginini ta'minlash prinsipi* - xodim (xodimlar) ham, ish

beruvchi (ish beruvchilar) ham teng ravishda amaldagi qonunlarga rioya qilishga majbur ekanligini, mehnat nizolarini ko'rurvchi organlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni har ikkala tomon uchun ham bajarili- shi majburiy ekanligini anglatadi.

*Xodim vakillarining ishtirokini ta'minlash (demokra- tizm) prinsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi:*

*birinchidan, mehnat nizolarini ko'rish komissiyasi tuzilishining o'zi demokratik prinsiplarga tayanadi, ya'ni mehnat nizolari komissiyalari ish beruvchi va kasaba uy- ushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik or- gani tomonidan tenglik asosida tuziladi (O'zR MK ning 262-moddasi);*

*ikkinchidan, kasaba uyushmalari xodimning manfaat- larini ko'zlagan holda uning nomidan mehnat nizolari- ni hal qilishda ishtirok qiladi (mehnat nizolarini ko'rish komissiyasida, sudda, yarashtiruvchi organlarda).*

*Mehnat nizolarini ko'rurvchi organlarga murojaat qil- ish huquqining ta'minlanganligi prinsipi - avvalan bor Konstitutsiyada, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunda, Fuqa- rolik protsessual qonunida, Mehnat kodeksida huquqlari buzilgan shaxs ushbu huquqni tiklash uchun sud organ- lariga yoki mehnat nizolarini hal qiluvchi boshqa or- ganlarga murojaat qilish huquqining kafolatlanganligi bi- lan ta'minlanadi. Qolaversa, mehnat nizolarini ko'rurvchi komissiyaning xodim ishlab turgan korxonaning o'zida tashkil etilishi bilan ham ta'minlanadi.*

*Mehnat nizolarini ko'rishda qonuniylikni ta'minlan- ganligi prinsipi-mehnat nizolarin ko'rib hal qilish ja- rayonida mehnat nizolarini ko'rurvchi organlar faqatgina amaldagi qonunlarga, xususan mehnat qonunchiligiga asoslangan holda qarorlarni qabul qilishi, hech qanday o'zga ishonch, tuyg'u hissiyotlarga berilmasdan faqatgina qonunga bo'ysungan holda nizolarni hal qilishi lozimligi bilan ta'minlanadi.*

*Mehnat nizolarini ko'rishda oshkoraliqni ta'minlan- ganligi prinsipi-mehnat nizolarini ko'rishda majlislarni ochiq o'tkazilishi, unda ishtirok etish istagini bildirgan xodimlar, ularning vakillari ishtirok etishi mumkinligi- ni bildiradi.*

(Bundan istisnoli holat qonunda belgilangan hollarda davlat siri, tijorat siri bog‘liq ishlar).

*Ish materiallarini va dalillarni tekshirishning obyek- tivligi va to‘lqliligini ta‘minlash prinsipi-bu prinsip- ga muvofiq mehnat nizolarini ko‘rvuchi organ nizoni ko‘rishda ish materiallari va keltirilgan dalillarni har tomonlama to‘liq tahvil qilish asosida, ularni qonunga va boshqa normativ hujjalarga tayangan holda xolisona ko‘rib hal qilishi lozimligini anglatadi.*

*Bechiqimlilik prinsipi-xodim mehnat nizolarini hal qilish uchun mehnat nizolarini hal qiluvchi organlarga murojaat qilganda ushbu organlarning qilgan xizmat- lari uchun hech qanday haq to‘lanmasligi qonunda bel- gilangan. Shu bilan birga mehnat munosabatlardan ke- lib chiqqan nizolarni sudda ko‘rish uchun xodim da‘vo arizasi kiritgan taqdirda davlat boji va boshqa sud xara- jatlarini to‘lashdan ozod etilishi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 329-moddasida ko‘zda tutilgan. Kasa- ba uyushmalarining a’zolari bo‘lgan xodimning huquqlarini himoya qilib kasaba uyushmasi mehnat nizolarini hal qiluvchi organlarda xodimning vakili sifatida ishtirok et- ganda xodim unga haq to‘lamaydi.*

*Nizoni ko‘rishning tezkorligi prinsipiga asosan-mehnat nizolarini ko‘rvuchi organlar tomonidan nizolarni ko‘rib hal qilishda qonunda belgilangan muddatlarga amal qilin- ishi lozim. Mehnat nizolari komissiyasi mehnat nizosini ariza berilgan kundan e’tiboran o‘n kun muddat ichida ko‘rib chiqishi, komissiya qarori nusxasini qaror qa- bul qilingan kundan e’tiboran uch kun ichida xodimga , ish beruvchiga va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga topshirilishi, qa- ror ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan o‘n kun- lik muddat o‘tgandan keyin uch kun ichida ish beruvchi tomonidan bajarilishi shart ekanligi belgilangan. Mehnat nizolari komissiyasining qarori ustidan manfaatdor xodim yoki ish beruvchi komissiya qarorining nusxasi topshiril- gan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida tuman (shahar) sudiga shikoyat qilishi mumkin. Bu prinsipning asosiy maqsadi buzilgan huquqlarni tez, sansolarliklarsiz, o‘z vaqtida tiklanishini nazarda*

tutadi. Yuqorida qayd etilgan va qonunda belgilangan boshqa muddatlarga riosa qilmaslik muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

*Mehnat nizolari bo'yicha qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash prinsipi.* Mehnat nizolari bo'yicha qabul qilingan qarorlar asosan xodim bilan ish beruvchiga tegishli bo'lib, buzilgan huquq yoki qonuniy manfaatlarning tiklanishiga xizmat qiladi. Mehnat nizolari bo'yicha qabul qilingan qarorlar taraflar uchun qonuniy kuchga ega bo'lib, ular tomonidan so'zsiz bajarilishi lozim. Mehnat nizolari sud tomonidan ko'rilgan taqdirda sud tomonidan qabul qilingan qaror O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. Shuning uchun ham bunday chiqarilgan sud qarori qonun darajasida bo'lib, u barcha tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir (O'zbekiston Respublikasi FKning 16-moddasasi). Boshqa davlat idorasi sudning chiqargan qarorini asossiz deb, o'zining qarorini qabul qilish vakolatiga ega emas. Sudning tegishli hujjatidan norozi tomon qonunda belgilangan tartibda yuqori turu- vchi sud instansiyasiga shikoyat keltirishi, prokuror esa protest keltirishi mumkin.

### **3-        §. Mehnat nizolarining taalluqliligi                 va sudlovga tegishliligi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va unga muvofiq qabul qilingan qonunlarimizga muvofiq, har bir shaxsga o'z huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarni himoya qilish huquqi kafolatlangan. Xususan, Mehnat kodeksining 8-moddasiga ko'ra, har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish mehnat to'g'risi- dagi qonun hujjatlariga riosa qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruchchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat nizolarni ko'rib hal etish vakolati qonunchiligidan muvofiq bir qator organlar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, nizoli munosabatning xususiyatidan kelib chiqib, ularning qaysi organ tomonidan ko'rib chiqilishi- ni, ya'ni nizoning taalluqliligini tez va to'g'ri belgilanishi, vaqtini va mablag'ni

tejalishiga, nizoni o‘z vaqtida ko‘rilib, qonuniylikni qaror topishiga xizmat qiladi.

Taalluqlilik mehnat nizolarining subyektlari, maz- muni va ularning turlari bo‘yicha belgilanadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, har bir organ o‘z vakolatiga taalluq- li bo‘lgan nizolarnigina ko‘rib hal etish vakolatiga ega. Shuning uchun ham mehnat nizolari yuzasidan kelib chiqqan da‘volar bo‘yicha uning taalluqliliga qarab te- gishli organga murojaat qilinishi lozim.

Mehnat kodeksiga muvofiq mehnat nizolari quyidagi organlar:

korxona va tashkilotlarda tashkil etiladigan mehnat nizolari komissiyalari;

fflbevosita fuqarolik ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sndlari, fflshuningdek mehnatning shartlarini belgilash mas- alalariga doir yakka mehnat nizolari ish beruvchi va te- gishli kasaba uyushmasi organi yoki xodimlarning bosh- qa vakillik organi tomonidan ko‘rib hal etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga asosan, mansabdor shaxslar tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to‘lash to‘g‘risidagi mehnat nizolari, agar mansabdor shaxslar yetkazgan zarar xo‘jalik nizosini ko‘rib chiqish paytida aniqlangan bo‘lsa, iqtisodiy sud tomonidan ham ko‘rib chiqiladi.

Xodim mehnat nizosini hal qilish uchun o‘z xohishi- ga ko‘ra, mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqlidir.

Mazkur xolatlarda nizolarni ko‘rib hal qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga yoxud Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq amalga oshirila- di.

Mehnat nizoli ishlarining sudlovlligini aniqlash bir- inchi instansiya sudining qaysi birida mazkur nizo hal qilinishini aniqlash demakdir. Umumiy qoida bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha arizalar javobgarning doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joydagi sudga beriladi.

Tashkilotlarga nisbatan ariza ularning organlari joy- lashgan

hududdagi sudga beriladi (FPKning 145-modda- si). Mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning aksariyati (masalan, ishga tiklash, avval- gi ish joyiga o'tkazish, mehnat shartnomasini bekor qil- ish asosini o'zgartirish, mehnatga haq to'lash to'g'risidagi nizoli ishlar) javobgar ish beruvchi joylashgan joyidagi sndlarda qo'zg'atiladi. Lekin xodimlar tomonidan yetka- zilgan zararni undirish to'g'risidagi da'volar bilan korxo- na joylashgan sudga murojaat qilish mumkinligini qonun istesno qilmaydi. Darhaqiqat, FPKning 241-moddasiga muvofiq, fuqaroning yoki yuridik shaxsning molmulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo- lar zarar yetkazilgan joyda ham taqdim qilinishi mumkinligi mazkur nizoli ishlar uchun da'vogarning tanlashi bo'yicha (muqobil) sudlovlilik joriy qilinganligidan dalo- lat beradi. Shuningdek, FPKning 241-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, o'z mehnat vazifalarini bajarishi munos- abati bilan xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganlik yoxud boquvchisi ish bilan bog'liq holda vafot etganli- gi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volarni da'vogar o'zi yashab turgan joyda ham taqdim etishi mumkin.

#### **4- §. Mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasida ko'rish**

Xodim va ish beruvchi o'rtasida kelishmovchiliklar vujudga kelganda iloji boricha taraflar o'rtasida mustaqil ravishda hal qilinishi erishilgani ma'qul. Agar xodim ke- lishmovchilikni mustaqil ravishda yoki kasaba uyushma- si qo'mitasi yoxud xodimlarning boshqa vakillik organi ishtirokida ish beruvchi bilan bevosita olib borgan muzo- karalarida hal eta olmagan bo'lsa, mehnat nizosi mehnat nizolari komissiyasida ko'rib chiqiladi.

Mehnat nizolari komissiyalari, odatda jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik or- gani o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, korxonalarda ish be- ruvchi va

kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan tenglik asosida tuziladi.

Komissiyaga kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organidan ajratilgan a’zolar te-gishli organning qarori bilan, ish beruvchining vakili esa, uning buyrug‘i bilan tasdiqlanadilar.

Mehnat nizolari komissiyalarining miqdoriy tarkibi va vakolat muddati jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining kelishuviga binoan belgilanadi.

Mehnat nizolari komissiyasi mehnat nizosini ariza berilgan kundan e’tiboran o’n kun muddat ichida ko‘rib chiqishi shart. Nizo ariza bergen xodimning ishtirokida ko‘riladi. Xodimning ishtirokisiz nizoni ko‘rib chiqishga uning yozma arizasi bo‘lgan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi. Agar xodim uzsiz sabab bilan komissiya majlisiga kel-masa, mazkur arizani ko‘rib chiqishni kun tartibidan olib tashlash xususida qaror qabul qilinishi mumkin. Lekin bu holatda xodimni mehnat nizolari komissiyasiga takroran ariza bilan murojaat etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Xodim, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi mehnat nizosi ko‘rib chiqil-ishiда ishtirok etish uchun advokat taklif qilish huquqiga ega.

Mehnat nizolari komissiyasi majlisida komissiyaning ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillaridan iborat teng miqdordagi a’zolari ishtirok etishlari kerak.

Mehnat nizolari komissiyasi majlisga guvohlarni chaqirtirish, mutaxassislarni taklif qilish, ish beruvchidan zarur hisob-kitoblar va hujjatlar taqdim etishini talab qilish huquqiga ega.

Mehnat nizolari komissiyasining har bir majlisida raislik vazifasini ish beruvchining va kasaba uyushmasi qo‘mitasining yoki xodimlar boshqa vakillik organining vakillari navbatma-navbat bajaradilar. Bunda bir ma-jlisning o‘zida raislik va kotiblik vazifasini bir tarafning vakillari bajarishi mumkin emas.

Komissiyaning har bir majlisida taraflar tomonidan keyingi majlisning raisi va kotibi tayinlanadi, ularga ma-jlisni tayyorlash va chaqirish vazifasi yuklatiladi.

Mehnat nizolari komissiyasining majlisida bayonnomalar yuritiladi.

Mehnat nizolari komissiyasining qarori ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlar boshqa vakillik organining vakillari o'rtaсидаги kelishuvga binoan qabul qilinadi.

Komissiyaning qarori dalillar bilan isbotlangan hamda mehnat to'g'risidagi qonunlar, normativ hujjatlar va mehnat shartnomasiga asoslangan bo'lishi kerak.

Komissiyaning pul undirish talablariga oid qarorida xodimga tegishli summa aniq ko'rsatilishi lozim.

Qaror majlis raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. U majburiy kuchga ega bo'lib, biron bir tarzda tasdiqlanmaydi.

Komissiya qarorining nusxasi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida xodimga, ish beruvchiga va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga topshiriladi.

Qonunda mehnat nizolari komissiyasining qarorini bajarilishi ta'minlangan bo'lib, muayyan qaror ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan o'n kunlik muddat o'tgandan keyin uch kun ichida ish beruvchi tomonidan bajarilishi kerak.

Basharti ish beruvchi belgilangan muddat ichida komissiya qarorini bajarmasa, mehnat nizolari komissiya-si tomonidan xodimga ijro varaqasi kuchiga ega bo'lgan guvohnoma beriladi. Agar xodim yoki ish beruvchi belgilangan muddat ichida tuman (shahar) sudiga mehnat nizosini hal etish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etsa, guvohnoma berilmaydi.

Mehnat nizolari komissiyasi bergen va olinganidan ke-yin ko'pi bilan uch oy ichida tuman (shahar) sudiga taqdim etilgan guvohnoma asosida sud ijrochisi mehnat nizolari komissiyasining qarorini majburiy tarzda ijro ettiradi.

«Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, mehnat nizolari komissiyasining qarorlari ijro etilishi shart bo'lgan sud hujjatlari

qatorida sanaladi. Mehnat nizolari komissiyas- ining o‘z qarorlari asosida beriladigan guvohnoma ham ijro hujjatiga tenglashtiriladi.

## **5- § Yakka mehnat nizolarini sudda ko‘rish tartibi**

Mehnat nizolarini hal etuvchi organlar tizimida sud- lar alohida o‘ringa ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq sud- lar zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifa - fuqarolarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Aynan ushbu vazifalarni amalgalashishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida 2018 yil 22 yanvarda qabul qilinib, 2018 yil 1 apreldan kuch- ga kiritilgan yangi tahrirdagi Fuqarolik protsessual kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi PF-4850-sonli «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinlikla- rini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF- 4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2017 yil 27- fevraldagi PF-4966-sonli «O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi- da»gi Farmonlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchay- tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo‘nalishlar bel- gilab berildi:

fflsud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'min- lash;

fflfuqarolaming huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

I Hodil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Mazkur qadamlar, o‘z navbatida, mehnat munosabat- larida

yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklar va nizolarni odillik va shaffoflik prinsiplari asosida ko‘rib chiqilishi va haqqoniy qaror qabul qilinishiga xi- zmat qilib kelmoqda.

Mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni ko‘rib hal qilish O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuniga va Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida *fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tizimiga*:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (sha- har) sudlari kiradi.

Sudlarda ko‘riladigan yakka mehnat nizolarini ikki guruhga ajratiladi.

*Birinchi guruh nizolarga* MKning 268-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarning, ya’ni:

- 1) xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning bosh- qa vakillik organi;
- 2) davlat mehnat huquq inspektori;
- 3) ish beruvchi, mehnat nizolari komissiyasining qa- roriga rozi bo‘lmagan taqdirda, shuningdek unga xodim tomonidan yetkazilgan zararni qoplash haqidagi nizolar bo‘yicha;
- 4) prokurorning da’vo arizalari bo‘yicha ko‘riladigan nizolar kiradi.

*Ikkinci guruh nizolarni* bevosita sud organlarida ko‘riladigan, ya’ni qonunga muvofiq *faqat sudga taalluq- li bo‘lgan nizolar* tashkil qiladi.

Bu turkumdagи nizolar O‘zbekiston Respublikasining MK 269-moddasida aniq belgilab qo‘yilgan:

- 1) agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komis- siyasi tuzilmagan bo‘lsa;
- 2) mehnat shartnomasini bekor qilish asoslardan qat‘i nazar, ishga tiklash to‘g‘risida, mehnat shartnomasini be- kor qilish

vaqtı va asoslari ta'rifini o'zgartirish to'g'risi- da, majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ishni ba- jargan vaqt uchun haq to'lashga doir bo'lsa;

3) ular xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararning to'lanishi haqida bo'lsa;

4) mehnat vazifalarini bajarayotganda xodimning sog'lig'i shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni (shu jumladan ma'naviy zararni) yoki uning mol-mulkiga yet- kazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to'lanishi haqida bo'lsa;

5) ular Mehnat Kodeksi 78-moddasining ikkin- chi qismida nazarda tutilgan hollarda ishga qabul qil- ish rad etilganligi haqida bo'lsa (MK 6-moddasini 1-qismining talablari buzilishi; ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik; ish beru- vchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo'lган shaxslarni, ya'ni belgilangan minimal ish joylari hisobidan (kvota) ishga yuborilgan shaxslarni, homilador ayollarni va 3 yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarni ularning homiladorligi yoki bolasi borligini vaj qilib ish- ga qabul qilmaslik);

6) ular ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan bo'lsa.

Yuqorida sanab o'tilgan mehnat nizolaridan boshqa nizolar ham xodimning xohishiga ko'ra bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'riliishi mumkin.

Sud mehnat nizosini mehnat nizolari komissiyasida ko'rilmagan degan vaj bilan xodimning arizasini ko'rib chiqishni rad etishiga yo'l qo'yilmaydi.

## 5- **§. Mehnatga oid nizoli ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar**

Mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiq- adigan nizoli ishlarda korxona, tashkilot, muassasa va xodimlar - taraflar hisoblanib, ular o'rtasidagi kelish- movchiliklar yuqoridagi paragrafda ko'rib chiqqani- mizdek, taalluqlilik qoidalariga asosan sudlarda ko'rish uchun tegishli bo'ladi.

Sudda buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni hi- moya qilish maqsadida da'vo arizasi taqdim etish huquqi- ni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri protsessu- al harakatlarni amalga oshirishga qobiliyatli bo'lish, ya'ni protsessual muomala layoqatiga ega bo'lish hisoblanadi.

Sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegish- lidir (FPKning 38-moddasi). Fuqaro 18 yoshga to'lgach, fuqarolik protsessida shaxsan ishtirok etishi, protsessual harakatlarni amalga oshirishi va o'ziga tegishli protsessu- al huquqlardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Voyaga yet- magan, ya'ni yoshi o'n to'rtdan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiyalar tomonidan himoya qilinadi (FP- Kning 38-moddasi).

Mazkur qoidadan istisno ravishda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ish- lar bo'yicha xodimlarning fuqarolik muomala layoqati 15 yoshdan boshlanadi. Mehnat kodeksining 77-moddasi- ga ko'ra, xodimlarning mehnat huquq layoqati umumiy qoida bo'yicha 16 yoshdan boshlanadi. Voyaga yetmagan xodim sudda boshqa turkumdag'i huquqiy munosabatlar- dan kelib chiqadigan ishlar yuzasidan protsessual mu- omala layoqatiga ega bo'lmasligi mumkin, lekin mehnat ishlari bo'yicha o'zining protsessual huquq va majburi- yatlarini to'la hajmda amalga oshirish huquqiga ega. Xususan, FPKning 38-moddasiga muvofiq, mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqi- ni yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga ye- tmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlan- adigan manfaatlарини shaxsan himoya qilish huquqiga ega ekanliklari e'tirof etiladi.

Mehnat ishlari bo'yicha sudga shaxsan murojaat qilish huquqiga yoshidan qat'i nazar barcha xodimlar haqli bo'la- di. Shunday ekan, sudya mehnat ishlari bo'yicha 18 yoshga to'Imagan xodimning da'vo arizasini FPKning 152-modasi

6- bandiga ko'ra, ya'ni ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilganligini asos qilib qabul qilishni rad eti- shi

mumkin emas.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarda boshqa turkumdag'i ishlardan farqli ravishda birgalikda ishtirok etuvchilar ko'plab uchraydi. Masalan, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda bir xil asos bilan bir necha xodimlar ishdan bo'shatilishi mumkin va ushbu xodimlar sudda sherik da'vogarlar sifatida e'tirof etiladi.

Ish beruvchilarning hamda xodimlarning mehnatga oid huquqlarini, shuningdek jamoatchilik manfaatini hi-moya qilish uchun sud boshqa shaxslarning iltimosisiz, o'z tashabbusi bilan ishda ishtirok etish uchun korxo-naning mansabdor shaxsini jalb qilish va uning zimma-siga xodimga majburiy bekor yurgan vaqt uchun ish haqi to'lashi munosabati bilan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin.

Mehnatga oid nizoli ishlarda xodimning vakili sifatida xodim ishlayotgan korxonaning kasaba uyushmasi qo'mi-tasi ishtirok etishi mazkur turkumdag'i ishlarning o'ziga xos protsessual xususiyatlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 20-moddasiga muvofiq, kasaba uyushmalari, ularning korxonadagi saylab qo'yil-adigan organlari, xodimlar tomonidan saylab qo'yiladigan organlari, ish beruvchilarning vakillik organlari mehnatga oid munosabatlarning subyektlari sifatida qatnasha oladi-lar.

Xodimning vakillik organi bo'lmish kasaba uyushmalari mehnat nizolarini ko'ruchchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilish huquqiga ega bo'lib, ushbu huquqni o'z vakillari orqali bajaradilar.

## **6- §. Mehnatga oid nizoli ishlarda muddatlar**

Mehnat munosabatlariidan kelib chiquvchi da'vo ta-lablariga nisbatan fuqarolik qonunchiligidan farq qiluvchi o'ziga xos da'vo muddatlari belgilab qo'yilganligi alohi-da ko'rsatib o'tilmog'i

lozim. Mehnat huquqlari buzilishi- dan kelib chiquvchi talablarga nisbatan o‘ziga xos da’vo muddatlarining belgilanishiga huquqlarning o‘ziga xosligi hamda qisqa muddatlar ichida himoyalanishi lozimligi, ish bo‘yicha dalil sanaluvchi axborotlarning tez yo‘qolib ketishi yoki o‘zgarishga uchrashi mumkinligi, shuningdek korxona faoliyatining uzlusizligini, faol ish qidiruvchi boshqa fuqarolarning esa bandligini ta’minalash va boshqa holatlar hisobga olingan.

*Mehnat kodeksining 270-moddasiga ko‘ra sud- ga yoki mehnat nizolari komissiyasiga murojaat etish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:*

- ishga tiklash nizolari bo‘yicha - xodimga u bi- lan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab **bir oy**;
- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan mod- diy zararni to‘lash haqidagi nizolar bo‘yicha - zarar yet- kazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo‘lgan kundan bosh- lab **bir yil**;
- boshqa mehnat nizolari bo‘yicha - xodim o‘z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan boshlab **uch oy**.

Ushbu moddada belgilangan muddatlar uzrli sabablar- ga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan taqdirda, bu muddatlar sud yoki mehnat nizolari komissiyasi tomonidan qayta tikla- nishi mumkin.

Xodimning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo‘yicha sudga murojaat qilish uchun mud- dat belgilanmaydi. Shuningdek, fuqarolik qonunchilig- ining umumiyl talablariga ko‘ra xodimga yetkazilgan ma’naviy zarar uchun (shaxsiy nomulkiy huquqlari buz- ilishi, sha’ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazilishi) tovon to‘latish haqidagi da’vo talablariga nisbatan ham da’vo muddati qo‘llanilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 163-moddasida da’vo muddati joriy qilinmaydigan ta- lablar ro‘yxati ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu ro‘yxatlar jum- lasida shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablar ham nazarda tutilgan. Ma’naviy zararni

qoplash nomoddiy boy- liklarni va nomulkiy huquqlarni himoya qilishning bir- dan-bir manbai hisoblanishi bois, Fuqarolik kodeksining 163-moddasi bиринчи qismiga muvofiq, ma'naviy zararni undirish haqidagi talablar bo'yicha da'vo muddati joriy qilinmasligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 2000 yil 28 aprel qarorida ham tushuntirishlar berib o'ti- ladi<sup>11</sup>.

Da'vo muddati o'tishning boshlanishi, to'xtatib turil- ishi, uzilib qolishi, uzrli sabab bilan o'tib ketgan da'vo muddatini qayta tiklash va huquqlarni himoya etilishiga oid fuqarolik qonunchiligidagi nazarda tutilgan norma va qoidalar mehnat nizolariga ham tadbiq qilinadi.

Mehnat nizolarining sudlovliligi fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra aniqlanadi.

Yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'volar uning mol-mulki turgan joyda yoki uning so'ng- gi yashagan joyida qo'zg'atilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo'lmagan javobgarga nisbatan da'volar O'zbekiston Respublikasida uning mol-mulki turgan joyda yoki ma'lum bo'lgan so'nggi yashash joyida qo'zg'atilishi mumkin.

### *Fuqaro savoli:*

*Turmush o'rtog'im bilan mehnat shartnomasini bekor qilishdi. Bizning fikrimizcha, bu asossiz ravishda va Mehnat kodeksining talablarini buzgan holda amalgalashirilgan. Biz sudga murojaat qilmoqchimiz va davlat boji to'g'risida ma'lumot olmoqchimiz.*

### *Yurist javobi:*

*Sizga hech qanday boj to'lashingizga to'g'ri kelmay- di. Mehnat kodeksining 277-moddasiga muvofiq, xodimlar mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha sudga murojaat qilganlarida sud xarajatlarini to'lashdan*

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 28 -aprel qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.-Toshkent: 2000. B.23.

*ozod qilinadilar.*

Mehnat nizosi yuzasidan sudga murojaat qilgan- da xodimlar sud xarajatlarini to‘lashdan ozod etiladilar. Sud xarajatlari davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlardan iboratdir.

Arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joydagi sudga beriladi. Tashkilotlarga nisbatan ariza ularning organlari joylashgan hududdagi sudga beriladi.

## **7-       §. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori va ularni ijro etish xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida», »Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi Qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlari- da har bir ish bo‘yicha sud hal qiluv qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi lozimligi qayd etiladi.

Mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqqa- digan ishlar bo‘yicha sudlar tomonidan qabul qilinadigan hal qiluv qarorlari to‘liq ravishda FPKning 249-269-mod- dalari talablariga javob berishi lozim. O‘zbekiston Res- publikasi Oliy sudi Plenumining «Sud hal qiluv qarori haqida»gi 1998 yil 17 aprel qarorida hal qiluv qarorlari- ni qabul qilishda sudyalar ishlarni qonun asosida ishning holatigi muvofiq, sudyalarga chetdan ta’sir ko‘rsatmay- digan sharoitda hal qilishlari lozimligi, FPKning 9-mod- dasidagi talablarga qat’iy rioya etishga majbur ekankliklari to‘g‘risida ko‘rsatmalar berilgan<sup>12</sup>.

Qonunchilik mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlar bo‘yicha sud hal qiluv qarorlarini ijro qilishning qator xususiyatlarini nazarda tutadi. Jumladan, xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo‘lmagan ish haqini undirib berish to‘g‘risidagi hamda mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tka- zilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash

---

<sup>12</sup> Qonun nomi bilan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Axborotnomasi. 1998. N®1-2.

to‘g‘risidagi, shun- ingdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o‘zgartirish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qaror- lari darhol ijro etiladi (FPKning 266, MKning 273-moddasi). Mazkur holatda hal qiluv qarorining darhol ijro etilishi sudning yo‘l qo‘yish huquqiga bog‘liq bo‘lmay, qonunga ko‘ra hal qiluv qarorining chiqarilishi bilan darhol ijroga qaratiladi. Boshqa hollarda esa sud agar alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko‘p zarar keltirishi mum- kin yoki ijroning bajarilishi mumkin bo‘lmay qoladi deb hisoblasa, o‘z hal qiluv qarorining xulosa qismida yoki alohida ajrim chiqarish orqali hal qiluv qarorining dar- hol ijro etilishiga yo‘l qo‘yishga haqli bo‘ladi (FPKning 220-moddasi). Misol uchun, korxonaning tugatilishi mu- nosabati bilan natura shaklida xodimga otgul (ortiqcha ishlagan vaqt uchun olingan dam olish kuni) berish to‘g‘risidagi sud hal qiluv qarorining ijrosini bajarish mumkin bo‘lmay qoladi. Bu holda sud hal qiluv qarorin- ing darhol ijro etilishini ta‘minlashga haqlidir.

Mehnatga oid nizoli ishlar bo‘yicha chiqarilgan sud hal qiluv qarorlari ijro qilish predmetiga qarab ikki gu- ruhga ajratiladi:

- a) javobgardan ma'lum pul summasini undirish to‘g‘risidagi sud hal qiluv qarorlari;
- b) javobgar tomonidan ma'lum bir xatti-harakatlarni (masalan, mulkni natura shaklida berish, ishga tiklash to‘g‘risidagi va boshqalar) amalga oshirish to‘g‘risidagi sud hal qiluv qarorlari.

Qaytarma ijroning cheklanishi to‘g‘risidagi qoida mehnat nizolari komissiyasining qaroriga asosan, xodim- larga to‘langan pul summasini qayta undirish jarayonida ham qo‘llanilishi mumkin.

Mehnat qonunchiligidagi mehnat nizolari yuzasidan mehnat nizolari komissiyasi chiqargan qaror, shuning- dek sud chiqargan qaror asosida to‘langan summalarini, basharti qaror xodimning bergen yolg‘on ma'lumotlariga yoki taqdim etgan soxta hujjatlariga asosan qabul qilin- gan bo‘lib, pirovardida u nazorat tartibida bekor qilingan hollardagina, xodimdan qayta undirishga yo‘l qo‘yilishi o‘z ifodasini topgan (MKning 278-moddasi).

## Glossary

**Mehnat nizolari** - xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, jamoa shartnomasi hamda mehnatga oid boshqa shartnomalarni qo‘llash, shuningdek yangi mehnat shartlarini belgilash yeki mavjud shartlarini o‘zgartirish masalalari yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar.

**Mehnatga oid huquqbuzarliklar** - mehnat munosabatlari subyektining mehnat majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq aybli harakati, ya’ni ushbu munosabatdagi boshqa subyektning huquqlarini buzishdir.

**Yakka mehnat nizolari** - ish beruvchi va xodim o‘rtasida mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo‘llash yuzasidan kelib chiqqan kelingan lishmovchiliklar tushuniladi.

**Mehnat nizolari komissiyaları** - korxonalar, muassa-sa va tashkilotlarda vujudga keladigan mehnat nizolarini hal etuvchi boshlang‘ich organ.

### Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Mehnat nizolariga ta‘rif bering.
2. Mehnat nizolari tuzilishining asosiy element(unsur) larini ayting.
3. Mehnat nizolarining taraf(subyekt)lari kimlar bo‘liishi mumkin?
4. Mehnat nizolari mazmuniga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?
5. Mehnat nizolari prinsiplarini aytib bering.
6. Mehnat nizolarining taalluqliligi deganda nimani tushunasiz.
7. Mehnat nizolari qaysi organlar tomonidan ko‘rib hal etiladi?
8. Mehnat nizoli ishlarining sudlovligini aniqlash qanday

amalga oshiriladi?

9. Mehnat nizolari komissiyalari qanday organ, uning tashkil etilish tartibini aytib bering.

10. Mehnat nizolari komissiyasining majlisida kim raislik qiladi?

11. Mehnat nizolari komissiyasining qarori qanday qabul qilinadi?

12. Mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarni ko'rib hal qilish qaysi normativ hujjatlarga mu- vofiq amalga oshiriladi?

13. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tizimiga qaysi sudlar kiradi?

14. Sudlarda ko'rildigan yakka mehnat nizolari bo'yicha kimlar sudga da'vo kiritishi mumkin?

15. Qanday mehnat nizolari faqat sudga taalluqli hisoblanadi?

16. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha xodimlarning fuqarolik mu- omala layoqati necha yoshdan boshlanadi?

17. Mehnatga oid nizoli ishlarda xodimning vakili si- fatida kim ishtirok etishi mumkin?

18. Sudga yoki mehnat nizolari komissiyasiga muro- jaat etish uchun quyidagi ko'rsatilgan holatlarda qanday muddatlar belgilangan:

- Ishga tiklash nizolari bo'yicha - xodimga u bi- lan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab;

- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan mod- diy zararni to'lash haqidagi nizolar bo'yicha - zarar yet- kazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan bosh- lab;

- boshqa mehnat nizolari bo'yicha - xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab .

19. Qanday nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi?

20. Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi mehnat nizosi bo'yicha sudga beriladigan da'vo arizasining loy- ihasini

tayyorlang.

### **Mavzu yuzasidan kazuslar**

1. Samadov institutga tanlov asosida 5 yil muddatga ishga qabul qilingan. Muddat tugagunga qadar u bilan mehnat shartnomasi O‘zR MKning 100-moddasi ikkinchi qismi 1-bandи bilan (shtatlar qisqarishi) bekor qilindi. Sa- madov ma'muriyat juda bo‘lmaganda to‘liqsiz ish kuni sharti bilan uni ishga joylashtirish bilan bog‘liq majburi- yatini bajarmaganligini vaj qilib, uni ishda tiklashlarini, majburiy progul uchun haq to‘lashlarini hamda ma'naviy zararni undirib berishlarini so‘rab tumanlararo sudga da'vo arizasi bilan murojaat qildi.

*Vaziyatga amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda huquqiy baho bering.*

2. Chorievni ishga qabul qilishda uch oylik dastlab- ki sinov muddati o‘rnatildi. Oradan bir oy o‘tgach, ish beruvchi Chorievga dastlabki sinov muddatini yana bir oyga cho‘zganliklari haqida ma'lum qildi. Oradan ikki yarim oy o‘tgach, u bilan mehnat shartnomasi sinov natijasi qoniqarsiz bo‘lganligi asosida bekor qilindi. Cho- riev sinov muddati tugamasdan u bilan mehnat shartno- masi bekor qilinganligi sababli u o‘zining qanday xodim ekanligini ko‘rsata olmaganligini, ushbu asos bilan u bi- lan mehnat shartnomasi bekor qilinishini noqonuniy deb hisoblab, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudga da'vo arizasi bilan murojaat qildi. Sud kotibi sudga mur- ojaat qilish muddati o‘tkazib yuborilganligini vaj qilib, da'vo arizasini qabul qilmadi.

*Vaziyatga amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda huquqiy baho bering.*

## **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yxati**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlari**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag ‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-in-tizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni

2016- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Va-zirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza,

2017- yil 14-yanvar. - T.: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr. // www.president.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

5. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. - 596 bet.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018- y., 03/18/498/2051-son).

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi,

1996-y., 1-songa ilova; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son.

3. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bi- lan ta'minlash to'g'risida»gi qonuni. (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnoma- si, 1998-y., 5-6- son, 97-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.10.2018 y., 03/18/501/2056-son.

4. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-y., 48-son, 546-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 38-son, 441- modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018- y., 03/18/456/0512-son.

6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9- son, 2016-y., 49-son, 579-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»- gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 225-modda; 2013-y., 41- son, 543-modda. 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

8. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri) // Qonun hujjatlari ma'lumo- tlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son.

8. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 1-2-son, 1-mod- da, 2009-y., 52-son, 554-modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son.

9. O'zbekiston Respublikasining «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 37-38- son, 361-modda; 2010- y., 35-36-son, 300-modda.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risi- da»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 16-son, 197-modda; 2013-y., 18- son, 233-modda.

11. O‘zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbir- korlik to‘g‘risida»gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 17-son, 188-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida»gi Farmoni // ^OHyH ^y^^arnnapu MatnyMornnapu Munnuri 6a3acu, 13.07.2019 ri., 06/19/5765/3418-COH.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagи PQ-4231-son «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbir- korlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbir- lar to‘g‘risida»gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2019-y., 07/19/4231/2724-son.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1997-yil, 11-mart, 133-son qarori bilan tasdiqlangan.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash Marka- zlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2001-y., 10-son, 61-modda; 2012-y., 17-son, 191-modda.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi- ning «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yol- lagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tar- tibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida 2015-yil 31-iyuldagи 219-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 31- son, 411-modda.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2018- yil 12-sentabrdagi 725-son «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2018-y., 09/18/725/1874-son.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 18-yanvardagi 47-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasiga o‘zgartirish kiritish haqida»gi 47-sonli // Qonun hujjatlari ma’lu-motlari milliy bazasi, 19.01.2019-y., 09/19/47/2508-son.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi 743- son «Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»ru qarori // Gonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.09.2019-y., 09/19/743/3710- son/

20. «Mehnat daftarchalarini yuritish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomasi». O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirli-gi tomonidan 1998-yil 29-yanvarda 402-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

21. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining «O‘rindoshlik asosida boshqa tashkilotga ishga kirish uchun asosiy ish joyidan beriladigan ma'lumotnomasi hamda o‘rindoshlik asosidagi ish joyidan beriladigan ma'lumotnomasi shakllarini tasdiqlash haqida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 5-son, 61-modda.

### **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Gasanov M.YU., Sokolov E.A. Mehnat shartnoma-si (kontrakti). Iqtisodiyot va huqu dunyosi. 1999 y. 528 b.
2. Inoyatov A. O‘zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyoti, 2002. - 384 b.
3. Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. -T.: «Moli-yo», 2002. 279 b.
4. Usanova M.A., Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. -

T.: TDYUI, 2006 y.

5. Usmanova M., Tursunov YU. Mehnat shartnomasi. O ‘quv qo ‘llanma. -T.: TDYUI, 2007. 187 b.
6. Usmanova M.A., B.Israylov. Mehnat huquqi. O ‘quv-uslubiy majmua. -T.: TDYUI, 2011. 462 b.
7. Gasanov M.YU. Mehnat daftarchasi: yuritish va hisobini olib borish. -T.: «MTSFER-U Nashriyot uyi», 2013.-290 b.
8. Mehnat huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. T.: TDYUU nashriyoti, 2019.- 412-bet.

**B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov**

**MEHNAT HUQUQI**  
*(Darslik)*

Muharrir:  
Texnik muharrir:  
?????????

**N.Niyazova, O.Choriev**  
**F.Xoshimova**  
Kompyuterda sahifalovchi:

Litsenziya raqami: AI № 213, 26.03.2012

Bosishga 00.00.2020 da ruxsat etildi

Bichimi 84x108 <sup>1/32</sup>

Bosma tabog‘i 0,00. Shartli bosma tabog‘i 0,00.

Garnitura «Times New Roman». Ofset qog‘ozi

Adadi 000 nusxa. Buyurtma Ns ? /

Original maket «????????»

nashriyot-matbaa uyida tayyorlanib, chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani,

???? mavze, ???-uy.

Marketing bo‘limi: (+99894) ???????

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - 1996. - N»

9. 128-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2006. - N» 41. 405-modda; - 2010. - N» 20. 148-modda; - 2016. - N». 52. 597-modda; - 2017. - N» 24. 487-modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2018. - 5 yanvar. - N» 03/18/456/0512.

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuning 6-moddasiga asosan mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuning- dek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlari- ga muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish

to‘g‘risida»gi Qonuning 7-moddasida Vazirlar Mahka-

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga os- hirishi mumkin.

Shuningdek, Qonunning 8-moddasida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolathi davlat organining vakolatlari ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.